

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**DARVISHOV IBROHIM O`RMONOVICH**

**LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK**

**FANIDAN**

**MA`RUZALAR MATNI**

**70230100 – Lingvistika (o`zbek tili) ixtisosligi  
magistratura bosqichi uchun**

**NAMANGAN – 2021**

*Shaxsning ma'naviy yuksalishida tilning o'rnini beqiyos. Shuning uchun til tadqiqi va ta'limi sohasida olib borilayotgan ishlarda ham shaxsning ma'naviy kamoloti masalasi yuqori o'rinlarda turishi ayni haqiqat. Zero, davr globallashtirish Sharaitida tilshunoslikning ham o'z o'rganish ob'ektiga millat va shaxs ma'naviyati nuqtai nazaridan yondashuvni yanada dolzarblashtirmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligi tilshunoslik va til ta'limidagi dolzarb vazifalardan. Bunga erishish esa yo'shlarni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Shu ma'noda bugungi kunda tilshunoslik tadqiqotlarining davr talablari asosida yangi o'zlanlarga tushayotganligi e'tiborga molik. Buni tilshunoslikdagi yangi sohalarini o'qitilishi misolida ham ko'rish mumkin. Bugungi kunda Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida tomonidan 70230100 – Lingvistik (o'zbek tili) ixtisosligi magistratura bosqichi magistrleri bilan olib borilayotgan "Lingvokulturologiya" fani ham o'zbek tili lisoniy imkoniyatlarini til va ma'naviyat muhtarakligi asosida maxsus tadqiq qilishga juda katta yo'l ochadi.*

Mazkur ma'ruzalar matni o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2021-yil 27 - avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan hamda filologiya fakultetining 2021-yil 28-avgustdagi 1-sonli kengash yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

***Muallif : Darvishov Ibrohim O'Rmonovich PhD, dotsent***

# 1-MA`RUZA: ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIK VA UNING MOHIYATI (2 SOAT)

## REJA:

1. Tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishi va shakllanishi.
2. Antroposentrik paradigma doirasida shakllangan tilshunoslik yo`nalishlari.
3. Shaxs, lisoniy ong, tafakkur, mentallik, madaniyat tushunchalari.

Tayanch so`z va iboralar: *lingvistik paradigmalar, Antroposentrik paradigma, `sixolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, Shaxs, lisoniy ong, tafakkur, mentallik, madaniyat, sivilizatsiya.*

XXI asrda tilshunoslikning tilni shunchaki aloqa quroli va tafakkur natijasi sifatida emas, millatning madaniy ochqichi sifatida tadqiq etadigan sohalari yuzaga kelmoqda. Bu yo`nalishlarning paydo bo`lishiga V. Gumboldt, A.A. Potebnya va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tamal toshi qo`yilgan. Jumladan, V.Gumbolg`dt "Millatim tilining chegaralari mening dunyoqarashim chegaralarini belgilaydi", - deb aytgan edi. Til nafaqat borliqni aks ettirish funksiyasini bajaradi, shuningdek, inson yashayotgan borliq, muhitni uning ongiga tabdil qilib beradi. Aynan Shu tufayli ham keyingi ming yillikda G`arb falsafasi tildan foydalanish jarayoniga asoslanib rivojlanmoqda. Zamonamizning yetakchi mutafakkirlaridan A.M.Xaydegger tilni "mavjudlik uyi" deb atagan. Shu tufayli ham tilshunoslik har qanday ijtimoiy fanlar tizimida yetakchi metodologik mavqega egaki, uning yordamisiz madaniyatni o`rganishmumkin emas.

Mazkur ishda til nafaqat hozirgi zamon millatlarining ichki olami, shuningdek, qadimgi dunyo odamlarining dunyoqarashi, jamiyat hamda olam to`g`risidagi tushunchalarini ifodalovchi vosita sifatida talqin etiladi. Ajdodlarning ruhiy olami va tushunchalari bugungi kunga qadar maqol, matal, iboralar, metaforalar, madaniy belgilar orqali yetib kelgan.

Ma`lumki, inson bolaligidan boshlab o`z millatiga xos til va til orqali madaniyatni o`rganib boradi. Shundagina u inson hisoblanadi. Xalqning nozik madaniy belgilari uning tilida aks etadi. Til insonning o`ziga xos va o`ziga mos atributlaridan bo`lib, u orqali inson o`zini va olamni anglaydi. Masalan, bizga ma`lum bo`lgan *muxbir* so`zini Hindiston yoki Pokistonda "ayg`oqchi" ma`nosida tushunadilar.

Olam haqidagi axborotlarning katta qismi insonga til orqali yetib keladi. Kelib chiqadiki, inson tushunchalar olamida yashaydi. Tushuncha esa narsani real ko`rsatmasligi mumkin. Tushunchalar olami aqliy, ruhiy va ijtimoiy ehtiyoj natijasida yuzaga keladi. Bu olamga axborot albatta so`z orqali kiradi. Va insonning jamiyatdagi yutuqlari uning so`zdan qanday foydalana olishiga bog`liq bo`lib qoladi. Muvaffaqiyat sababi nafaqat nutq madaniyati, ayniqsa, tilning sirli olamiga kira olish qobiliyati bilan aloqadordir.

Faylasuflar hattoki biror tushunchani ifodalovchi so`zni ma`nosini to`liq egallagan holda moddiy olamni ham boshqarish mumkinligini dahvo qiladilar.

Siz o`qib turgan qo`llanmada lingvokulturologiya til va madaniyat aloqadorligini o`rganuvchi fan sifatida tushuntiriladi. Uning asosiy maqsadi – xalqning ichki olami va madaniyatini til orqali kashf etishdir.

Nima uchun aynan ibora, ko`chim, timsollar olamiga alohida ehtibor beriladi? Buning sababi ular millat tiynati (mentaliteti) va madaniyati haqidagi ma`lumotlarning qimmatli manbaidir. Ular miflar, afsonalar, urf-odatlarda o`zgarmay saqlangan bo`ladi. Rus tilshunosi B. A. Larin “Tongda yorug`lik shudring tomchilarida qanday aks etsa, iboralar xalq dunyoqarashi, ijtimoiy tuzum, o`z davri mafkurasini shunday aks ettiradi”, - degan edi. Til sirlari insoniyatning asosiy sirlaridan biri bo`lib qoladi. Chunki rivoyatlarda Yaratgan insonni “olim” deb atab, farishtalarning unga bosh egishini buyurar ekan, Odamning ismlar ilmini bilishini nazarda tutgan edi (“Qisasi Rabg`uziy”). Agar biz til sirlarini kashf eta olsak, ko`plab asrlarning va yo`qolgan bilimlarning xazinasini ochiladi. Bizning maqsadimiz – til birligi ifodalaydigan madaniy “bo`yoq”ni ko`ra olishga yordam berishdir. Bu belgi til ichki qurilishini tashqi shakliga bog`lay olish imkonini beradi.

Tilga antropotsentrik nuqtai nazardan qarash g`oyasi hozirgi kunda umum tomonidan ijobiy qabul qilinmoqda: ko`pgina til qurimlarida inson haqidagi tasavvur tabiiy va to`g`ri qilinmoqda.

Mazkur ilmiy yondashuv (soha) chet el tilshunosligida asrlar davomida tadqiq etilayotgan bo`lsa-da, tilni o`rganishda yangi vazifalar qo`ymoqda, tilni tavsiflashning yangi usullari, til birliklari, tushunchalari va qoidalariga nisbatan yangicha nuqtai nazarlarni talab qilmoqda.

T.Kun muallifligidagi “Ilmiy inqiloblar strukturasi” asari (1962, ruscha tarjimasini “Struktura nauchnyx revolyutsiy”, 1977) tadqiqotchilar uchun yondashuvga muammolar qo`yish va ularni hal qilish mutanosibli modeli sifatida qarash masalasini tashladi. T. Kun bu yo`nalishga alohida ilmiy soha sifatida qarashni taklif qiladi. U ma`lum bilimlar va tadqiqot obyekti (yahni tilni) tavsiflovchi usullarga ega bo`lishi kerak. Ma`lumki, “tilshunoslikda (va umuman ijtimoiy fanlarda) nuqtai nazarlar o`zaro almashinib ish ko`rmaydi, biroq ular bir-biri ustiga quriladi va bir masalaning ichida yonma-yon, qizig`i o`zaro dixotomiyada (zidlikda) mavjud bo`ladi”. An`anaviy ravishda fanda uch turli yondashuv bor: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va nihoyat, antropotsentrik. Qiyosiy-tarixiy usul tilshunoslikdagi ilk ilmiy yondashuv hisoblanadi, yoxud qiyosiy-tarixiy usul tilni tadqiq etishning ilk maxsus metodi bo`lgan. XIX asr tilshunoslik fani to`lig`icha bu metodga bo`ysuntirilgan edi. Sistem-struktur yondashuvda esa asosiy ehtibor predmet, narsa, nomga, yahni so`zga qaratilgan edi. Hatto uchinchi ming yillikda ham tilni mazkur nuqtai nazardan o`rganish mumkin, tadqiqotchilari mo`l. Darsliklar, ilmiy adabiyotlar, akademik grammatikalar, turli ma`lumotnomalar Shu nazariya samarasi o`laroq vujudga kelgan. Mazkur yo`nalishdagi fundamental tadqiqotlar nafaqat hozirgi kun, shuningdek, kelasida ham hattoki boshqacha yondashuvga ega bo`lgan tilshunos tadqiqotchilar uchun ham qimmatli manba bo`lib qoladi.

Antropotsentrik nazariya – tadqiqot obyektining subyektda o`rganilishidir, boshqacha qilib aytganda, til insonda, inson tilda tahlilga tortiladi. I.A. Boduen de

Kurtenening fikricha, “til faqat yakka shaxs xsning ongida, ruhida, qalbida bo`ladi, bu shaxs til jamoasini tashkil qiladi”.

Tilni antropotsentrik nuqtai nazardan o`rganishg`oyasi – zamonaviy tilshunoslikda asosiy yo`nalish hisoblanadi. Hozirgi kunda lisoniy tahlilning maqsadi tilning turli sistemalari namoyon bo`lishini o`rganishdan iborat emas. Til – murakkab hodisa. E.Benvenist ta`kidlaganidek, “Tilning o`zligi shu qadar o`ziga xoski, tabiatan uni bir nechta strukturalardan iborat deb baholash mumkin. Ularning har biri umumiy tilshunoslikning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini bajarishi mumkin”.

Madaniyatshunoslik- madaniyat rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o`rganadi. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy qadriyatlardir. Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insonning tabiat, jamiyat bilan birgalikdagi faoliyatini hamda kishilarning ma`naviy turmuShiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Uning tadqiqot manbai bo`lib:

- inson yaratgan sanoat sohasi;
- kishilarning muomala vositasi bo`lgan til;
- jamiyat boyligi va mezoni bo`lmish bilim;
- ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tashkilotlar;
- jamiyatda sodir bo`luvchi demografik va etnik jarayonlar xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik umumnazariy fan hisoblanib, unga xos bo`lgan xususiyat - insonning madaniy hayoti hodisasini tartibli tizimga solib yondashish hisoblanadi. Shuningdek, madaniyat gumanitar bilimlarni o`zida mujassam qilgan holda namoyon bo`lishi bilan birga bilishning o`ta murakkab obyekti hamdir.

Madaniyat - bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma`naviy boyliklar majmuigina bo`lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, yahni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig`indisi madaniyatda gavdalanadi. Madaniyatni o`rganishda obyektiv qonuniyatlar, hodisalardagi sababiy bog`liqlik haqidagi anoanaviy tasavvurlardan foydalanmaslik ham mumkin. Umumiy bir soha sifatida madaniyatga sistemali yondashuv bir-biriga ta`sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o`ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo`lib emas, balki ularni yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Sistemali yondashuv tadqiqotning juda ko`p uslublaridan foydalanishga imkon yaratadi. Yahni, ayrim bir uslublar bilan olingan natijalarni boshqalariga qarama-qarshi qo`ymasdan va mutlaqolashtirmasdan xulosa chiqarishga asos bo`ladi.

Madaniyat tarixida turli yo`nalishlar-fan, texnika, tahlim, maishiy turmuSh, ijtimoiy qarashlar, adabiyot va hokazolarni kompleks tarzda o`rganishadi: madaniyat 2 ga bo`linadi:

1. Moddiy madaniyat;
2. Ma`naviy madaniyat;

Madaniyat – bu jamiyat taraqqiyotining ma`lum bir tarixiy bosqichdagi darajasidir. Kishilar hayoti va faoliyatini tashkil etish shaklida ifodalangan, insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma`naviy qadriyatlar hamda insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy boyliklar faqat o`tmish kishilaridan qolgan boyliklar bo`lib

qolmay, balki o`zida inson aql-zakovati, hayoti to`g`risidagi fikr va o`ylarini aks ettiruvchi ko`zgu hamdir.

Aynan, sistemali yondashuv madaniyatga o`ziga xos shaklda munosabat bildirgan holda kishilar hayot faoliyati sohalari ham tushunish imkonini beradi. Bulardan madaniyat sohalari, madaniyat institutlari tashkil topib, ular aniq tuzilmaga va aniq vazifalarga ega bo`lgan holda ijtimoiy munosabatlar tamoyili, kommunikatsiya, madaniy namunalarni tashkil qilib madaniyat tizimini belgilaydi.

*Madaniyatshunoslik fanining quyidagi bo`limlari mavjud:*

1. Madaniyat falsafasi- madaniyatdagi murakkab va ko`pmaqsadli jarayonlarni tahlil qilishda yondashuvning eng umumiy tamoyillarini namoyon qilib, qiyosiy tahlil, tasniflashga asoslanadi. Madaniyatni falsafiy anglash, falsafiy asoslash bilan bog`liq materialistik, pozitivistik, obyektiv idealistik va boshqa ko`plab qarashlar mavjud. Ularning har birida insonning tabiat va ijtimoiy guruh (sotsium) olamida jismoniy, ma`naviy va ruhiy hayot faoliyatining Shakllanishi va rivojlanishini nazariy tushuntirish usullari va o`ziga xos tahliliy uslublari ishlab chiqilgan.

2. Madaniyatning tuzilish shakli (morfologiyasi)- insonga bog`liq bo`lmagan va jamiyatda mustaqil mavjud bo`lgan madaniyatning o`ziga xos shakli uning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Madaniyat rivoji jamiyatning ichki qonuniyatlariga o`zaro bog`liqdir, deb hisoblovchi madaniyat morfologiyasi taqqoslash, tahlil va boshqa uslublar asosida madaniyat rivojlanishining manbai va omillarini ochishga urinadi. Uning mavjudlik davri u yoki bu madaniyatning paydo bo`lishidan to inqirozigachadir.

3. Madaniyat sotsiologiyasi- biron bir jamiyatdagi mavjud madaniyatning aniq jarayonlarini o`rganishbilan Shug`ullanadi; bu har xil sotsiologik axborotlarni to`plash, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog`liq bo`lgan madaniyat jarayonini empirik (tajriba) tadqiq qilishda ma`lum madaniyat sharoitida kishilarning o`zaro munosabatlarida, sotsiomadaniyat toifalarida namoyon bo`ladi.

4. Madaniyat tarixi – har bir madaniyatni noyob va asl hodisa sifatida o`rganadi; shuningdek, turli madaniyatlarni o`zaro taqqoslaydi, ularning o`zaro munosabati va o`zaro ta`siri, zamon va makondagi ularning farqlarini madaniy taraqqiyotidagi o`ziga xos va umumiy tomonlarni tadqiq etadi.

5. Madaniyat ekologiyasi – zamonaviy inson hayot faoliyatining barcha sohalari: insonning individual hayotini, jamiyat hayoti, tabiat bilan o`zaro munosabatlarini qamrab oladi. Bu Madaniyatshunoslik tadqiqotidagi eng yangi faol rivojlanayotgan sohalardan biri.

Madaniyatshunoslik fanining asosiy muammosi inson hisoblanadi, zero madaniyat – bu inson yaratgan narsalardir. Madaniyatshunoslik insonning olam bilan faol munosabatini va bu munosabatlar uning hayot tarzida namoyon bo`lishini, shaxsning ijtimoiy va madaniy rolini, madaniyatlar tipologiyasini o`rganadi.

Madaniyatshunoslik fani madaniyatni ilmiy izohlab, uning umumtarixiy mazmuni va ma`nosini belgilaydi, ijtimoiy-tarixiy bilimlar tizimidagi o`rni va mavqeini asoslaydi.

«Madaniyat» atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarda rang-barang ma`nolarda ifodalangan. «Madaniyat» va «Kultur» atamalari mutaxassislar fikriga ko`ra lotincha «ishlov berish», «parvarish qilish» ma`nosini anglatgan. Keyinchalik

«mahrifatli bo`lish», «tarbiyali», «bilimli bo`lish» mazmunida ishlatilgan. O`zbek tilida keng ishlatiladigan «Madaniyat» atamasi arabcha «madaniy» – «shaharlik» degan ma`noni bildiradi. Agar amerikalik Madaniyatshunos olimlar A. Kreber va K. Klaxonlarning 1952 yildagi ma`lumotlariga ko`ra madaniyat hodisasiga berilgan tahrif 164 ta bo`lsa, so`nggi adabiyotlarda bu raqam 400 dan ortiqni tashkil etadi.

Madaniyat hodisasi tavsifida juda ko`p izohlar mavjud «insoniyatni yashash usuli; ijtimoiy insonning to`laqonli faoliyati», «inson tomonidan yaratilgan muhit», «yaxlit sotsial organizm», insoniyat yaratgan moddiy va ma`naviy qadriyatlar majmui; sun`iy- ikkinchi tabiat; inson ijodiy faoliyati mahsuli; umuman jamiyat; jamiyatning ma`naviy holati; jamiyat sifati; Shartli belgilar tizimi yig`indisi; meoyor va andozalar va hokazo.

G`arbiy Yevropada madaniyat tushunchasi XVIII asrning oxiridan ehtiboran hozirgi mazmunini kasb etgan bo`lsa-da, faqat XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar kategorial tizimidan mustahkam o`rin oldi. Kishilik jamiyatini beqiyos ko`lamga ega bo`lgan va doimiy ravishda o`zgarib boruvchi ma`lumotlarni muayyan tartibga solishga yordam beruvchi, umumlashtiruvchi tushunchalarga bo`lgan ehtiyoji madaniyat tushunchasini keng tarqalishiga sabab bo`ldi. Qadimgi Rimda «Madaniyat»- tushunchasi «hayotni ma`naviy jihatdan yanada yaxshilashga va tozalashga qaratilgan g`amxo`rlik» degan ma`noda ham foydalanilgan. Ma`lumotlarga ko`ra, mashhur Rim faylasufi-notiq Sitseron ham «ruhiyat madaniyati» atamasini ishlatgan. Yevropa xalqlarida XVIII asrning oxirlarigacha «Madaniyat» atamasi aqliy-axloqiy madaniyat tushunchasi bilan yonma-yon ishlatilgan. Ko`rinib turibdiki, «Madaniyat» tushunchasi xilma-xil talqiniga qaramay qadimdan hozirgi kungacha o`z mohiyatini o`zgartirmagan.

Hozirgi davrdagi madaniyatning ilmiy tushunchasi insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilishi davom etayotgan ma`naviyat, ruhiyatning o`ziga xosligini anglashi natijasida vujudga keldi. Insoniyat «Tabiiy» turmuSh tarzi asosida yashagan davrda, yahni terib isteomol qilish, ov qilish, baliq tutish, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug`ullangan vaqtlarida madaniyat to`g`risidagi fikrning tug`ilishi munozaralidir. Oddiy, bir maromda rivojlanuvchi jamiyatda inson o`z madaniyati bilan «qo`shilib» yashagan. Urf-odatlar, e`tiqodlar, hayotning moddiy va ijtimoiy shakllari undan farq qilmagan. Madaniyatning avtonomiyasi namoyon bo`lishi uchun muayyan darajada texnikaning rivojlanishi va mehnatning ijtimoiylashuviga erishish talab etiladi. Shu asosda madaniyat asta-sekinlik bilan insoniyatdan tobora ko`proq mustaqil bo`lib boradi. Insonning esa madaniyatiga tobeoligi ortadi. Hozirgi postindustrial jamiyatlardagi ekologik, ma`naviy va axloqiy sohalaridagi mavjud muammolar fikrimizning dalilidir. Shuning uchun madaniyatni fenomen sifatida idrok etish, uning rivojlanish qonunlarini tushunish va shu tushunchalar asosida madaniyatni boshqarishga o`rganishzaruriyat bo`lib qoladi.

Insoniyat jamiyati doimiy rivojda bo`lib, u o`zgarib takomillashib boradi. Turli tarixiy davrlarda va xilma-xil madaniyatlarda odamlar dunyoni o`zgacha anglaydilar va qabul qiladilar, o`zlariga xos ravishda tasavvurlari va bilimlarini hosil qiladilar. Biz hozirgi davrdagi mavjud muammolarga o`xshash bo`lgan to`siqlarni o`tmishda odamlar qanday qilib yengib o`tganlarini o`rgana borib o`tmishga savollar bilan

murojaat qilamiz, o`tmish bizga javob qaytaradi va shu bilan o`tmish, hozirgi zamon va kelajak o`rtasida doimiy muloqot bo`lib turadi.

Madaniyat – jamiyatning mahsuli, ijtimoiy hayotning eng muhim jabhalaridan biridir. Madaniyatsiz jamiyat bo`lmaganidek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida mavjud bo`lmaydi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida madaniyatning o`ziga xos xususiyati shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o`ziga singdirib oladi, saqlaydi va doimiy boyitib boradi. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisligi, qadriyatlarini to`plashi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib berish bilan bog`liq bo`lgan sohalarni ifodalaydi.

Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida madaniyatni jamiyatda tutgan o`rni, jamiyatning mazmuniga va tahlil qilinayotgan ijtimoiy borliqning xususiyatlarga bog`liqdir. Ijtimoiy jarayon, kishilarning xatti-harakati, yahni sotsial faoliyati madaniy ideallarni, qadriyatlarni, normalarni qaror toptirilishi yoki barham berilishida vosita vazifasini, shuningdek kishilarning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining shaxslararo va guruhlararo aloqalari shakli vazifasini ham bajaradi.

Madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy va funksional jabhalarida ifodalanadi. Shu jihatdan jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyatda vujudga kelgan madaniyat qanchalik murakkablashib boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta`siri mukammallashib va nisbiy mustaqilligi kuchayib boradi. Masalan, Antik jamiyat allaqachon o`tmish, tarixga aylangan bo`lsa-da, uning madaniyati hozirgi kunda o`z ahamiyatini saqlab kelmoqda yoki biz bu davr madaniyatini o`sha vaqtdagiga nisbatan ko`proq bilamiz. Shuning uchun madaniyatga jamiyatning mahsuli, faoliyat uslubi sifatida qaralsa-da, har bir jamiyatni u yoki bu konkret madaniyatning Shakllanish manbai tarzida ham qarash mumkin.

Madaniyat va inson.

Endi biz madaniyatga umumiy tavsif beramiz. Qayd qilib o`tganimizdek, madaniyatga faoliyatga ko`ra, me`yoriylik jihatiga ko`ra, dialogik jihatdan va qadriyat sifatida yondashuv maqsadga muvofiqroq. Ularga kengroq to`xtalib o`tamiz. Madaniyat inson faoliyatidan, ijtimoiy guruhdan tashqarida mavjud bo`la olmaydi, yoki aksincha inson faoliyatining o`zi yangi turmuSh kechirishning yangi “g`ayritabiiy” usulini, hayotning to`rtinchi shakli, yahni madaniyatni paydo qildi (M.S.Kagan). Eslaylik, hayotning uchta shakli – bu “tabiat – jamiyat - inson”. Bundan kelib chiqadiki, madaniyat inson faoliyati dunyosi, yoki artefaktlar (lot. Art – sun`iy, fakt – yaratilgan) dunyosidir. Bu insonning tabiatga jamiyat qonunlariga binoan nazar tashlashidir. Bu sun`iy vositalarni ba`zan “ikkinchi tabiat” (A.Ya.Gurevich va boshq.) deb ham atashadi. XX asrning atoqli faylasuflaridan biri M.Xaydegger bu borada: “inson faoliyati madaniyat sifatida tushuniladi va amalga oShiriladi”. Endi madaniyat – oliy qadriyatlarni inson qadr-qimmatini madaniylashtirish orqali amalga oShirishdir. Madaniyatning o`zligidan Shu kelib chiqadiki, bu kabi madaniylashtirish natijasi o`laroq inson o`zini madaniylashtiradi, u madaniy siyosatga aylanadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Хайдеггер М. Время картины мира // Новая технократическая волна на Западе. - М., 1986. - С. 93.



Biroq madaniyat artefaktlarning yoki inson qo'li bilan yasalgan ashyolarning Shunchaki yig'indisi emas, inson o'z g'oyalari singdirgan mahsulotlar va faoliyat dunyosidir. Yangi g'oyalarni yaratishning o'zi ma'naviy madaniy faoliyatning (san'at, din, ilm) g'oyasiga aylanadi.

G'oyalar olami – inson g'oyalari mahsullari olamidir, inson tafakkuri sarhadlaridir. U chegarasiz va o'lchovsizdir. Demak, inson faoliyati natijasi bo'lmish madaniyat insonning o'zini ham faoliyat subyekti sifatida qamrab oladi. Shu bilan birga, faoliyat usullari, faoliyat natijasida moddiylashgan predmetlar turfaligi, madaniyatning predmetlar yig'indisida mavjud bo'lgan narsalarni mavhumlashtiruvchi ikkilamchi faoliyat turlari ham Shu doiraga kiradi. Madaniyat inson faoliyati mahsuli ekan, tuzilishi shu faoliyat shakli bilan bog'liq bo'ladi. Har qanday madaniyat qurshab turgan olamda yashash shakli, o'zgarish jarayoni va natijasi hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, turli xalqlarning madaniyati o'zaro olamni mushohada qilish orqali tushunish yoki moslashish shakli bilan emas, birinchi navbatda olamni moddiy-ma'naviy anglash tipi bilan, shuningdek, olamga faoliyat va faol munosabati bilan farqlanib turadi. Subyekt faoliyati aynan madaniyatning o'zidan olingan qonun-qoidalar, tartiblarga asoslangan bo'ladi. Madaniyatning o'zi esa faqatgina o'zlashtirish shakli emas, o'zlashtirish va talqin qilish uchun obyekt tanlashi hamdir. Har qanday o'zlashtirish faoliyati ikki qismga: tashqi (ekstensiv) va ichki (intensiv) tomonlarga bo'linadi. Vaqt o'tishi bilan bu doir kengayadi: inson ishlab chiqarish jarayoniga yangidan yangi moddiy resurslarni jalb qiladi. Bizning fikrimizcha, o'zlashtirish sohasidagi o'zgarishlar umumiy ommaviy, baynalmilal xarakterga ega. Uslublar esa maxsus milliy o'ziga xosliklarga ega bo'lib, biror xalqning faoliyat va o'zini tutishdagi dominant belgilarni aks ettiradi. Agar madaniyat o'zlashtirish obyekti bilan farqlansa, biz Shu jihat bilan qabul qilamiz. O'zlashtirish qaysi usul bilan amalga oshirilgan bo'lsa, milliy madaniyat uchun ham xuddi shu tamoyil asosida shakllangan bo'ladi, uning asosida umuminsoniy qadriyatlar yotadi. Bu qadriyatlar insonning ruhiy va biologik tabiati, inson sotsiumlarining umumiylik jihatlarini aks ettiradi. Biroq ularni tanlash, o'zlashtirish va mushohada usullari o'ziga xos milliylik belgisiga ega bo'ladi.

Insoniyat bitta biologik turga mansub bo'lsa-da, bitta ijtimoiy jamoa hisoblanmaydi. Turli jamoalarda insonlar turli tabiiy va tarixiy sharoitlarda yashaydilar. Shu narsa hayot faoliyatining turli ko'rinishlari paydo qiladi, o'zaro munosabatda bir-birlaridan Shu narsani o'zlashtiradilar. Masalan, rus madaniyati qanday shakllangan? Rus ikona yozuvlari – Vizantiyadan, rus baleti – Frantsiyadan, rus romanchiligi – Angliyadan (Ch.Dikkens). Pushkin ruschadan xatoliklar bilan yozgan, biroq frantsuzchada to'g'ri yozgan. Axir u buyuk rus yozuvchisi-ku! Rus teatri, rus musiqasi qaerdan keldi? G'arbdan. Biroq, aslida rus madaniyatida ikki madaniyat jamlangan: birinchisi – xalqqa tegishli, u tabiiy tilga ega, barcha begona narsalarni siqib chiqargan va deyarli o'zgarishsiz qolgan; ikkinchisi – Yevropa ilm-fani, san'ati, falsafasi mevasi bo'lib, dvoryanlik va dunyoviylik shakligi ega bo'lgan. Ular birgalikda dunyoning eng boy madaniyatlaridan birini vujudga keltirgan.

Shu tariqa to'la ma'nodagi madaniyat yo'q, desak bo'laveradi. Biroq u muayyan millat va jamiyat amaliy hayotining barcha jabhalariga xos maxsus belgilarni o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, rus madaniyati necha yuz yillardan

buyon o`zgarmay kelmoqda. Ruslarning dun sahnasidagi ta`sir doirasi, siyosiy mavqei o`zgarganiga qaramay madaniyat o`sha-o`sha. Jumladan, inson hayotini qadrlamaslik va buyuk shaxslarga hurmatsizlik – Sharqiy slavyan madaniyatning asosiy belgilaridan biridir. Gertsen aytganidek, Yevropada Spinozani o`ldirish yoki Paskalni askarlikka jo`natish hech kimning xayoliga kelmaydigan ish. Rossiyada: Shevchenkodek adabiyotshunos o`n yillab umrini kazarmada o`tkazgan bo`lsa, CHaadaev kabi olimlar ahmoqqa chiqarilgan.

Madaniyat va tamaddun.

Milliy madaniyat boshqa millatlar madaniyati bilan munosabatga kirishar ekan, o`z madaniyatlarida ehtibor berilmagan narsalarga diqqat qaratadilar. M.M.Baxtin bu borada shunday yozadi: “Biz begona madaniyat oldiga yangi muammolar qo`yamizki, bu muammolarga uning o`zi diqqat qaratmagan bo`ladi. Biz undan o`z muammolarimizga javob izlaymiz. Va begona madaniyat o`zining ma`naviy teranliklari va yangi qirralarini ochib beradi”<sup>2</sup>. Bu madaniyatlararo munosabatlarning qonuniyatlaridan, ajralmas uzvlaridan biridir. E.Benvenist tahkidlaganidek, G`arb olamidagi zamonaviy tafakkur va ma`naviy madaniyatning tarixi insonlar bir necha o`nlab so`zlarni qanday kashf etganlari va qay tarzda qo`llayotganlari bilan chambarchas bog`liq. Shunday so`zlar sirasiga, fikrimizcha, “madaniyat” va “sivilizatsiya” so`zlari ham kiradi. Sivilizatsiya termini (lot. Civilis – fuqarolarga oid, jamiyatga oid) XVII asrda vujudga keldi. U “yovvoyilik” tushunchasiga qarama-qarshi ma`noda ishlatilgan, amalda “madaniyat”ga sinonim bo`lgan. XIX asr oxiridan boshlab nemis ilmiy adabiyotlarida bu ikki tushunchani farqlay boshlaganlar. Sivilizatsiya deganda endi ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida jamiyat tomonidan qo`lga kiritilgan ijtimoiy va moddiy farovonliklar yig`indisini tushuna boshladilar. Madaniyat esa sivilizatsiyaning ma`naviy mundarijasi hisoblangan. Bu ikki tushunchalar munosabati masalasi bilan O. Shpengler, A.Toynbi, N.A.Berdyayev, P.Sorokin kabi olimlar Shug`ullanganlar. Nemis faylasufi O.Shpengler o`zining madaniyat borasidagi konseptsiyasini 1918 yilda nashr etilgan “Ovrupo inqirozi” («Zakat Yevropq», rus tiliga 1993 yilda tarjima qilingan) kitobida shunday bayon etadi: “Har bir madaniyatning o`z sivilizatsiyasi bo`ladi, u esa, aslida, madaniyatning tugashi hamdir...Madaniyat va sivilizatsiya – ma`naviy olamning jonli tanasi va mumiyolangan tanasidir”. Madaniyat turfalikni, har-xillik, tengsizlik, Shaxsiy individuallikni barpo etsa, sivilizatsiya tenglikka, bir xillikka va standartga intiladi. Madaniyat oliy tabaqaga mansub, elitar xususiyatga ega bo`lsa, sivilizatsiya demokratik, yahni xalqonadir. Madaniyat insonlarning amaliy ehtiyojlari asosida barpo bo`ladi yoki ma`naviy ideallarga yo`naltirilgan bo`ladi, sivilizatsiya esa maydalashgan bo`ladi. Madaniyat milliylik, sivilizatsiya baynalmilallik belgisi bilan farqlanadi; madaniyat ilohiyot, diniy aqidalarga bog`liq, sivilizatsiya birmuncha dahriyona. O.Shpengler Yevropa sivilizatsiyasini bu qitha evolyutsiyasining oxirgi bosqichi sifatida baholaydi. Yahni sivilizatsiya har bir ijtimoiy-madaniy dunyo taraqqiyotining oxirgi bosqichi, zavolidir. Ingliz-amerika an`anasida sivilizatsiya boshqacha tushuniladi. XX asrning yetakchi tarixchilaridan biri A.Toynbi jamiyatning, boshqacha aytganda, alohida

---

<sup>2</sup> Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. - М., 1979. - С. 335.

ijtimoiy-madaniy olamning turli tiplarini ajratib ko`rsatadi. Zamonaviy amerikalik tadqiqotchi S.Xantington sivilizatsiyani oliy darajadagi madaniy umumiylik, insonlar madaniy belgilarining eng yuqori darajasi sifatida taʼriflaydi. U 8 ta asosiy sivilizatsiya tiplarini ajratadi: G`arb, konfutsiychilik, yapon, islom, induistik, pravoslav-slavyan, lotin amerikanacha, afrikanacha.

Rus tilida sivilizatsiya so`zi, ingliz va frantsuz tillaridan farqli o`laroq, kechroq - 1767 va 1777 yillarda paydo bo`ldi. Ammo asosiysi uning paydo bo`lish vaqti emas, balki qanday tushunchani bildirganligidir. G.Shpet ham O.Shpengler kabi sivilizatsiyani madaniyatning tug`ilishi sifatida baholaydi. Sivilizatsiyaning tugashi va madaniyatning zavolga yuz tutishi bor hodisa – tasdiqlaydi u. N.A.Berdyaevda ham Shu kabi fikr uchraydi: madaniyat jonli narsa; sivilizatsiya esa usul va vositalarga ega. Boshqa tadqiqotchilar madaniyat va sivilizatsiyani boshqa nuqtai nazarlarga ko`ra farqlaydilar. Masalan, A.Beliy “Madaniyat inqirozi” (“Krizis kulturq” - M., 1910) nomli ishida shunday yozadi: “Zamonaviy madaniyatning inqirozi sivilizatsiya va madaniyatning aralashib ketishidir; sivilizatsiya tabiatdan berilgan inhomdir; unda xatoga yo`l qo`yilmagan, yuz berga va qotib qolgan narsalar sivilizatsiyada ehtiyojli mahsulotga aylanadi”. Madaniyat – “Shaxs va irqdagi tegishli hayotiy kuchni rivojlantirish va saqlash faoliyati bo`lib, borliqni ijodiy taraqqiy ettirish yo`li bilan amalga o`shiriladi; madaniyatning boshlanishi individuallikning o`shishiga bog`liq; uning davomi – daholarning miqdori bilan bog`liq”<sup>3</sup>. M.K.Mamardashvilining fikricha, madaniyatni o`z ma`naviy-ruhiy intilishlari natijasida egallash mumkin, sivilizatsiya esa foydalanish va olish mumkin bo`lgan narsadir. Madaniyat yangilik yaratadi, sivilizatsiya ma`lum bo`lgan narsa miqdorini ko`paytiradi. D.S.Lixachev madaniyat tarkibida idealga olib boruvchi abadiy, o`zgarmas qadriyatlar saqlanadi; sivilizatsiyada esa ijobiy jihatlar bilan birga berk ko`chalar, qayrilishlar, aldamchi yo`nalishlar ham ko`p bo`ladi, u qulay turmuSh tarziga yo`naltirilgan bo`ladi. Madaniyat – bu yashab qolish va zotni saqlash nuqtai nazaridan to`liq Shakllanmagan, ortiqcha narsa bo`lsa, sivilizatsiya pragmatik xarakterga ega. Yuqoridagilardan xulosa qilsak, madaniyat ikki yo`nalishda rivojlanganini kuzatish mumkin: 1) inson moddiy ehtiyojlarini qondirish – bu yo`nalish sivilizatsiyaga olib boradi; 2) ma`naviy ehtiyojlarni qondirish – bunda madaniyat ramziylik xususiyatiga ega bo`ladi. Shu o`rinda ikkinchi yo`nalish birinchisining to`ldiruvchisi yoki uning ustiga qurilgan deb bo`lmaydi. U alohida mustaqil tarmoqdir. Madaniyat tarixi mutaxassislariga yaxshi ma`lumki, qabilaning oddiygina xo`jalik hayoti bilan bog`liq mayda narsalar yo`qolib ketish arafasida turgan bo`lsa ham, ma`naviy madaniyatning murakkab, ko`ptarmoqli tizimiga (miflar, marosimlar, odatlar, e`tiqod va hkz.) ega bo`ladi. Bu qabilaning asosiy diqqati esa, bizga qanchalik erish tuyulmasin, hayot uchun kurashga emas, ma`naviy boylikni saqlab qolishga qaratilgan bo`ladi. Bu hodisa ko`pgina jamiyatlarda kuzatiladi, shuning uchun ham buni oddiy tasodif yoki anglashilmovchilik deb bo`lmaydi. Binobarin, ma`naviy madaniyatni moddiy madaniyatdan keyinga qo`yish noto`g`ri bo`ladi. (“turmuSh tarzi fikrlash darajasini hal qiladi” degan g`oyaga qiyoslang). Shunday qilib, madaniyat insondagi ma`naviy

---

<sup>3</sup> Белый А. На перевале. Кризис культуры. -- М., 1910. -- С. 72.

ibtidoning rivojlanishi usullari va vositalarini yaratadi, tamaddun esa uni hayotiy vositalar bilan tahminlaydi, u amaliy ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan bo'ladi. Madaniyat inson qalbini farovonlashtiradi va oliy maqomga yetaklaydi, tamaddun esa inson tani uchun qulaylikni tahminlaydi. Tamaddun va madaniyat antinomiya jiddiy nazariy asosga ega, A.A.Brudniy tahriri bilan aytganda, u insoniyatning ikki qo'lidir, shuning uchun chap qo'l nima qilayotganini o'ng qo'l bilmasligi – o'z-o'zini aldashdan boshqa narsa emas. O'ng qo'l chap qo'l nima qilayotganini bilishni istamaydi. O'zini aldash – insoniyat uchun tipik holdir. Shu qadar tipikki, insoniyat yashashi uchun zarur bo'lgan bir qancha shart-Sharoitlar kerakdek, ular turli shakllarda bo'lishi zarurdek tuyuladi. Aslida esa barchasi madaniyatning tarkibiy qismlari bo'lib chiqadi. Madaniyat va tamaddunni farqlash masalasi quyidagi muammolarni ko'ndalang qo'yadi. Inson va insoniyat qanday munosabatga kirishadi? - madaniyat va jinsiy tanlanish orqali. Inson va jamiyat qanday munosabatga kirishadi? – tamaddun orqali. Lingvokulturologiya uchun tamaddundan ko'ra madaniyat masalasi dolzarbroq. Chunki tamaddun moddiy, madaniyat esa nomoddiydir. Lingvokulturologiya ko'proq afsona, rivoyat, marosim, rasm-rusm, odatlar, madaniy ramzlarni va boshqalarni o'rganadi. Bu tushunchalar madaniyatga tegishli bo'lib, ular turmuShi, rasm-rusumlar ko'rinishlarida hamda tilda mustahkamlanadi. Ularni tadqiq etish mazkur ish uchun material bo'lib xizmat qildi. Yuqoridagilarga qisqacha xulosa yasaymiz. O.Tofflarning qayd etishicha, madaniyat har kuni qaytadan yaratish uchun toSh qotirilgan narsa emas. Madaniyat juda ko'zga ko'rinmasa-da, Shaklini o'zgartirib turadigan, taraqqiy etadigan hodisa. U ikki ko'rinishda – moddiy va ma'naviy madaniyat ko'rinishida taraqqiy etar ekan, ikkita narsani hosil qilgan: madaniyatning o'zini va tamaddunni. XX asr boshlaridan madaniyatga qadriyat va g'oyalarning mxsus tizimi sifatida qarash boshlandi. Madaniyat, bunday tushunilganda – inson tomonidan yaratilgan umumiy qadriyatlar yig'indisi, insoniy munosabatlarning predmet, harakat, ma'no yuklatilgan so'zlarda aks etishidir. Qadriyatlar yig'indisi ekanligi – madaniyatning muhim tomonidir. Qadriyatlar, me'yorlar, namunalar va ideallar aksiologiya (qadriyatlar haqidagi fan)ning muhim qismlaridir. Qadriyatlar tizimi ma'naviy madaniyatning asosiy ustuni hisoblanadi. Qadriyat jihatidan birmuncha “bo'yoqqa ega” tushunchalari: e'tiqod, jannat, do'zax, gunoh, vijdon, qonun, tartib, baxt, vatan va boshqalar buni isbotlab turibdi. Biroq bunday bo'yoqqa olamning har qanday qismi ham ega bo'lishi mumkin, masalan, sahro, tog'lar – xristiancha fikrlashda shunday xususiyatga ega. “Kulturologik determinizm” tushunchasi ham mavjud bo'lib, unga ko'ra mamlakat madaniyat, millat madaniyati (agar davlat ko'p millatli bo'lsa) va din madaniyatning muhim qismlari sifatida alal-oqibat davlatning iqtisodiy o'sishiga olib keladi. N.A.Berdyayevning fikricha, rus kishisining qalbida xristianlik va dunyoning mahjusiy-mifologik manzarasi jamlangan: “Rus kishisi tipida ikki element to'qnashadi: birlamchi – tabiiy mahjusiy, ikkilamchi – Vizantiyadan o'zlashtirilgan pravoslavlik, boshqa olamga intiladigan asketizm”<sup>4</sup>. Shu tarzda millat mentaliteti umuman dinga asoslanadi, biroq tarix, iqlim, umumiy makon, tilning o'ziga xos xususiyatlari ham katta ahamiyatga ega. Mashhur rus

---

<sup>4</sup> Бердяев Н.А. Философия неравенства // Русское зарубежье. - М., 1991. - С. 8.

Madaniyatshunosi V.N. Sagatovskiy rus xarakteridagi quyidagi qirralarga ehtibor qaratadi: kutilmagan qarorga kelish (asosiy), ma`naviyat (dinga – oliy maqsadni izlashga intilish), ta`sirchanlik, kuch to`plash (u odatda zaiflik, kuzatuvchanlik, nafas rostdash istagi bilan almashib turadi), maksimalizm, yengil xarakterlilik (oxir oqibatda buzg`unchilikka olib keladi). Rus xarakteridagi o`zaro ziddiyatli xususiyatlar barcha jabhalarda kuzatiladi. A.K. Tolstov rus qalbini quyidagicha tahriflaydi: Sevsa es-huShini yo`qotgudek, tahdid qilsa hazil emas, so`rsa chin ko`ngildan, ziyofat bersa tog`ni beradi. Agar tabiat faqat material jihatdanigina o`lchansa yoki turli moddiy holatlarda deb qabul qilinsa, jamiyat ham bir o`lchamlidir – iqtisodiy-huquqiy munosabatlar tizimidir. Madaniyatga esa bunday yondashib bo`lmaydi: u moddiy va ma`naviy, tashqi va ichki, Shaxs madaniyati va milliy madaniyat kabi turlarga bo`linadi. Yana bir o`lcham tarmoqlarga bo`lishdir: huquqiy madaniyat, badiiy madaniyat, axloqiy madaniyat, muomala madaniyati kabilar. Madaniyat jamiyat va millatning zamon va makon tizimlarida ro`yobga chiqadi va farqlanadi. Qadimgi yunon madaniyati, Qadimgi Misr madaniyati kabi. Har qanday milliy madaniyat ham ko`p qptlamlidir – dehqonchilik madaniyati, savdo madaniyati, xizmat ko`rsatish madaniyati, o`qituvchilik madaniyati va boshqalar. Shu tarzda madaniyat – murakkab, ko`pqirrali hodisadir. U aloqa aralashuv, faoliyat, qadriyat va ramziylik tabiatiga ega. U ijtimoiy ishlab chiqarishda, ijtimoiy taqsimotda va moddiy qadriyatlardan foydalanishda insonning o`rnini belgilab beradi. U yaxlit hodisa – o`ziga xos shaklga, umumiy g`oya va uslubga, shu kabi o`lim bilan kurashish variantlariga, ruhning moddiyat bilan kurashi uslublariga ega. Mazkur qo`llanmada qadimgi slavyan madaniyati materiallaridan foydalanilgan bo`lib, mifologik madaniyatdir, biroq u izziz yo`qolib ketmagan. Tanib bo`lmaydigan darajada shaklini o`zgartiradi, til metaforalari, iboralar, maqollar, matallar, xal qo`shiqlarida yashaydi. Shu sababli slavyan madaniyatining mifologik arxetipi haqida so`z yuritsak maqsadga muvofiq.

*Nazorat uchun savollar:*

1. Madaniyat nima? Uni lingvistik tomondan izohlang.
2. Madaniyat va jamiyatning bog`liqligini tavsiflang.
3. Inson va madaniyat aloqadorligini tushuntiring.
4. Madaniyatni o`rganishda qanday yondashuvlar muhim o`rin tutadi?
5. Tamaddun va madaniyatning farqini tushuntiring.
6. Inson faoliyati va madaniyat aloqadorligini tushuntiring.

## 2-MA`RUZA: LINGVOKULTUROLOGIYANING TADQIQOT OBYEKTI, `REDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI (2 SOAT)

### REJA:

1. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o`rganadigan fan sifatida.
2. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi, tadqiqot obyekti, asosiy vazifalari va kom`onentlari.
3. Til va madaniyat tushunchalari.

Tayanch so`zlar: *lingvokulturologiya, madaniyat, til, kognitiv lingvistika, antropotsentrik paradigma, enantiosemiya, determinizm, nisbiylik nazariyasi, muqobilsiz leksika, lakuna, mifologiyalashtirilgan til birliklari, paremiologik fond, frazeologik fond, o`xshatish, stereotip, ramzlar, nutq etiketi, konsept.*

Tilshunoslik ilmi XXI asrda yanada jadal surhatlar bilan rivojlanib, fan oldiga yangi muammolarni hal qilish vazifasini qo`ymoqda. Ana shunday muammolardan biri til tizimni antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etishdir. Bugungi kunda antropotsentrik yo`nalishning yuzaga kelishi tilshunoslikda tub burilish sifatida baholanib, bu borada ko`plab tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. Dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, etnolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika kabi yo`nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyekti mar-kazini tashkil etadi. Mazkur sohalarining yuzaga kelishi lisoniy faoliyatni uning sohibi bo`lgan inson bilan uzviylikda tadqiq etish harakatlari bilan bog`liqdir.

Antropotsentrik paradigma "tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o`rganuvchi, boshqa sistemalar - jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabilar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo`naltirilgan qarashlar, g`oyalar va tahlilotlar majmuidir. Prof. N.Mahmudov tahkidlaganidek, "antropotsentrizm tilshunoslar tomonidan faqat til tadqiqigagina nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antropotsentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir. ... antropotsentrik paradigmadagi inson asosiy o`ringa chiqariladi, til esa inson Shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi.

Tilshunoslikda ehtirol etilganidek, antropotsentrik paradigma qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigmalardan keyingm uchinchi paradigma hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmatika va lingvokulturologiya antropotsentrik paradigmaga asoslangan eng muhim sohalar hisoblanadi.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo`nalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya tilshunoslik, Madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalar hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o`zaro aloqasi va ta`sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o`rganuvchi sohadir. Tadqiqotchilarning tahkidlashicha, mazkur soha XX asrning so`nggi choragida shakllandi, "lingvokulturologiya" termini esa V.N.Teliya

rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog`liq ravishda paydo bo`ldi. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumbolhdga borib taqalishini tahkidlaydilar. Tilshunoslikda bu sohaning Shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xolg`ts, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyay, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rolg` o`ynaganligi tahkidlanadi.

Lingvokulturologiya sohasmda jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan Shakllanishiga turtki bo`lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumbolg`dt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o`ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o`rganishlingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyektini til va madaniyat, predmeti esa o`zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo`lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentaligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo`lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi<sup>2</sup>.

Til va madaniyatning o`zaro ta`siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kogaitiv tilshunoslik, lingvomamlakatShunoslik, lingvokonseptShunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalar ham o`rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya dunyo, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan sohalaridan biri bo`lib, bu borada salmoqli tadqiqotlar, bir qancha o`quv qo`llanmalar yaratilgan. Mazkur sohaga omd ishlarda tadqiqotchilarning olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy konseptlar, pretsedent birliklar, intertekstuallik, lisoniy ong, barqaror birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari kabi masalalarga katta ehtibor qaratayotganliklarini kuzatish mumkin. Bunday tadqiqotlarda tilning barcha sathlari birliklari, xususan, so`z va matnning tamoman yangicha talqini va tahlili ustuvorlik qiladi. Bunda lisoniy birliklarning nafaqat til qonuniyatlari, balki jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat, milliy mentalitet kabi omillar nuqtai nazaridan ham tadqiq etilishi til ilmida yangi g`oyalar, yangi ilmiy qarashlar va tamoyillarning yuzaga kelishiga sabab bo`ldi.

O`zbek tilshunosligida shu vaqtga qadar til va madaniyat uzviyligiga ehtibor berilmagan, deyish adolatdan emas, albatta. O`zbek tilshunoslik ilmining tamal toshini qo`ygan va uni rivojlantirishga jiddiy hissa qo`shgan olimlarning ishlarida

bu muammo xususidagi fikrlar u yoki bu munosabat bilan aytib o`tilgan. Lekin Shuni tahkidlash joizki, tilshunosligimizda tilning lingvokulturologik tahlilini jiddiy va tizimiy ravmShda amalga oShirish ishlariga endigina kirishilyapti.

XXI asrning dastlabki yillaridan o`zbek tilshunosligida ham antropotsentrik tahlil ko`rinishlarini namoyon qiluvchi tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ishlar, asosan, sotsiolingvistika, kogamtiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika va psixolingvistika sohalari bo`yicha bajarildi. Mazkur tadqiqotlar, garchi ularda antropotsentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo`lsa-da, o`zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki ishlar hmsoblanadi. Shuningdek, ularda tilimmzning milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va angg`analarimiz bilan bog`liq jihatlari haqida ham ayrim fikrlar bildirilganki, ularni lingvokulturologiya nazariyasiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baholash mumkin. Jumladan, S.M.Mo`minovning "O`zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o`zbeklarning o`ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Tadqiqotdan muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari haqida, shuningdek, uning inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog`liqligi xususidagi qarashlar ham o`rin olganki, buni til tizimiga antropotsentrik yondashuv sifatida baholash mumkin. S.M.Mo`minov, jumladan, shunday yozadi: "MX (muloqot xulqi — D.X.) muammosini milliy xarakter, millat aholisining o`ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an`analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o`rganishmumkin emas. Chunki MX millat xarakterining uzviy bir qismi bo`lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir”.

Olim XX asrning 2-yarmidan ijtimoiy fanlarning o`zaro yaqinlashganligi natijasida sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika kabi tutash fanlar yuzaga kelganligini tahkidlar ekan, "inson nutqini fanlarning mana shu kabi tutash nuqtasida tadqiq etish" fikrini ilgari suradi.

Prof. SH.Safarovning 2006 yilda nashr qilingan "Kognitiv tilshunoslik" nomli monografiyasi ayni sohaga oid nazariy qarashlarning o`zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim qadam bo`ldi. Kitobning ustuvor jihatlaridan biri shundaki, unda til va tafakkur munosabati milliy mentallik va milliy madaniyat tushunchalari bilan bog`liq ekanligiga alohida ehtibor qaratilgan. Sh.Safarov, jumladan, bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Tilning tafakkur bilan aloqasini hozircha hech kim inkor etgan emas (hatto bunga harakat ham qilingan emas). Biroq til va tafakkur aloqasini "teng huquqli hamkorlik" darajada ko`rmoq kerak. Aslida, tilga ham, tafakkurga ham ta`sir o`tkazadigan madaniyatdir".limning ikki yil avval ehlon qilingan "Semantika" nomli monografiyasida lingvokulturologiya, xususan, lingvomadaniy konseptga doir nazariy qarashlar yanada keng talqin etildi. Monografiyaning "Konsept va ma`no" deb nomlangan 8- bobida muallif konsept xususidagi turli qarashlarni chuqur tahlil etib, ularga o`z munosabatini bildirgan. Olimning "Konsept mundarijasida til sohiblarining dunyoqarashi va boshqa turli milliy-madaniy belgilarning aks topishi muqarrar" degan xulosasi bugungi kun lingvokonseptShunosligida usguvor bo`lgan qarashlar bilan hamohangdir.

M.X.Hakimovning "O`zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o`zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid



nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektda tadqiq etildi. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushbu yo`nalishning tilshunoslikning boshqa yo`nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o`zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan. Dissertatsiyada garchi *lingvokulhturologiya* termini qo`llanmagan bo`lsa-da, lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o`ziga xosligini ko`rsatib berishda muhim rolg` o`ynashi alohida ta`kidlanadi: "Millatga bo`lgan hurmatning asl namunasi sifatida tilimizga davlat tili maqomining berilganligi o`zbek tili va unga xos milliy xususiyatlarni o`rganishga dunyo xalqlari intilishining qiziqishi pragmatika nazariyasiga, uning mohiyatiga bo`lgan ehtiyojni yanada ortgirmoqda. Sababi lingvistik pragmatika nazariyasi, yahni nutqning amaliy qo`llanishi bilan bog`liq hodisalar talqini o`sha tilga xos milliy o`ziga xoslikni anglash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi"

Shuningdek, Z.I.Salievanning nomzodlik ishi o`zbek va frantsuz tillaridagi sententsiya, yahni axloqiy-tahlimiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag`ishlangan<sup>5</sup>. R.S.Ibragimovanning nomzodlik dissertatsiyasida esa *ayol* konseptining o`zbek va frantsuz tillarida ifodalanish yo`llari tadqiq etilgan<sup>6</sup>.

Eng keyingi davrlarda yetakchi tilshunoslarning lingvokulturologiyaga bevosita aloqador bo`lgan maqolalari ehlon qilindi, bu sohaga oid oid dastlabki o`quv-uslubiy qo`llanmalar yaratildi.

Prof. N.Mahmudovning "O`xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli" nomli maqolasi o`zbek tilidagi turg`un o`xshatishlarning til va nutqqa munosabati tayin etilganligi, shuningdek, ularning "milliy obrazli tafakkur tarzini namoyon etadigan birliklar" sifatida tahriflanib, bu kabi obrazli birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o`rganishmuammosi qo`yilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. N.Mahmudov bu boradagi fikrlarini "O`zbek tili o`xshatishlarining izohli lug`ati"ga yozgan so`z boshisida yanada chuqurlashtirdi.

Olimning "Tilning mukammal tadqiqi yo`llarini izlab..." nomli maqolasida esa lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi.

Maqolada lingvokulturologiya nazariyasining Shakllanishi uchun sabab bo`lgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo`lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko`pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tuShsa-da, bu ikki o`rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko`rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to`g`risi ham Shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o`rganishorqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo`lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma`nosi "aqliy-ma`naviy yoki xo`jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish,

<sup>5</sup> Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально – культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – С. 25.

<sup>6</sup>Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 5. – Б. 10.

ijtimoiy va ma'naviy-mahrifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganishmuammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganishobyekti tamoman boshqadir"<sup>1</sup>.

Prof. E.Begmatov 2013 yilda ehlon qilgan maqolasida o'z ehtiborini "antroponimik birliklarda antropotsentrik usul uchun material beradigan xususiyatlar"ni aniqlashga qaratgan. Olimning tahkidiga ko'ra, antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bog'liq ekanligi, ularda insonning ehtiyoji va ijodi namoyon bo'lishi, inson nomida qadimiy davr kishilarining madaniy-ma'naviy va etnik qarashlari o'z ifodasini top ganligi, umuman, ismlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmuShi bilan bog'liq ekanligi ularni antropotsentrik paradigma asosida o'rganishuchun asos bo'la oladi.

Prof. A.Nurmonov esa o'z maqolasida lingvistik nisbiylik va lingvistik determinizm nazariyalari haqidagi mulohazalarini bayon etar ekan, til va madaniyat aloqasiga oid munosabatini ham bildirib o'tadi. Olim lingvistik nisbiylik nazariyasi asoschilari B.Uorf va E.Sepirning til va tafakkurning madaniyat shakli ekanligi haqidagi fikrlarini ehtirol etish bilan birga tillar o'rtasida umumiy tomonlar ham bor ekanligini tahkidlab, shunday yozadi: "Har bir tilda xalqning ruhi, milliy madaniyati, o'ziga xos dunyoni ko'rish, idrok etish tarzi namoyon bo'lish bilan birga, tillar o'rtasida obraz yaratishdagi shunday umumiy jihatlar borki, bular umuminsoniy tafakkur mahsuli sifatida yuzaga chiqadi".

Prof. A.Nurmonovning fikriga ko'ra, til va madaniyat o'rtasida aloqani tadqiq etgan olimlar 3 ta guruhga bo'linadi: "Birinchii yo'nalish V.Gumbolg'dt, E.Sepir va B.Uorf nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular til va tafakkur, til va madaniyat munosabatida tilni belgilovchi kuch deb hisoblaydilar". Olim bu qarashni biiyoqlama deb hisoblaydi. Jumladan, u Shunday deb yozadi: "... nominatsiyaga asos bo'lgan obraz markazini idrok qilishda turli tipdagi tillarda o'ziga xos umumiy jihatlardan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Bu ham lingvistik nisbiylik nazariyasining olamni idrok qilishda tilning roli ustuvor ekanligi haqidagi xulosasi biiyoqlama ekanligidan dalolat beradi".

A.Nurmonovning fikricha, til va madaniyat munosabati haqidagi ikkinchi nuqtai nazarda bu ikki hodisa o'rtasidagi aloqa tamoman inkor etiladi. Olimning qarashiga ko'ra, ushbu masala haqidagi uchinchi nuqtai nazarda yuqoridagi ikki qarama-qarshi fikrlar o'zaro sintezlanadi. Jumladan: "... til va madaniyat o'zaro bog'liq va ayni paytda farqli hodisalardir. Til va madaniyat munosabatida tilning roli katta. Har bir xalqning o'ziga xos etnomadaniyati uning tili orqali ifodalanadi. Lekin obyektiv borliqda ana shu etnomadaniyat mavjudligi uchun u tilda o'z ifodasini topadi. Demak, til va madaniyat munosabatida ham *obyektiv borliq - ong - til* munosabati amal qiladi".

Shuningdek, tilshunos olimi D.Xudoyberganova bu borada o'zining "Matnning antropotsentrik tadqiqi" monografiyasini yaratdi<sup>7</sup>. U o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishni ochib berdi. Unda

---

<sup>7</sup> Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.. 2013.

pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o`rni, o`xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o`rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida ehtibor berildi.

YoSh tadqiqotchi Y.Odilov o`zbek tilidagi enantiosemik so`zlarga bag`ishlangan tadqiqotida o`z ehtiborini frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlariga qaratib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o`ziga xosliklarni namoyon etadi. Ammo Shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy injaliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu ma`noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmuSh tarzi hamda uzoq yidlik kuzatuvlarining qabariq ifodasidir.»

Alohida tahkidlash joizki, keyingi yillarda lingvokulturologiya bo`yicha o`quv-uslubiy qo`llanmalar yaratish ishlari amalga oShirildi. Usmonova sh.ning "Lingvokulturologiya fanidan ma`ruzalar kursi" nomli kitobi o`zbek tilida mazkur soha bo`yicha yaratilgan dastlabki o`quv adabiyoti hisoblanadi. Unda ushbu sohaning maqsadi va vazifalari, o`rganishobyekti hamda predmeti, unga yondoSh fanlar xususida ma`lumot berilgan, lingvokulturologayaning eng asosiy tushunchalari yoritib berilib, sohaga doir asosiy ilmiy asarlar bilan tanishtirilgan. Bugungi kunda bu kabi qo`llanmalarning g`oyat katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz.

Xulosa o`rnida aytish jomzki, ona tilimizning mukammal talqinini yaratishda yuqoridagi kabi lingvokulturologik tahlil tamoyillarini yanada kengaytirish, ulardan samarali foydalanish bugungi o`zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, til va madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va uni rivojlantirish xususiyatiga ega bo`lgan noyob hodisadir. Bunda u ham madaniyat mahsuli, ham uning mavjudliganing asosiy sharti sifatida madaniyat qiyofasini belgilovchi, vorisiyligini tahminlovchi omil vazifasini bajaradi. Shu boisdan ham o`zbek tili tizimi dunyo tilshunosliklarida yetakchi paradigmalardan biri hisoblangan antropotsentrizm asosida tadqiq etilishi lozim. Bu o`zbek tilshunosligi rivojini yanada yuqori pog`onaga ko`tarishi bilan birga tilimizning jamiyat, madaniyat, milliy mentalitet va ruhiyat bilan uzviyligini ko`rsatishga xizmat qiladi.

Zamonaviy lingvokulturologiyaing predmeti turli kodlar – til va madaniyatning hamkorligi natijasida shakllanadigan lisoniy belgilardir. Har bir til Shaxsi ayni holatda madaniy shaxs ham hisoblanadi. Shuning uchun til belgilari madaniyatning «tili» ham hisoblanadi vat il egasining milliy-madaniy o`zligini ham ko`rsatib beradi. Shu asosda o`rinda barcha grammatik qoidalarga bo`ysungan taqdirda ham ayrim «madaniy to`siqlar» bo`lishi mumkinligini aytib o`tish darkor. A.Vejbitskoy nemis orkestriga dirijyorlik qilish uchun chaqirilgan bir ingliz dirijyori haqida quyidagi voqeani keltiradi: Boshida ish yaxShi yurishmaydi. Dirijyor buning sababi ingliz tilida gapirganligi va nemislar uni «o`ziniki» sifatida qabul qilmayotganidan deb o`ylaydi va nemis tilini o`rganishga intiladi. Birinchi bo`lib ustozidan quyidagi gapni nemischaga tarjima qilib berishni so`raydi: «Eshitinglar, menimcha, mana bundoq qilib chalgan yaxShiroq». Tarjimon o`ylanib qoladi: «Aslida tarjima qilsa bo`ladi. Biroq «mana bunday chalish kerak» deb qo`ya qolish mahqulroq».

Bundan chiqadigan xulosa shuki, madaniy to`siq nutq madaniyati normalariga bilan ham bog`liq.

Biz doimo madaniyat haqida bir narsani bilish uchun til materiallarini jalb qilamiz. Xuddi shuningdek, til faktlarini tahlil qilish uchun madaniy realiyalarga murojaat qilamiz. Xorij tilshunosligida madaniy argumentatsiyaning o`rni va salmog`i o`zgardi, ayniqsa kognitiv semantikada. Til birligini madaniy kontekstda tahlil qilish tilshunoslik oldiga bir qator yangi muammolarni qo`ydi. Lingvokulturologiya alohida bilimlar tarmog`i sifatida o`ziga xos vazifalarni bajarishi kerak, ayniqsa, quyidagi masalalarga ehtibor berishi kerak:

1) til konseptlari tashkil topishida madaniyatning o`rni qanday?

2) til birligi mazmunining qaysi qismiga «madaniy ma`no» birikkan bo`ladi?

3) so`zlovchi yoki tinglovchi bu ma`nolarni anglagan holda qo`llaydilar mi va bular nutq strategiyasiga qanday ta`sir qiladi?

4) amalda til egasining madaniy-lisoniy kompetentsiyasi mavjud mi? Unda matnga singdirilgan va til egalari tomonidan anglangan bo`lishi kerak. Madaniy-lisoniy kompetentsiyaning vaqtinchalik ishchi tahrifini ishlab chiqamiz: u til Shaxsining nutq hosil qilish va nutq ijro qilishning tabiiy ko`nikmalariga ega bo`lishi bo`lib, ayniqsa, madaniyat qoidalarini bilish muhimdir. Buni isbotlash uchun til birliklarning tahlil qilishning yangi texnologiyalar kerak;

5) ularning konseptosferasi qanaqa, madaniyatning ifodalanish holatlari-chi? Bir madaniyat sohibi va ko`p madaniyat sohiblari tomonidan ifodalanishi-chi?

6) bu fanning asosiy tushunchalarini qanday tartiblash lozim? Bu tartib til va madaniyatning harakatdagi muammolarini tahlil qilish bilan birga, mazkur paradigma – antropotsentirik yoki antropologik paradigmadan tashqarida ham tushunarli bo`lishi lozim;

Bu ro`yxatni to`liq deb hisoblash mumkin emas. Ularning hal qilinish o`z-o`zidan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur yuqori darajali yoki umumepistemologik vazifalarni R.M.Frumkina barcha fanlar uchun tegishi deb hisoblaydi.

Bu muammolarni hal qilishda qo`shimcha qiyinchilik tug`diruvchi yana bir xususiyat nazardan chetda qolmasligi kerak: til birliklarining madaniy axboroti implitsit xarakterda bo`lib, til belgilari ortida yashiringan bo`ladi.

Bularni idiomalar, iboralar, matallar misolida ham kuzatsak bo`ladi.

V.N.Teliya til birliklarining milliy-madaniy belgilarini tabdil qilishning o`ziga xos usulini taklif qiladi. Yahni uni tilning «ichidan» ichki kuzatuvchi tariqasida tahlil etish kerak. Masalan, kollokatsiya (ajralmas birikmalar)ni lingvokulturologik aspektda tabdil qilish modallik, shuningdek, psixologik omillar bilan bog`liq bo`ladi.

V.N.Teliya taklif qilgan ushbu usuldan tashqari til faktlarini tashqaridan turib ham tahlil qilish talab qilinadi.

Hozirgi kunda lingvokulturologiyani chetlab o`tgan holda tilshunoslikda biror ishni amalga o`shirish qiyin. Uni rad qilish ilmiy jamiyat etosiga mos kelmaydi.

Lingvokulturologik tadqiqotning obyekti va predmetini tushuntirishga harakat qilamiz. Barcha ijtimoiy fanlarning umumiy obyekti inson hisoblanadi. Biroq har bir fanning alohida predmeti bor – inson va uning faoliyatiga tegishli biror jihatdir.

Lingvokulturologik tadqiqotning obykti madaniy axborotning tarjimoni bo`lgan tilning o`zaro aloqalarini o`rganishdir. Bu obyekt bir qancha fundamental fan – tilshunoslik va Madaniyatshunoslik, etnografiya va psixolingvistikaning tutashgan nuqtasida paydo bo`lgan.

Tadqiqot predmeti esa til birliklaridir. Bu birliklar madaniyatda simvolik, etalonlik, ramziy-metaforik ahamiyatga ega bo`lib, inson tafakkuri faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, arxetipik va prototipik mazmunga ega bo`lib, mif, afsona, rasm-rusum, folklor va diniy matnlar, yana shehriy va nasriy badiiy matnlarda, iboralar, metaforalar, ramzlar va paremiyalarda uchraydi.

Shu tufayli ham aynan bir lingvokulturologik birlikning o`zi bir necha semiotik tizimga mansub bo`ladi. Rasm-rusum stereotipi matalga o`tib, keyinchalik iboraga aylanadi.

Ba`zan birgina lingvokulturologik birlik mif, matal va iboralar tarkibiga singib ketgan bo`ladi: bo`ri qadimgi xalqlar tasavvurida qaroqchi, qotil, kallakesar sifatida gavdalanadi. Turkiy xalqlarda esa uning bo`ysunmaslik, erkinlikka ishtiyoqi masalasi birinchi o`ringa ko`tarilgan. Masalan, Mahmud KoShg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asarida Afrosiyobning o`limidan qayg`urib yig`layotgan beklar «bo`ri bo`lib ulidilar» deyilsa, «Kul tigin» bitigtoshida “qo`shinim bo`ri kabi edi”, - deyiladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asari 31-bobida bekning mardligi bo`riga o`xshatiladi. Xalq tilida esa «mahallaning bo`risi» kabi metaforalar ishlatiladi. Maqollarda «Bo`rining yesa ham og`zi qon, yemasa ham» kabi tarzdgagi qarama-qarshi fikrlar ham uchraydi.

Tadqiqot obykti tushunchasi ostida har biri alohida lingvokulturologik birlik bo`lgan bir necha predmet yotadi. Biz bulardan bir nechtasini ajratib ko`rsatamiz, biroq ularning miqdorini yanada ko`paytirish mumkin. Ular:

1) lingvoo`lkashunoslikning predmeti muqobilsiz so`zlar va lakunalardir, shuningdek, ular lingvokulturologiyaning ham predmetidir;

2) mifiklashgan til birliklari: arxetiplar, mifologemlar, marosimlar va inonchlar, rasm-rusum hamda odatlar, ular til birliklari tarkibiga yaxlitlangan bo`ladi;

3) tilning paremiologik fondi;

4) tilning frazeologik fondi;

5) etalonlar, stereotiplar, ramzlar;

6) tildagi metaforalar va timsollar;

7) tilning uslubiy imkoniyatlari;

8) nutq madaniyati;

9) nutq odobi sohasi.

Ko`rsatilgan birliklar geterogen yig`indi bo`lsa-da, ular nisbatan «madaniyat tashuvchisi» ekanligi tufayli tadqiqot obyektiga aylanadi.

Endi har birini alohida ko`rib chiqamiz:

1. Lingvokulturologiyaning tadqiqot predmeti sifatida lingvoo`lkashunoslik predmeti bo`lgan muqobilsiz so`z va iboralar olinishi kerak, jumladan: Shchi, kasha, palov, uchqo`rg`onda ko`rmoq kabi.

O`lkashunoslik nuqtai nazaridan farqlanib turuvchi manbalarga, masalan, rus klassiklarining mashhur so`zlari (qanotli so`zlar): futlyardagi odam, otalar va bolalar

kabi; chaqiriqlar va siyosiy xitoblar: tarix lokomotivi, hosil uchun kurash, estafetani topShirmoq kabilar ham kiradi. Bular maxsus milliy iboralar hisoblanadi. Biroq iboralar hamda metaforalarda milliy bo`yoqning mavjudligi milliy ruhiyatni aks ettiruvchi madaniy bo`yoq mavjud degani emas.

Muqobilsiz lisoniy birliklar (E.M.Vtrishchagin va V.G.Kostomarov fikriga ko`ra, 1980) muayyan madaniy hodisa uchun o`ziga xos belgi bo`lib, ular tilning kumulyativ (til egasi tajribasini mustahkamlovchi, yig`uvchi) funktsiyasi natijasidir. Unga so`zlashuvchilar ongida mavjud bo`lgan ostbilimlar xazinasini sifatida qarash mumkin.

Tillar o`rtasidagi farqlar madaniyatlar o`rtasidagi noo`xshashliklar bilan aloqador. Mazkur holat asosan lug`aviy birliklar va frazeologizmlarda yaqqolroq namoyon bo`ladi, zero nomlovchi birliklar nolisoniy vaziyatlar bilan chambarchas bog`liq.

Nominativ birliklarning milliy-madaniy o`ziga xosligi faqat nomuqobillik emas, lakunalar (muayyan tilda boshqa tillarda mavjud tushunchalarni ifodalay oladigan so`z va ifodaning yo`qligi)da ham namoyon bo`ladi. Y.A.Sorokin va I.Y.Markovina lakunalarni tilning semantik xaritasidagi oq dog`lar deb ataydi.

Shuningdek, realiyaning o`zi ham milliylik kasb etadi, uni atovchi so`z ham milliy-madaniy qismchalarga ega. Biz lingvokulturologiya predmeti sifatida til birliklarining iloji boricha keng doirasini qamrab olamiz. Olamni milliy madaniy «o`zlashtirish» ona tili vositasida yuz beradi. Biz olam haqida tilning konseptual tarmog`idan foydalangan holda uning birliklari yordamida tafakkur qilamiz. Boshqachasiga aytganda, biz til tomonidan tavsiflangan doiradan chiqa olmaymiz (V.Gumbolg`dt). Shu tufayli, turli millatlar konsept hosil qiluvchi turlicha vositalardan foydalangan holda, olamning milliy madaniyatni aks ettiruvchi turlicha manzarasini shakllantiradilar. (L.Veyberger)

Shuni ham tahkidlash joizki tildagi barcha farqlar ham lingvokulturologiya tomonidan o`rganilavermaydi. Chunki barcha farqlar ham madaniy shartlangan sabab va oqibatlariga ega emas. Bu fikrlar A.Vejbitskoyning tadqiqotlari uchun asos bo`lib xizmat qilgan. Shuning uchun til birliklari madaniy stereotip vazifasini bajargan holat va madaniy predmetni nomlagan holatni farqlashimiz lozim. Bu ikki holat ham tilda madaniyat aks etishining alohida ikki jihati sifatida lingvokulturologiya predmeti bo`la oladi. Biroq ikkinchi holat asosan lingvoo`lkashunoslik tomonidan o`rganiladi.

Obrazlilikning lingvistik kategoriya sifatidagi xususiyatlarini tavsiflar ekan, S.M.Mezenin quyidagilarni qayd etadi. Obrazlilikning barcha shakllari – xoh lisoniy, xoh nutqiy bo`lsin – mantiqiy qurilishida 3 ta komponent bo`ladi: 1) aks etgan predmetni gnoseologik tushunchadan korrelyatsiyalovchi (farqlovchi) referent; 2) agent, yoki aks etgan predmet; 3) asos, yahni predmet va uning akslanishining umumiy jihatlari, o`xshatishni kelib chiqadigan majburiy borlik. Mazkur uch tarkibiy qism eksplitsit (tashqi ko`rinishga ega) holatda yuzaga chiqadigan lisoniy obrazlilik vositasi o`xshatishdir: *Mening yorim go`zallikda oyga o`xshaydi*. Yorim – predmet; oy – ongdagi referent; go`zallikda – asos. Obrazlilik til birligining real xossasi bo`lib, ongimiz «manzara» hosil qilish qobiliyatiga ega. Shuningdek, g`oyaviy obrazlar ham mavjud, ular umumlashtirilgan,

mavhumlashtirilgan bo`lib, manzara holatidagina mavjud bo`ladi. Metaforik obrazlar va frazeologik obrazlar lug`atlardagi izohlash yordamida tavsiflanmaydi. Chunki bu yerda muammo uning ma`nosida emas, ichki shaklidir. I.Brodskiy ichki shaklni narsalarning nazar solish orqali qoldirilgan izi deb tahriflaydi.

Ichki shakl tushunchasi dastlab rus tilshunosligiga 1892 yil A.A.Potebnya tomonidan kiritilgan. Keyinchalik XX asrning 20-30 yillarida B.A.Larin va G.O.Vinokurlarning poetik nutqqa bag`ishlangan ishlarida taraqqi topdi.

So`zning ichki shakli – so`zni tashkil qiluvchi morfemalar ma`nosidan yuzaga keladigan tub ma`nodir. Masalan, his va tuyg`u, mahbub va sevimli so`zlari bir xil ma`noni bildirsa-da, ichki shakli har xil. Ichki shakl so`z ma`nosini motivlashtiradi. Ammo bu Shartlanganlik to`liq emas, masalan, oqsoqol so`zining ichki tuzilishi «oq soqolli» va «keksa erkak» ma`nolariga ham ulanishi mumkin.

A.A.Potebnya ichki shaklni «etimologik ma`noga yaqin» deb biladi. Yasama so`zning «yaqin ma`nosi» uni tashkil etuvchilarning ma`nolaridan kelib chiqadi. «Uzoq etimologik ma`no» esa so`z o`zagi motivatsiyasining qayta tiklanishi mumkin bo`lgan eng birinchi ma`nosidir.

Odatda, mutaxassis bo`lmaganlar uchun vaqt nuqtai nazaridan bu ma`no yopiq bo`ladi. Masalan, *olchoq* so`zining ilk etimologik ma`nosi «jasur, epli».

Shu tariqa, ichki shakl so`zning so`zlovchi tomonidan anglangan ma`nosi ifoda uslubidir. U turli tillarda turlicha ifodalanadi. Masalan, *qorag`at* o`zbek tilida «rang belgisi»ga ko`ra nomlangan, rus tilida smorodina «hid belgisi»ni ifodalaydi, belorus tilida xuddi shu tushuncha parechi deb yuritilib, «po rechi – daryo bo`yi» - «o`rin belgisi»ga ko`ra nomlangan.

A.A.Potebnya so`zning ichki shakli deganda uning obrazini tushunadi. Uning fikricha, so`z maqol, matal, topishmoq kabi insonning tafakkuriy ijodi natijasida yuzaga kelgan. Shuning uchun ichki shaklni metaforadagi o`z ma`noga taqqoslaydi. Ichki shakl Madaniyatshunoslar uchun xalqning dunyoqarashini o`rganishnuqtai nazaridan qiziqarlidir.

So`zning semantik taraqqiyoti ichki shakl xiralashishi, esdan chiqishi mumkin, enantiosemik xarakterda bo`lib qolishi mumkin. Masalan, siyoh (qora) barcha rangdagi bo`yoqlarni bildiradi. Biroq Shunda ham ichki shakl yasama so`zning semantikasida yashayveradi. Bu xuddi tilning tarixiy xotirasi kabidir, ijodkorgagina tushunarli, predmetning kechagi ko`rinishi, u bugungi tushuncha soyasida qolib ketgan (N.B.Mechkovskaya). Lug`aviy ma`no bilan bog`langan holda ichki shakl olamni so`z orqali anglashning alohida stereonusxasini yaratadi. Ichki shakl asosida yuzaga kelgan assotsiatsiyalar va ma`noviy bo`yoqlar, konnotatsiyalar denotatdan ko`ra milliy-madaniy o`ziga xoslikka ega.

7. Lingvokulturologiyaning tadqiqot predmetlaridan biri turli tillarning uslubiy tarmoqlaridir, ular turli shakllarda yuzaga keladi. Ayrim tillarda dialektal farqlar kuchli bo`lsa, ayrim tillarda shevalar o`rtasida farqlar uncha sezilmaydi; ayrim tillar uslubiy farqlanish endigina boshlangan bo`lsa, ayrimlarida bu masala ancha chuqur va keng.

Adabiy til va noadabiy til qatlamlari shakllari jamiyatning madaniy tarixi har bir bosqichini aniqlab beradi: yozuv tarixi, maktab tahlimi, adabiyoti, dunyoqarashi, uning madaniy-g`oyaviy simpatiyalari singari.

Xalq madaniyatining meʼyoriy-uslubiy tarmoqlarga taʼsiri uning lugʻat tarkibiga taʼsiriga nisbatan bilvosita va chuqur munosabatlarga ega.

8. Nutq madaniyati ham lingvokulturologiyaning muhim predmetlaridan biridir. A.A.Leontyev yozadi: «Nutqiy muloqotning milliy-madaniy oʻziga xosligi mazkur jamiyatda muloqotning usullari, funktsiyalari, tashkillanishidagi farqlar, omillar tizimi haqidagi tasavvurlarimiz bilan bogʻliq. Bu omillar jamoaning Shakllanishining turli bosqichlariga asoslanadi, turlicha tabiatga ega boʻladi, biroq jarayonda oʻzaro bogʻliq ravishda ishtirok etadilar. Bu omillar asosan lioniy, psixolingvistik va umumpsixologik omillardir». Shuningdek, A.A.Leontyev quyidagi omillarni ajratib koʻrsatadi:

1) madaniy anʼanalar bilan bogʻliq omillar (muloqotning ruxsat etilgan va tahqiqlangan tiplari va shakllari, shuningdek, muloqotning stereotipli shakllari)

2) ijtimoiy holat va muloqotning ijtimoiy vazifalari bilan bogʻliq omillar (maxsus ishlatiladigan «til»chalar, muloqotning etiket shakllari);

3) etnopsixologiya bilan tor maʼnoda bogʻliq boʻlgan omillar (turlicha faoliyat turlari va ruhiy jarayonlar vositasida);

4) denotatsiyaning xos xususiyatlari bilan bogʻliq omillar;

5) mazkur jamoa tilining xos xususiyatlari bilan bogʻliq omillar;

Tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, har bir madaniyatda insonlar oʻzlarining ijtimoiy roliga qarab muloqot jarayonida oʻzini qanday tutish tasavvurlari orqali axloqlarini nazorat qilib boradilar.

9. Muloqot xulqi ham lingvokulturologiyaning muhim predmetlaridan biridir (Formanovskaya). Bu tushunchani O.Mandelgʻshtam «madaniy yoqimlilik ijod qilish» deb ataydi.

Muloqot xulqi – bu insonlar nutq madaniyatining ijtimoiy buyurtirilgan va madaniy-spetsifik qoidalari boʻlib, insonlarning ijtimoiy va ruhiy mavqei, rasmiy va norasmiy muloqot sharoitlaridagi roli va shaxsiy munosabatlari bilan bogʻliq boʻladi. E.Bernning fikricha, muloqot xulqi – muloqotning milliy-madaniy tarkibiy qismidir. Axloqiy munosabatlar – universalisa hisoblanib, ularning yuzaga chiqishi milliy xoslangan boʻladi. Shu tufayli ham lingvokulturologiyada oʻrganiladi. Muloqot xulqi standart va stereotip shaklda koʻrinib, yopiq sistemaga oʻxshasa ham, muloqot xulqining buzilishi inson va insoniyat uchun koʻzda tutilmagan oqibatlarni olib kelishi mumkin. N.I.Formanovskiy fikricha, kommunikativ haqiqat samimiylikdan koʻra qadrliroqdir.

Shu tariqa lingvokulturologiya jonli muloqot jarayonlarini ham tadqiq etadi.

Yuqoridagi berilganlar roʻyxatini tugal va toʻliq deb baholamaymiz.

*Nazorat uchun savollar:*

1. Lingvokulturologiya qanday soha?
2. Antropotsentrik paradigma nima?
3. Til va madaniyatning munosabatini tushuntiring.
4. Oʻzbek lingvokulturologiyasi rivoji haqida soʻzlang.
5. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti nima?
6. Lingvokulturologiyaning tadqiqot predmetiga nimalar kiradi?
7. Muqobilsiz leksikaning lingvokulturologiyadagi aʼmiyatini tushuntiring.





### **3-MA`RUZA: LINGVOKULTUROLOGIYANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. (2 soat)**

#### **REJA:**

1. Madaniyat va lingvomadaniyat.
2. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar orasidagi maqomi.
3. Lingvokulturologiyaning lingvomamlakatshunoslik, etnomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik va konseptologiya bilan chambarchas bog`liqligi.

Hozirgi vaqtga kelib Madaniyatshunoslar madaniyatga taʼrif berar ekanlar, bir qancha yondashuvlar ko`zga tashlanadi. Ulardan ba`zilarini sanab o`tamiz.

1. Tavsifiy yondashuv, yaʼni unda madaniyatning kelib chiqishi va alohida elementlari – urf-odatlar, faoliyat ko`rinishlari, qadriyatlar, ideallar va boshqalar sanab o`tiladi. Bunday yondashuvda madaniyat insonning hayvonsifat turmuSh kechirgan ajdodlaridan bugungi kunimizni ajratib turgan, tabiatdan himoyalanih va insonlararo munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajaruvchi institutlar va yutuqlar yig`indisi sifatida taʼriflanadi. (Z. Freyd) Mazkur yondashuvning nuqsoni madaniyat ko`rinishlarini to`liq ifodalay olmaganidir.

2. Qadriyatlarga ko`ra yondashuv. Bunda madaniyat inson yaratgan ruhiy-ma`naviy va moddiy qadriyatlar yig`indisi sifatida izohlanib, obyekt qadriyatga aylanishi uchun inson unda shunday xususiyatlarni ko`rishi kerakligi taʼkidlanadi. Obyektni qadriyat sifatida baholash qobiliyati insonning qadriyat haqidagi qarashlariga bog`liq. Shu bilan birga insonda haqiqatda mavjud bo`lgan obyektlarga qiyoslash mumkin bo`lgan mukammal timsollar, ideallar yaratish tasavvuroti ham bo`lishi kerak. M. Xaydegger madaniyatni shunday tushunadi: madaniyat – bu yuksak insoniy mulklarni madaniylashtirish orqali oliy qadriyatlarni amalga oshirish demakdir. (M. Veber, G. Frantsev, N. Chavchavadze va boshqalarda ham) Mazkur yondashuvning kamchiligi – asosiy diqqat madaniyatga yo`naltirilgan, boshqacha qilib aytganda, ungga inson faoliyatining barcha jabhalari kiritilmagan, balki qadriyatlar, shuningdek, eng yaxshi ijod namunalari ehtibor berilgan. Inson faoliyatining salbiy jihatlari soya ostida qolgan.

3. Faoliyatga ko`ra yondashuv. Bunda madaniyat insonning o`z ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida bo`y ko`rsatadi. B. Malinskiydan boshlangan bu qarash madaniyatning marksistik nazariyasini ham o`ziga jo qilgan: madaniyat inson faoliyati usullaridan biridir (E. Markaryan, Yu. A. Sorokin, Ye. F. Tarasov)

4. Vazifaviy jihatdan yondashuv. Bunda madaniyat jamiyatdagi vazifalari: axborot (informatsion), moslashuv (adaptatsion), aloqa-aralashuv (kommunikativ), tartibga solish (regulyativ), me`yoriy (normativ), baho berish, birlashtirish (integrativ), ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) va boshqa vazifalariga ko`ra tavsiflanadi. Mazkur yondashuvning qusuri – bu vazifa (funktsiya) nazariyasining ishlab chiqilmaganligi, zidlanishlarsiz tasnifda ziddiyatlarning mavjudligidir.

5. Germenevtik yo`nalish. Bunda madaniyatga matnlar to`plami sifatida murojaat qilinadi. Yo`nalish tarafdorlari uchun madaniyat – matnlar yig`indisi, aniqrog`i, matnlar yig`indisini hosil qiluvchi tizim, mexanizmdir (Yu. M. Lotman). Matnlar – madaniyatning asosi va oqib turgan qonidir. Ular o`zlashtirilishi kerak bo`lgan axborotlar yig`indisi sifatida baholanib, asar muallifining shaxsiy o`ziga

xosligi, bahosini jamlagan bo`ladi. Bu yondashuvning kamchiligi shundan iboratki, matnning mukammal va bir xilda tushunib bo`lmaydi.

6. Me`yorga asoslangan yondashuv. Bunda madaniyat insonlar hayoti va yashash tarzini tartibga solib turuvchi me`yor hamda qonuniyatlar jamlanmasini ifodalaydi. (V.N. Sagatovskiy) Bu qarashni Yu.M.Lotman va B.A.Uspenskiy ham rivojlantirib, madaniyatni jamoaning xotiraviy merosi sifatida baholaydilar, bu xotirada oldindan belgilangan qoidalar va tahqiqatlar mavjud bo`ladi.

7. Ma`naviy-ruhiy qarash. Ushbu yo`nalish tarafdorlari madaniyatni jamiyatning ma`naviy hayoti, g`oyalar va ma`naviy ijodning boshqa mahsullari sifatida tushunadilar. Jamiyating ma`naviy turmuShi ham madaniyatdir. (L.Kertman) Ushbu yo`nalishning qusuri madaniyatning tor ma`noda tushunilishidir, chunki moddiy madaniyat shakli ham mavjud.

8. Dialogik yo`nalish yoki madaniyatni “madaniyatlar dialogi”(V.Bibler) – uning subyektlari o`rtasidagi munosabat shakli (V.Bibler, S.S.Averintsev, B. A. Uspenskiy) deb baholash. Bunda muayyan xalq yoki millatga tegishli bo`lgan, shuningdek, etnik va milliy madaniyat turlari farqlanadi. Milliy madaniyat tarkibida submadaniyatlar ham mavjud bo`ladi. Bular alohida ijtimoiy qatlam va guruhlar (yoShlar submadaniyati, jinoiy olam submadaniyati va boshq.) madaniyatidir. Shuningdek, metamadaniyat ham mavjud bo`lib, turli xalqlarni birlashtirib turadi. Masalan, islom madaniyati, xristian madaniyati kabilar. Mazkur barcha madaniyatlar o`zaro aloqada bo`lib, milliy madaniyat qanchalik rivojlangan bo`lsa, u Shunchalik boshqa madaniyatlar bilan dialogga kirishish tomon siljib boradi. Shu asnoda boyib boradi, boshqalarining yutuqlaridan oziqlanadi, shu bilan birga zichlashuv va standartlashuv jarayoni yuz beradi.

9. Axborotga asoslangan yondashuv. Bunda madaniyat axborotni tuzish, saqlash va uzatish tizimi sifatida namoyon bo`ladi. U – jamiyat a`zolari foydalanadigan, insonlar tomonidan mundarija, ma`no va g`oya singdirilgan ijtimoiy axborotlar jamlangan belgilar sistemasidir. (Yu.M.Lotman) Buni kompg`yuterga, aniqrog`i, uning axborot tahminoti: mashina tili, xotirasi va axborotni qayta ishlash dasturlari bilan taqqoslash mumkin. Madaniyatda ham insonlar axloqini ifodalovchi dasturlar, ijtimoiy xotira va tillar mavjud. Ma`lum bo`ladiki, madaniyat – bu jamiyatning axborot tahminoti, belgilar tizimi orqali yig`ilib boradigan ijtimoiy axborotlardir.

10. Ramziylik tamoyili madaniyatda ramzlarning ishlatilishiga ehtibor beradi. Madaniyat – bu “ramzlardan iborat olam”dir (Yu.M.Lotman). Alohida etnik mazmunga ega madaniy belgilarning ayrimlari xalqlarning ramziga aylanishi mumkin: oqqayin, Shchi (karam Sho`rva) va kasha, samovar, chiptakovuSh, sarafan – ruslar uchun, qo`y go`Shti va qasrlardagi arvohtar haqidagi afsonalar – inglizlar uchun, spagetti – italg`yanlar uchun, pivo va kolbasa – nemislar uchun va hkz.

11. Tipologik tamoyil. (M.Mamardashvili, S.S.Averintsev) Boshqa millat vakillari bilan uchrashganlarida insonlar o`z madaniy belgilari bilan solishtirib ko`rishga moyil bo`ladilar – “o`z qarichlari bilan o`lchab” ko`radilar. Masalan, yevropaliklar yaponlar bilan aloqaga kirishar ekanlar, ularni yaponlarning yaqin kishilarining o`limi haqida gapirayotib tabassum qilishlari hayron qoldiradi, buni toShbag`irlik va berahmlik belgisi sifatida baholaydilar. Yapon madaniyati

tomonidan qaralganda esa bu yuqori darajadagi samimiyat, o`z muammolari bilan boshqalarni bezovta qilishni istamaslik belgisidir. Bir millatda aql va ehtiyotkorlik hisoblangan holatlarga ikkinchi xalqda ayyorlik va ochko`zlik sifatida qaraladi. Madaniyat masalasiga boshqa nuqtai nazardan qarashlar ham mavjud. Zamonaviy tadqiqotchi Erik Volg`f madaniyat tushunchasining o`zini shubha ostiga oladi. U har qanday madaniyatning o`zi mustaqil mavjud bo`la olmasligi, barcha madaniyatlar o`zaro bog`liqligi, o`zaro bir-birini talab qilishi, shu asnoda ayrimlari shaklan o`zgarishi, ayrimlari esa umuman yo`qlikka yuz tutishini tahkidlaydi. Ko`rib chiqilgan barcha yondashuvlarda aniq (ratsional) mundarija mavjud bo`lib, har biri “madaniyat”ning ayrim belgilarini ko`rsatadi. Biroq ulardan qaysi biri aniqroq, haqiqatga yaqinroq? Bu yerda barcha narsa tadqiqotchining madaniyatni tushunish uchun tanlagan pozitsiyasiga bog`liq bo`lib qoladi. Masalan, biz uchun madaniyat jamoaning meros bo`lib keladigan xotira ekanligi, muayyan tahqiq va belgilargan qoidalarni ifodalashi, hamda madaniyatga madaniyatlar dialogi sifatida yondashish haqqoniyroq tuyuladi. Madaniyat tushunchasi tarkibiga mehnat faoliyati usullari, qadriyatlar, urf-odatlar, marosimlar, munosabat shakllari, dunyoni ko`rish, anglash va tasavvur etish usullari ham kiradi. Masalan, daraxtda osilib turgan barg – tabiatning bir qismi, xuddi shu bargning gerbariyga qo`yilgan holati – madaniyat qismi; yo`l chetida yotgan tosh madaniyat emas, biroq ajdodlar qabri ustiga qo`yilgan tosh – madaniyat. Shu kabi, madaniyat mazkur xalq uchungina tegishli hayot va turmush tarzi, shuningdek, insonlar o`rtasidagi munosabatlar (qadriyatlar, urf-odatlar, marosimlar, munosabat shakllari va b.) va dunyoni ko`rish, anglash va tasavvur etish usullaridir. Aynan nima madaniyat tushunchasini tavsiflash va tushunish uchun murakkab qilib qo`ymoqda? Madaniyatga yagona, qarama-qarshiliklardan xoli bo`lgan tahrif berolmasligimizning asosiy sababi – uning murakkabligi va ko`pyoqlama ekanligi va yana ziddiyatliligidir. Antinomiya deganda madaniyatdagi o`zaro qarama-qarshi, biroq bir xilda to`liq asoslangan ikki tushunchaning birligini tushunamiz. Masalan, madaniyatga murojaat etish orqali shaxsning ijtimoiylashuviga sharoit tug`iladi, shu vaqtning o`zida uning individuallashuvi, alohidalik xususiyatlari namoyon bo`lishiga olib keladi. Madaniyatning ayrim bosqichlari jamiyat bilan bog`liq bo`lmaydi, shu bilan birga u jamiyatdan tashqarida ham yuz bermaydi. Madaniyat insonning ma`naviy fazilatlarini o`stiradi, jamiyatga ham ijobiy ta`sir o`tkazadi, shu bilan birga turli tipdagi odamlarga salbiy ta`sir qilishi mumkin (mas., ommaviy madaniyat) Madaniyat an`analarni saqlash jarayoni ham, me`yor va qoidalarni muntazam chetlab o`tish harakati hamdir. U yangilanish va doimo yangi shakllarga o`tish xususiyatiga ega. Madaniyatni tahlil etishda tushunchaning ko`pgina tahriflarga egaligidan tashqari, ko`pgina tadqiqotchilar (madaniyatshunoslar, antropologlar, faylasuflar, etnograflar va boshqa olimlar) har safar tushunchani aniqlashtirib tahriflashga intilar ekanlar, o`z qarashlarini ham o`zgartirib bormoqdalar. Jumladan, Yu.M.Lotman yuqorida keltirgan o`z tahrifidan so`ng yana quyidagicha fikr bildiradi: madaniyat – bu “murakkab semiotik tizim, uning vazifasi – xotira, farqlovchi belgisi - jamlash”<sup>8</sup> (1971), “madaniyat muayyan jamoa – zamondosh va

---

<sup>8</sup> Лотман Ю. М. О двух моделях коммуникации в системе культуры // Семиотике. - Тарту, 1971. № 6. - С. 228.

ijtimoiy jihatdan birlashgan Shaxslar guruhi uchun umumiy boʻlgan hodisa. U insonlar oʻrtasidagi munosabat shaklidir”<sup>9</sup> (1992). Boshqa mualliflarda ham Shu kabi holat kuzatiladi. M.S.Kagan madaniyat haqidagi nazariyaga inson borligi va sanʼatning estetik borligi (inson ruhining eng murakkab sohalari) tahlilini kiritadi: “Madaniyatni oʻrganish natijalari shuni koʻrsatadiki, bu yerda inson va sanʼatni nazariy tadqiqiga oʻxshash jarayon yuz beradi. Shuning uchun agar sanʼatni modellashtirsak, inson turmushining umumiy koʻrinishi gavdalanadi, madaniyat esa bu holatni insonning tarixan Shakllangan ishlab chiqilgan sifatlar va qobiliyatlari fonida tasvirlaydi. Boshqacha aytganda, insonni inson qilib turgan narsalar madaniyat koʻrinishiga ega boʻladi. Madaniyat Shunday haryoqlama va ziddiyatlarga boy tushuncha boʻlib, insonning oʻzi esa madaniyat ijodkori va madaniyatning asosiy ijod mahsuli hamdir”<sup>10</sup>.

Madaniyatni turli nuqtai nazarlardan oʻrganar ekanmiz, har gal turli natija olamiz: ruhiy-faoliyat tahliliga koʻra boshqa, ijtimoiy tahlilga koʻra boshqa xulosalarga duch kelamiz. Madaniyatni faqat turli tomonlardan aylanib oʻrganib chiqqandan soʻnggina umumiy va toʻliq tasavvurni tiklay olamiz. Tahriflardagi har xillikni hisobga olib, mazkur hodisaning bizga kerakli, vaqtinchalik tahrifini ishlatib turamiz: madaniyat – subyektning borliqdagi barcha faoliyati koʻrinishlari jamlanmasidir, u qonun-qoida, qadriyatlar, meʼyorlar, ideallar va namunalar, belgilangan tartiblarga asoslangan boʻladi. U kishilar jamoasining meros qoladigan xotirasi, boshqa madaniyatlar bilan munosabatlarda “yashaydi”. Xullas, madaniyat deganda, jamoa boʻlib yashashdek “oʻyin Shartlari” toʻplamini, jamoaning ijtimoiy xotirasida saqlanadigan ijtimoiy amaliyot usullari yigʻindisini tushunamiz. Ijtimoiy xotira esa ijtimoiy ahamiyatga ega amaliy va aqliy faoliyat uchun insonlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Madaniy meʼyorlar genetik yoʻl bilan emas, oʻrganish yoʻli bilan oʻtadi. Shu tufayli milliy madaniyatni egallash jiddiy iql va iroda kuchini talab qiladi. Bizningcha, Madaniyatshunoslikning, madaniyat nazariyasi va falsafasining vazifalari shundan iboratki, madaniyatni real borligi bilan, turli mavjudlik shakllarini toʻla hisobga olgan holda, tuzilishi, amal qilinishi va taraqqiyoti asnosida tafakkur qilish kerak boʻladi. Shuningdek, u yoki bu madaniyat uchun hayot manbai nima, har bir madaniyat qanday umuminsoniy qadriyatlarni ifodalaydi, turfa xalqlar madaniyatining oʻziga xos milliy xususiyati nima, Shaxsiy madaniyat boshqa shaxsiy madaniyat bilan munosabatga kirishganda “oʻzini qanday tutadi” kabi savollarga javob topishi kerak.

V.A.Zvegintsev aynan etnolingvistikaga asosiy diqqatini qaratib, unga tilning madaniyat, milliy urf-odatlar, jamiyatning ijtimoiy qurimi bilan aloqalarini oʻrganuvchi yoʻnalish sifatida tavsif bergandi. Xalq (etnos) – insonlarning lisoniy, anʼanaviy va madaniy muShtarak jamoasi boʻlib, bu insonlar kelib chiqishlari, tarixiy va lisoniy belgilari, madaniy tegishlilik xususiyatlari, ruhiyati yaqinligi, oʻzaro bir guruhga mansublik haqida tasavvurlari muShtarakligi bilan xarakterlanadilar. Milliy oʻzlik – xalq aʼzolarining oʻzaro bir guruhga mansubligi va

<sup>9</sup> Лотман Ю.М. Беседы о русской культуре: Быт и традиции русского дворянства. - СПб., 1994.

<sup>10</sup> Кagan M. C. Философия культуры. - СПб.,1996. - С. 19-20.

boshqa shunday guruhlardan farqlanib turishini anglab yetishidir. Zamonaviy etnolingvistikaning ehtibor markazida esa til leksik sistemasining Shunday elementlari turadiki, ular muayyan moddiy yoki madaniy-tarixiy kompleks (yig`indi)larga oid bo`ladi. Masalan, etnolingvistlar madaniyat shakllari, marosimlar, an`analarning ma`lum hududga oid butun bir to`plamini tadqiqot dasturxoniga tashlaydilar. Bu hudud esa boshqa hududlar bilan birgalikda o`zaro aloqador sitemani tashkil etishi, shu tufayli, avvalo, katta sitemani to`lig`igicha o`rganishmuammosi paydo bo`ladi. Bu yo`nalishda asosiy ikkita tarmoqni ajratib ko`rsatishimiz mumkin: 1) lisoniy jihatdan etnik hududni qayta tiklash (R.A. Agaeva, S.B.BernShteyn V.V.Ivanov, T.V. Gamkrelidze ishlarida); 2) mazkur til bo`yicha xalqning moddiy va ma`naviy madaniyatini tiklash (V.V. Ivanov, V.N.Toporov, T.V.TSivg`yan, T.M.Sudnik, N.I.Tolstoy va uning maktabi ishlari). Shu tariqa V.V.Ivanov va T.V.Gamkrelidze lisoniy tizimni ma`lum arxeologik madaniyat bilan bog`lab o`rganadilar. Tiklangan so`zlarning semantik tahlili va ularning denotat (mazkur nutq parchasida nazarda tutilgan nolisoniy faoliyat obyektlari)ga munosabati bu denotatlarning madaniy-ekologik, tarixiy-geografik tavsifini tiklashga yordam beradi. Istalgan madaniyatni qayta tiklash tilshunoslik, etnografiya, folklorshunoslik, arxeologiya va Madaniyatshunoslik hamkorligida amalga o`shiriladi. XX asrning 2-yarmida sobiq SSSRda V.N.Toporov, V.V. Ivanovlar rahbarligidagi ilmiy markazlar, N.I. Tolstovning etnolingvistika maktabi, Yu.A. Sorokin va N.V. Ufimtsevaning etnopsixolingvistika maktablari vujudga keldi. Ularning tadqiqotlarida til madaniyatning “tabiiy” substrati sifatida tahriflanadi, uning barcha qatlamlariga kirib boradi, dunyoning ruhiy tartibi quroli vazifasini bajaradi, milliy dunyoqarashning mustahkamlashuvi vositasi hisoblanadi. 70-yillardan boshlab etniklik (milliylik – yun. Etnos – qabila, xalq) atamasi keng qo`llana boshlandi. Atama madaniy o`ziga xosliklarga ega ijtimoiy tizim Shakli, guruhga oid fenomen sifatida tahriflanadi: “Milliylik tanlanmaydi, balki meros bo`lib o`tadi” (S.V. CHeshko). Insoniyat madaniyati turli milliy madaniyatlar birlashmasini ifodalaydi, ular Shuning uchun ham turliki, u turfa xalqlar orzu-intilishlari, ehtiyojlari va xatti-harakatini aks ettirishga yo`naltirilgan. Milliy o`ziga xoslik barcha jabhalarda ko`zga tashlanib turadi: mehnat, hordiq, ovqatlanish jarayonlarida, turli vaziyatlarda qanday gapirishlarida va hkz. Masalan, ruslarning muhim belgisi – jamoaviylik hisoblanadi, shu tufayli ham ular ma`lum jamoaga tegishlilik hissi bilan ajralib turadi, o`zaro munosabatda samimiylik va emotsionallik bo`rtib turadi. Rus madaniyatining mazkur xususiyati rus tilida ham aks etadi. A. Vejbitskayaning fikricha, “rus tili hissiyotga ko`proq diqqat qaratadi (ingliz tiliga nisbatan) va hissiyotni farqlovchi lug`aviy va grammatik ifodalarning butun bir to`plamiga ega”. N. Tolstoy boshchiligidagi etnolingvistika maktabi slavyan ma`naviy madaniyatini tadqiq etganligi bilan nom qozongan. Tolstoy nazariyasining asosini til va madaniyatning izomorfligi, zamonaviy tilshunoslikda qo`llanayotgan tamoyil va usullarning madaniy birliklarga nibatan qo`llash mumkinligi haqidagi g`oya tashkil qiladi. N.I.Tolstoyning fikricha, etnolingvistikaning maqsadi tarixiy retrospektiva – milliy stereotiplarni ko`rsatib berish, milliy dunyoqarashning folklordagi manzarasini kashf etishdir. Sotsiolingvistikaning o`rganishobyektlaridan biri til va jamiyat o`rtasidagi

munosabatlar (til va madaniyat, til va tarix, til va din va boshq.) bo`lsa-da, asosiy maqsadi tilning turli ijtimoiy va yoSh guruhlarida qo`llanish xususiyatlarini tadqiq etishdir (N.B. Mechkovskaya).

Shu tariqa, etnolingvistika va sotsiolingvistika turlicha fanlardir. Agar etnolingvistika tarixiy jihatdan ahamiyatga molik ma`lumotlarga tayanib, zamonaviy materiallarda biror xalqqa oid tarixiy faktlarni aniqlashga intilsa, sotsiolingvistika bugungi kun materiallarini o`rganadi. Lingvokulturologiya esa tarixiy va zamonaviy til faktlarini ma`naviy madaniyat ko`zgusi ortidan tekshiradi. To`g`risini aytganda, bu masalada boshqacha fikrlar ham yo`q emas. Jumladan, V.N.Teliya lingvokulturologiya til va madaniyat munosabatlarini faqat sinxron aspektda o`rganadi: u jonli axborot-aloqa jarayonlarini va xalqning hozirgi mentalitetiga mos til ifodalarining qo`llanishidagi aloqani tadqiq etadi.

Til madaniy ahamiyatga ega axborotlarni saqlash va to`plash vositasi hisoblanadi. Bir qancha birliklarda bu ma`lumotlar hozirgi kun til egasi uchun implitsit xarakterga ega bo`ladi, asriy o`zgarishlarga uchrab, faqat bilvosita tekshirganda namoyon bo`ladigan tarzda yashiringan bo`ladi. Biroq u mavjud va ong ostida "ishlaydi". (Masalan, quyoSh so`zi – oy, osmon, ko`z, xudo, bosh so`zlari bilan bir semantik chiziqda yotadi) Til birliklarida joylashgan madaniy axborotlarni ajratib olish uchun lingvokulturolog bir qancha o`ziga xos usullarni qo`llashi kerak bo`ladi. V.N.Teliya lingvokulturologiyaning obyekti nafaqat o`ta milliy, shuningdek, umuminsoniy (Masalan, Qurhon, Injil kabi turfa madaniyatlarda ham uchraydigan) madaniy axborotlardir. Bu sohani aniq bir xalqqa yoki qarindosh xalqlarga tegishli bo`lgan madaniy axborotlar qiziqtiradi.

Lingvoo`lkashunoslik va lingvokulturologiya shunisi bilan farqliki, lingvoo`lkashunoslik asosan tilda o`z aksini topgan milliy realiyalarni o`rganadi. Mazkur til birliklari muqobilsiz bo`lib (E.M.Vere`agin i V.G.Kostomarovning fikricha), mazkur madaniyatning o`ziga xos jihatlaridir.

Etnopsixolingvistika lingvokulturologiya sohasi bilan chambarchas bog`liq sohalaridir. Etnopsixolingvistika muayyan an`anaga oid bo`lgan xulq-atvorning nutq faoliyatida qanday namoyon bo`lishini o`rganadi, turli til egalarining verbal va noverbal fehl-atvoridagi farqlarni tahlilga tortadi, nutq odobi va "dunyoning rangli manzarasi"ni, madaniyatlararo aloqalarda matn lakunalarini tadqiq etadi, ikkitillilik va ko`ptillilikni turli xalqlar nutq odobining o`ziga xos tomoni sifatida talqin qiladi va b. Etnopsixolingvistikaning asosiy tadqiqot metodi assotsiativ tajriba bo`lsa, lingvokulturologiya tilshunoslikdagi barcha metodlarni qo`llay olishi bilan ajralib turadi.

#### *Nazorat uchun savollar:*

1. Til va madaniyat qanday aloqador?
2. Til va madaniyatning aloqasi haqidagi qarashlar tarixi haqida aytib bering.
3. Qiyosiy-tarixiy paradigma nimaga asoslanadi?
4. Hozirgi o`zbek tilshunosligida sistem-struktur paradigmaning maqomi qanday?
5. Lingvokulturologiya qaysi fanlar bilan aloqador?
6. Lingvokulturologiyaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan muShtarak va farqli jihatlarini ayting.

## **4-MA`RUZA: LINGVOKULTUROLOGIYANING ASOSIY YO`NALISHLARI (4 SOAT)**

### **REJA:**

1. Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi.
2. Lingvokulturologiyaning asosiy yo`nalishlari: alohida ijtimoiy guruhlar lingvokulturologiyasi, diaxron, qiyosiy, chog`ishtirma lingvokulturologiya va lingvokultura leksikografiyasi.
3. Lingvokulturologiya maktablari.
4. Lingvokulturologiyaning dolzarb masalalari.
5. O`zbek tilshunosligidagi lingvokulturologik tadqiqotlar.

Keyingi yillarda lingvokulturologiyaga bag`ishlangan ishlar ko`payib qoldi. Jumladan, Yu.S.Stepanov “Konstantlar: Rus madaniyati lug`ati”ni yaratgan bo`lib, rus tili egalarining tillari uchun faol bo`lgan konseptlarni jamlagan va keng ma`lumot bergan. (Stepanov, 2001). N.D.Arutyunovanning “Til va inson olami” tadqiqoti turli davrlar va turli xalqlar madaniyatiga tegishli universal terminlarni o`rganishga bag`ishlangan. (1999) V.N. Teliya va uning maktabi vakillari esa iboralarni o`rganadi, bundan maqsad esa ularning milliy-madaniy ko`chma ma`nolarini tavsiflash va mentalitetning xarakterlovchi qirralarini ochib berishdir. (1996) Umuman olganda, lingvokulturologiya va lingvokulturologik terminlari oxirgi vaqtda ko`pgina tadqiqotlarda tez-tez uchraydigan bo`lib qoldi. Bu terminlar birmuncha erkin ishlatilmoqda: ba`zan til siyosati sifatida ham tahriflanmoqda (Artemyeva, 2003).

Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V. Fon Gumbolg`dt o`zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma`naviy rivojiga ta`siri” kitobi bilan tamal toshini qo`ygan bo`lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi. Ayniqsa, uning “turli tillar, o`z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg`uga ta`siriga ko`ra amalda turlicha dunyoqarashni ifodalaydi”, “tilning o`ziga xos xususiyatlari millatning o`zligiga ta`sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o`rganishtarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog`lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak” kabi fikrlari keng tarqalgan. [Gumbolg`dt 1985: 370, 377]. Shu tariqa, olim tilning turli shakllarida turlicha hissiyot va tafakkur uslublarini ko`radi. Demak, tilda madaniy o`ziga xoslik aks etib turadi, degan xulosaga keladi.

V.Gumbolg`dtning g`oyalari XIX-XX srlardan neogumbolg`dtchilar tomonidan rivojlantirildi. A.A.Potebnya tilni faoliyat sifatida talqin etdi. L.Vaysgerber, X. Glints, X. Xolg`ts XX asr o`rtalarida fikrlash mundarijasining tuzilishi va fikrlarning mantiqiy qatori tilga bog`liq ekanligi haqidagi muammoni ko`tarib chiqdilar.

Neogumbolg`dtchilar tilning ichki mundarijasiga alohida ehtibor qaratdilar, turli tillarning semantik jihatlarini tekshirib, o`xshash va farqli jihatlarini aniqladilar. L.Vaysberger “olamni verballashtirish” tushunchasini olib kirdi. Unga “dunyoni til orqali anglash jarayoni va tafakkur obyektiga aylantirish” deb tahrif berdi. Shuningdek, olim “yangi grammatika”ni yaratish vaqti kelganligini



tahkidladi. Bu soha tilning mazmuniy tomoniga qaratilgan bo'lishi va tilni "harakatdagi kuch" sifatida baholashi kerak edi [Guxman 1961: 129-130, 154].

Amerika tilshunoslari E. Sepir va B.L.Uorf lisoniy mansublik gipotezasini ilgari surdilar. Unga ko'ra til bilish jarayonida eng asosiy rolni o'ynaydi. SHimoliy Amerika hindulari tilini o'rganishnatijasida olimlar til kategoriyalari fikrlash darajasiga ham ta'sir qiladi, degan xulosga keldilar. Lisoniy mansublik gipotezasiga ko'ra, turli tillarda turli kategoriyalarning uchrashi shu til egalari borliqni turlicha konseptuallashtirishlarini bildiradi.

XX asr davomida mazkur olimlarning fikrlari turli tanqid va qarshiliklarga duch keldi. Hozirgi kunda bu yo'nalish yana tilshunoslarning diqqat markazida. 1990 yilda D. Lg'yusining «Language Diversity and Thought» ("Lisoniy har-xillik va tafakkur") [Lucy 1992] va P. Lining «Whorf Theory Com`lex» ("Uorf nazariyalari yig`indisi") [Lee 1996] kabi kitoblari dunyo yuzini ko'rdi. 1998 yil Duysburg (Germaniya) universitetida «Humboldt and Whorf Revisited. Universal and Culture-S`ecific Conce`tualizations in Grammar and Lexis» nomi ostida xalqaro simpozium o'tkazilgan bo'lib, unda tilda inson omili va lisoniy mansublik fenomenini tadqiq etishning yangi yondashuvlari o'rta tashlandi.

Sepir va Uorflar nazariyasi hozirgi tilshunoslikdagi juda ko'p oqimlarga tamal toshini qo'ydi. XX asrda "lisoniy to'ldiruvchilik gipotezasi" (G.Brutyani), "lisoniy universallik gipotezasi" (A. Vejbitskaya) kabi gipotezalar ham paydo bo'ldi. Bu holat til madaniyatning eltuvchisi sifatida rol o'ynashiga qiziqish kuchli ekanligini tasdiqlaydi.

XX asr o'rtalarida AQSH tilshunosi D.Xaymz "til va nutqni antropologik planda o'rganish"ning nazariy va metodologik asoslarini yaratdi. (1963) U "tilshunoslikning vazifasi til haqidagi bilimlarni til nuqtai nazaridan tushuntirish, antropologiyaniing vazifasi esa til haqidagi bilimlarni inson nuqtai nazaridan uzatishdir" degan qarashni ilgari suradi. A.Duranti esa lingvistik antropologiya boshqa tilshunoslik sohalaridan moddiy borliqning individual mushohada qilinishiga diqqat qaratishi bilan ajralib turishini tahkidlaydi. (1992) Bu yo'nalish "inson til tarkibida" deb ham nomlanadi.

Sovet tilshunosligi mark-lenincha falsafaga asoslanganligi va ularning nazariy manbalari turlicha bo'lgani uchun ham antropotsentrizm tanqidga uchradi. Biroq Yu.S.Stepanov tahkidlaganidek, oxirgi o'n yillikda dogmatik strukturalizmni tanqid qilmagan va tilda antropotsentrizmga moyillik bildirmagan tilshunos yo'q edi. (1975)

Rus tilshunosligida V.A.Maslovaning darsligida lingvokulturologik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari tavsiflanadi, metodologik asosi yaratilgan. V.V.Vorobg'yovning «Lingvokulturologiya: teoriya i metodq» [Vorobyev 1997] nomli tadqiqoti gumbolg`dchilik nazariyasi asosiga qurilgan bo'lib, tilda o'z aksini topgan madaniyatni o'rganishSepir-Uorf gipotezasi asosida amalga oShirilgan, L.Vaysberger terminlaridan faol foydalanilgan edi.

Tadqiqotda lingvokulturologiya lingvoo`lkashunoslik sohasining nazariy asosi sifatida tadqiq etiladi, sohaga "til va madaniyat munosabatlari va aloqalarini tilni vazifalarida tekShiruvchi va bu jarayonni tizimli metodlar va zamonaviy yo'nalish, madaniy qoidalarga ko'ra birliklarning lisoniy va nolisoniy (madaniy)

mundarijasiga jamlab, bir butun tizimi sifatida aks ettiruvchi kompleks bilimlar majmui” deb taʼrif beradi. [Vorobyev 1997: 36-37].

Lingvokulturologiyaning asosiy oʻrganishobyekti sifatida “til va madaniyatning oʻzaro aloqaga kirishgan vaqtdagi oʻzaro bogʻliqligi va bu munosabatning bir butun sistem holatda talqin qilish”, fanning predmeti esa, “jamiyat turmuShining til kommunikatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan va madaniy qadriyatlarga asoslangan milliy shakllari”, “olaning lisoniy manzarasi”ni hosil qiluvchi barcha narsadir deb baholaydi.

V.V. Vorobyev lingvokulturologik tahlilning asosiy birligi – lingvokulturema tushunchasini olib kiradi va unga “lisoniy va nolisoniy (tushuncha va predmet) mazmunning dialektik birligi” deb taʼriflaydi. [Vorobyev 1997: 44-45]. Soʻzning lingvokulturemadan farqini esa A.A.Potebnyaning “soʻzning yaqin va uzoq maʼnosi” tushunchasi orqali izohlaydi.

Lingvokulturema soʻzdan farqli ravishda birmuncha murakkab tuzilishga ega: uning mazmun plani ikkiga: lisoniy maʼno va madaniy mazmunga boʻladi. Bu birlik konnotativ mazmunga ega boʻlib, “uni yuzaga keltirgan mafkuraviy kontekst tugamaguncha yashayveradi” [Vorobyev 1997: 52]. Birluk soʻz va davomiylikdagi matn sifatida ifodalanishi mumkin.

V.V. Krasnqx oʻzining «Etnopsixolingvistika i lingvokulturologiya» nomli ishida lingvokulturologiyaga “tilda va diskursda madaniyatning namoyon boʻlishi va aks etishini oʻrganuvchi fan boʻlib, dunyoning milliy manzarasi, lisoniy idrok, ruhiy-lisoniy yigʻindining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganishbilan bevosita bogʻliq boʻladi” deb taʼrif beradi. » [Krasnqx 2002: 12]

Volgograd maktabi vakillari V.I. Karasik, Ye.I. SHeygallar asosiy ehtiborni til va madaniyatni qiyoslashga qaratadilar.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yoʻnalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya tilshunoslik, Madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan oʻzaro aloqasi va taʼsirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida oʻrganuvchi sohadir. Tadqiqotchilarning tahkidlashicha, mazkur soha XX asrning soʻnggi choragida shakllandi, "lingvokulturologiya" termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bogʻliq ravishda paydo boʻldi. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumbolhdtga borib taqalishini tahkidlaydilar. Tilshunoslikda bu sohaning Shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xolgʻts, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyani, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rolgʻ oʻynaganligi tahkidlanadi.

Lingvokulturologiya sohasmda jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan Shakllanishiga turtki boʻlgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumbolgʻdt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o`ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o`rganishlingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyektini til va madaniyat, predmeti esa o`zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo`lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo`lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi<sup>2</sup>.

Til va madaniyatning o`zaro ta`siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kogaitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalar ham o`rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi.

Tilshunoslikdagi barcha narsa madaniy-tarixiy mundarija zamiriga qurilgan. Boshqacha qilib aytganda, uning predmeti madaniyatning mahsuli, asosi va sharoiti hisoblangan til hisoblanadi XX asr oxirlarida R.M.Frumkina iborasi bilan aytganda, “o`ziga xos berk ko`cha paydo bo`ldi: ma`lum bo`lishicha, inson haqidagi ilmda eng asosiy narsa – inson va uning intellektini vujudga keltirgan madaniyatga o`rin yo`q ekan”.

Darhaqiqat, ko`p hollarda inson olamning o`zi emas, uning tasavvuri, kognitiv manzaralari va modellari bilan ish ko`radi yoki olam xalqning madaniyati va tili prizmasidan o`tkaziladi. Bu holat Yu.S.Stepanovga faylasuf va boshqa olimlarning nazariy bilimlarini yo`naltirish xususiyatiga ega ekanligi haqidagi fikrini ehlon qilishiga sabab bo`lgandir. Darhaqiqat, XX asrning yirik faylasuflari bo`lmish P.A.Florenskiy, L.Vitgenshteyn, N. Bor va boshqa olimlar o`z nazariyalari markaziga tilni qo`ygan edilar. Zamonamizning atoqli mutafakkiri X.G.Gadamer “til – ozodlikning yagona yo`lidir” deb bejiz aytmagan edi. Yoki M.Xaydegger tabiat yoki atrofimizdagi olamni emas, aynan tilni birlamchi borliq sifatida ehtirol etgan edi. U insonning “turmuSh uyi”dir, inson yashaydigan voqelikni nafaqat aks ettiradi, balki yaratadi ham. Bu nuqtai nazardan tilshunoslik barcha ijtimoiy fanlar metodologiyasida strategik ahamiyatga ega ekanligi ma`lum bo`ladi.

Til o`zining biror usuli yordamida dunyoni tahlil qilish va baho berSh yo`lidan boradi. V.Dalg` Shunday masal keltiradi: Bir grek sohil o`tirib, bir narsani zamzama qilib kuylabdiyu birdan yig`lab yuboribdi. U yerdagi bir rus qo`shiqni tarjima qilib berishni so`rabdi. Grek shunday tarjima qilibdi: “Bir qushcha, ruscha nomini bilmayman, qoyada uzoq o`tiribdi, qanotini qoqibdi-da, keyin uzoq-uzoqlarga, o`rmonlar oSha uzoqlarga uchib ketibdi”. So`ng grek shunday debdi: “Ruschasiga o`xshamaydi, grekchasi esa juda qayg`uli”.

1 Frumkina R. M. Lingvistika v poiskax epistemologii // Lingvistika na isxode XX veka: Itogi i perspektivq: Tezisq Mejdunarodnoy konferentsii. -- M., 1995. -T. II. -S. 104.

G.O.Vinokur tahkidlaganidek, muayyan madaniyatga xos tilni o`rganayotgan tilshunos Shu madaniyatning tadqiqotchisiga aylanib qoladi, madaniyatning mahsuli esa tildir.

Til, madaniyat va etnos munosabatari masalasi yangi muammo emas. XIX asr boshlarida nemis olimlari – aka-uka Grimmlar bu sohada izlanib ko`rgan bo`lsalar, XIX asrning 60-70 yillarida Rossiyada – F.I.Buslaev, A.N.Afanasyev, A.A.Potebnya ishlarida o`z rivojini topdi.

V.Gumbolg`dt g`oyalari esa eng keng tarqalganlaridan edi. Unng fikricha, til “xalqning ruhi”dir, u xalqning “tub o`zligi”dir. Madaniyat o`zini eng ko`p tilda namoyon qiladi. Til madaniyatning haqiqiy voqeligidir, u insonni madaniyatga kiritish xususiyatiga ega. Til madaniyatning dunyoga va o`z-o`ziga badiiy nuqtai nazaridir. Ijtimoiy fanlarda “til hukmdorligi” termini haqida ko`p gapiriladi. (Sepir-Uorf gipotezasi) Biroq bu qolip ilmda turlicha talqin qilinadi: M.M.Baxtin dastlab uni begona so`zning “qobig`i” (okova), L.S. Baxtin – Shaxsiy ma`noning tushuncha bilan munosabati deb tushungan.

XX asrning boshlarida Avstriyaning “WORTER UND SACHEN” (“So`zlar va buyumlar”) maktabi “til va madaniyat” masalasini tarkibli qismlarni aniq o`rganishyo`nalishiga burib yubordilar. Bu bilan ular tilshunoslikning turli sohalarida, ayniqsa, leksika va etimologiya sohasida kulturologik yondashuvning muhimligini ko`rsatib berdilar.

Neogumbolg`dtchilik va uning bir tarmog`i bo`lmish Sepir-Uorf maktabi ham til va madaniyatni ajratib bo`lmasligi, ularning keng ma`noda bir tushuncha ekanligidan kelib chiqib fikr yuritar edilar. Neogumbolg`dtchilarning nisbatan keyingi vakili L.Veysberger “til – tafakkur va real borliq oralig`idagi dunyo” ekanligini tahkidlaydi.

K. Levi-Stros ko`rsatib o`tganidek, til bir tomondan madaniyatning hosilasi, uning asosiy mahsuloti, tarkibiy qismi bo`lsa, ikkinchi tomondan madaniyatning hayotiy shart-Sharoiti hamdir. Bundan tashqari, til – madaniyatning mavjudligining maxsus usullaridan biri, madaniy odlar Shakllanishi omillaridan biridir.

V.I.Vernadskiy o`z nazariyasida tilning biokimyoviy energiya (o`zi inson madaniy energiyasi deb atagan) ishlab chiqilishidagi o`ta muhim vazifasini tahkidlaydi.

Madaniyat til egasi g`oyasini shakllantiradi va tuzadi, shuningdek, lisoniy kategoriyalar va tushunchalar olamini shakllantiradi. Madaniyatni til orqali o`rganishg`oyasi keyingi yillarda “havoda kezib yuribdi”. Bu g`oya til materiallariga nihoyatda salmoqli, inson va olam haqidagi axborotlarni jamlagan voqelik sifatida qarashni ilgari suradi.

Ma`lum bo`ladiki, madaniyatni til orqali o`rganish– yangi g`oya emas. Bu haqida A.Bryukner, V.V.Ivanov, V.N.Toporov, N.I.Tolstoylar ham yozib ketganlar. Uchinchi ming yillikda polyak antropologi Yeji Bartming`skiy bu sohaga katta hissa qo`shdi. Uning tadqiqotlarida madaniyat Shunchaki til bilan qorishgan fan emas, balki chuqur izlanishlarsiz inson sirlari, til va matn sirlarini ochib bo`lmaydigan fenomen sifatida baholanadi.

Shu tariqa XX asr oxirlariga kelib, yuqoridagi rus va g`arb olimlari tadqiqotlari yutuqlaridan kelib chiqib, quyidagi postulatni ilgari surish mumkin bo`ladi: Til

madaniyat bilan nafaqat bog`liq, shu bilan birga, til madaniyatning ichida o`sadi, uni as ettiradi. Til bir vaqtning o`zida madaniyatni bunyod etish, taraqqiyot, saqlash (tekst ko`rinishida) quroli hamda uning bir qismi hamdir. Chunki til yordamida moddiy va ma`naviy madaniyatning real, obyektiv qiyofasi tilanadi. Bu g`oyalar asosida yangi ming yillikka oid bo`lgan fan – lingvokulturologiya yuzaga kelmoqda.

Lingvokulturologiya – tilshunoslik va Madaniyatshunoslik chatishuvidan yuzaga kelgan fan sohasi bo`lib, tilda mustahkamlangan, aks etadigan milliy madaniyatning namoyon bo`lishini tadqiq etadi. Yangi fanning “chatishuvli” xarakteri katta ahamiyatga ega emas, yoki lingvokulturologiya ikki fan imkoniyatlarini biriktirish orqali yuzaga kelmagan. U faktlarni “tor dunyoqarash” bilan o`rganish, tadqiqotlardagi cheklanganligini yengishga va ularga yangicha nuqtai nazar bilan qarash hamda tushuntirib bera olishga qodir yo`nalish hisoblanadi.

Shuning uchun mazkur fanga tilshunoslikning va Madaniyatshunoslikning vaqtinchalik ittifoqi sifatida emas, fanning nazariyalararo tarmog`i nuqtai nazaridan qarash kerak. U o`z maqsadlariga, vazifalariga, tadqiqot obyekti va usullariga ega.

Xullas, lingvokulturologiya fanning maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida yuzaga keldi. Bu holatni aniq va o`zaro mutanosib davrlashtirish ko`p ham muvaffaqiyatli chiqmaydi. Sababi, fanning yuzaga kelganiga ko`p bo`lmadi, ikkinchidan, R.M. Frumkina aytganidek, ma`lum ilmiy soha vakilining shaxsiy subyektiv bahosi bilan bog`liq bo`lib qoladi.

Lingvokulturologiya taraqqiyotini ikki bosqichga bo`lish maqsadga muvofiq ko`rinadi: 1) V. Gumbolg`dt, A. A. Potebnya, E. Sepirabilan asarlarida ilmiy-nazariy poydevor qo`yilishi; 2) lingvokulturologiyaning mustaqil tadqiqot sohasiga aylanishi. Mazkur fanning taraqqiyot surhati shuni ko`rsatadiki, biz ostonasida turgan davrni fundamental sohalararo fan – lingvokulturologiyaning paydo bo`lish davri deb ataluvchi uchinchi davrni ham ajratsak bo`ladi.

Lingvokulturologiyaning asosiy yo`nalishlari.

Lingvokulturologiyada bugungi kunga qadar bir qancha yo`nalishlar paydo bo`ldi:

1. Ijtimoiy guruh, etnosning madaniy nuqtai nazardan alohida ajralib turuvchi davriga xos lingvokulturologiya, yahni aniq lingvomadaniy vaziyat tadqiqi.

2. Diaxron lingvokulturologiya, yahni ma`lum davr oralig`ida etnosning lingvomadaniy o`zgarishlarini o`rganish.

3. Qiyosiy lingvokulturologiya, turli hamda o`zaro aloqada bo`lgan etnoslarga lingvomadaniy belgilarni o`rganadi.

4. CHog`ishtirma lingvokulturologiya. Bu soha endigina yuzaga kelgan bo`lib, misol sifatida M. K. Golovanivskoyning «Frantsuzskiy mentalitet s tochki zreniya nositelya russkogo yazqka» (Rus tili sohiblari nazdida frantsuz mentaliteti) asarini keltirish mumkin.

Bunda rus va frantsuz tillaridagi mavhum otlar, jumladan, *taqdir, xayf, omad, qalb, aql, vijdon, g`oya, fikr* kabilar tahlilga tortilgan.

5. Lingvokulturologik lug`atshunoslik til va madaniyatlarni o`rganishbo`yicha lug`atlar tuzish bilan shug`ullanadi. (Masalan, Amerikana. Anglo-russskiy lingvostranovedcheskiy slovarg` / Pod red. N.V.CHernova. -- Smolensk, 1996;

RumA.R.U. Velikobritaniya: Lingvostranovedcheskiy slovarg`. -- M., 1999; Malg`tseva D. G. Germaniya: strana i yazqk: Lingvostranovedcheskiy slovarg`. -- M., 1998; Muravleva N.V. Avstriya: Lingvostranovedcheskiy slovarg`. -- M., 1997; Nikolau N.G. Gretsiya: Lingvostranovedcheskiy slovarg`. -- M., 1995; Stranq Soedinennogo Korolevstva: Lingvostranovedcheskiy spravochnik / Sost. G.D.Tomaxin. -- M., 1999; Tomaxin T.D. SSHA: Lingvostranovedcheskiy slovarg`. -- M., 1999; Frantsiya: Lingvostranovedcheskiy slovarg` / Pod red. L. G. Vedeninoy. -- M., 1997; Xudoyberdieva D. Lingvokulturologi terminlar izohli lug`ati. – ToShkent, 2014 v.boshq.)

D.G.Malg`tsevaning lingvoo`lkashunoslika oid lug`atini ko`rib chiqamiz. Unda 25 ta mavzuiy guruh bo`lib, ular odatiy tartibda joylashtirilgan. Mazkur til birliklari Germaniya geografiyasi, iqlimi, nabotot va hayvonot olami, o`lka tarixi, xalqning qadimiy urf-odatlari, inonchlari, an`ana va odatlari, qadimiy afsonalar, raqamlar simbolikasi, ranglar majoziyligi, to`y, aza, bayram, diniy e`tiqod, pul tizimi, uzunlik, og`irlik, hajm, maydon o`lchovlari, sanoat taraqqiyoti tarixi, savdo, ilm-fan, texnika, tibbiyot, pochta aloqasi. mehmorchilik va shaharsozlik tarixiga oid tushunchalarni qamrab olgan.

Shu qatorda lug`atda aks etgan hodisalarga quyidagilarni kiritish mumkin: til, nashr ishlari, xat, talabalar va talabalik hayoti, maktab, kiyimlarning milliy maxsusliklari, an`anaviy ovqatlanish, o`yinlar, xalq raqslari, an`anaviy salomlashuv va tilaklar, odat tusiga kirgan iboralar, milliy imo-ishoralar, Shaxsiy ism va familiyalar, adabiy tildan kelib chiqqan til birliklari, hikmatli so`zlar, nemis qo`shiqlari, milliy xarakter kabilar. Bunday lug`atning asosida til va madaniyatning o`zaro hamkorlik xarakterini o`rganishmaqsadga mos keladi.

XX asrning oxirlarida Moskvada lingvokulturologiyaning 4 maktabi vujudga keldi: 1. Yu.S.Stepanov maktabi. Bu maktab metodologik jihatdan E.Benvenist konseptsiyasiga mos kelib, maqsadi diaxron aspektda madaniyatning o`zgarishlarini tavsiflashdir. Uning mundarijasini tasdiqlash uchun turli davrlarga oid matnlarni xolis – tashqaridan turib tahlil qilish kerak.

2. N.D.Arutyunova maktabi turli davr va turli xalqlarga oid bo`lgan matnlarda uchrovchi madaniyatning universal terminlarini tadqiq etadi. Bu terminlar ham til egasi sifatida emas, tashqi kuzatuvchi nigohi bilan izohlanadi.

3. V.N.Teliya maktabi MDH va butun dunyo ilmida Frazologizmlarni lingvokulturologi analiz qilish Moskva maktabi (MSLCFraz) nomi bilan mashhur. V.N. Teliya va uning izdoShlari til borlig`ini jonli til egasi refleklari orqali o`rganadilar, yahni madaniy semantika bevosita til va madaniyatning subyekt nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Bunday tadqiq usuli A.Vejbitskayaning (Lingua mentalis -- mentalg` lingvistika) qarashlariga mos keladi. Unda so`zlovchining nutqiy faoliyati uning ruhiy holati taqlidi hisoblanadi.

4. V.V.Vorobyev, V.M. Shaklein va boshqalar tomonidan Rossiyaning xalqlar do`stligi universitetida tashkil etilgan va konseptsiyasi Ye.M.Vere`agin va V.G.Kostomarov tomonidan rivojlantirilgan lingvokulturologiya maktabi.

Xullas kalom, lingvokulturologiya jonli milliy tilda jo bo`lgan, til jarayonlarida yuzaga chiqadigan moddiy va ma`naviy madaniyatni o`rganuvchi ijtimoiy fandır (Oparina). U tilning asosiy fundamental vazifalaridan biri – madaniyatni yaratish,

rivojlantirish, saqlash va qayta taqdim qilish funksiyasini aniqlash va tushuntirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya dunyo, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan sohalardan biri bo'lib, bu borada salmoqli tadqiqotlar, bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Mazkur sohaga omd ishlarda tadqiqotchilarning olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy konseptlar, pretsedent birliklar, intertekstuallik, lisoniy ong, barqaror birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari kabi masalalarga katta ehtibor qaratayotganliklarini kuzatish mumkin. Bunday tadqiqotlarda tilning barcha sathlari birliklari, xususan, so'z va matnning tamoman yangicha talqini va tahlili ustuvorlik qiladi. Bunda lisoniy birliklarning nafaqat til qonuniyatlari, balki jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat, milliy mentalitet kabi omillar nuqtai nazaridan ham tadqiq etilishi til ilmida yangi g'oyalar, yangi ilmiy qarashlar va tamoyillarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

O'zbek tilshunosligida shu vaqtga qadar til va madaniyat uzviyligiga ehtibor berilmagan, deyish adolatdan emas, albatta. O'zbek tilshunoslik ilmining tamal toshini qo'ygan va uni rivojlantirishga jiddiy hissa qo'shgan olimlarning ishlarida bu muammo xususidagi fikrlar u yoki bu munosabat bilan aytib o'tilgan. Lekin Shuni tahkidlash joizki, tilshunosligimizda tilning lingvokulturologik tahlilini jiddiy va tizimiy ravmShda amalga oShirish ishlariga endigina kirishilyapti.

XXI asrning dastlabki yillaridan o'zbek tilshunosligida ham antropotsentrik tahlil ko'rinishlarini namoyon qiluvchi tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ishlar, asosan, sotsiolingvistika, kogamtiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika va psixolingvistika sohalari bo'yicha bajarildi. Mazkur tadqiqotlar, garchi ularda antropotsentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo'lsa-da, o'zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki ishlar hmsoblanadi. Shuningdek, ularda tilimmzning milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va angg`analarimiz bilan bog`liq jihatlari haqida ham ayrim fikrlar bildirilganki, ularni lingvokulturologiya nazariyasiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baholash mumkin. Jumladan, S.M.Mo`minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o`zbeklarning o`ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Tadqiqotdan muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari haqida, shuningdek, uning inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog`liqligi xususidagi qarashlar ham o`rin olganki, buni til tizimiga antropotsentrik yondashuv sifatida baholash mumkin. S.M. Mo`minov, jumladan, shunday yozadi: "MX (muloqot xulqi — D.X.) muammosini milliy xarakter, millat aholisining o`ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an`analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o`rganishmumkin emas. Chunki MX millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir".

Olim XX asrning 2-yarmidan ijtimoiy fanlarning o`zaro yaqinlashganligi natijasida sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika kabi tutash fanlar yuzaga kelganligini tahkidlar ekan, "inson nutqini fanlarning mana shu kabi tutash nuqtasida tadqiq etish" fikrini ilgari suradi.

Prof. SH.Safarovning 2006 yilda nashr qilingan "Kognitiv tilshunoslik" nomli monografiyasi ayni sohaga oid nazariy qarashlarning o'zbek tilshunosligiga kirib

kelishida muhim qadam bo`ldi. Kitobning ustuvor jihatlaridan biri shundaki, unda til va tafakkur munosabati milliy mentallik va milliy madaniyat tushunchalari bilan bog`liq ekanligiga alohida ehtibor qaratilgan. SH.Safarov, jumladan, bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Tilning tafakkur bilan aloqasini hozircha hech kim inkor etgan emas (hatto bunga harakat ham qilingan emas). Biroq til va tafakkur aloqasini "teng huquqli hamkorlik" darajada ko`rmoq kerak. Aslida, tilga ham, tafakkurga ham ta`sir o`tkazadigan madaniyatdir".limning ikki yil avval ehlon qilingan "Semantika" nomli monografiyasida lingvokulturologiya, xususan, lingvomadaniy konseptga doir nazariy qarashlar yanada keng talqin etildi. Monografiyaning "Konsept va ma`no" deb nomlangan 8- bobida muallif konsept xususidagi turli qarashlarni chuqur tahlil etib, ularga o`z munosabatini bildirgan. Olimning "Konsept mundarijasida til sohiblarining dunyoqarashi va boshqa turli milliy-madaniy belgilarning aks topishi muqarrar" degan xulosasi bugungi kun lingvokonseptshunosligida usguvor bo`lgan qarashlar bilan hamohangdir.

M.X.Hakimovning "O`zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o`zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektida tadqiq etildi. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushbu yo`nalishning tilshunoslikning boshqa yo`nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o`zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan. Dissertatsiyada garchi *lingvokulturologiya* termini qo`llanmagan bo`lsa-da, lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o`ziga xosligini ko`rsatib berishda muhim rol o`ynashi alohida ta`kidlanadi: "Millatga bo`lgan hurmatning asl namunasi sifatida tilimizga davlat tili maqomining berilganligi o`zbek tili va unga xos milliy xususiyatlarni o`rganishga dunyo xalqlari intilishining qiziqishi pragmatika nazariyasiga, uning mohiyatiga bo`lgan ehtiyojni yanada ortgirmoqda. Sababi lingvistik pragmatika nazariyasi, yahni nutqning amaliy qo`llanishi bilan bog`liq hodisalar talqini o`sha tilga xos milliy o`ziga xoslikni anglash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi"

Shuningdek, Z.I.Salievaning nomzodlik ishi o`zbek va frantsuz tillaridagi sententsiya, yahni axloqiy-tahlimiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag`ishlangan<sup>11</sup>. R.S.Ibragimovanning nomzodlik dissertatsiyasida esa *ayol* konseptining o`zbek va frantsuz tillarida ifodalanish yo`llari tadqiq etilgan<sup>12</sup>.

Eng keyingi davrlarda yetakchi tilshunoslarning lingvokulturologiyaga bevosita aloqador bo`lgan maqolalari ehlon qilindi, bu sohaga oid oid dastlabki o`quv-uslubiy qo`llanmalar yaratildi.

Prof. N.Mahmudovning "O`xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli" nomli maqolasi o`zbek tilidaga turg`un o`xshatishlarning til va nutqqa munosabati tayin etilganligi, shuningdek, ularning "milliy obrazli tafakkur tarzini namoyon etadigan birliklar" sifatida ta`hriflanib, bu kabi obrazli birliklarning lingvomadaniy

---

<sup>11</sup> Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально – культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 2010. – С. 25.

<sup>12</sup>Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 5. – Б. 10.



xususiyatlarini o`rganishmuammosi qo`yilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. N.Mahmudov bu boradagi fikrlarini "O`zbek tili o`xshatishlarining izohli lug`ati"ga yozgan so`zboshisida yanada chuqurlashtirdi.

Olimning "Tilning mukammal tadqiqi yo`llarini izlab..." nomli maqolasida esa lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi.

Maqolada lingvokulturologiya nazariyasining Shakllanishi uchun sabab bo`lgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo`lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko`pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tuShsa-da, bu ikki o`rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko`rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to`g`risi ham Shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o`rganishorqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo`lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma`nosi "aqliy-ma`naviy yoki xo`jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma`naviy-mahrifiy hayotida qo`lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o`zbek madaniyati)" demakdir. Shunday bo`lgach, nutq madaniyatining o`rganishmuammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o`rganishobyekti tamoman boshqadir"<sup>1</sup>.

Prof. E.Begmatov 2013 yilda ehlon qilgan maqolasida o`z ehtiborini "antroponimik birliklarda antropotsentrik usul uchun material beradigan xususiyatlar"ni aniqlashga qaratgan. Olimning tahkidiga ko`ra, antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bog`liq ekanligi, ularda insonning ehtiyoji va ijodi namoyon bo`lishi, inson nomida qadimiy davr kishilarining madaniy-ma`naviy va etnik qarashlari o`z ifodasini top ganligi, umuman, ismlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmuShi bilan bog`liq ekanligi ularni antropotsentrik paradigma asosida o`rganishuchun asos bo`la oladi.

Prof. A.Nurmonov esa o`z maqolasida lingvistik nisbiylik va lingvistik determinizm nazariyalari haqidagi mulohazalarini bayon etar ekan, til va madaniyat aloqasiga oid munosabatini ham bildirib o`tadi. Olim lingvistik nisbiylik nazariyasi asoschilari B.Uorf va E.Sepirning til va tafakkurning madaniyat shakli ekanligi haqidagi fikrlarini ehtirol etish bilan birga tillar o`rtasida umumiy tomonlar ham bor ekanligini tahkidlab, shunday yozadi: "Har bir tilda xalqning ruhi, milliy madaniyati, o`ziga xos dunyoni ko`rish, idrok etish tarzi namoyon bo`lish bilan birga, tillar o`rtasida obraz yaratishdagi shunday umumiy jihatlar borki, bular umuminsoniy tafakkur mahsuli sifatida yuzaga chiqadi".

Prof. A.Nurmonovning fikriga ko`ra, til va madaniyat o`rtasida aloqani tadqiq etgan olimlar 3 ta guruhga bo`linadi: "Birinchii yo`nalish V.Gumbolg`dt, E.Sepir va B.Uorf nomlari bilan bog`liq bo`lib, ular til va tafakkur, til va madaniyat munosabatida tilni belgilovchi kuch deb hisoblaydilar". Olim bu qarashni biryoqlama deb hisoblaydi. Jumladan, u Shunday deb yozadi: "... nominatsiyaga asos bo`lgan obraz markazini idrok qilishda turli tipdagi tillarda o`ziga xos umumiy jihatlardan ham ko`z yumib bo`lmaydi. Bu ham lingvistik nisbiylik nazariyasining

olanmi idrok qilishda tilning roli ustuvor ekanligi haqidagi xulosasi biryoqlama ekanligidan dalolat beradi".

A.Nurmonovning fikricha, til va madaniyat munosabati haqidagi ikkinchi nuqtai nazarda bu ikki hodisa o`rtasidagi aloqa tamoman inkor etiladi. Olimning qarashiga ko`ra, ushbu masala haqidagi uchinchi nuqtai nazarda yuqoridagi ikki qarama-qarshi fikrlar o`zaro sintezlanadi. Jumladan: "... til va madaniyat o`zaro bog`liq va ayni paytda farqli hodisalardir. Til va madaniyat munosabatida tilning roli katta. Har bir xalqning o`ziga xos etnomadaniyati uning tili orqali ifodalanadi. Lekin obyektiv borliqda ana shu etnomadaniyat mavjudligi uchun u tilda o`z ifodasini topadi. Demak, til va madaniyat munosabatida ham *obyektiv borliq - ong - til* munosabati amal qiladi".

Shuningdek, tilshunos olim D.Xudoyberganova bu borada o`zining "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiyasini yaratdi<sup>13</sup>. U o`zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o`rganishni ochib berdi. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o`rni, o`xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o`rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida ehtibor berildi.

YoSh tadqiqotchi Y.Odilov o`zbek tilidagi enantiosemik so`zlarga bag`ishlangan tadqiqotida o`z ehtiborini frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlariga qaratib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o`ziga xosliklarni namoyon etadi. Ammo Shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy injaliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu ma`noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmuSh tarzi hamda uzoq yidlik kuzatuvlarining qabariq ifodasidir.»

Alohida ta`kidlash joizki, keyingi yillarda lingvokulturologiya bo`yicha o`quv-uslubiy qo`llanmalar yaratish ishlari amalga o`shirildi. Usmonova sh.ning "Lingvokulturologiya fanidan ma`ruzalar kursi" nomli kitobi o`zbek tilida mazkur soha bo`yicha yaratilgan dastlabki o`quv adabiyoti hisoblanadi. Unda ushbu sohaning maqsadi va vazifalari, o`rganishobyekti hamda predmeti, unga yondosh fanlar xususida ma`lumot berilgan, lingvokulturologiyaning eng asosiy tushunchalari yoritib berilib, sohaga doir asosiy ilmiy asarlar bilan tanishtirilgan. Bugungi kunda bu kabi qo`llanmalarning g`oyat katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz.

Xulosa o`rnida aytish jomzki, ona tilimizning mukammal talqinini yaratishda yuqoridagi kabi lingvokulturologik tahlil tamoyillarini yanada kengaytirish, ulardan samarali foydalanish bugungi o`zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, til va madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va uni rivojlantirish xususiyatiga ega bo`lgan noyob hodisadir. Bunda u ham madaniyat mahsuli, ham uning mavjudliganing asosiy sharti sifatida madaniyat qiyofasini belgilovchi, vorisiyligini tahminlovchi omil vazifasini bajaradi. Shu boisdan ham o`zbek tili tizimi dunyo tilshunosliklarida yetakchi paradigmalardan biri

---

<sup>13</sup> Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.. 2013.

hisoblangan antropotsentrizm asosida tadqiq etilishi lozim. Bu o`zbek tilshunosligi rivojini yanada yuqori pog`onaga ko`tarishi bilan birga tilimizning jamiyat, madaniyat, milliy mentalitet va ruhiyat bilan uzviyligini ko`rsatishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Lingvokulturologiya qanday soha?
2. Antropotsentrik paradigma nima?
3. Til va madaniyatning munosabatini tushuntiring.
4. O`zbek lingvokulturologiyasi rivoji haqida so`zlang.

## **5-MA`RUZA: OLAMNING LISONIY MANZARASI TUSHUNCHASI**

1. Lisoniy kognitiv faoliyatning milliy-madaniy xususiyatlari.
2. Olamni anglashning lingvokognitiv modeli.
3. Olamning lisoniy manzarasi va so`zning etnomadaniy s`etsifik xususiyatlari.

Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir; inson bolasi ibtidoiy sezgi organlari va intiho bilmas aqliy zakovati bilan bu murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urynish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi. Mazkur mashaqqat huzurining mag`zu mohiyati shundan iboratki, odamzod Shu tariqa bilish deyiladigan tunganmas jarayonlarning natijasi o`laroq kashf qila borgan unsurlarining yaxlit tizimi shaklidagi olam manzarasini yaratadi. Odam ongida yaralgan olam manzarasi, tabiiyki, tamoman turg`un, o`zgarmas tuzilma emas, u tafakkur taraqqiyoti, jamiyat rivoji, fan yutuqlari, bilish usullarining takomili bilan bog`liq ravishda o`zgarib, mukammallashib borishi mumkin.

Antropotsentriklikni asosiy g`oyasi sifatida ehtirof etgan bugungi tilshunoslikda "olam manzarasi" ayniqsa, "olamning lisoniy manzarasi" tushunchalari markaziy o`rinni egalladi. Hozirgi tilshunoslikda ayrim tadqiqotchilar tomonidan "olam manzarasi" terminiga "borliq haqida ijtimoiy (Shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami" tarzida ta`rif beriladi va olamning ikki, yahni 1) bevosita hamda 2) bilvosita manzaralarini farqlash printsipial ahamiyatga molikligi tahkidlanadi.

Bunday qarashga ko`ra, "olamning bevosita manzarasi atrofda borliqning kishilar tomonidan to`g`ridan-to`g`ri bilinishi natijasida yuzaga keladigan manzarasidir. Bilish kishi ixtiyoridagi ham sezgi a`zolari yordamida, ham abstrakt tafakkur yordamida amalga o`shadi, ammo har qanday holatda ham mazkur olam manzarasining ongda "vositachilari" bo`lmaydi va olamni bevosita idrok etishi hamda anglashi natijasi sifatida shakllanadi". Bunday qarash tarafdorlari ayni paytda olamning bevosita manzarasi "milliy ongda yuzaga kelishi"ga urg`u beradilar va bu manzara yaratilish usuli, umumiy metodiga bog`liq ekanligini ham aytadilar. Ana shu usulga ko`ra muayyan bir borliqning, muayyan bir olamning manzarasi farqli bo`lishi mumkinligini tahkidlaydilar/ yahni aqliy va hissiy, dialektik va metafizik^

materialistik va idealistik, nazariy va empirik, ilmiy va "sodda" tabiiy-ilmiy va diniy, fizikaviy va kimyoviy va hokazo. Olamning bunday manzarasi dunyoni bilish (kognitsiya) natijasi o`laroq ongda shakllanishidan kelib chiqib, mazkur tadqiqotchilar olamning bevosita manzarasini "olamning kognitiv manzarasi" deb nomlaydilar. "Ular ongda mavjud bo`lgan ayni shu olamning kognitiv manzarasini moddiylashtiradigan, "narsalashtiradigan" ikkilamchi belgilar sistemasi vositasida konseptlar va stereotiplarning qayd (ifoda) qilinishi natijasini olamning bilvosita manzarasi sifatida ko`rsatadilar, bunday manzaralar sirasiga olamning lisoniy va badiiy manzaralarini kiritadilar. Shuni ham ta`kidlash kerakki, bu tadqiqotchilar noverbal tafakkur, yahni tafakkurning tilsiz voqelanishi haqidagi qarash tarafdorlaridir.

Bu o`rinda keltirilgan fikrga nisbatan jiddiy bir ehtirozni aytib o`tish joiz. Olam manzarasi bevosita (birlamchi) va bilvosita (ikkilamchi) kabi turlarga ajratilar ekan va olamning lisoniy manzarasi bilvosita yoki ikkilamchi manzara sifatida talqin qilinir ekan, o`z-o`zidan olamning kognitiv manzarasi shakllanishida tilning o`rni tamoman inkor qilingandek bo`ladi. Biz ehtiroz bildirayotgan fikr mualliflarining o`zlari olamning bevosita manzarasi "milliy ongda yuzaga kelishi"ni ta`kidlaydilar, shubhasizki, milliy ong milliy tilsiz mavjud bo`la olmaydi, bu esa tilshunoslikda ehtirof etib bo`lingan haqiqat. Aksariyat tadqiqotchilar tilning bilish jarayonlaridagi rolini faqat mavjud mental tushunchalarni, tayyor konseptlarni kodlash, ifodalash bilan chegaralash ilmiy haqiqatga zidligini, inson aqliy va ruhiy faoliyatining biron-bir ko`rinishi tilsiz amalga o`sha olmasligini, faqat tilga ko`ragina ong tuzilishi haqida bilish mumkinligini ta`kidlaydilar<sup>4</sup>. Tabiiyki, ong jarayonlarini, tafakkur faoliyatini tilga tamoman aloqasiz hodisalar sifatida talqin qilish har qanday ilmiy mantiq muvozanatini ishdan chiqaradi. SH.Safarov juda o`rinli ta`kidlaganiday, "aslida "noverbal tafakkur"ning qanday yuzaga kelishini tasavvur qilish qiyin, chunki borliq haqidagi fikrni faqat lisoniy shakllar vositasida o`qiy olamiz". Olam manzarasidagi markaziy tushunchalardan biri "konsept" ekanligi va mazkur manzara ana shu konseptlardan tarkib topgan yaxlit "konseptosfera"ligi bugungi fanda barqaror nazariyaga aylandi. Ammo konsept qanchalik mental, ongga oid tushuncha bo`lmasin, uni tildan, milliy-madaniy unsurlardan butunlay xoli bo`lgan tushuncha sifatida ta`hriflash to`g`ri bo`lmaydi. Chunki "konsept mundarijasida til sohiblarining dunyoqarashi va boshqa turli milliy-madaniy belgilarning aks topishi muqarrar. Milliylik va madaniylikning kuchi shundaki, hatto umuminsoniy ahamiyatga ega bo`lgan konseptlarning mundarijasi ham turlicha qo`shimcha konnotativ ma`no bo`laklariga ega bo`lishi mumkin".

Ammo taassuf bilan ta`hg`sidlash lozimki, so`nggi qisqa bir fursatda xorijiy tilshunosliklarda, shuningdek, o`zimizdagi xorijiy filologiya ilmida kognitiv yondashuv va undagi mental tushuncha va jarayonlar tadqiqi, xususan, konsept talqinlari "moda"ga kirdi, kognitologiyaning bevosita mohiyatiga ko`ra, kishi ongidagi mantiqiy va psixik jarayonlarning, ta`bir joiz bo`lsa, "g`ayrilisoniy" izohlari ustuvorlik qila boshladi. Buni yaxshi, ilg`agan tadqiqotchilar rus tilidagi tilshunoslik ilmida bugungi kunda kognitiv va konseptual "Shov-Shuv" yetakchilik qilayotganini, rus tilidagi eng yangi lingvistik tadqiqotlarning aksariyatida "konsept" so`zining qo`llanishi birinchi o`ringa chiqqanligini afsus bilan aytmoqdalar, hazilga

moyil mutaxassislar kinoya bilan tilshunoslar orasida "konseptovit" degan kasallik tarqalgan deb mutoyiba qilayotganini ham qayd qilmoqdalar. Ularning quyidagi fikrlariga ham qo`shilmaslik mumkin emas: "Bugun Shu narsa aniq bo`ldiki, til, haqiqatan ham, antropotsentrik, etnotsentrik va egotsentrig`sdir. Tilshunos esa mantiq va psixologiyaga, kognitiv va kommunikativ fanlarga qanchalik ehtiborli bo`lmasin, ularning ma`lumotlaridan foydalangan holda lingvotsentrik bo`lmog`i shart".

Hozirgi antropotsentrik tilshunoslikka, demakki, uning bag`rida shakllangan lingvoMadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik kabi yo`nalishlarning paydo bo`lishiga dastlabki asos sifatida xizmat qilgan V.Gumbolg`dt va uning izdoShlari (L.Veysgerber, E.Sepir, B.Uorf va boshqalar)ning qamrovli g`oyalarida tilning dunyoni bilishdagi o`xshashsiz roli ko`rsatib berilgan. Ular tillar orasidagi mavjud sezilarli semantik farqlarga asoslanib, til insonlarning tafakkuri va bilish jarayonini va shu tariqa ularning ongida paydo bo`ladigan dunyoqarash va yaxlit olam manzarasini belgilab berishi haqidagi xulosaga kelganlar. Bu xulosaning mohiyati shuki, turli tilda gapiradigan odamlar olamning bir-biridan farqli manzaralarini yaratadilar, dunyoni farqli tarzda idrok etadilar.

Albatta, har bir xalqning o`ziga xos milliy tafakkur tarzi mavjud. Mashhur amerika tilshunosi Benjamin Li Uorf «Agar Ng`yuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o`ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo`lardi» degan g`oyani ilgari surganida, ana shu ingliz tili asosidagi o`ziga xos ingliz tafakkur tarzini nazarda tutganligi tabiiy. "Til orqali reallashadigan tafakkur tarzining o`ziga xosligi borliqni ko`rishning, idrok etishning ham ma`lum ma`nodagi o`ziga xosligidir. Har bir xalq o`zicha ko`radi, eshitadi, zavqlanadi. Misol uchun, chittak degan qush nomini olaylik. Bu qushni nomlashda o`zbek uning harakatini asos qilib olgan. Bu qush tez harakat qiladi («chit-chit»), o`zbek shu harakatni dastlab ko`rgan bo`lsa, rus kishisi bu qushning rangini dastlab ko`rgan. U ana shu rangni nomga asos qilib olib, ayni qushni sinitsa deb nomlagan. Yoki o`zbek tovuqning bolasi chiqaradigan tovuShni "jip-jip" tarzida eshitadi, shuning uchun uni jo`ja deb ataydi. Rus esa «tsip-tsip» deb eshitgani uchun uni tsiplyonok so`zi bilan ataydi. Bu juda oddiy misollar, aslida har bir xalqning dunyoni o`zicha ko`rishi va eshitishi, idrok etishi behad murakkab tarzda kechadi".

Ko`pincha tilni ko`zguga mengzaydilar, go`yoki til ko`zgu kabi mavjud narsalarni qanday bo`lsa, shundayligicha, hech bir o`zgarishsiz, aynan aks ettiradi. Aslida esa to`lig`icha shunday emas, til dunyoni aks ettirar ekan, mutlaqo tabiiy ravishda unga o`zidan ham nimalarnidir "qo`shadi" unga o`ziga xos Shamoyil va tartibot beradi. V.M.Shaklein aytganiday, "tilni "olamning ko`zgusi" deyishga asos bor, ammo bu ko`zgu ideal emas, chunki u dunyoni bevosita emas, balki odamlar jamoasining subyektiv bilishi, idroki kesimida aks ettiradi".

Yana bir bor tahkidlash joizki, olamning lisoniy manzarasini inson ongida mavjud olam manzarasining til vositalari orqali shunchaki aks etishi natijasi sifatida talqin qilish tilday bemisl qudratni benihoya jo`nlashtirishdan boshqa narsa emas. Olamning kognitiv manzarasining bunyod bo`lishida, umuman, bilish (kognitsiya) deyiladigan izchil amalning muayyan maqsad manziliga yetishida til quyushqonining qathiy qoidalaridan aslo ko`z yumib bo`lmaydi. Shuning uchun

ham kognitiv tilshunoslikda til inson miyasida amalga oshadigan barcha mental jarayonlarni, inson ongini anglashning vositasi sifatida qaraladi, lisoniy birliklar o'z-o'zicha emas, balki ular aloqalangan kognitiv tuzilmalar bilan birgalikda o'rganiladi; bilimlarning ortishi va taraqqiy qilishiga olib keluvchi barcha jarayonlarda tilning mutlaq roli ehtirol etiladi.

Falsafiy, badiiy, ilmiy kabi olamning turli manzaralarida tilning o'rnini va ayni paytda bu manzaralarning tildagi o'rnini aslo inkor etib bo'lmaydi. Tadqiqotchilar haqli ravishda tahkidlaganlaridek, til olam manzarasi bilan bog'liq ikki jarayonda bevosita ishtirok etadi, yahni, birinchidan, inson Shuuridagi olam manzarasining eng teran qatlami bo'lmish olamning lisoniy manzarasi aynan til bag'rida shakllanadi; ikkinchidan, tilning o'zi insondagi olam manzaralarining boshqa turlarini ifodalaydi va namoyon (eksplikatsiya) qiladi; Shu tariqa alohida individlar tomonidan qo'lga kiritilgan tajribaviy bilimlar faqat til yordamida jamoa (xalq) tajribasiga, jamoa mulkiga aylanadi. Shuning uchun ham olamning lisoniy manzarasining alohida maqomga ega ekanligini aytish maqsadga muvofiqdir. Ayrim tilshunoslarning bu boradagi quyidagi fikrlarida ayni haqiqat o'z aksini topgan: "Olamning lisoniy manzarasi maxsus olam manzaralari (kimyoviy, fizikaviy va boshqalar) bilan bir qatorda turmaydi, olamning lisoniy manzarasi ulardan oldin bo'lib, mazkur manzaralarni shakllantiradi, chunki inson til tufayligina olamni va o'zini anglash qobiliyatiga ega... Tilning o'ziga xosligiga ko'ra uning sohiblari ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi paydo bo'ladi, chunki inson til prizmasi orqali dunyoni ko'radi". Demakki, xalqning dunyoni milliy ko'rish tarzi va idrok intizomi, eng avvalo, shu xalqqa oid olamning lisoniy manzarasida qayd etiladi.

Olamning lisoniy manzarasi tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilida barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlar, dunyoni anglash va bo'laklash usullarining jami bo'lib, u mazkur til sohiblarining barchasi uchun odatiy, tabiiy va majburiydir. Ayni shu odatiylik, tabiiylik va majburiylik olam lisoniy manzarasining bardavomligini, tarixiy davrlararo til jamoasida (qavm, xalqda) tirikligi va vorisiyligini, avloddan avlodga o'tib kelaverishini tahminlaydi.

Shubhasizki, olamning lisoniy manzarasi yaralishi va tashakkulida til sathlarining barchasi ishtirok etadi. Shunga qaramasdan, olam lisoniy manzarasining yaralishi va aks etishida tilning, ayniqsa, lug'at boyligi, yahni leksik(-frazologik) sathning alohida o'rin tutishini tahkidlash joiz. O.A.Kornilov har bir konkret til o'z lug'ati bilan milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan o'z lisoniy manzarasini namoyon qilishini ishonarli tarzda asoslab bergan. Bugungi tilshunoslikda kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida barcha xususiy fanlar tomonidan ishlab chiqilgan olam haqidagi bilimlarning jami "olamning ilmiy manzarasi" nomi bilan umumlashtiriladi va barcha xalqlar uchun yagona invariant mazmunga ega bo'lgan bunday olam manzarasi har bir milliy tilda milliy terminologiyaning shag'ullanishi vositasida milliy ifoda shakllariga ega bo'lishi tahkidlanadi. Muayyan fan tarmog'iga daxldor olam manzarasining lisoniy inhikosi "olamning kasbiy lisoniy manzarasi" tarzida nomlanadi va umuman olamning milliy ilmiy manzarasidagi kabi uning asosini mazkur fan tarmog'iga oid terminologiya tashkil etishi qayd etiladi<sup>16</sup>. Umuman, olamning lisoniy manzarasining bunyod bo'lishida tilning lug'at boyligi,

shu jumladan, terminlar, shuningdek, frazeologik iboralarning alohida o`rin tutishi hozirgi antropologik tilshunoslikda ehtirol etib bo`lingan qoidalardandir.

Shu narsa ham eski haqiqatki, yer yuzida tamoman sof, boshqa bir tildan so`z yoki termin o`zlashtirmagan birorta til yo`q. Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida turli, uzoq-yaqin xalqlar o`rtasidagi turli darajadagi aloqalarning tabiiy natijasi o`laroq bu xalqlar tillarining biri boshqasiga ta`sir ko`rsatgan, ularning biridan boshqasiga, ko`pdir-kamdir, muayyan miqdordagi so`z o`tgan^ albatta; bu jarayonlar tabiiy-ixtiyoriy ravishda yoki ba`zan majburiyat-tazyiq ostida voqelanganligi ma`lum. Bu jarayonlarga tilshunoslarning, filologlarning, umuman, ziyolilarning munosabatlari hech bir zamonda aynan bir xil bo`lgan emas, bu hodisani ayrimlar tilni boyitishga xizmat qiladigan ijobiy jarayon sifatida baholasalar^ ba`zilar tilning sofligiga putur yetkazadigan tamomila zararli hodisa sifatida talqin qiladilar. Bunda ko`pincha keragidan ortiq radikalizm ko`zga tashlanadiki, bu xorijiy so`zni o`zlashtirishda me`yor masalasini; obyektiv omillarni, tilning tabiiy taraqqiyot tamoyillarini ehtiborga olmaslik natijasidir.

Ona tilini har qanday ochiq yoki pinhoniyl sun`iy-siyosiy zug`umlardan, tilning milliy-tabiiy tabiatiga yot bo`lgan ta`sirlardan, uning o`z yurtida emin-erkin yashashday qonuniyl xuquqini poymol etuvchi har qanday g`irrom harakatlardan qo`rish, asrab-avaylash bu tilda alla eshitgan faqat olim emas, balki odam bo`lganlarning ham barchasi uchun farzdir. Shuning uchun ham Yurtboshimiz rahnamoligida o`zbek tilining davlat tili maqomini kafolatlagan, bu tilni har qanday qutqudan qo`riqlaydigan "Davlat tili haqida"gi qonunimiz bilan istiqloлга qadam qo`ydik.

Dunyoning ko`plab mamlakatlarida o`z tillarining sofligini saqlash borasida jiddiy ishlar olib borilmoqda. Bunda asosiy sahy-harakatlarning bosh yo`nalishi xorijiy so`zlarning o`zlashtirilishini qonun yo`li bilan cheklashga qaratilayotgani ham bejiz emas. Masalan, Isroilda xorijiy o`zlashmalarning ivrit adabiy tilida qo`llanishini taqiqlovchi qonun mavjud bo`lib, u hukumat huzuridagi Ivrit tili akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, Frantsiyadagi til haqidagi qonunchilik ingliz tilidan o`zlashgan leksikaning savdo-reklama mahsulotlarida qo`llanishiga yo`l qo`ymaydi. Bunday misollar juda ko`p.

Dangal aytgap lozimki, boshqa tildan so`z o`zlashtirish o`zlashtiruvchi tildagi olamning lisoniy manzarasiga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Muayyan tildagi olamning lisoniy manzarasidagi mavjud muvozanatni buzmasliqday maqbul maqsad bilan har qanday xorijiy o`zlashmaga g`ov qo`yishga urinaverish to`g`ri bo`lmaydi. Chunki bu, ayniqsa, globallashuv asri atalmish bugungi Shiddatli, makonu masofani pisand etmaydigan zamonda mumkin bo`lmagan yumuShdir.

Ayrim tadqiqotchilar so`nggi yillarda rus tilida, ayniqsa, ingliz tilidan so`z o`zlashtirish jarayonlari juda faollashganligini tahkidlamoqdalar, bu hodisani rus tili taraqqiyotidagi yetakchi tamoyillardan biriga aylanganligini aytmoqdalar. Biznes, internet, komp`yuter texnologiyalari, elektron OAV kabilar bilan bog`liq g`arb hayoti realiyalari bilan birgalikda ingliz tili leksikasi katta miqdorda rus tilini to`ldirayotgani jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida til rivojining qudratli omillaridan biri sifatida namoyon bo`layotganini qayd etmoqdalar<sup>18</sup>. Zamonaviy ilg`or fan, texnika, texnologiyalar bilan bog`liq tushunchalarni ifodalovchi chet

soʻzlar, xususan, ingliz (amerika varianti) tili soʻzlari juda koʻplab tillarga kirib bormoqda. Hatto boshqa tillar taʼsiriga oʻta huShyorlik bilan qaraydigan bugungi yaponlar tilidagi kompgʻyuter texnikasiga oid terminologiyaning naqd 99 foizi ingliz tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlardir

Tabiiyki, insonning (xalqning) dunyoni bilish darajasi, uning tasavvuridagi olam manzarasi, bilimlar majmui bir joyda turmaydi, u muttasil rivojlanib boradi, natijada mazkur manzara tarkibida yangi-yangi tushunchalar, konseptlar paydo boʻladi. Boshqacha aytganda^ olam manzarasi, yahni "konseptosfera" boyib boradi. SH.Safarov oʻrinli qayd etganiday, "albatta, konseptosfera turgʻun hodisa emas, uning hududi doimo kengayib, insonning voqelikni idrok etishdagi ehtiyoji va imkoniyatlari oʻsib borgani sari uning konseptlar zaxirasining miqdori oShadi, mundarijasi murakkablashadi. Individlarga xos konseptosferalar; oʻz navbatida, alohida ijtimoiy guruhlar - sotsiumlar, etnik guruhlar va, nihoyat, millatlar konseptosferasining tarkib topishi uchun asos boʻladi. Milliy konseptosfera maydonidan oʻrin olgan konseptning mundarijasi yanada kengayadi, u milliy-madaniy qiymatli birlikka aylanadi"<sup>20</sup>. Muayyan bir xalqning konseptosferasidagi, yahni milliy olam manzarasidagi ana shunday bir konsept, joʻnroq qilib aytganda, bir tushuncha boshqa xalqning milliy olam manzarasiga oʻtishi mumkin. Bu, albatta, u yoki bu darajadagi ehtiyoj natijasida yuz beradi. Masalan, bundan yuz ellik yillar ilgari ixtiro qilingan masofadan turib ovozi aloqani tahminlaydigan maxsus asbobni bilmaydigan xalq yoki millatni topib boʻlmaydi, bu asbob dunyoning barcha burchaklariga, qaerda ancha oldin-qaerda nisbatan keyin kirib borib boʻlgan. Ixtiro qilingan paytda "telefon" deb nomlangan bu asbob bugun dunyoning deyarli barcha tillarida, shu jumladan, oʻzbek tilida ham ayni nom bilan (aynan yoki muayyan fonetik variantlarda) ataladi, mazkur xorijiy nom dunyodagi aksariyat tillarga oʻzi nomlangan predmetta boʻlgan ehtiyoj tufayli oʻzlashib boʻlgan.

Bunday oʻzlashtirish dunyo tillarining barchasida obyektiv holat boʻlib, uning mohiyati xorijiy olam manzarasidan tushuncha oʻzlashtirishdan iborat. Tabiiyki, buning natijasida soʻz oluvchi tildagi olamning konseptual manzarasi kengayadi<sup>21</sup>. Albatta, bunday oʻzlashmalar olamning lisoniy manzarasiga sezilarli darajada taʼsir qiladi, yahni bu manzaradagi boʻShliq (lakuna)ni toʻldiradi<sup>22</sup>, toʻgʻrirogʻi, bunga muvofiq ravishda oʻzlashtiruvchi tilning lisoniy manzarasi ham boyiydi. Oʻzbek tilidagi kompgʻyuter texnikasi bilan bogʻliq soʻz(termin)larning aksariyati xorijiy oʻzlashmalar (ingliz, rus tillaridan) ekanligini eslash va bu holatning tabiiy ekanligini ehtirol etish mumkin, ular tushuncha bilan birga soʻz oʻzlashtirishning tabiiy natijasidir. Bu xorijiy soʻz oʻzlashtirishning birinchi tipi boʻlib, oʻzlashtiruvchi til sohiblari bunday usulda oʻzlashtirilgan soʻzlarga unchalik ham gʻashlik bilan qaramaydilar (garchi har qanday xorijiy soʻzni nomaqbul holat deb qarovchilar yoʻq boʻlmasa-da). B.A.Serebrennikov toʻgʻri qayd etganidek, "tushuncha + soʻz" tarzidagi oʻzlashtirish eng kam ijtimoiy qarshilikka uchraydigan yoʻldir, chunki bunda oʻzlashtiruvchi tildagi konseptosfera ham, olamning lisoniy manzarasi ham kengayadi, ular oʻrtasida simmetriya voqelanadi<sup>23</sup>. Xorijiy tushuncha oʻzlashtirilar ekan, u bilan birga bu tushunchani ifodalovchi xorijiy soʻz oʻzlashtirilmasdan, bu tushuncha uchun oʻzlashtiriluvchi tilning oʻz soʻzi tanlanishi yoki yangi soʻz yasalishi (kalgʻka) ham mumkin. Masalan, ruecha



"predprinimatelg`" tushunchasi o`zlashtirilar ekan, uni nomlash uchun o`zbekcha "tadbirkor" so`zi tanlangan va bu so`z o`zbektilining faollug`atidan joy olgan. Yoki "sotovaya svyazg`" tushunchasini o`zlashtirishda mazkur ruscha birlik o`zbek tiliga kalg`kalash yo`li bilan olingan, yahni o`zbek tilida "uyali aloqa" tarzidagi nominativ birlik yasalgan. Albatta, tushuncha

o`zlashtirishning bu ko`rinishida ham olamning konseptual manzarasi bilan bir qatorda o`zlashtiruvchi tildagi olamning lisoniy manzarasi ham boyiydi, yahni o`zlashtiruvchi tildagi muayyan so`z yangi ma`no kasb etadi yoki yangi birlik paydo bo`ladi.

O`zlashtiruvchi tilda mavjud bo`lgan tushunchani nomlash uchun boshqa tildan so`z olish so`z o`zlashtirishning yana bir alohida, ikkinchi tipidir. Masalan, biror asar, ixtiro va sh.k.ning yaratuvchi tushunchasi o`zbek milliy-madaniy olam manzarasida mavjud va bu tushuncha "muallif" so`zi bilan ilgaridan ifodalangan, ammo muayyan subyektiv majburiyat ostida xorijiy tilda mazkur tushunchani ifodalovchi "avtor" so`zi o`zbek tiliga o`zlashtirilgan (bugun o`zbek tilida eskidan mavjud "muallif" so`zi tiklanib, bu o`zlashma istehmoldan deyarli chiqib bo`ldi). Bu tipdagi so`z o`zlashtirishda oluvchi •til sohiblari ongidagi olamning konseptual manzarasida o`zgarish sodir bo`lmaydi, o`zgarish faqat oluvchi tildagi olamning lisoniy manzarasigagina daxldor bo`ladi. Bu holat mazkur ikki tip so`z o`zlashtirish o`rtasidagi printsiplial farqning mohiyatini belgilaydi. Shuning uchun ham ingliz tilidagi tilshunoslik terminologiyasida ko`pincha mazkur ikki tipdagi o`zlashtirish farqli terminlar bilan nomlanadi, yahni: tushuncha va uni ifodalaydigan so`zni birgalikda o`zlashtirish - "borrowing" mavjud bo`lgan "o`z" tushunchani ifodalash uchun boshqa tildan so`z o`zlashtirish - "loaning"<sup>24</sup>. Anglashilib turganiday, birinchi tipning real va pirovard maqsadi yangi tushunchani o`zlashtirishdan iborat bo`lsa, ikkinchi tipning realva pirovard maqsadi faqat xorijiy so`znigina o`zlashtirishdan iborat. Buning ustiga, birinchi tip so`z o`zlashtirish obyektiv asoslarga egaligini, ikkinchi tip esa ko`proq muayyan subyektiv sabablar bilan bog`liq ekanligini sezmaslik mumkin emas.

Alohida qayd etish joizki, so`z o`zlashtirishning birinchi tipi konseptual olam manzarasining to`lib-to`liqib borishida va, demakki, til leksikasining taraqqiyotida yetakchilik qiladi. Masalan, keyingi yillarda o`zbek kurashi dunyo sporti silsilasidan joy olib ulgurdi, jahonning turli xalqlaridagi konseptual olam manzarasiga muayyan konsept sifatida kirib bordi, ana shu tariqa o`zbekcha "kurash" so`zi (uning qoidalariga daxldor "yonbosh" "halol", "chala" "g`irrom" "dakki" "to`xta" kabi terminlashib ulgurgan so`zlar bilan birga) turli tillardagi olamning lisoniy manzarasida muqimlashdi, albatta, ularning leksikasi boyidi. Yoki o`zbek tilidaruschadagi "kvas" "sutka" so`zlari ifodalaydigan tushunchalar alohida so`z bilan nomlanmagan, chunki bu tushunchalar o`zbek milliy-madaniy olam manzarasida mavjud emas edi. Mazkur tushunchalar va ularni ifodalovchi so`zlar o`zbek tiliga o`zlashgan, tabiiyki, o`zbekning konseptual va lisoniy manzarasini boyitgan.

O`zbek tili leksikasi taraqqiyoti tarixida, ayniqsa, o`tgan asrning 20-30-yillarida so`z o`zlashtirish jarayonlarida xilma-xil, notekis holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, o`sha davrda xalq hayotiga kirib kelgan turli yangiliklar va ular

bilan bog`liq tushunchalarni nomlashda xorijiy so`zdan emas<sup>^</sup> balki faqat o`z so`zlardan yoki yangi so`z yasashdan foydalanish tamoyiliga asoslanilgan. Masalan, "velosiped" "traktor", "paroxod" "parovoz" tushunchalarini ifodalash uchun "jinarava" ("Shaytonarava"), "o`tomoch" "suv ayg`iri" "otasharava" kabi o`zbekcha yasama birliklar hosil qilingan, tabiiyki, o`sha davrda xalqning texnika taraqqiyotining bu darajadagi mo`hijzalarini tasavvurga sig`dirolmasligi, cheksiz hayrati natijasio`laroqyuzagakelganmazkurso`zlarxalqtasavvurotiningso`ddaligi natijasidir. Albatta, vaqtlar o`tishi bilan bu juda jo`n tasavvur mahsuli bo`lgan o`z so`zlardan voz kechilib, xorijiy ayni "velosiped" "traktor" "paroxod" "parovoz" so`zlarining o`zi o`zlashtirilgan. Shuningdek, o`sha davrlarda "vodorod" ("gidrogen") tushunchasini ifodalash uchun oldin arabcha "muvallidulmo" keyinroq o`zbekcha "suvchil", "suvtug`dirgich" so`zlari, "kislrod" ("oksigen") tushunchasini ifodalash uchun oldin arabcha "muvallidulhamuza", keyinroq o`zbekcha "achchil" "achchiqtug`dirgich" so`zlari qo`llangan<sup>25</sup>. Ammo bu so`zlarning birontasi ham o`zbekcha olamning lisoniy manzarasidan muqim o`rin olmadi, borib-borib, o`zbek tili leksikasi mazkur tushuncha bilan birgalikda o`sha ruscha "kislrod" va "vodorod" so`zlarini o`zlashtirdi. Bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin.

. Jamiyat tarixining jiddiy evrilishlari davrida xalqning milliy uyg`onishi alohida kuch va surhat kasb etishi tabiiy. Bunday paytlarda milliy ma`naviyat, madaniyat va mahrifat muammolari qatorida tilga, uning lug`at boyligining soflixiga ayri-ayri munosabat voqelanadi, bu benihoya maqbul bir holat. Ammo ko`pincha bunday harakatlar me`yor, mo`htadillik, xolislik kabi to`g`ri yo`ldan chiqib, radikallikka tomon toyib ketadiki, bu tilning tabiatigaxos bo`lgan qonuniyatlarni to`g`ri baholay olmaslik, uning leksik taraqqiyotini tahminlaydigan ichki va tashqi omillar nisbatini yetarli belgilay bilmaslik bilan bog`liq. Yaqin tariximizdagi bir-ikki misol bilan buni ko`rsatish mumkin. Tegishli tushuncha bylan birgalikda tilimizga o`zlashib bo`lgan, o`z so`zimizga aylanib ketgan "institut" "aeroport" "arxiv" "stadion", "gazeta" "jurnal" "fakulg`tet" kabi so`zlarni xorijiy so`z "tamg`asi" bilan tildan chiqarib, ularning o`rniga "oliygoh", "tayyoragoh", "hujjatasrovxona" "o`yingoh" "ro`znoma" "majalla" ("oynoma" "oybitik"), "kulliyot" kabi go`yoki o`zbekcha so`zlarni tilga kiritishga urinish aniq bir ehtiyoj talabi bo`lmagani uchun bunday "islohotlar" tildan tashqarida qolib ketdi. Zukko tilshunos akademik A.Hojiev benihoya to`g`ri qayd qilganidek, "bunday urinish o`zbek tiliga, uning istehmolchisiga zarardan boshqa narsa keltirmaydi".

Bugun mustaqil Uzbekistonda tamomila yangi, erkin, huquqiy-demokratik davlat barpo qilingan, unda ma`naviy-mahrifiy va iqtisodiy islohotlar Shiddat bilan rivoj topmoqda. Bu davlat tenglar ichida teng sifatida barcha sohalarda dunyo bilan bo`ylashib turibdi. O`zbek tilining lug`at boyligi ham Yurtboshimiz rahnamoligida shakllangan xolis til siyosati bois muntazam takomil topib bormoqda. Mustaqillik davridagi o`zbek tili leksikasi va terminologiyasi taraqqiyotidagi faktlar Shuni ko`rsatadiki, so`z o`zlashtirishning birinchi tipi benihoya keng tarqalgan. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mahrifiy, iqtisodiy, ilg`or texnika va texnologiyalarga oid quyidagi kabi so`z va terminlar aynan xorijiy so`z o`zlashtirishning birinchi tipiga oiddir: brifing, broker, barter<sup>^</sup> lizing, biznes, birja, grant, dividend, defitsit, profitsit, investitsiya.

investor, marketing, internet, onlayn, kompg`yuter, printer, server, fayl, sayt, veb-sayt, vinchester, reyting, fleshka, imij, litsey, kollej, gimnaziya, bakalavr, magistr, test, grant, mulg`timedia, modernizatsiya, diversifaktsiya, diagnostika va h.k. Bunday xorijiy o`zlashmalar nafaqat tegishli sohalar doirasida, balki, umuman, keng omma nutqida ham bemalol va erkin qo`llanmoqda. Masalan: Markaziy saylov komissiyasining kengaytirilgan onlayn majlisi bo`lib o`tdi ("Xalq so`zi", 2015, 28 mart). Esingizda bo`lsin, kitob.uz saytila savollarni oldindan yuborish imkoni mavjud ("Mahrifat" 2012, 18 aprelg`). Eng yaxshi veb-saytlar aniqlandi ("Mahrifat" 2015, 21 yanvarg`). Uzbekistonda kreditlash tizimi jahon reytingida yuqori pog`onaga ko`tarildi ("Ishonch" 2014, 1 noyabrg`).

Shuni ham ta`kidlash lozimki, dunyoda fan va texnologiyalarning yuksalishiga hamohang ravishda jamiyatda umumiy taraqqiyot darajasining o`sib borishi va mamlakatlar o`rtasidagi turli sohadagi aloqalarning muntazamlashishi hamda mustahkamlanishi bilan jamiyat a`zolarining o`z tilidagi xorijiy o`zlashmaga nisbatan tamoman salbiy munosabati anchayin susayadi.

Xullas, bugun mustaqillik davri o`zbek tili leksikasi va terminologiyasida so`z o`zlashtirishning birinchi tipi ko`lam kasb qilganligini, faollashganligini, ikkinchi tipi esa sezilarli darajada passivlashganligini ta`kidlash mumkin. Bu holat o`zbek tili leksikasi va terminologiyasi rivojidadagi o`ziga xos tamoyillardan biri ekanligini ehtirol etmoq joizdir.

## **6-MAVZU: LINGVOKULTUREMA – LINGVOKULTUROLOGIYANING ASOSIY TUSHUNCHASI VA ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA (2 SOAT)**

### **REJA:**

1. Lingvokulturologiya tushunchalarining talqini.
2. Lingvomadaniy paradigma.
3. Lingvokulturema.
4. Madaniy fon. Madaniy sema. Madaniyat tili. Madaniy matn. Submadaniyat.

Tayanch so`z va iboralar: *lingvomadaniy paradigma, lingvokulturema, madaniy sema, madaniyat tili, madaniy matn, submadaniyat, madaniy universalিয়া, madaniy salohiyat, madaniy an`analar, madaniy jarayon, madaniy makon, madaniy bo`yoq (konnotatsiya), mentallik, konsept.*

Lingvokulturologiya fanning maxsus sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikka bir qancha tushunchalarni olib kirdi: lingvokulturema, madaniy til, madaniy matn, madaniy kontekst, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniyatning pretsedent nomlari, madaniyatning ochuvchi tushunchalari, madaniy universalিয়া, madaniy kompetentsiya, madaniy meros, madaniy an`analar, madaniy jarayon, madaniy qoidalar, mentalitet, mentallik, rasm-rusum, odam, marosim, madaniy makon, madaniy tip, tamaddun (sivilizatsiya) kabi.

Madaniy axborotni til birliklarida ifodalanishiga yordam beruvchi tushunchalar: madaniy sema, madaniy fon, madaniy konseptlar, madaniy konnotatsiyalar bu fan uchun muhim ahamiyatga ega.

Madaniy semalar – soʻz, semantik birliklar, belgilarga nisbatan juda mayda va universaldir. Masalan, palov – guruchdan tayyorlanadigan oʻzbek quyuq taomi. Piyma – jundan bosib ishlangan rus poyabzali.

Madaniy fon – ijtimoiy hayot va tarixiy voqealarni bildiruvchi atov birliklar tavsifi: *Joʻji keldi, boʻji keldi*;

Yuqoridagi madaniy axborot tashuvchi ikki birlik denotatda joylashgan boʻladi, lingvooʻlkashunoslar tomonidan keng oʻrganilgan.

Madaniy konseptlar – mavhum tushunchalar nomi, shuning uchun madaniy axborot signifikatda – maʼnaviy yadroda joylashgan boʻladi.

Madaniy meros – madaniyat uchun muhim boʻlgan axborot hamda qadriyatlarning uzatilishidir.

Madaniy anʼanalar – ijtimoiy va madaniy meros qimmatli elementlarining jamlanmasidir.

Madaniy jarayon – madaniy hodisalar tizimiga kiruvchi elementlarning birgalikdagi harakati.

Madaniy makon – madaniyatning uning namoyandalari ongidagi mavjudlik shakli. Madaniy makon kognitiv makon bilan muShtarak xususiyatga ega, yoki ular muayyan milliy madaniy jamoaning har bir aʼzosi individual va jamoaviy makonlari yigʻindisi boʻlib Shakllanadilar. Masalan, ingliz madaniy makoni.

Lingvomadaniy paradigma – dunyoqarashning milliy, ijtimoiy, tarixiy va ilmiy kategoriyalarini aks ettiruvchi til tuzumlari yigʻindisidir. Lingvomadaniy paradigma oʻzida konseptlar, kategorial soʻzlar, madaniy pretsendent nomlari va boshqalarni jamlaydi.

Til tuzumlari – paradigmalarning asosi boʻlib, qimmatli tasavvurlardan iborat boʻladi.

Mentallik – ona tili kategoriyalari va tuzumlari orqali olamni qayta tiklashdir. Unda milliy xarakterning aqliy, maʼnaviy va irodaviy sifatlari jamlangan boʻladi. Mentallikning birligi esa mazkur madaniy konseptdir.

A.Ya.Gurevich fikricha, mentallik dunyoni qabul qilish usulidir. U mantiqan kashf etilmagan va reflekslashmagan boʻladi. Mentallik – falsafiy, ilmiy yoki estetik tizim emas, u ijtimoiy ong bosqichi boʻlib, unda maʼno his-hayajon, yashirin odat va anglash usullari hali ajratilmagan boʻladi. Demak, mentallik insonlarning maʼnaviy birlashishi uchun koʻrinmas minimum hisoblanadi, uningsiz biror jamiyatni tashkil qilib boʻlmaydi.

Xalqning mentalligi tilning nisbatan muhim konseptlarida faollashadi.

Mentalitet (oʻzlik) – biror millatning mentalligi, aqliy boyligi, ruhiy xazinasining ichki tuzilishi va farqlanishini aks ettiruvchi kategoriyadir. Unda ruhiy lisoniy intellekt, turli miqyosdagi lisoniy madaniy jamoaviylik namoyon boʻladi. Ilmiy adabiyotlarda mentalitet ijtimoiy-madaniy, lisoniy va geografik omillarga bogʻliq chuqur ong tuzumi ekanligi tahkidlanadi. Yu.D.Apresyan, Ye.S.Yakovleva, O.A.Kornilovlar milliy mentalitetning oʻziga xos jihatlari til bosqichidan tashqari, olamning konseptual manzarasida ham aks etgan boʻladi, deb ehtirol etadilar.

Ularning har biri tashqi olamning o`ziga xos bilvosita namoyishidir. Ular madaniyatning tarkibiy qismlari bo`lmish miflar, bashoratlar, afsonalar, diniy dunyoqarashlarni o`z ichga oladi.

Madaniy an`analar – integral hodisa bo`lib, unda ijtimoiy stereotiplashgan tajriba ifodalanadi.

Madaniy fond – biror madaniyatning tipik vakili egallagan milliy va dunyoviy madaniyat sog`asidagi bilimlar majmuasidir. Biroq bu o`rinda shaxsiy tegishlilik emas, mazkur milliy madaniyatga xos asosiy birliklar yig`indisi ekanligi hisobga olinadi.

Madaniy tip. Madaniyatni tiplashtirish dastlab 1922 yil Rossiyadan chiqarib yuborilgan va AQSHda yashab atoqli sotsiolog bo`lib yetishgan Pitirim Sorokin tomonidan amalga o`shirilgan. U quyidagicha madaniy tiplarni ajratadi: *ideatsion madaniyat* (diniy madaniyat), *sensativ madaniyat* (ideatsion madaniyatga qarama-qarshi tushuncha bo`lib, G`arbiy Yevropada Uyg`onish davrida yetakchilik qilgan); *idealistik madaniyat* (qorishiq va oraliq vazifasini bildiruvchi tip: antik madaniyatning Oltin davri, XII-XIV asr Yevropa madaniyati). Madaniy tip o`z vakillaridan birini shaxs tipi sifatida tanlab oladi.

Madaniyat tili – qadriyat va g`oya shakllari yo`nalishini shakllantiradigan, tasavvurlar, obrazlar, tushunchalarni tashkillaydigan belgilar va belgilar munosabatlari tizimi – belgili moddiyatdir. Madaniyat tili etnik madaniyatga nisbatan xalq madaniyati o`ziga xosliklariga yo`naltirilgan barcha verbal va noverbal aloqaning belgili usullari yig`indisi ekanligi bilan farqlanib turadi. Madaniyat tili boshqa xalqlar madaniyati bilan aloqada aks etadi.

Madaniy qoidalar – Shaxsni yaroqli yoki yaroqsiz sifatida tasniflovchi ideallar turidir.

Madaniy qoidalar xalq bosib o`tgan uzoq tarixiy jarayon davomida ishlab chiqariladi.

Shu qonun va qoidalar bizni hayvonlardan ajratib turadi, tartibsizliklardan saqlab, hayotimizni bir tizimda u`shlab turadi.

Rus xalqining muhim an`anaviy qoidalarni ishlab chiqish borasida N.O.Losskiyning (XX asr faylasufi) konseptsiyasi ancha mashhur bo`lib, uning 1957 yilda nashr etilgan «Rus xalqi xarakteri» nomli kitobida rus xalqining bir qancha ijobiy hamda salbiy jihatlarini ajratib ko`rsatadi.

V.N.Teliyaning fikricha, madaniy qoidalar, masalan, til me`yorlari kabi obligator (majburiy) emas. Milliy madaniyatga qadriyat qoidalari terminlari orqali ifodalanuvchi «xalq donoligi ifodasi» bo`lgan barcha tushunchalarni kiritish mumkin.

Madaniy qadriyatlar inson hayoti davomida turli vazifalarni bajaradi: inson va olam munosabatlarini tartibga soladi, faollashtiradi, yo`naltiradi.

Aksiologiyada qadriyatlar tasnifining bir qancha turlari mavjud. Jumladan, absolyut (mutlaq) yoki abadiy qadriyatlar, jamoaviy, Shaxsiy, biologik yashash qadriyatlari kabilar.

Inson olamni nafaqat tushunadi, shuningdek, manfaat nuqtai nazaridan baholaydi ham. Qadriyatlar tizimi haqidagi til axboroti xalqning dunyoqarashining o`ziga xosliklaridan darak beradi.

Submadaniyat – ikkinchi darajali, tobe madiny tizim (mas., yoShlar submadaniyati).

Asosiy madaniy konseptlarga mavhum otlar, masalan, vijdon, taqdir, iroda, qarz, gunoh, qonun, ozodlik, aql, vatan kabilar kiradi. Ular olam manzarasining asosiy birliklari qatoriga kiradi, til Shaxsi va lingvomadaniy jamoat uchun ekzistentsional (rivojlantiruvchi) ahamiyatga ega.

D.S.Lixachyovning qayd etishicha, konseptlar inson ongida ehtimoliy ma`nolarga ishora sifatida, shuningdek, insonning yetakchi til tajribasi (Shehriy, nasriy, ilmiy, ijtimoiy, tarixiy) sifatida yuzaga keladi.

A.Ya.Gurevich madaniy konseptlarni asosan, ikki guruhga bo`ladi: «fazoviy», falsafiy kategoriyalar - madaniyatning universal kategoriyalari (zamon, makon, sabab, o`lcham, harakat); ijtimoiy kategoriyalar – madaniy kategoriyalar (ozodlik, huquq, adolat, mehnat, boylik, mulk). Konseptlarni yanada yaqinroq tahlil qiladigan bo`lsak, har qanday tilda madaniy xos konseptlar kutilganidan ko`proq ekanligiga guvoh bo`lamiz.

Masalan, bunga mayizni ham kiritishimiz mumkin. Uning xalqda minimal oziq-ovqat etaloni ekanligi, undan *bir mayizni qirq bo`lib yemoq* frazeologizmi kelib chiqqani, *mayizdek qarimoq, qoramayiz bola* kabi o`xshatishlar isbotlab beradi.

Madaniy ochqich konseptlar jamoaviy til ongida muhim o`ringa ega. Shu sababli ham madaniy konseptlar lug`atlari yuzaga kelmoqda. Yu.S.Stepanovning «Konstantq: Slovarg` russkoy kulturq» (M., 1997) bu boradagi ilk tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Madaniy bo`yoq (konnotatsiya) – madaniy kategoriyalar ma`nosidagi denotativ yoki obrazli motivlashtirilgan jihatlarni tabdil qilishdir. Bu termin 1993 yil V.N.Teliya tomonidan kiritilgan.

Lingvokulturema terminini fanga V.V.Vorobg`yov tomonidan kiritilgan. Lingvokulturema sathlararo kompleks birlik bo`lib, o`z mazmunida lisoniy va nolisoniy (tushunchaviy yoki predmetlik) ma`noning dialektik birligini ifodalaydi. V.V.Vorobg`yov lingvokulturemani til belgilari shakllari, ularning mazmuni hamda madaniy ma`nosi yig`indisi sifatida tushuntiradi.

Lingvokulturemalarni tushunish uchun kerak bo`ladigan muhim ma`no sifatida u mazmuni elementi bo`lib imkon sifatida turuvchi tub ma`noni ko`rsatadi. Bu termin hali to`liq Shakllantirilmagan yoki o`rganilmagan. Jumladan, unga til belgisidagi madaniy axborot qanday va qaerda birikadi, tilda qanday joriylanadi kabi masalalar ochiqlicha qolmoqda. Biroq uning til birligida mavjudligi haqidagi faktlar V.Gumbolg`dt davridan buyon keltiriladi.

Madaniy farqlovchilikni topish uchun muhim vosita til birligini muayyan diskurs (matn)ga kiritib ko`rishdir. Bunda madaniy universalialar terminiga ehtiyoj seziladi. Madaniy universalialar badiiy matnda ifodalangan voqelikning madaniyat va an`analar uchun zaruriy barcha umumiy madaniy elementlar (til mavjudligi, mehnat qurollari tayyorlash, jinsoy tahqiqatlar, miflar, raqslar kabi) hisoblanadi. Ular odatda davrning ideologik shtamlari asosini tashkil qiladi.

Masalan, SH.Xolmirzaevning «O`zbeklar» hikoyasidagi madaniy universalialar – Botir cho`ponning ahvolidir. Botir cho`pon va ayolining Ergashga o`zlaridagi birgina tarvuzning yarmini ilinganliklari, o`ta kambag`al bo`lsa-da, hasharchi

yigitlarga oSh qilib berganliklari, ikkitagina qo`yidan birini so`yganliklari tasvirlanadi. Hikoya oxirida Ergashning o`z-o`ziga iqrori bilan bu universalisiya ochib beriladi.

Tilshunoslikda lisoniy va konseptual universalisyalalar ma`lum. A.Vejbitskaya leksik universalisiya sifatida bir qancha so`zlarni ajratib ko`rsatadi: men, sen, hech kim, hech narsa, narsa, insonlar, tana, bu, bir, ikki, barcha, ko`p, yaxshi, yomon kabi. Konseptual univesaliyalar, aniqrog`i, ularning muhim birikuvlari – madaniy universalisyalardir. A.Vejbitskaya yozadi: “Nimadir haqida tafakkur qilish uchun, bizga konseptdan-da kattaroq narsa kerak: bizga konseptlarning fikriy kombinatsiyalari kerak”.

Muallif Sepir-Uorfning nisbiylik nazariyasiga ayrim o`zgartirishlar kiritadi. Uning fikricha, turli tillarga tegishli bo`lgan olamni anglash tizimlarini solishtirib bo`lmaydi, degan fikrga qo`shilib bo`lmaydi; ikkinchidan, kashf etilgan milliy xoslangan konseptlar “semantik primitivlar” tiliga tarjima qilina oladigan darajadagina qiyoslansa arziydi. Shuningdek, har bir til o`ziga xos xususiy “semantik borliq”ni shakllantiradi. “Lisoniy va madaniy tizimlar o`zaro katta farqqa ega, biroq semantik va leksik universalisyalalar umumiy asosga ega. Ular inson tili, tafakkuri va madaniyati asosiga quriladi”.

Lingvomadaniy universalisiya madaniy obraz yadrosini hosil qiluvchi birgina so`z yoki butun bir ifoda yordamida namoyon bo`lishi mumkin.

Madaniy universalisiya, bir tomondan moddiy olamga qaratilgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, xalqning milliy-madaniy, ma`naviy muammolariga yo`naltirilgan bo`ladi. Bunday ikkitomonlamalik ularning semantik hajmi, ramziy ifodaga aylanish qobiliyatini rivojlantiradi. Ular matnning madaniy ishoralaridir. Matn – tilshunoslik va Madaniyatshunoslikning haqiqiy tutashuv nuqtasidir.

Tilning oliy sathi bo`lish bilan birga matn madaniyatning mavjudlik shakli hamdir. Lingvokulturologiya esa tilni madaniy qadriyatlar tizimi sifatida o`rganadi.

Lingvokulturologiyada asosiy o`rinni madaniyatning muhim konseptlari va pretsedent nomlarni o`rganishegallaydi. Pretsedent nomlar deganda juda mashhur matnlar bilan bog`liq (Qori Ishkamba, Maysara, O`tkuriy kabi), vaziyatlar bilan bog`liq (Jaloliddin, Mahmud Tarobiy, SHiroq kabi) atoqli otlarni tushunamiz. O`zbek xalqi madaniyatiga tegishli ayrim atoqli otlar umuminsoniy madaniyaga tegishli ekanligi bilan ham ajralib turadi: Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Amir Temur, Navoiy, Ulug`bek, Registon, Samarqand, Habib Abdulla, Islom Karimov kabi.

Madaniy bo`yoq (konnotatsiya). N.Yu.SHvedova rus tilidagi 20 ta umumiy mazmuniy kategoriyalarni ajratadi: tiriklik, harakat, vaziyat, predmet, o`lcham, makon, zamon va hkz. Bu kategoriyalar tilning mazmuniy ustunlarini tashkil qiladi hamda olamning lisoniy manzarasining mavhum bosqichi hisoblanadi. Biroq har bir xalqning o`ziga xos obrazli bog`langan mexanizmlari bo`ladi. Bu mexanizm ikkilamchi nominatsiyadagi ma`nolarini tushunishga imkon beradi. Masalan, it so`zi rus tilida salbiy jihatlar bilan birga sodiqlik ramzidir, beloruslarda salbiy belgilar yetakchi, turkiy tillarda it – so`kish so`zga yaqin turadi. Shu o`rinda Rossiyada ta`sil olayotgan mo`g`ulistonlik talabalar haqida bir misolni keltirish maqsadga muvofiq. Talabalarga “It – insonning do`sti” mavzusida matn tuzishni topShiriq berishadi. Shunda mo`g`ul yigit savol beradi: Nega it? Ot deb yozsam bo`lmaydimi? Qolganlar

bundan hayratda qolishadi. Mo`g`ul yigit tushuntiradi: It odamga xizmatkor bo`lishi mumkin, ammo do`st bo`lolmaydi.

CHO`chqa so`zi barcha tillarda salbiy bo`yoqqa ega, rusalarda ifloslik, noShukurlik, tarbiyasizlik, vyetnamliklarda ahmoqlik ramzi bo`lsa, musulmon xalqlarda asosan diniy nuqtai nazardan salbiy baho berish kuzatiladi.

Shu tariqa it va cho`chqa so`zlari turi xalqlarda turli xil bo`yoqqa ega, bu esa mazkur xalqlar obrazli tafakkurining o`ziga xosligini ko`rsatadi.

Til va madaniyat o`rtasidagi aloqa vositasi vazifasini asosan tilda ideallashgan va moddiylashtirilgan ma`no kabi elementlar bajaradi.

Lingvomadaniy konsept. «Konsept» termini zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda ko`p uchraydi. Konsept tushunchasiga turli yondashuvlar umumiy lingvo falsafiy asosga tayanadi. Uni asosida Sossyurning til va nutq dixotomiyasi yotadi, yahni «til – nutq» tushunchasi hozirda «tilni anglash – kommunikativ fehl-atvor» deb talqin qilinmoqda. Bunda tilni anglash til tushunchasiga nisbatan keng ma`noda qo`llanadii, chunki tadqiqotchilar ko`p hollarda fenomen bo`lgan va individual ongning verbal Shakldagi holatiga ehtiborlarini qaratadilar. Kommunikativ fehl-atvor bilan nutq orasidagi munosabatga kelsak, bu holatda tadqiqot predmeti kengayganligi kuzatiladi, yahni matndan va uni yozuvda qayd qilingan Shaklidan to biron bir madaniyatda qabul qilingan xulq–atvor namunalariga ko`ra muloqot jarayonida o`zgarib turadigan kommunikant maqsadlari to`plami, kommunikatsiyani noverbal Shakllari, intertekstual aloqalar va boshqalargacha. Lingvistik tadqiq predmeti mazmun doirasining bunday kengayishi immanent lingvistika bilan ziddiyatiga olib keldi.

## **7-MA`RUZA: KONSEPTNING LISONIY VOQELANISH JARAYONI(4 SOAT)**

### **REJA:**

1. Konsept – bilish jarayonida hosil bo`lgan mental tuzilma.
2. Konseptning lisoniy moddiylashuvi.
3. Lisoniy belgi, lisoniy ong, lisoniy idrok.
4. Konsept va konseptosfera.

Tayanch so`z va iboralar: *madaniy an`analar, madaniy jarayon, madaniy makon, madaniy bo`yoq (konnotatsiya), mentallik, konsept, lisoniy belgi, lisoniy ong, lisoniy idrok, konseptosfera.*

«Konsept» termini zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda ko`p uchraydi. Konsept tushunchasiga turli yondashuvlar umumiy lingvo falsafiy asosga tayanadi. Uni asosida Sossyurning til va nutq dixotomiyasi yotadi, yahni «til – nutq» tushunchasi hozirda «tilni anglash – kommunikativ fehl-atvor» deb talqin qilinmoqda. Bunda tilni anglash til tushunchasiga nisbatan keng ma`noda qo`llanadii, chunki tadqiqotchilar ko`p hollarda fenomen bo`lgan va individual ongning verbal Shakldagi holatiga ehtiborlarini qaratadilar. Kommunikativ fehl-atvor bilan nutq



orasidagi munosabatga kelsak, bu holatda tadqiqot predmeti kengayganligi kuzatiladi, yahni matndan va uni yozuvda qayd qilingan Shaklidan to biron bir madaniyatda qabul qilingan xulq-atvor namunalariga ko`ra muloqot jarayonida o`zgarib turadigan kommunikant maqsadlari to`plami, kommunikatsiyani noverbal Shakllari, intertekstual aloqalar va boshqalargacha. Lingvistik tadqiq predmeti mazmun doirasining bunday kengayishi immanent lingvistika bilan ziddiyatiga olib keldi.

Buning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Til haqidagi fanni bunday rivojlanishidagi ijobiy tomonlaridan biri bu bir-biriga yaqin bo`lgan gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalanish, lingvistikani yangi tushunchalar va metodlar bilan boyitish imkoni berilishidir.

Bu o`z navbatida psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika kabi sohalari taraqqiyotiga sabab bo`ldi. Salbiy jihatlarga terminologiyaning noaniqligi va bir fanning turli sohalaridagi mantiqiy uzilishlarni misol qilib keltirish mumkin. Yuqorida aytilgan hamma so`zlar «konsept» terminiga ham taaluqlidir.

Zamonaviy lingvistikada konsept tushunchasi nihoyatda turli-tuman. Konsept ong sohasiga mansub va u faqat tavsifiy-tasniflash emas, balki hissiy-iroda va obrazli-empirik xususiyatlarni ega. Konseptlar anglashdan tashqari, kechinmalar orqali hamidrok qilinadi (Stepanov, 1997, 41 b.).

Agar konseptni va tushunchani yaxlit tushuncha deb olgan ba`zi bir tadqiqotlarni inobatga olmasak, lingvistikada konsept tushunchasini anglashda lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvni tan olish kerak (Vorkachev, 2002).

Konsept lingvokognitiv hodisa sifatida – bu «bizni ongimizni mental yoki psixik vositasida, hamda inson tajribasi va bilimida aks etadigan ma`lumot birligidir; xotirani, mental so`z boyligi, miya tili va konseptual tizimini (lingua mentalis), inson psixikasida aks etgan butun dunyoqarashni operativ mazmun birligidir» (Kubryakova, 1996, 90 b.). Konseptlarni bir qismi til bilan bog`liqdir, boshqa konseptlar qismi esa inson psixikasidagi maxsus mental bo`lgan reprezentatsiyalar – obrazlar, rasmlar, sxemalar va b. namoyon bo`ladi (Shu yerda)

Psixolingvistlar uchun konsept – bu «insonni psixik hayotini qonuniyatlariga bo`ysingan tartibsiz bilish va kommunikativ faoliyat yurituvchi individni dinamik xarakterga ega bo`lgan pertseptiv-kognitiv-affektli hosillalardir; va buni natijasida lingvistik nazariya nuqtai nazarida ilmiy tahrifiga maxsuli sifatida maxmun va mohiyatiga ko`ra bir qator parametrlari bilan ajralib turadi» (Zalevskaya, 2001, 39 b.) (Kazakbaeva tarjimai). Bunda konseptni noverbal tabiati qathiy tahkidlanadi. Bir tomondan konseptni murakkabliligi, ikkinchi tomondan – K.Xardi tahkidlaganidek, har bir konsept «mavjud bo`lgan hamma elementlar va jarayonlar turlarini konstellyatsiyasi hisoblanadi (Shuning uchun har qanday abstrakt tushuncha o`ziga tegishli bo`lgan hissiyot bilan bog`langan bo`ladi) » (tsit. po: Zalevskaya, 2001, s.39) A.A.Zalevskaya bilim va tushuncha kabi individning yutug`i bo`lgan konseptlarni va konseptlarning ilmiy tahrifi mahsuli sifatida mantiqiy ratsional anglangan konstruktlar orasidagi chegaralarini aniq belgilaydi.

Printsipial jihatdan butunlay boshqa tahrif A.Solomingga tegishli. Uning fikricha, konsept – bu konkret hayotiy tushunchalar asosida hosil bo`lgan abstrakt

boʻlgan ilmiy tushuncha (Solomonik, 1995, 246 b.). Bunday yondashuv S.D.Katsnelgʻson fikriga mos keladi, yaʼni izohli lugʻatlarda beriladigan kundalik hayotdagi bilimlarni shakliy va mazmuniy birlamchi tushunchalar bilan moslashni ikkinchi – ilmiy, yaʼni entsiklopedik dugʻatlarda beriladigan bilimlarga qarama-qarshi qoʻygan. A.A.Potebnyaga koʻra bunday bilimlarni tabaqalash soʻzni yangi va qadimgi maʼnosini bir biriga qarama qarshi qoʻyishga tayanadi. Kognitiv lingvistikada qabul qilingan modelgʻ «tasavvur – odatiy tushuncha» hozirgi «tasavvur – odatiy tushuncha – ilmiy tushuncha» Shakliga keltirilmoqda. Odatiy va ilmiy tushunchalar orasidagi farq odatiy tushuncha darajasida oʻz tajribasini tartibsiz ravishda umumlashtirishda va u oʻz navbatida ilmiy tushuncha darajasida deduktiv va induktiv ishlatilishida aks etadi. Albatta bu darajalar orasida oraliqdagi hodisalarni topish mumkin. Mental mohiyat ham bor, ular hali tassavur ham emas, tushuncha ham emas. Konseptni bunday talqin qilinishi oʻz navbatida mantiqiy – semantikdir.

Bizningcha asosli fikr quyidagicha, konsept tushunchaning oʻrinbosari, u «hosil boʻlishi mumkin boʻlgan tushunchaga nishon» hamda «insonni avvalgi tajribasining aks sadosi» (Lixachev, 1997, 282 b.), Boshqacha qilib aytganda konsept lugʻatlarda berilgan kollektiv emas, individual mazmunga ega. Konseptlar yigʻindisi biron bir xalq, albatta shu tilning konseptosferasini hosil qiladi va oʻz navbatida dunyoning lisoniy manzarasi deb hisoblanadi.

Konsept tushunchasiga (madaniy konseptga) lingvomadaniy yondashuv deganda biz konseptni madaniyatning bazaviy birligi, uning kontsentrati deb qabul qilamiz. Yu.S.Stepanov yozishicha, «konsept tizimiga mavjud barcha madaniyatlarga taalluqli faktlar, - uning bosh koʻrinishdagi shakli (etimologiya); tarixni mazmun-mohiyatini asosiy xususiyatlarigacha qisqartmalari; zamonaviy assotsiatsiyalar; baholar va h.» (Stepanov, 1997, 41 b.). Konseptlar koʻp hollarda ilmiy lisoniy manzaraga qarama-qarshi qoʻyiladigan sodda lisoniy manzara bilan bogʻlanadi, tadqiqotchilar bu holnida «amaliy falsafa tushunchalari» boʻlgan «haqiqat», «taqdir», «ezgulik» va h. haqida gapirishadi. «Kundalik hayot falsafasi bir necha omillarni oʻzaro munosabati natijasidir, bular milliy urf-odat va folklor, din va gʻoya, hayot tajribasi va sanʼat siymolari, his-tuygʻu va qadriyatlar tizimidir» (Arutyunova, 1993, 3 b.).

V.P.Neroznakning fikricha, biz qachon milliy madaniyat konsepti haqida gap yuritamiz, qachonki boshqa tilga tarjima qilayotganimizda shu tilda biron bir konseptni aynan toʻgʻri keladigan ekvivalenti boʻlgan soʻz yoʻq boʻlsa: «ekvivalenti boʻlmagan leksika, yoki odatda uni “tarjima qilib boʻlmaydigan soʻzlar” deb ataladigan soʻzlar - haqiqiy leksikondir, shu soʻzlar asosida fundamental milliy-madaniy konseptlarni roʻyxatini tuzish lozim» (Neroznak, 1998, 85 b.). Konseptlarni oʻrganishdagi bu yondashuv juda qiziqarli va juda ham obyektiv. Haqiqatdan ham, Gamlet rus madaniyati konseptimi degan mavzuda munozara olib borish mumkin, ammo, masalan, «poryadochnostgʻ» - ”insoflilik” va «poShlostgʻ» - “razillik, qabihlik” soʻzlari boshqa tilga oʻgirish juda qiyin (Savitskiy, 2003). Konsept tushunchasiga lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi: inson ongida hosil boʻlgan mental Shakldagi konsept sotsiumning konseptosferasiga tiqish degani, yaʼni oxirgi intihosi bu madaniyatdir, konsept esa

madaniyatni birligi sifatida jamoa tajribasi deb qabul qilinadi va u o'z navbatida individ yutug'i bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yondashuvlar individga nisbatan vektorlari bilan farqlanadi: lingvokognitiv konsept – bu individual ongdan madaniyatga qarab yo'nalish, lingvomadaniy konsept – bu madaniyatdan individual ongga qarab yo'nalish. Bunday farqlar muloqotni generativ va interpretativ modellariga mos ravishda qarama qarshi. Bunda biz tashqi xarakatni va ichki harakatga bo'linishini tadqiqotchilarga xos usuli deb bilamiz, aslida esa harakat butun yaxlit bo'lgan ko'p o'lchamli jarayondir.

Lingvomadaniy yondashuv o'z navbatida komponentlari yaxlit bo'lgan madaniy konseptlarni konkretlashgan holda o'rganishdir. Bunda madaniya vakillari uchun qimmatli bo'lgan u yoki bu predmetlarga, hodisalarga, g'oyalarga munosabati inobatga olinadi. Odamlarni xulq-atvorini belgilaydigan qadriyatlar, eng qimmatli belgilar dunyoni lisoniy manzarasini eng muhim qismini tashkil qiladi. Bu qadriyatlar aniq bir butun matnda aks etmagan. Vaholanki etik kodekslar, yahni O'n Ahd kabilar mavjud, ammo ular qadriyatlar orasida juda kam sonlidir. Qadriyatlar madaniyatda uzilgan holda emas, balki bir biri bilan chambarchas bog'langan va ular dunyoviy manzarani qadriyatlarini tashkil qiladi ( lisoniy manzarani bir qismini). Lingvistikada ular madaniy konseptlar sifatida tavsif qilinadi, yahni u yoki bu til Shaklida predmetlashgan jamoa ongida paydo bo'lgan ko'p qirrali, madaniy-ahamiyatli ijtimoiy-psixologik yangiliklardir.

Konseptda eng muhim tomoni – bu « uzluksiz madaniy-tarixiy borliqda mavjud bo'lgan ko'p qirrali va diskretli yaxlit mazmunidir va shuning uchun bir predmet soxasidan ikkinchi soxaga o'tadigan madaniy translyatsiyada (va kulturogen) joylashganligidir» (Lyapin, 1997, 19 s.). Madaniy konseptlarda , bizni fikrimizcha, eng kamida uchta tomonlari bor – obraz (timsol), tushuncha va qadriyat. Shu ma'noda tahkidlash mumkinki, madaniy konseptlar dunyo manzarasini belgilovchi oppozitsiyaga asos bo'lib xizmat qiladi. Ularni farqi birliklarni sonida: oppozitsiyalarni bazasini soni chegaralanganligi, madaniy konseptlarning soni yetarli darajada ko'p bo'lishi mumkin. Bu yondashuvning qimmatli tomoni shundaki, u konseptni samarali tavsifida va o'rganishida psixologik nuqtai nazari asosida tushunishda. madaniy konseptning timsoliy tarkibi psixolingvistik fenomen tarzida konseptni pertsetiv va kognitiv tomonlari korrelyatsiyaga kirishida, ko'rib chiqilayotgan hodisalarda mantiqiy mazmuni tilda namoyon bo'ladi (bunda konseptning ma'no tomonini fatualli deb nomlasa bo'ladi) (Karasik, SlqShkin, 2001, 78 b.). Konseptni tushunish uchun taklif qilinayotgan integral yondashuv shu mental mazmunini turli talqin qilinishida tizimga keltirish imkonini beradi.

Shuni takidlash kerakki, madaniy konseptlar – mazmunan bir xil bo'ladigan hodisa emas. Birinchi navbatda ular jamiyatdagi u yoki bu ijtimoiy qatlamga tahlulqligi bilan ajralib turadi. Boshqacha qilib aytganda, agar jamiyatda ijtimoiy guruhlar aniq ajralib chiqqan bo'lsa, shu guruhlarini konseptosferasi ham mavjud. Etnik xususiyat ajralgan holda mavjud bShlmaydi, ammo ijtimoiy jarayonda ifodalanadi. Jiddiy gapirsak, individuumni sotsioetnik o'zini anglash tushunchasi mavjud, va bu hodisada madaniy konseptlar ajralib turadi. Shubxasis, gap tilni vulg`gan ijtimoilashuvi xaqida gap ketmayapti, biz rus yoki ingliz erkak va ayollari, yoSh va qarilari, ishchi va bankirlari turli tillarda muloqot qilishadi deb

hisoblamaymiz, ularni konseptosferalari sezilarli holda tushunchalar, asosan lugʻataviy maʼnolarida, tuqtai nazarida kesishadi, ammo konseptlar mos kelmaydigan soʻxalar xam yoʻq emas. Individual, mikroguruh, sinflar (va boshqa makroguruhlar) va umummilliy konseptlarni oʻzgarishi – bu sotsiolingvistikani istiqbolli vazifasidir. Shunday qilib, sotsiolingvistikani tuqtai nazaridan madaniy konseptlarni eng kamida uch turga boʻlish mumkin: etnomadaniy, sotsiomadaniy i individual – madaniy. Boshqacha chilib aytganda, butun etnomadaniyat, lingvomadaniyat ichidaga u yoki bu guruhlar, va, albatta, individum uchun dolzarb boʻlgan yangi hosil boʻlgan mental tushunchalar bor. Konsept tushunchasini bunday talqin qilishda turli yondashuvlarni birlashtirish imkonini beradi.

Rus etnomadaniyat konseptiga misol qilib “saxiylik”ni olish mumkin – oʻzining vositalari, boyligi bilan boshqalar bilan boʻlishi qobiliyati (BTS); bu qobiliyat boshqa xalqlarda ham bor, ammo bu xususiyatni muhimlik darajasi va ongli ravishda tahqiqlash kerak boʻladigan vaziyatlardagi tahqiqlashlar yoʻqligi (mehmondoʻstlik sharoitiga mansub boʻlgan tahqiqlashlar) - bu konseptni rus madaniyatining oʻziga hos tanilgan belgisiga aylantiradi. O.A.Leontovich fikricha (Leontovich, 2002), amerikaliklarni lingvomadaniyatini mazmun-mohiyatini belgilovchi eng muhim konseptlar qatoriga mental boʻlgan yangiliklar «self», «rivity», «challenge», «efficiency» kiradi. Masalan, *challenge* soʻziga «Jizng` i kultura SSHA» ( AQSH ni hayoti va madaniyati) lingvomamlakatShunoslik lugʻatida shunday tahrif berilgan: 1) *vazifa*; 2) *muammo*; 3) *sinov*; 4) *chaqiruv*. Bu soʻz – amerikaliklarni milliy xarakterini tushunishda eng muhim soʻz; u jasoratni, oʻzini sinash uchun oʻzini xavf-xatarga borishga tayyor turish, qaltis sarguzashtlar ruhi, raqobatga intilish va hokazolarni bildiradi (Leontovich, SHeygal, 1998).

Rus lingvomadaniyatida mavjud boʻlgan ijtimoiy konseptga “rahm - Shafqat” misol boʻladi – maʼno jihatidan keksa yoShdagilar ongida bogʻlangan; sevish- rahm qilmoq, bunda rahm qilmoq hamdardlik tuygʻusi deb anglanadi, keksa yoShdagilarga xos boʻlgan hamdardlik tuygʻusi bilan birov bilan bogʻlanganlikni birligini bildiradi, bu hayratomuz narsa emas, betashvish yoShlik xursandchilikga qaratilgan, odatda faqat xursandchilik bilan yashayotgan odam beShafqat boʻladi. Ingliz tilida gaplashadigan xalqlar madaniyatida keksalarga bogʻlanganlik uncha namoyon boʻlmaydi, keksalarga nisbatan hamdardlik tuygʻusini koʻrsatish ularga nisbatan kamsitish tuygʻusini bildiradi.

Sotsiomadaniy kontseplar turlidir. YoShiga nisbatan katta odamlar guruhini birlashtiruvchi, genderli, kelib chiqishi, hamda u yoki bu submadaniyatning kichik guruhlariga mansubligini bildiruvchi – uyuShmalardan to oilalargacha hammasi konseptlar qatoriga kiradi.

Individual konseptlar juda ham turli tumandir, bu yerda u yoki bu yozuvchi va faylasufga mansub boʻlgan tayanch iboralarda ifodalangan individual mualliflarning konseptlarini misol keltirish mumkin. Masalan, Arseniya Tarkovskiyni lirik matnlarida uchraydigan «trava» (oʻt - oʻlan) soʻzi umumtilshunoslikdagi maʼnosi bilan bir qatorda maʼnosi kengayib, Shoirni ijodini sugʻoradigan kuch simvoli boʻldi, anglash manbai keyinchalik esa insonni hayot yoʻlini oxiridagi xotira belgisiga aylandi (CHerkasova, 1992). Shunga ehtibor berish kerakki, individual konseptlar har qanday shaxsni konseptosferasini boʻlinmas qismi hisoblanadi.

Ammo agar konseptlarni individual tomoni dominant bo`lsa, u holda muloqot juda ham qiyin o`tadi. Haqiqatdan ham, biz falsafiy va poetik matnlarda individual ma`noni fahmlab olishimiz kerak.

Individual konseptlarni boshqa ma`noda - u yoki bu Shaxsni psixotipini aniqlaydigan konsept sifatida ko`rib chiqish mumkin, masalan, boshqa bir odamlar uchun tinchlik, ko`ngilxotirjamlik, sarishtalik, boshqalar uchun esa – kurash, sarguzashtlar, tavakkalchilik aktuallik kasb etadi. Bunday individual konseptlar biron bir ijtimoiy guruhning xulq-atvorini dominant bo`ladi va sotsiomadaniyat konseptiga aylanadi. Muayyan tarixiy sharoitda ular etnomadaniyat konseptiga aylanadi. Bu holat teskari ham bo`lishi mumkin – kollektivni til ongida konseptni mohiyatini asta sekin so`nishi, misol uchun beozorlik konsepti *muloyimlik*, *kechirimlilik*, *itoatkorlik* deb tushuniladi. Zamonaviy lingvomadaniyatda bu xususiyat diniy hayot tarzida taajjub bilan qabul qilinadi. O`tgan davrlarda beozorlik konsepti kollektiv ongida “kekkaygan” tushunchasiga qarama-qarshi konsept sifatida faol qo`llangan.

Bundan tashqari konseptlar obyektini belgilash nuqtai nazaridan turdoSh emas. Bir tomondan, «duSha» (qalb), «zloradstvo» (ichiqoralik), «logos» , boshqa tomondan, - «matreshka» (matreshka o`yinchoq), «kolobok» (bo`g`irsoq), «podhezd» (kirish). S.G.Vorkachevni (2002) fikricha, biz konsept haqida gapirganimizda abstrakt majdudotlarga nisbatan ishlatamiz, predmetlar konsept belgisiga kirmaydi. Bu tahkidga qo`shilish mumkin, ammo «matreshka» - bu yog`ochdan yasalgan oddiy qo`g`irchoq emas, balki rus xalqining an`naviy madaniyati bilan tanish bo`lgan odamlarni bir qator kechirmalardir. Bir qarashda «predmetli konsept» bir-birini inkor etadigan bo`lsa ham, biz til ongida ba`zi bir predmetlar madaniy ahamiyatga ega bo`lgan ma`no qatorida assotsiatsiya hosil qilsa konsept mavjud deya olamiz.

#### *Savol va topShiriqlar:*

1. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalarga izoh bering.
2. Lingvomadaniy paradigma nima?
3. Etnik mentallikka izoh bering.
4. Lingvomadaniy konsept nima?.
5. Sotsiomadaniy konsept nima?

### **8-MAVZU: MILLIY-MADANIY KONSEPTLAR (2 SOAT)**

#### **REJA:**

1. Milliy-madaniy konsept va uning xususiyatlari.
2. Milliy-madaniy konsept va til semantikasi.
3. Milliy-madaniy konsept lingvomadaniy fenomen sifatida.

Tayanch so`z va iboralar: *Lisoniy belgi*, *lisoniy ong*, *lisoniy idrok*, *milliy-madaniy konsept*, *til semantikasi*.

XX asr oxiri va XXI asr boshi dunyoda fanlarning notekis rivojlanishi bilan xarakterlanadi, yahni texnika sivilizatsiyasidagi keskin burilish, taraqqiyot va aksincha ijtimoiy fanlardagi juda sust rivojlanish bunga misoldir Bunda inson omili yetakchi hisoblanib, uning faoliyati va ishlari, xatti-harakatlari, fikri va intilishlari, xayoloti va xis-tuyg`ulari asosiy predmet vazifasini bajaradi.

Sivilizatsiya inson o`zini-o`zi yo`q qilishi uchun qudratli kuchni yaratishga imkon yaratdi, lekin ijtimoiy fanlar hozircha uni qutqarish qobiliyatiga ega emas, chunki ularda insonni tushunish va xulq-atvorini mukammal qilish uchun yetarlicha bilim va imkoniyati yo`q. Hozircha ko`pgina ijtimoiy sohalardan faqat birgina targ`ibot vositasi va ommaga ta`sir o`tkazish sohasigina faol rivojlanib boryapti. Inson intellektining zaif tomonining isboti sifatida quyidagi fakti keltirish mumkin: har gal yangi reklama qilinayotgan mahsulot bizning nazarimizda oldingisidan yaxshiroq, mukammalroqdek tuyiladi. Texnogen sivilizatsiyaning zamonaviy fikrlash uslubi yangi tilni – yahni o`ta jo`n- yoqimsiz, juda dogma-pragmatik texnik fikrlashni yuzaga keltiradigan tilni dunyoga keltirdi. Masalan, hayot haqida gapirishga to`g`ri kelganda harbiy yoki tibbiyot terminlarida gapiriladi: hosil uchun kurash, Afg`onistondagi operatsiya kabi.

Oxirgi davrlarda falsafa, Madaniyatshunoslik, tilshunoslik, lingvokulturologiyada insonni yanada chuqurroq bilish: uning tabiati, tashqi ko`rinishi, ichki dunyosi, mentaliteti va boshqa tomonlarini o`rganishtendentsiyasi paydo bo`ldi.

Chunki inson fenomeni yo`lini bilib olish tabiiy fanlar orqali emas, balki tabiiy tillar orqaligina anglab borish mumkin degan ishonch mustahkamlanib boryapti

Bizning maqsadimiz, insonning tili orqali uni ko`proq bilib olish. Chunki til nafaqat kommunikatsiya vositasi, fikrni o`tkazish va ifodash hamdir. Bunday yondashuv tildan foydalanishni asosiy o`ringa qo`yadi, bunda uning muhim tomoni va vazifasi tilda dunyo konseptual tasvirini namoyon bo`lishi bilan belgilanadi

Inson bizningcha, boshqa milliy jamoalar vakillari bilan hamkorlikda faoliyatda ishtirok etayotgan ma`lum milliy mentallik va til tashuvchisi sifatida tushuniladi.

Hozirgi zamon fani uchun Shunchaki inson emas, balki shaxs, yahni tafakkur sohibi, tilga, murakkab ichki dunyoga ega bo`lgan, taqdirga, narsalar olamiga ma`lum munosabatini bildira oladigan va shunga o`xshashlarga ega bo`lgan konkret odam qiziqtiradi.

U koinotda va yerda alohida o`ringa ega, u doimo dunyo bilan hamnafas yashaydi va u bilan o`zi bilan va shunga o`xshashlar biilan munosabatda bo`ladi. Yaratganning xohishi va irodasi bilan erkin iroda sohibidir ham.

Odam – tabiatiga ko`ra ijtimoiy mavjudot, odamiylik odamda jamiyat sharoitida uning hayotida, odamzot tomonidan yaratilgan madaniyatda dunyoga keladi.

Bizni umuman olganda, inson emas, balki tildagi inson qiziqtiradi. Masala shundaki, bizdan yashiringan mental sohaga kirib borishimiz uchun, til- yagona vosita xisoblanadi, zero u yoki bu madaniyatda dunyoni bo`linish usullarini belgilab beradi. U odam haqida shunday narsalarni so`zlab beradiki, ular haqida odam o`zi ham anglamay qoladi.

I.A.Goncharov Ye.N.Narishkinaga yozgan xatida: Til nafaqat gapirish, nutq, balki insonning ichki dunyosi, obrazi: uning yurak deb atalmish aqli, u tarbiya, aqliy va axloqiy kuchning yaratuvchisi va tashuvchisidir. Uning dialogik munosabati inson haqida bilish, uning dunyodagi o`rni, Xudoga, tabiatga, uning atrofidagi odamlarga bo`lgan munosabatida jamlangan.

Balki biz dunyo va so`z bilan yaratilganimiz uchun, biz uchun hamma narsa qiziqarlidir. Gumbolg`t Shunday yozgan edi: “Tilni o`rganisho`zida so`nggi maqsadni ko`zlamaydi, balki inson tomondan o`zini anglash va bilish, ko`zi bilan ko`rish mumkin bo`lgan va atorifidagi yashirin narsalarga munosabatida barcha sohalarni o`z ichiga olgan holda oliy va umumiy maqsadlarga xizmat qiladi”. Buyuk tilshunos olimning bu fikrini oxirigacha anglab yetish uchun bir necha yuz yil kerak bo`ldi.

XX asr ikkinchi yarmi falsafasi tilni har tomonlama analiz qilish xisobiga rivojlanib bordi. Til faylasuf uchun nafaqat falsafiy konsepsiyalarni ifodalash vositasi, balki dunyo va insonni bilish vositasi hamdir. Shunday qilib agar oldin So`z, aynan u –bilimlarning muhim manbasi, aynan unda inson va dunyo haqida barcha axborot jamlangan.

Falsafiy mushohadaning asosiy maqsadi inson bo`lib, u “O`zganing” mavjudligini biluvchi semiotik faoliyat orqali bilib olinadi. Balki shuning uchun ham taniqli yahudiy faylasufi M.Buber, yangi tadqiqot obyektni, yahni Men – Senda yashovchi odam munosabatlarini yaratdi. Haqiqatan bu dialogik munosabatlar, Sen Mensiz bo`lishi mumkin emas, inson yo`li hamisha o`zga odam bilan birga bo`ladi, hayot jamoada namoyon bo`ladi. Dunyoni angelayotgan odam – bu odam, odam bilan degani. Feyerbax bu xususida shunday yozgan edi: “Inson mohiyati va mavjudligi faqat muloqotdagina, odam bilan odam birligida, faqat Men va Sen o`rtasidagi haqiqiy farqlarga tayanadigan birlikdadir” –deb yozgan edi.

Mazkur universal munosabatda inson haqida bilish, uning dunyodagi o`rni, Xudoga, tabiatga, uning atrofidagi odamlarga bo`lgan munosabatida jamlangan. Bunda odamni bashqa odamga munosabati asosiy hisoblanadi. M.Buber odamni uch tomonlama hayotiy munosabatini tahkidlaydi, yahni dunyo, inson, Xudoga munosabatini. Dunyoga bo`lgan muhim munosabat san`at, odamga munosabat muhabbatda, Xudoga munosabatda - diniy ochiqlikda yakun topadi. Men - Sen odam bilan odam o`rtasidagi dialogda, yahni suhbatda namoyon bo`ladi, u nutqda rasmiylashgan. Bizning Senimiz Xudoga qaratilgan bo`lib, u biz eshitmayotgan, lekin his qilayotgan chaqirig`imizga javobdir. Haqiqiy Xudo bilan muloqot so`zsiz amalga oShadi, lekin Shunday bo`lsa ham, u nutqni yaratadi.

M.Buberning yozishicha,” Odam o`zi nima” savoliga javobni biz undagi mavjudlik, uning birga bo`lish dinamik tabiati va organik qobiliyatidagi Birini ikkinchisi bilan uchrashishi va birini- biri bilishi orqali amalga oShadi. Shundagina biz bu savolga javobni topishga yaqinlashamiz. «Inson muammosi» ishida, u tadqiqot predmeti sifatida aniq va konkret shaxs turishi kerak deb tahkidlaydi, va bunda boshqa fanlar: psixologiya, etnografiya, biologiya kabi fanlardan olingan ma`lumotlarga tayanish lozimligini aytadi.

Inson yilnoma, hayotiy yozishmalarda, xronikalarda, avtobiografiyalarda, epistolyar janrdagi asarlarda, yahni u bir qator adabiy janrlarda asosiy tadqiqot predmeti sifatida xizmat qilish kerak.

E. Benvenist 60 yillarda nashr etgan rus tilidagi tarjimalarda 1974 yilda, til odamning o`zida jamlangan bo`ladi, shuning uchun u sun`iy kashfiyot bo`la olmaydi deb yozadi: "Dunyoda faqat odam til bilan yashaydi, va shunday qilib til faqat odamning o`ziga tegishli bo`lib uni shu jihati ajralib turadi". Aynan tilda va til tufayli odam subyekt sifatida konstruksiyalashadi, zero faqat til reallikni belgilaydi va u mavjudlik xossasini o`zidir".

Mingyilliklar arafasida odamni bilishga qiziqish o`sib ketdi: 1990 yil "Odam", 1991 yil Rossiya Fanlar akademiyasida Odam instituti tashkil etildi, 1991 yilda esa "Odamda odamiylik haqida" jurnallari chiqa boshladi. N.D.Arutyunova, v 1998 y. «Yazqk i mir cheloveka», 1999 yil uning muallifligida «Logicheskiy analiz yazqka. Obraz cheloveka v kulture i yazqke» kitoblarini chop etidi. Shu va bir qator ilmiy ishlari bilan N.D.Arutyunova "Odam tilda" tadqiqot ishiga katta hissa qo`shdi.

Milliy mentallik va tilning o`zaro aloqasi muammosi xususida Madaniyatshunoslikda N.V.Ufimtseva va Yu.A.Sorokinalarning tadqiqot ishlari katta qiziqish o`yg`otdi.

Ruslarning o`zlari o`zlariga shunday tahrif beradilar (ular ko`pdan ozga qarab foizda berilgan): mehmondo`stlar (5 ta javob), quvnoqlar (5 ta javob), sabrililar (5 ta javob), saxiylar, ochiq ko`ngillilar, talantlilar, kashfiyotchilar, ishonuvchanlar, hozirjavoblar,, intellegentlar, o`ychilar, o`qimishlilar, dangasalar, ikkiyuzlamachilar, aqllilar, sabrililar, optimistlar, chidamlilar, tundlar, horg`inlar, kayfiyatsizlar, buyuklar, badjahllar, johillar, qizg`anchiqlar, tashabbussizlar, to`polonchilar, buzg`unchilar, zukkolar, baxtsizlar, charchaganlar va boshqalar.

Amerikaliklar ruslarni quyidagicha tasavvur qiladilar: materialistlar (7), mehmondo`stlar 4, serxarajatlilar 3, baland ovozda gapiruvchilar 2, ko`ngilxushlikni sevuvchilar 2, mag`rurlar 2, ozodlikni sevuvchilar 2, individualistlar 2, o`z ishiga sadoqatlilar 2, raqobatdo`shlikka moyillar 1, ko`p ishlashadi 1, maqsadga intiluvchilar 1, motivlashtirilganlar 1, xudbinlar 1, tajovuzkorlar 1, qizg`anchiqlar 1, yoqimsizlar 1, qo`pol 1, dangasa 1, kashfiyotchilar 1, saxiy 1, baxtli 1 va h.

Ruslar portretiga keltirilgan tahrif va tavsiflar to`plami, o`z navbatida ularni ziddiyatli tomondan tasavvur qildiradi, lekin bu ular haqida butun yaxlit ko`rinishni xosil qiladi, va mualliflar Shu orqali yadro va perefiriyani ajratishadi.

Jumladan, agar ruslar nuqtai nazaridan beloruslar mehnatkash, saxiy, tejamkor, mehmondo`st, (to`rtta asosiy munosabat), ukrainaliklar esa ularni xasis, chidamli, mehnatkash, ishonuvchan deb xisoblashadi.

Uncha katta bo`lmagan eksperiment Shuningdek mallatning rahnamolarini autokuzatish va munosabatlar yo`li bilan emas, balki bu yo`nalishda OAV tomonidan ishlov berilgan boshqa xalqlar mushohadasi tomonidan aniqlashga ham yordam beradi, shunday qilib, tilda milliy mentallik aks etadi, va u oddiy psixolingvistik eksperiment orqali tadqiqi etilishi mumkin.

Til – odam identifikatsiyasining eng muhim vositasi hisoblanadi. Shuning uchun tilni birdaniga, tezlik bilan yangilash Shaxs tiliga zo`rluk qilish deb hisoblash



mumkin, bunday holatlarda odam odatiy o`zini namoyon qilish va o`zini angalash, tushunish vositasidan mahrum bo`ladi. Zero, til hayot bilan dunyoga keladi, o`zining vazifalarini bajarish barobarida undan uzilib boradi ( yahni so`zlar boshqa mazmun bilan to`lib boradi )va o`zi uni yaratishga kirisha boshlaydi.

## 9-MAVZU: STEREOTIPLAR (2 SOAT)

### REJA:

1. “Stereotip” tushunchasining turli fanlardagi talqini.
2. Stereotipning turlari. Ijtimoiy stereotiplar. Muloqot stereotiplari.
3. Mental stereotiplar. Madaniy stereotiplar. Etnomadaniy stereotiplar.
4. Stereotip madaniyat vakillarining tafakkuri va tili.

Bizga ma`lumki, odam, Shaxs madaniyatni yaratadi va unda yashaydi. Aynan Shaxsda odamning ijtimoiy tabiati birinchi planga chiqadi, odamning o`zi esa, ijtimoiy hayotda subyekt sifatida namoyon bo`ladi.

Shaxs konseptiyasining boshqalari ham mavjud. Amerikalik psixolog A.Maslou, odamni tashqi olamga uncha qaram, yahni bog`liq bo`lmagan, har qanday psixologiyani yakuniy holati tabiatni ichki borlig`i sifatida ko`radi, hayot esa ichki tabiat bilan birgalikda ruhiy salomatlik sababidek ko`rib chiqiladi

A.Maslou nuqtai nazaricha, Shaxsning voyaga yetishi, bu odamning o`zini har tomonlama namoyon qilishi zamiridagi o`z idealga tomon xarakterlanishidir. U yozishicha, “Odamzot uchun, yashashi uchun : koordinatalar sistemasi, yashash falsafasi, din yoki uni o`rnini bosuvchi boshqa bir din zarurdir, jumladan ular xuddi quyosh nuri, kaltsiy yoki muhabbat zarur bo`lganidek kerakdir”.

Shaxs xalqning, etnosning madaniy an`analarining istiqboli sifatida ko`rib chiqilishi lozim. (Piskoppelg`, 1997), zero odamda odam tug`ilishi uchun madaniyat doirasida shakllanuvchi madaniy-antropologik prototip zarur bo`ladi.

Albatta, o`zini o`zi tushunish narsalarning asl holatini aniqlashda muhimdir. Lekin qo`shni xalqlar seni qay darajada tushunishlari undada muhimdir. Bu toifadagi bilimlar ko`plab etnik ziddiyatlarini oldindan ko`ra olishga va ularni oldini olishga imkon beradi.

Madaniyat kategoriyasi- bu makon, taqdir, vaqt, huquq, boylik , mehnat, vijdon, o`lim va h. Ular mavjud qadriyatlar sistemasini o`ziga xos tomonlarini aks ettiradi, va dunyoni anglash, idrok etish va ijtimoiy xulq namunalarini yaratadi.

Til Shaxsiga dastlabki munosabat masalasi nemis olimi I.Veysgerberg nomi bilan bog`liq. Rus tilshunosligida dastlabki qadamni bu sohada V.V.Vinogradov qo`ydi va til Shaxsini o`rganishda ikki yo`lni ishlab chiqdi, bular muallif Shaxsi va personaj Shaxsidir.

A. A.Leontyev so`zlovchi shaxs haqida yozgan. G.I.Bogin til Shaxsi tushunchasini ishlab chiqishni boshlab, til Shaxsi modelini yaratdi. Uning nuqtai nazaricha, odam “ nutq harakatlarini ishlab chiqish, yaratish va xosil bo`lgan nutqni qabul qilishga tayyor” moddiy sifatida qaraladi. Yu.N.Karaulov ham mazkur tushunchani ilmiy istehmolga olib kirdi. Uning tahriricha, odam matn yaratish va qabul qilish qobiliyatiga ega bo`lib, quyidagicha farqlanadi: struktur-til tizimi darajasiga ko`ra, borliqni aniq va chuqurroq aks ettirish, aniq maqsadli yo`nalganlik bilan.

Yu.N.Karaulov badiiy matnga asoslangan darajalangan til Shaxsi modelini ishlab chiqdi (Karaulov, 1987). Til Shaxsi, uning fikricha, uch bosqichli tuzilishga

ega. Birinchi bosqich – verbal-semantik(semantik- stroevoy, invariantli) oddiy soʻzlashuv darajasini aks etuvchi.

Ikkinchisi- kognitiv boʻlib, bunda sotsiumga tegishli kollektiv yoki alohida kognitiv kenglik xosil qiluvchi relevant bilimlar va tasavvurlarning aktualizatsiya i identifikatsiyasi amalga oʻshadi.

Bu bosqich oʻzida shaxs dunyosi modelini, uning tezaurusini, madniyatini aks ettirishini nazarda tutadi. Va nihoyat uchinchisi - oliy bosqichi pragmatik bosqich. U til Shaxsini rivojlanishini harakatga keltiruvchi motiv va maqsadlar xarakteristikasini aniqlashga qaratilgan.

Shunga koʻra, axborot kodlashtirish i dekodlashtirish uch bosqichni, yahni "Shaxsning kommunikativ kengligi" –verbal-semantik, kognitiv, va pragmatik darajalarning oʻzaro taʼsiri ostida amalga oʻshiriladi. Til Shaxsi qurilmasining uch darajali konseptsiyasi uch tipdagi, yahni kommunikativ ehtiyoj—kontakti xosil qiluvchi, informatsion va taʼsir oʻtkazuvchi, shuningdek milliy xususiyatga ega muomala jarayonining uch tomoni - kommunikativ, interaktiv va pertseptiv jihatdan korrelyatsiya qilinadi.

Til Shaxsining darajali modeli shaxsning umumlashtirilgan tipini aks ettiradi.

Mazkur madaniyatda konkret til Shaxslari koʻp boʻlishi mumkin,ular oʻz navbatida shaxs tarkibining har bir darajasida variatsiyalar mohiyati bilan ajralib turadi.

Bunda nutq Shaxsi- til Shaxsi hisoblanadi. Aynan nutq Shaxsi darajasida til Shaxsining milliy –madaniy oʻziga xosligi, shuningdek muomalaning ham milliy-madaniy oʻziga xosligi yuzaga keladi.

Nutq Shaxsi mazmuniga odatda quyidagi komponentlar kiritiladi: 1.Qadriyatli, dunyoqarashli, tarbiya komponenti mazmuni, yahni qadriyatlar tizimi, yoki hayotiy mazmun.Til odamni dunyoga dastlabki va chuqurroq nigoh bilan qarashini tahminlaydi, milliy xarakter asosida shakllanuvchi dunyoning til obrazini va ruhiy tasavvurlar ierarxiyasini xosil qiladi, tabiiyki, ular muomalaning til dialoglari jarayonida amalga oʻshadi. 2.Kulturologik komponent - bu tilga boʻlgan qiziqishni oʻshishini samarali vositasi sifatida madaniyatni oʻzlashtirish darajasidir. Nutqiy va nonutqiy xulq qoidalari bilan bogʻliq oʻrganilayotgan til madaniyati faktlarini jalb qilish, tildan foydalanish adekvat malakalarini shakllantiradi, va muloqotdagi suhbatdoShiga samarali taʼsir oʻtkazadi.

3.Shaxs komponenti, har bir odamda mavjud individual, chuqurlashtirilgan xususiyat.

Til Shaxsi parametrlari endigina ishlab chiqilyapti. U abstrakt sintaktik modellarni toʻldiruvchi u yoki bu foydalanish chastotasiga ega boʻlgan aniq til zahirasi bilan xarakterlanadi

Agar modellar mazkur til jamoasi uchun yetarli darjada odatiy boʻlsa, unda uning leksikasi va gaplashish manerasi odamni maʼlum ijtimoiy qatlamga tegishli ekanligini, uning maʼlumot darajasini belgilashi, xarakter tipi, jinsi va yoShini koʻrsatishi mumkin.

Oʻnlab ijtimoiy rollarni bajarish bilan bogʻliq, bunday shaxsning til repertuari, sotsiumda qabul qilingan nutq odobi bilan oʻzlashtirilishi lozim.

Til Shaxsi tilda aks etuvchi ijtimoiy ong Shakllarining (ilmiy, turmuSh tarzi va h.)ning turli darajalarda, xulqiy stereotip va mehyolarda moddiy madaniyat olamida, yahni madaniy makonda mavjud bo`ladi. Madaniyatda belgilovchi rol fikrlar konsepti xisoblangan, milliy qadriyatlarga tegishlidir.

Madaniy qadriyatlar o`zida universal va individual, dominant va qo`shimcha fikrlarni ajratishi mumkin bo`lgan tizimni namoyon qiladi.

Ular o`z aksini tilda topadi, aniqrog`i so`zlar sintaktik birliklarda, frazeologizmlarda, paremeologik fondlarda va pretsendent matnlarda ko`rinadi. Masalan, barcha madaniyatlarda xasislik, qo`rqoqlik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik, dangasalik qoralanadi, lekin har bir madaniyatda bu qusurlar har xil bog`liq belgilariga ega. Har bir madaniyatga o`ziga xos o`zining koordinatalari bor parametrlarni ishlab chiqish mumkin. Bunday parametrlar yakuniy qadriyatlar belgisi deb hisoblanadi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o`ziga xos jihatlarining tilda aks etishini o`rganishlingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyektini til va madaniyat, predmeti esa o`zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsendent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo`lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo`lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi<sup>2</sup>.

Lingvokulturologik tadqiqotning obyektini madaniy axborotning tarjimoni bo`lgan tilning o`zaro aloqalarini o`rganishdir. Bu obyekt bir qancha fundamental fan – tilshunoslik va Madaniyatshunoslik, etnografiya va psixolingvistikaning tutashgan nuqtasida paydo bo`lgan.

Tadqiqot predmeti esa til birliklaridir. Bu birliklar madaniyatda simvolik, etalonlik, ramziy-metaforik ahamiyatga ega bo`lib, inson tafakkuri faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, arxetipik va prototipik mazmunga ega bo`lib, mif, afsona, rasm-rusum, folklor va diniy matnlar, yana shehriy va nasriy badiiy matnlarda, iboralar, metaforalar, ramzlar va paremiyalarda uchraydi.

Shu tufayli ham aynan bir lingvokulturologik birlikning o`zi bir necha semiotik tizimga mansub bo`ladi. Rasm-rusum stereotipi matalga o`tib, keyinchalik iboraga aylanadi.

Ba`zan birgina lingvokulturologik birlik mif, matal va iboralar tarkibiga singib ketgan bo`ladi: bo`ri qadimgi xalqlar tasavvurida qaroqchi, qotil, kallakesar sifatida gavdalanadi. Turkiy xalqlarda esa uning bo`ysunmaslik, erkinlikka ishtiyoqi masalasi birinchi o`ringa ko`tarilgan. Masalan, Mahmud KoShg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asarida Afrosiyobning o`limidan qayg`urib yig`layotgan beklar «bo`ri bo`lib ulidilar» deyilsa, «Kul tigin» bitigtoshida “qo`shinim bo`ri kabi edi”, - deyiladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asari 31-bobida bekning mardligi

bo`riga o`xshatiladi. Xalq tilida esa «mahallaning bo`risi» kabi metaforalar ishlatiladi. Maqollarda «Bo`rining yesa ham og`zi qon, yemasa ham» kabi tarzda qarama-qarshi fikrlar ham uchraydi.

Tadqiqot obyekti tushunchasi ostida har biri alohida lingvokulturologik birlik bo`lgan bir necha predmet yotadi. Biz bulardan bir nechtasini ajratib ko`rsatamiz, biroq ularning miqdorini yanada ko`paytirish mumkin. Ular:

1) lingvoo`lkashunoslikning predmeti muqobilsiz so`zlar va lakunalardir, shuningdek, ular lingvokulturologiyaning ham predmetidir;

2) miflashgan til birliklari: arxetiplar, mifologemlar, marosimlar va inonchlar, rasm-rusum hamda odatlar, ular til birliklari tarkibiga yaxlitlangan bo`ladi;

3) tilning paremiologik fondi;

4) tilning frazeologik fondi;

5) etalonlar, stereotiplar, ramzlar;

6) tildagi metaforalar va timsollar;

7) tilning uslubiy imkoniyatlari;

8) nutq madaniyati;

9) nutq odobi sohasi.

Lingvokulturologiyaning predmeti deganda miflashgan til birliklari: tildagi arxetiplar va mifologemlar, marosim va inonchlar, rasm-rusum va odatlarni ham tushunamiz.

Maqollarning aksar qismi milliy ongi stereotipi hisoblanadi. Odatda maqol va matallar folkloristikada janr sifatida o`rganiladi. Tilshunoslikda esa endigina o`rganilmoqda. Pragmatik nuqtai nazardan maqollarning maqsadi qorishiq xususiyatli. Birgina maqolning o`zida ogohlantirish, tahqiq, tasalli, maslahat, tanqid, tahdid kabilar jamlangan bo`lishi mumkin: Boy boyga boqar, suv soyga oqar.

Etalonlarga quyidagicha misol keltirishimiz mumkin: *itday sodiq, buqaday baquvvat, qordek beg`ubor, cho`chqaday semiz, pardek yumShoq, onadek mehribon, tunday qora*. Bu etalonlar nafaqat milliy dunyoqarash va dunyoni milliy anglash hamdir. Chunki faqat ulargina olam hodisalarining milliy-tipik o`lchash samarasidir. Etalonlar vositasida olam obrazli o`lchanadi. Etalonlar ko`pincha barqaror o`xshatishlar tarzida kuzatiladi, biroq insonning dunyoni o`lchash borasidagi istalgan tasavvuridir: *qulog`igacha botmoq, tomog`iga kelmoq, jondan sevmoq* kabi.

*Bir tangananing ustida o`mbaloq oShadi* iborasining semantik strukturasi tahlil qilar ekanmiz, V.N.Teliya aytganidek, tangananing tashqi belgisiga emas, balki uning eng kichik qiymatli pul birligi – etaloni ekanligiga guvoh bo`lamiz. Shu kabi etalon so`zlarni o`z tarkibiga olgan frazeologizmlar tilni madaniyatga yaqinlashtiradi. A.A.Potebnya ta`biricha, bu yerda ramz obrazga (etalonga) aylanadi va tushunuvchining irodasini o`ziga bo`ysuntiradi.

Shunday qilib, etalon predmetlar, hodisa va obyektlar xususiyatlari hamda sifatini baholovchi moddiylikdir. U ijtimoiy-ruhiy bosqichda me`yoriy tasavvurni ifodalaydi. U yashirin ta`sirga ega, tanlov va baholashga ta`sir qiladi.

Stereotip, etalondan farqli ravishda, olamda mavjud bo`ladi va faoliyat, axloqni baholaydi.

Axloq stereotiplari rasm-rusumlarga o'tishi mumkin. Farqi shundaki, stereotipni amalga chiqarishda inson nima maqsadda bu ishni bajarayotganini anglamasligi mumkin. Rasm-rusumni bajarishda refleksga tayaniladi. U ijtimoiy muammolarni hal qilishning bir usulidir.

## 10-MA`RUZA: MILLIY REALIYALAR (2 SOAT)

### REJA:

1. Til etalonlari
2. Miflar, rituallar, arxetip, odat, udum, an`analar.
3. Ularning tilda aks etishi.

*Tayanch so`z va iboralar:* til etalonlari, miflar, rituallar, arxetip, odat, udum, an`analar.

Til – ko`p o`lchamli hodisa bo`lib, kishilik jamiyatida vujudga kelgan: u sistema ham, g`ayrisistema ham; u faoliyat ham, shu faoliyatning hosilasi ham; ma`no ham, modda ham; o`z-o`zidan tartibsiz taraqqiy etuvchi obyekt va tartibli, o`z-o`zini boshqaruvchi hodisa; u mustaqil va hosila jarayon...

Qarama-qarshi tomondan kuzatib uning murakkabligini tavsiflar ekanmiz, tilning borlig`ini kashf etib boramiz. Tilning murakkablik xususiyatini hal qilish uchun Yu.S. Stepanov uni bir necha obrazlarda tasvirlaydi. Bu obrazlardan birortasi tilning to`liq ko`rinishini aks ettirmaydi: 1) til individning tili sifatida; 2) til tillar oilasi a`zosi sifatida; 3) til tizim sifatida; 4) til qurilma sifatida; 5) til xarakter va tip sifatida; 6) til kompg`yuter sifatida; 7) til g`oyalar makoni va “ruh maskani” (M. Xaydegger) sifatida, yahni insonning murakkab kognitiv faoliyati natijasi sifatida<sup>14</sup>. Shu ma`noda yettinchi tahrifga ko`ra, til, birinchidan, xalq faoliyati natijasi, ikkinchidan, ijodkor Shaxslar faoliyati natijasi va tilni me`yorlashtirib turuvchilar (davlat, institutlar, qoida va me`yor ishlab chiquvchilar) faoliyati samarasidir. XX asr oxirida bu obrazga yana bir izoh qo`shildi: til madaniyat hosilasi, uning muhim qismi va mavjudlik sharti, madaniy belgilarning Shakllanish omili. Antropotsentrik nuqtai nazardan inson borliqni o`z ongi vositasida, o`z nazariy va amaliy faoliyati orqali his qiladi, angelaydi. Tilga xos bir qancha dalillar olamni inson “ko`zgu”si orqali tasavvur qilishimizni isbotlaydi. *Yaproqlarnin Shivirlashi, og`ir ish, erinibgina qor yog`adi, ovoz o`chdi, fasllar kelinchagi, mardlar beshigi, kun o`tishi, vaqtning yugurishi, o`ylar og`uShi* kabi metaforalar bunga misol bo`la oladi.

SHehriy obrazlar undan ham ta`sirliroqdir:

*Muzlikdan yuhodek kelgan Shamollar  
Tuyalar jismini yalab-ishlagan,  
asrlar toblagan temirchi quyoSh,  
yomg`irlar cho`qigan, qorlar qishlagan.  
(Sh. Rahmon. Aravon ko`rinishlari)*

---

<sup>14</sup> Бу ҳақда яна қаранг: Нурмонов А. Лингвистик таълимотлар тарихи // Танланган асарлар. 2-жилд. 31-33-бетлар.

Hech bir abstrakt nazariya nima uchun *sevgi olovi, olov yurak, olov yoShlik, mehr tafti, yuzi issiq* kabilarda olov tushunchasi ifodalaydigan hislarni tuyamiz, degan savolga javob bera olmayotir. O`zini barcha narsalarning o`lchovi deb bilgan inson o`z ongida amalda emas, ilmiy darajadagina o`rganishmumkin bo`lgan narsalarning antropotsentrik tartibini ijod etish huquqini beradi. Ongdagi bu tartib insonning ma`naviy borlig`i, xatti-harakatlari tub sabablari, qadriyatlar pog`onalarini ko`rsatib beradi. Bularning barchasini inson nutqi, u faol qo`llagan, boshqalariga nisbatan ko`proq hissiy munosabat ifodalangan ibora va qoliplarni tadqiq etibgina tushunishimiz mumkin. Yangi ilmiy yo`nalish Shakllanishi jarayonida quyidagi tezis ilgari surilgan edi: “Olam faktlar yig`indisidir, narsalarning emas” (L. VitgenShteyn). Til asta-sekin fakt va vaziyatlarga yo`naltirib o`rganilmoqda, diqqat markazida esa til Shaxsi (yazqkovaya lichnostg`, Yu.N.Karaulov) tushunchasi turibdi. Yangi nazariya til tadqiqining yangi qonunlari va maqsadlarini, yangi tushuncha va metodlarni ishlab chiqish arafasida. Antropotsentrik nazariyada lingvistik tadqiqot predmetini ishlab chiqish usullari o`zgardi, tadqiqotning umumiy tamoyillari va metodlarini tanlab olishga o`tilmoqda (R.M.Frumkina). Ko`rinib turibdiki, antropotsentrik nazariyaning Shakllanishi tilshunoslikning tadqiqot yo`nalishini inson, uning madaniyatdagi o`rniga o`zgartirdi. Boshqacha qilib aytganda, madaniyat va madaniy an`analarning diqqat markazida inson – til egasi o`zining barcha qirralari: jismoniy, ijtimoiy, aqliy, Men (I, Ya)– hissiy-emotsional,

JT – nutq ijodkori. Hissiy-emotsional “Men” (I, Ya) turli ijtimoiy-ruhiy vaziyatlarda namoyon bo`ladi. Masalan, *Bugun quyoSh charaqlab nur sochmoqda* gapi quyidagi fikrlarni ifodalaydi. “*Men – jismoniy*” *quyoSh nurlaridan rohat olyapti; buni mening “Aqliy Men”im biladi va bu axborotni suhbatdoShga – “ijtimoiy Men”ga uzatmoqda, u (Men – hissiy-emotsional) haqida g`amxo`rlik qilmoqda; bu jarayonda “Men-nutq ijodkori” harakatga kelgan.* Yuqoridagi ipostaslarininghar biri vositasida boshqalarini harakatga keltirish mumkin.

Shu tariqa til egasi axborot-aloqa jarayoniga ko`pqirrali subyekt sifatida kirib keladi. Bu qirralar nutqiy aloqaning strategiyalari va taktikalari, aloqa ishtirokchilarining ruhiy-psixologik mavqelariga, axborotning madaniy g`oyasi, maqsadiga ham bog`liq. Inson olamni o`zini undan ajratib olgan holda tasavvur qiladi. U o`z “Men”ini boshqa barcha narsalarga qarama-qarshi qo`yadi. Bizning tafakkurimiz va tilimiz Shu asosga qurilgan ko`rinadi: Har qanday nutq yaratilishi jarayoni borliqning mavjudligini tan oladi va shu bilan olamning subyekt vositasida aks etishini tasdiqlaydi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, an`anaviy yoki sistem-struktur tilshunoslik yo`nalishida bo`lsa-da, tilshunoslikda antropotsentrik nazariya doimo hisobga olinishi kerak bo`lgan nazariya ekanligini yodda saqlash kerak.

Shunday qilib, antropotsentrik nazariya insonni birinchi o`ringa qo`yadi, til esa insonning tavsifiy tuzilishining asosiy materiali, qismi hisoblanadi. Inson tafakkuri insonning o`zi kabi tildan va til ko`nikmalaridan tashqarida mavjud bo`lmaydi. Agar til barcha bilish jarayonlariga aralashmaganida edi, o`ziga xos yangi muhit yaratmaganida edi, inson kuzatuvchi maqomiga erisholmagan bo`lar edi. Inson yaratgan matn inson tafakkuri harakati, yo`nalishini aks ettiradi, baholi qudrat

olamlar yaratadi, til birliklari yordamida fikr kuchi va uni namoyish etish usullarini ko`rsatadi.

Zamonaviy tilshunoslikda mazkur nazariya doirasida tashkil topgan asosiy yo`nalish - kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyadir. Lingvokulturologiya “tildagi madaniyat omili va insondagi til omilini o`rganishga qaratilgan” (V.N. Teliya) fandır. Demak, lingvokulturologiya – tilshunoslikda antrotsentrik nazariyaning keyingi yillarda taraqqiy etayotgan mevasidir. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchasi – axborot tushunchasi va uning inson ongida qayta ishlanishi, bilimlar tizimi va ularning inson tafakkurida hamda til Shakllarida namoyon bo`lishidir. Kognitiv tilshunoslik kognitiv psixologiya va kognitiv sotsiologiya bilan birgalikda kognitologiyani hosil qiladi. Bu fanlar inson tafakkuri qanday tuzilgan, inson olamni qanday tasavvur qiladi, olam haqidagi qanday ma`lumotlar bilimga aylanadi, ruhiy olam qanday yaratiladi kabi savollarga javob qidiradi. Lingvokulturologiya esa insonni va uning tilini madaniyat tarkibida o`rganadi. Fan quyidagi muammolarga diqqatni qaratadi: inson olamni qanday qabul qiladi, madaniyatda ko`chim va timsollarning o`rni, tilda asrlar davomida saqlanib turgan iboralarning madaniy belgilarni ifodalashdagi roli, ularning inson uchun ahamiyati. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomen sifatida tadqiq etadi. Bu esa olamni milliy til oynasi ortidan ko`rish demakdir. Ushbu jarayonda til alohida milliy ichki dunyosi ifodasi sifatida ko`zga tashlanadi. Tilshunoslik butun borlig`i bilan madaniy-tarixiy mundarijaga tayanadi yoki tadqiqot predmeti sifatida madaniyatning mahsuli, asosi va shart-Sharoiti - muhiti hisoblangan tilni tushunadi. Tilshunoslik bo`limlari ichida “madaniy tashuvchi” sifatida eng faollari til tarixi bilan bog`liq sotsial dialektologiya, etnolingvistika, uslubiyat, leksikologiya, frazeologiya, semantika, tarjima nazariyasi va boshqa bo`limlardir.

Lingvokulturologiyaning asosiy birligi sifatida madaniy konseptni oladilar. Bu tushuncha aniq va mavhum nomlarning mundarijasini o`z ichiga oladigan “ostki ma`no” bo`lib, mazkur xalq madaniyati haqida qo`shimcha ma`lumot olishni talab qiladi. [Karasik 2002: 127,129]. Ye.I. SHeygal va V.A. Buryakovskaya lingvokulturologiyani “olam konseptual manzarasining alohida obyektlari va akslanuvchi obyekt (mas. etnos) tomonidan ularning jamoa ongi hamda tilda idrok qilinishi ” [SHeygal, Buryakovskaya 2002: 9] deb tahriflaydilar. Mualliflar etnonimlarning lingvokulturologik potentsialini o`rganib chiqadilar.

Tildagi madaniy belgilarni o`rganishtilshunoslikning Shu bugunga qadar erishgan yutuqlari samarasidir. Lingvokulturologiyaga qiziqishning ortib borayotgani fanning kelajagini belgilaydi. Shu bilan birga fanning nazariy-metodologik asosi endigina shakllanmoqda. Frazeologizm va paremiyalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida tadqiq etilmoqda. Ayrim tadqiqotlarda mumtoz adabiyot namunalariga murojaat etish kuzatiladi.

Til, madaniyat, etnos (xalq) o`rtasidagi o`zaro aloqa va munosabatlar fanlararo muammo bo`lib, uni hal qilish bir qancha fanlarning – falsafa va sotsiologiyadan to etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha - birgalikdagi sahy-harakatlari bilan bog`liq. Jumladan, milliy til tafakkuri masalalari – bu lingvistik falsafaning bir tarmog`idir; ijtimoiy yoki guruharo axborot almashinuvini til aspektida



o`rganishpsixolingvistika tadqiqot doirasiga kiradi va sh.k. Til madaniyat bilan chambarchas bog`liq: u madaniyatning ichida rivojlanadi va madaniyatning ifodachisidir. Bu g`oya asosida yangi ilm – lingvokulturologiya paydo bo`ldi. Bu fan XX asrning 90-yillarida mustaqil soha sifatida shakllandi. “Lingvokulturologiya” atamasi V.N.Teliya tomonidan yuritilayotgan frazeologik maktab ishlarida, Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V. A. Maslova boshqa tadqiqotchilarning nashrlarida paydo bo`ldi. Agar kulturologiya (Madaniyatshunoslik) inson ongini tabiat, jamiyat, san`at va ijtimoiy va madaniy borliqning boshqa ko`rinishlari bilan munosabatda o`rgansa, tilshunoslik tilda dunyoning o`ziga xos ruhiy modeli sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o`rganadi. Lingvokulturologiyada esa til ham, madaniyat ham tadqiqot obyekti hisoblanadi, ular o`zaro aloqada o`rganiladi. Agar til va madaniyat munosabati masalasini an`anaviy talqini madaniyat haqidagi bir qancha tasavvurlardan foydalanib, lingvistik muammolarni hal qilishga borib taqalsa, bu ishimizda tilning o`z birliklari bilan madaniyatni qamrab olishi, saqlashi va ifodalashi usullari o`rganiladi.

## **11-MA`RUZA: LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING MATN YARATISHDAGI O`RNI (2 SOAT)**

### **REJA:**

1. Lingvomadaniy birliklar
2. Matn madaniyat mavjudligining amal qiluvchi shakli sifatida.
3. Lingvomadaniy birliklarning matn yaratishdagi o`rni.

Lingvokulturologiya – bu tilshunoslik, Madaniyatshunoslik, tilda milliy madaniyat aks etishi va mustahkam o`rnashib olishi tadqiq etuvchi sohalar to`qnashgan o`rinda paydo bo`lgan tilshunoslik tarmog`idir. Bu fan etnolingvistika, sotsiolingvistika bilan Shu qadar chambarchas bog`langanki, V.N. Teliya uni etnolingvistikaning bir ko`rinishi deb hisoblaydi. Biroq ular printsiplial jihatdan umuman boshqa fanlardir. Etnolingvistika tarmog`iga to`xtalganda, eslab o`tish joizki, uning ildizlari Yevropada V. Gumbolg`dtga; Amerika tilshunosligida esa F.Boas, E.Sepir, B.Uorfga borib taqaladi; Rossiyada esa D.K.Zelenin, Ye.F.Karskoy, A.A.Shaxmatov, A.A.Potebnya, A.N.Afanasyev, A.I.Sobolevskoylar tadqiqotlarida alohida mavqega ega bo`ldi.

Lingvokulturologiyaning asosiy birligi sifatida madaniy konseptni oladilar. Bu tushuncha aniq va mavhum nomlarning mundarijasini o`z ichiga oladigan “ostki ma`no” bo`lib, mazkur xalq madaniyati haqida qo`shimcha ma`lumot olishni talab qiladi. [Karasik 2002: 127,129]. Ye.I. SHeygal va V.A. Buryakovskaya lingvokulturologiyani “olam konseptual manzarasining alohida obyektlari va akslanuvchi obyekt (mas. etnos) tomonidan ularning jamoa ongi hamda tilda idrok qilinishi ” [SHeygal, Buryakovskaya 2002: 9] deb tahriflaydilar. Mualliflar etnonimlarning lingvokulturologik potentsialini o`rganib chiqadilar.

Tildagi madaniy belgilarni o`rganishtilshunoslikning Shu bugunga qadar erishgan yutuqlari samarasidir. Lingvokulturologiyaga qiziqishning ortib borayotgani fanning kelajagini belgilaydi. Shu bilan birga fanning nazariy-

metodologik asosi endigina shakllanmoqda. Frazeologizm va paremiyalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida tadqiq etilmoqda. Ayrim tadqiqotlarda mumtoz adabiyot namunalariga murojaat etish kuzatiladi.

Til, madaniyat, etnos (xalq) o`rtasidagi o`zaro aloqa va munosabatlar fanlararo muammo bo`lib, uni hal qilish bir qancha fanlarning – falsafa va sotsiologiyadan to etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha - birgalikdagi sahy-harakatlari bilan bog`liq. Jumladan, milliy til tafakkuri masalalari – bu lingvistik falsafaning bir tarmog`idir; ijtimoiy yoki guruharo axborot almashinuvini til aspektida o`rganishpsixolingvistika tadqiqot doirasiga kiradi va sh.k. Til madaniyat bilan chambarchas bog`liq: u madaniyatning ichida rivojlanadi va madaniyatning ifodachisidir. Bu g`oya asosida yangi ilm – lingvokulturologiya paydo bo`ldi. Bu fan XX asrning 90-yillarida mustaqil soha sifatida shakllandi. “Lingvokulturologiya” atamasi V.N.Teliya tomonidan yuritilayotgan frazeologik maktab ishlarida, Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V. A.Maslova boshqa tadqiqotchilarning nashrlarida paydo bo`ldi. Agar kulturologiya (Madaniyatshunoslik) inson ongini tabiat, jamiyat, san`at va ijtimoiy va madaniy borliqning boshqa ko`rinishlari bilan munosabatda o`rgansa, tilshunoslik tilda dunyoning o`ziga xos ruhiy modeli sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o`rganadi. Lingvokulturologiyada esa til ham, madaniyat ham tadqiqot obyekti hisoblanadi, ular o`zaro aloqada o`rganiladi. Agar til va madaniyat munosabati masalasini an`anaviy talqini madaniyat haqidagi bir qancha tasavvurlardan foydalanib, lingvistik muammolarni hal qilishga borib taqalsa, bu ishimizda tilning o`z birliklari bilan madaniyatni qamrab olishi, saqlashi va ifodalashi usullari o`rganiladi.

Lingvokulturologiyaning predmeti deganda miflashgan til birliklari: tildagi arxetiplar va mifologemlar, marosim va inonchlar, rasm-rusum va odatlarni ham tushunamiz.

Har bir frazeologizm da mifning to`liq o`zi emas, mifologemlar aks etgan bo`ladi. Mifologema mif uchun muhim bo`lgan personaj yoki situatsiya bo`lib, mifning «bosh qahramoni» sifatida mifdan miflarga ko`chib yuradi. Mifning asosida esa arxetip yotadi. Arxetip – individual ongda istalgan o`rinda yuzaga chqadigan va madaniyatga keng yoyilgan barqaror obrazdir. (S.Senderovich) Arxetip tushunchasi dastlab 1919 yilda K.G.Yungning «Instinkt va mulohazasiz» maqolasida kiritilgan. K.Yungning fikricha, barcha odamlar muayyan umumiy ramzlar – arxetiplarni ong osti holatida hosil qilish qobiliyati bilan tug`ilgan. Bu ramzlar tuSh, mif, ertak, afsona kabilarda namoyon bo`ladi. K.Yung arxetiplarda «jamoaviy mulohazasiz holda ifodalanuvchi birlik» ifodalanishini tahkidlaydi. Bu birlik shaxsiy tajriba natijasida emas, insonga ajdodlar orqali meros bo`lib o`tgan bo`ladi. Arxetip – inson ruhida «gul kabi» o`svchi «psixik tana a`zosi».Zamonaviy fanning tasdiqlashicha, arxetip – bu mulohazasiz mavjudlikning juda ham chuqur darajasidir.

K.Yungning genetik nazariyasi doirasida arxetip va mifologiya o`rtasidagi mustahkam aloqa aniqlanadi: mifologiya – arxetiplar omboridir. Shu tariqa bir kuni arxetip bilan nomlangan timsol jamoaviylik kasb etadi va muayyan xalq va davr uchun umumiy hodisaga aylanadi. Odatda naisbatan muhim mifologik motivlar barcha davrlar va xalqlarga tegishli bo`ladi. Inson arxetiplar olamiga qay darajada asir ekanligini tasavvur ham qila olmaydi.

Masalan, non komponentli frazeologizmlarni olaylik – *non topmoq, birovning nonini yemoq, nonini tuya qilmoq, nonini yarimta qilmoq* kabilarda non arxetipi hayot, turmuSh tarzi, faoliyat turi, farovonlik predmeti va timsoli maqomiga ega. Nonning o`z peShona teri, o`z qo`l mehnati orqali topilishi muhimligi ko`rinib turibdi. Aks holda bunday salbiy xususiyat jamiyatning tazyiqiga uchraydi. Bu hukmning ostida o`zbek xalqiga xos bo`lgan milliy, diniy, ma`naviy tamoyillar yotadi. Non Shakli yumaloqligi uning quyoSh timsoliga bog`liqligiga, shuningdek, mehmondo`stlik, dasturxon atrofidagi insonlar uchun bir xil ehtibor berilishiga ham ishora qiladi.

Qadimdan o`zbek xalqida «birovning noni teshib chiqishi», non yeb «nonko`rlik» qilish esa kechirilmas xiyonat ekanligi tahkidlanadi. Nonni uvol qilmaslik, uShog`ini ham terib olish, beshikka chaqaloq boshiga non qo`yish, kechasi yakka ketayotgan odamning hamroh sifatida non olishi, safarga ketayotgan odamga non tishlatish kabi odat va marosimlar ham yuqoridagi faktlarni mustahkamlaydi. «Avesto»da ham bug`doyning sepilishi, unib chiqishi, hosil berishi, non qilinishi devlar uchun halokat deb tahriflanadi. Bunda ochlik, dangasalik, kasallik kabi illatlar dev sifatida, bug`doy va non ularga qarshi vosita ma`nosida qo`llangan.

Rus xalqida ham yangi tug`ilgan chaqaloqni ko`z tegmasligi uchun non bo`lagi ustiga qo`yish, mehmonlarni non va tuz bilan kutib olish, nonni quyoShga qurbonlik sifatida, nonning yovuz kuchlardan himoya qilish kuchiga ishonish ko`zga ko`rinadi. «Non-tuz yomonlikka yo`l qo`ymaydi» maqolining mantiqiy davomida qabr boshiga ham qirq kun mobaynida non-tuz qo`yib ketadilar. «Nonimizni yegan odam bizga yomon ko`z bilan qaramaydi, bizga qarindoShga aylanadi» deyilganida ham nonning ilohiy kuchiga ishonch kuzatiladi.

Ukrainlar esa uy qurishdan oldin to`rt burchagiga bug`doy sepib qo`yishgan. Agar bug`doy buzilmay yaxshi saqlansa, uyni shu joyga qurishgan.

Marosim. A.N.Veselovskiy o`zining «Tarixiy poetika» asarida marosimlarning madaniyat rivojidadagi ehtirol etadi, rasm-rusum va miflar o`rtasida aloqadorlikka ehtibor bermaydi. Zamonaviy fanda mif hamda rasm-rusumlarning semantik jihatdan birligi, ularning bir hodisaning nazariy va amaliy tomonlari ekanligi haqidagi nuqtai nazar keng quloq yozgan. Istalgan harakat uzviylikni yo`qotsa marosimga aylanishi va semiotik belgiga aylanishi mumkin. Marosimlar miflar hamda rasm-rusumlar bilan aloqador K.Levi-Stros, Ye.M.Meletinskiy kabi olimlarning fikricha, miflar rasm-rusum va marosimlardan kelib chiqqan. Marosim rasm-rusumdan farqli ravishda murakab tuzilishga ega, vaqt nuqtai nazaridan bir qancha bosqichlardan iborat. U maxsus qo`shiqlar, harakatlar, follar bilan o`tkaziladi. Mif marosimlarning kelib chiqishini dalillab berishi mumkin.

Amalda har qanday marosim ijodni namoyish qiladi va ramziylashtiradi. Marosimlar muayyan an`ana asosida dunyo tartibi tamoyillarini namoyon qiladi. Marosim ko`p asrlik shartli-ramziy hamda muqaddas an`ana ham hisoblanadi. U odatlarga asoslanadi, insonlarning tabiatga va bir-biriga barqaror munosabatini ifodalaydi; qadim zamonlarda ham marosimlar insonlarga o`zaro munosabatda bo`lish, ijtimoiy tajribalarni ulashish va tarqatish imkonini bergan, yashash tarzini uyg`unlashtirib turgan, inson Shu jamoaning a`zosi ekanligini eslatib turadi.

Marosimlar tug`ilish, nikoh, o`lim, shuningdek, beshikkerti, xudoyi kabilarni o`z ichiga oladi.

Rasm-rusum – maxsus tartib, an`anaviy usullar asosida muayyan vaqtda amalga o`shiriladigan harakatlar tizimi bo`lib, inson hayotini belgilab beruvchi jamoaviy xotira mexanizmidir.

K.Lorentsning tasdiqlashicha, rasm-rusumlar katta jamoaga birikkan hayvonlarda paydo bo`lib, insonlarda tabiiy yo`l bilan yuzaga kelgan. Bu bilan olim hayvonlar va insonlarda rasm-rusumlarning kelib chiqish manbasi bitta ekanligini tahkidlaydi. K.Lorents rasm-rusumlarning uchta asosiy funksiyasini farqlaydi: 1) zo`ravonlikni yo`qotish; 2) «o`ziniki» bo`lgan doirani belgilab olish; 3) «begonalar»dan uzoqlashish. Hatto tilning o`zi rasm-rusumlardan kelib chiqqan degan gipoteza ham mavjud.

V.Ternerning fikricha, rasm-rusumlar – umumiy me`yorlar va xalq qadriyatlarini qo`llab-quvvatlashning muhim vositasidir. Zero, rasm-rusumlarning murakkab tizimi ramzlar, ta`sirlanish va tasavvur bilan bog`liq. Ular esa inson psixikasining yetakchi tuyg`ularidir. Shu tariqa istalgan harakat uzviyligini yo`qotib, semiotik belgi bo`la olsa rasm-rusumga aylanadi.

V.Terner yozadi: «Rasm-rusumlar va ramzlar tizimi shunchaki epifenomenlar yoki chuqur ijtimoiy va ruhiy jarayonlar emas, ular insonning umumiy ahvoriga ma`lum darajada daxldor bo`lgan ontologik qadriyatlarni ifodalaydi. Rasm-rusumlar Shakllarini va ramziy harakatlar sirini kashf qilish, ehtimol, madaniy o`shirimiz uchun foydalidir». Rasm-rusumlar insoniyat tarxi ibtidosida insonlar madaniyatining noverbal matni bo`lgan. Rasm-rusumlar haqidagi bilimlarning o`zi esa shaxsning madaniy va ijtimoiy mavqeini aniqlab bergan. O`zlikni anglash bu davrlarda kuchsiz holda rivojlangan va deyarli to`liq holda jamoaga manfaatiga singdirib yuborilgan.

Rasm-rusumlarni miflarni ifodalovchi teatrlashtirilgan harakat sifatida, inson hayot faoliyatining barcha formalariga kiritilgan mif sifatida baholamaslik kerak. Mifning og`zaki tarzda uzatilishi ham rasm-rusumlardagi harakatlar singari jamoa a`zolari dunyoqarashlari muShtarakligini tahminlaydi, o`ziniki va begona narsalarni farqlaydi. Rasm-rusumlar asosida yuzaga kelgan inson tili belgilari semantikasi prototipik vaziyatlarni aks ettishi kerak.

Rasm-rusumlar insonlarni tabiat kuchlari, jonlantirilgan mifik buyumlar bilan, yaratuvchi bilan bog`lab turadi; qadimiy rasm-rusumlar esa o`ziga xos yomon kuchlardan himoyalaniş marosimidir. Masalan, bunga ko`z tegishini olishimiz mumkin. Ko`z tegishidan asranish uchun ko`zga ko`rinavermaslik yoki ko`zga qaramaslik kabi choralar ko`riladi. Yomon ko`z dunyoning arxetipik modeli tarkibiga kiradi. U boshqa parallel olamga olib boruvchi eshik kabi baholanadi.

Kulgi ham ikki xil baholanadi: ertaklarda, miflarda qah-qah otib kulish devlar, yalmog`izlar, yomon fehlli parilar («Guliqahqah»)ga xos sifat tarzida, sukut, ovozsiz tabassum esa payg`ambarlar, farishtalar, avliyolarning belgisi tarzida namoyon bo`ladi. Rus ertaklaridagi Yalmog`iz kulbasida kulish tabusi, yunon mif va afsonalaridagi xursandchilik orollari, suv parilari, Hans Kristian Andersenning «Qor malikasi» ertagidagi sehrGAR ayol bog`i kabilar kulgi salbiy harakat sifatida baholanishini bildiradi. Bundan quyidagi xulosani yasash mumkin: qaerda kulib

bo`lmaydi? – javob: o`liklar olamida. G`arb xalqlari mifologiyasida jonsiz yovuz ruhlar o`zlarini jonli ko`rsatish, insonlarni halok qilish uchun o`zlarini jonli ko`rsatib kulishlari va adashtirishlari haqidagi inonchlar keng tarqalgan. Sardiniya orollaridagi qadimgi xalqlarda keksalarni o`ldirish marosimi bo`lib, bu marosim vaqtida kulish rasmi bo`lgan. Mazkur odat sardon kulgisi (ajal qahqahasi) degan qanotli so`zning kelib chiqishiga sabab bo`lgan. Gomer kulgisi iborasi ham salbiy bo`yoqqa ega bo`lib, Olimp tog`laridagi ilohlarning bazm vaqtidagi kulgisi – momaqaldiroq ma`nosini bildirgan. Islom dini manbalaridan bo`lgan hadisi shariflarda ham qattiq kulgi qalbni halok qilishi, ovoz chiqarib esnaganda esa shayton qah-qah otib kulishi haqida fikrlar keltiriladi. Doimiy tabassum orqali kishilarga yaxshi kayfiyat ulashish, yolg`on aralashtirmay chiroyli hazil qilish maqtaladi. Turli mahrakalarda, ibodat vaqtida, duo o`qilayotganida kulish, besabab kulish qattiq qoralanishi ham Shu jumlagi kiritiladi. O`zbek xalq Shoiri G.G`ulomning «Sen yetim emassan» Shehrida ham «Bu yerda muzlagan ajdar halqumli... to`plarning qahqahasi yo`q» deganda qattiq kulgi salbiy bo`yoq bilan beriladi.

A.A.Potebnya kulgining ijobiy jihatlarini ham topadi. Ukrain alqi e`tiqodicha, qora qarg`a bolalarni narigi dunyoga o`g`irlab ketishga harakat qiladi va ona agar bolasini kuldira olsa, bola onasi bilan qoladi. Bunda ona va bola kulgisi masalsi yuzaga chiqadi. Ertakchi J.Rodarining «Qutbdagi gunafsha» ertagida bolalarning Sho`x-Shodon kulgisi hayotning davomiyligi, g`am-kulfatning aksi sifatida gavdalanadi. Farg`ona vodiysida ham kulgisiz uy mozorga o`xshatiladi. Jumladan, hajvchi Said Anvar askiyachi Oxunjon qiziq bilan bog`liq quyidagi voqeani keltiradi: *Bir kuni Oxunjon qiziqning choyxonadagi ulfatlari qiziqchining birorta gapiga kulmaslikka, uni mot qilishga kelishib olishadi. Shunday qilishadi ham. Shunda Oxunjon qiziq fotiha qilib, oShdan turib ketadi. – Yo`l bo`lsin – deyishsa, - Dunyoga kelib, hecham o`liklar davrasida suhbat qurmaganim – deydi qiziqchi.*

Qaytariqlar. T.V.TSivyan so`z orqali keltiriladigan zarar – duoibadni qaytarish uchun boshqa so`z – qaytariq keltirish kerakligini aytadi. Bunda yurak tubidan so`zning qudratiga inonch yotadi. Qaytariq va qarg`ishlar har bir xalqning mifologiyasi hamda yozma manbalarida uchraydi. Hind eposi «Mahabharata»da rojaning 3 ta xotini avliyodan duo olgani borishi voqeasi keltiriladi. Avliyo salobat nazari bilan qaraganida ulardan biri ko`zini yumib oladi, ikkinchisi qo`rqib oqarib ketadi, uchinchisi esa qo`rqmaydi. Shunda avliyo ularning tug`ilajak farzandlari biriniki ko`r, ikkinchisi kamqon, uchinchisi karomatli bo`lishini bashorat qilib duo qiladi. Shuningdek, asar davomida Pandu ov qilib yurib bir avliyoning qoplon suratida yurganini bilmay, uni xotini bilan qo`shib kamondan otib o`ldirib qiladi. O`limi oldidan esa avliyo uning ayollarga yaqinlashmasligini duoibad qiladi, yaqinlashsa o`lim topishini aytadi. Homerning «Iliada» dostonida ham Shunga o`xshash hodisa mavjud: yunonlar QuyoSh xudosi ibodatxonasi kohinining qizini olib ketishadi, kohin sovg`a-salom bilan borib yalinsa ham, Menelay qizni berishni xohlamaydi. Shunda kohin ularni qattiq qarg`aydi va Apollonning qahri kelib yunonlar ustiga o`lat yuboradi. Yunonlar keyinchalik ko`zi ochilib, kohindan tavba qilib uzr so`rashadi. Misrdagi firhavlilar maqbaralarida ham Shu kabi qarg`ish to`shlari topilgani, unda podshohlar ruhini bezovta qilganlar tezda o`lim topishlari

bashorat qilinadi. Olim Karnavon Shu tarzda vafot etadi. Bu kabi misollarni ko`plab keltirish mumkin. Jumladan, hadislarda ham uch kishining duosi Tangrining dargohida to`g`ridan to`g`ri qabul bo`lishi aytiladi: ota-onaning, musofirning, mazlumning. Sharqning buyuk mutafakkiri Jaloliddin Rumi ham duoni mayga o`xshatadi. U dil tubida qancha vaqt saqlansa, shuncha quvvatli bo`ladi, deydi. Shu tufayli barcha xalqlarda qarg`ishlar va qaytariqlar inonchi keng o`ringa ega.

Lingvokulturologiyaning tadqiqot predmetlaridan biri – tilning paremiologik boyligi hamdir. Darhaqiqat, maqollarning aksar qismi milliy ongi stereotipi hisoblanadi. Odatda maqol va matallar folkloristikada janr sifatida o`rganiladi. Tilshunoslikda esa endigina o`rganilmoqda. Pragmatik nuqtai nazardan maqollarning maqsadi qorishiq xususiyatli. Birgina maqolning o`zida ogohlantirish, tahqiq, tasalli, maslahat, tanqid, tahdid kabilar jamlangan bo`lishi mumkin: Boy boyga boqar, suv soyga oqar.

Maqollarning barchasi ham lingvokulturologiyaning predmeti hisoblanavermaydi. Jumladan, biror xalqqa, madaniyatga tegishli bo`lmagan, barcha etnoslar uchun birdek tegishli bo`lgan maqollar Shu qatorga kiradi. Mazkur fan tadqiq doirasiga kirish uchun maqol biror xalqning tarixi, madaniyati, turmuShi, ma`naviyati bilan chambarchas bog`liq bo`lishi lozim.

Tilning frazeologik boyligi ham xalq mentaliteti, madaniyati haqidagi boy ma`lumotlar taqdim etadi. Ularda xalqning miflar, odatlar, marosim va rasm-rusumlar, ma`naviyati haqidagi qarashlari o`zgarmay saqlangan bo`ladi. B.A.Larin frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy qurilishi, o`z davri ideologiyasini aks ettirishini yozganida haq edi.

Etalonlarga quyidagicha misol keltirishimiz mumkin: *itday sodiq, buqaday baquvvat, qordek beg`ubor, cho`chqaday semiz, pardek yumShoq, onadek mehribon, tunday qora*. Bu etalonlar nafaqat milliy dunyoqarash va dunyoni milliy anglash hamdir. Chunki faqat ulargina olam hodisalarining milliy-tipik o`lchash samarasidir. Etalonlar vositasida olam obrazli o`lchanadi. Etalonlar ko`pincha barqaror o`xshatishlar tarzida kuzatiladi, biroq insonning dunyoni o`lchash borasidagi istalgan tasavvuridir: *qulog`igacha botmoq, tomog`iga kelmoq, jondan sevmoq* kabi.

*Bir tanganing ustida o`mbaloq oShadi* iborasining semantik strukturasi tahlil qilar ekanmiz, V.N.Teliya aytganidek, tanganing tashqi belgisiga emas, balki uning eng kichik qiymatli pul birligi – etaloni ekanligiga guvoh bo`lamiz. Shu kabi etalon so`zlarni o`z tarkibiga olgan frazeologizmlar tilni madaniyatga yaqinlashtiradi. A.A.Potebnya ta`biricha, bu yerda ramz obrazga (etalonga) aylanadi va tushunuvchining irodasini o`ziga bo`ysuntiradi.

Shunday qilib, etalon predmetlar, hodisa va obyektlar xususiyatlari hamda sifatini baholovchi moddiylikdir. U ijtimoiy-ruhiy bosqichda me`yoriy tasavvurni ifodalaydi. U yashirin ta`sirga ega, tanlov va baholashga ta`sir qiladi.

Stereotip, etalondan farqli ravishda, olamda mavjud bo`ladi va faoliyat, axloqni baholaydi.

Axloq stereotiplari rasm-rusumlarga o`tishi mumkin. Farqi shundaki, stereotipni amalga chiqarishda inson nima maqsadda bu ishni bajarayotganini anglamasligi mumkin. Rasm-rusumni bajarishda refleksga tayaniladi. U ijtimoiy muammolarni hal qilishning bir usulidir.

Metafora hamda obrazlar ham lingvokulturologiya predmetlari qatoriga kiradi. Metaforalarga alohida to`xtalib o`tamiz. Obrazlar so`zning madaniyat bilan aloqasi haqidagi asosiy axborotni ifodalovchi til birligidir. Odatda obrazlilik deganda til birligining predmetlar va hodisalar haqida ko`rinishli va sezimli tasavvur berishini tushunamiz.

## **12-MA`RUZA: PRETSEDENT BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (2 SOAT)**

### **REJA:**

1. Pretsedent birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari.
2. Pretsedent birliklar milliy markerlangan hodisalar nomi.
3. Pretsedent matnlar. pretsedentlik va intertekstuallik.

*Tayanch so`z va iboralar:* pretsedent birlik, milliy marker, pretsedent matn, intertekstuallik.

Zamonaviy lingvokulturologiyaing predmeti turli kodlar – til va madaniyatning hamkorligi natijasida shakllanadigan lisoniy belgilardir. Har bir til Shaxsi ayni holatda madaniy shaxs ham hisoblanadi. Shuning uchun til belgilari madaniyatning «tili» ham hisoblanadi vat il egasining milliy-madaniy o`zligini ham ko`rsatib beradi. Shu asosda o`rinda barcha grammatik qoidalarga bo`ysungan taqdirida ham ayrim «madaniy to`siqlar» bo`lishi mumkinligini aytib o`tish darkor. A.Vejbitskoy nemis orkestriga dirijyorlik qilish uchun chaqirilgan bir ingliz dirijyori haqida quyidagi voqeani keltiradi: Boshida ish yaxshi yurishmaydi. Dirijyor buning sababi ingliz tilida gapirganligi va nemislar uni «o`ziniki» sifatida qabul qilmayotganidan deb o`ylaydi va nemis tilini o`rganishga intiladi. Birinchi bo`lib ustozidan quyidagi gapni nemischaga tarjima qilib berishni so`raydi: «Eshitinglar, menimcha, mana bundoq qilib chalgan yaxshiroq». Tarjimon o`ylanib qoladi: «Aslida tarjima qilsa bo`ladi. Biroq «mana bunday chalish kerak» deb qo`ya qolish mahqulroq».

Bundan chiqadigan xulosa shuki, madaniy to`siq nutq madaniyati normalariga bilan ham bog`liq.

Biz doimo madaniyat haqida bir narsani bilish uchun til materiallarini jalb qilamiz. Xuddi shuningdek, til faktlarini tahlil qilish uchun madaniy realiyalarga murojaat qilamiz. Xorij tilshunosligida madaniy argumentatsiyaning o`rni va salmog`i o`zgardi, ayniqsa kognitiv semantikada. Til birligini madaniy kontekstda tahlil qilish tilshunoslik oldiga bir qator yangi muammolarni qo`ydi. Lingvokulturologiya alohida bilimlar tarmog`i sifatida o`ziga xos vazifalarni bajarishi kerak, ayniqsa, quyidagi masalalarga ehtibor berishi kerak:

- 1) til konseptlari tashkil topishida madaniyatning o`rni qanday?
- 2) til birligi mazmunining qaysi qismiga «madaniy ma`no» birikkan bo`ladi?
- 3) so`zlovchi yoki tinglovchi bu ma`nolarni anglagan holda qo`llaydilar mi va bular nutq strategiyasiga qanday ta`sir qiladi?

4) amalda til egasining madaniy-lisoniy kompetentsiyasi mavjudmi? Unda matnga singdirilgan va til egalari tomonidan anglangan bo`lishi kerak. Madaniy-lisoniy kompetentsiyaning vaqtinchalik ishchi tahrifini ishlab chiqamiz: u til Shaxsining nutq hosil qilish va nutq ijro qilishning tabiiy ko`nikmalariga ega bo`lishi bo`lib, ayniqsa, madaniyat qoidalarini bilish muhimdir. Buni isbotlash uchun til birliklarning tahlil qilishning yangi texnologiyalar kerak;

5) ularning konseptosferasi qanaqa, madaniyatning ifodalanish holatlari-chi? Bir madaniyat sohibi va ko`p madaniyat sohiblari tomonidan ifodalanishi-chi?

6) bu fanning asosiy tushunchalarini qanday tartiblash lozim? Bu tartib til va madaniyatning harakatdagi muammolarini tahlil qilish bilan birga, mazkur paradigma – antropotsentirik yoki antropologik paradigmadan tashqarida ham tushunarli bo`lishi lozim;

Bu ro`yxatni to`liq deb hisoblash mumkin emas. Ularning hal qilinish o`z-o`zidan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur yuqori darajali yoki umumepistemologik vazifalarni R.M. Frumkina barcha fanlar uchun tegishi deb hisoblaydi.

Bu muammolarni hal qilishda qo`shimcha qiyinchilik tug`diruvchi yana bir xususiyat nazardan chetda qolmasligi kerak: til birliklarining madaniy axboroti implitsit xarakterda bo`lib, til belgilari ortida yashiringan bo`ladi.

Bularni idiomalar, iboralar, matallar misolida ham kuzatsak bo`ladi.

V.N.Teliya til birliklarining milliy-madaniy belgilarini tabdil qilishning o`ziga xos usulini taklif qiladi. Yahni uni tilning «ichidan» ichki kuzatuvchi tariqasida tahlil etish kerak. Masalan, kollokatsiya (ajralmas birikmalar)ni lingvokulturologik aspektda tabdil qilish modallik, shuningdek, psixologik omillar bilan bog`liq bo`ladi.

V.N.Teliya taklif qilgan ushbu usuldan tashqari til faktlarini tashqaridan turib ham tahlil qilish talab qilinadi.

Hozirgi kunda lingvokulturologiyani chetlab o`tgan holda tilshunoslikda biror ishni amalga o`shirish qiyin. Uni rad qilish ilmiy jamiyat etosiga mos kelmaydi.

Lingvokulturologik tadqiqotning obyekti va predmetini tushuntirishga harakat qilamiz. Barcha ijtimoiy fanlarning umumiy obyekti inson hisoblanadi. Biroq har bir fanning alohida predmeti bor – inson va uning faoliyatiga tegishli biror jihatdir.

Lingvokulturologik tadqiqotning obyekti madaniy axborotning tarjimoni bo`lgan tilning o`zaro aloqalarini o`rganishdir. Bu obyekt bir qancha fundamental fan – tilshunoslik va Madaniyatshunoslik, etnografiya va psixolingvistikaning tutashgan nuqtasida paydo bo`lgan.

Tadqiqot predmeti esa til birliklaridir. Bu birliklar madaniyatda simvolik, etalonlik, ramziy-metaforik ahamiyatga ega bo`lib, inson tafakkuri faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, arxetipik va prototipik mazmunga ega bo`lib, mif, afsona, rasm-rusum, folklor va diniy matnlar, yana shehriy va nasriy badiiy matnlarda, iboralar, metaforalar, ramzlar va paremiyalarda uchraydi.

Shu tufayli ham aynan bir lingvokulturologik birlikning o`zi bir necha semiotik tizimga mansub bo`ladi. Rasm-rusum stereotipi matalga o`tib, keyinchalik iboraga aylanadi.



Ba`zan birgina lingvokulturologik birlik mif, matal va iboralar tarkibiga singib ketgan bo`ladi: bo`ri qadimgi xalqlar tasavvurida qaroqchi, qotil, kallakesar sifatida gavdalanadi. Turkiy xalqlarda esa uning bo`ysunmaslik, erkinlikka ishtiyoqi masalasi birinchi o`ringa ko`tarilgan. Masalan, Mahmud KoShg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asarida Afrosiyobning o`limidan qayg`urib yig`layotgan beklar «bo`ri bo`lib ulidilar» deyilsa, «Kul tigin» bitigtoshida “qo`shinim bo`ri kabi edi”, - deyiladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asari 31-bobida bekning mardligi bo`riga o`xshatiladi. Xalq tilida esa «mahallaning bo`risi» kabi metaforalar ishlatiladi. Maqollarda «Bo`rining yesa ham og`zi qon, yemasa ham» kabi tarzdagi qarama-qarshi fikrlar ham uchraydi.

Tadqiqot obyekti tushunchasi ostida har biri alohida lingvokulturologik birlik bo`lgan bir necha predmet yotadi. Biz bulardan bir nechtasini ajratib ko`rsatamiz, biroq ularning miqdorini yanada ko`paytirish mumkin. Ular:

1) lingvo`lkashunoslikning predmeti muqobilsiz so`zlar va lakunalardir, shuningdek, ular lingvokulturologiyaning ham predmetidir;

2) mifiklashgan til birliklari: arxetiplar, mifologemlar, marosimlar va inonchlar, rasm-rusum hamda odatlar, ular til birliklari tarkibiga yaxlitlangan bo`ladi;

3) tilning paremiologik fondi;

4) tilning frazeologik fondi;

5) etalonlar, stereotiplar, ramzlar;

6) tildagi metaforalar va timsollar;

7) tilning uslubiy imkoniyatlari;

8) nutq madaniyati;

9) nutq odobi sohasi.

Ko`rsatilgan birliklar geterogen yig`indi bo`lsa-da, ular nisbatan «madaniyat tashuvchisi» ekanligi tufayli tadqiqot obyektiga aylanadi.

Tilning har bir yangi a`zosi dunyoni o`z tafakkuri samarasi, sinovlar natijasi sifatida emas, ajdodlari tomonidan tildagi tushunchalarga singdirilgan tajribalar orqali ko`radi. Bu tajriba afsona va arxetiplarda saqlangan bo`ladi; mazkur tajribani o`zlashtirar ekanmiz, biz uni ishlatishga va birmuncha zamonaviylashtirishga urinamiz xolos. Ammo borliqni anglash jarayonida yangi tushunchalar ham paydo bo`ladi. Ular tilga mansub bo`lib, madaniy boylik ham hisoblanadi. Til “hali tushunilmagan narsalarni kashf etish vositasidir” (Gumbolg`dt). Ma`lum bo`ladiki, til madaniyatda mavjud bo`lgan narsani shunchaki nomlamaydi yoki ifodalamaydi, balki madaniyatni shakllantiradi, go`yoki uning ichida o`sib, keyinchalik mustaqil rivojlanadi. Til va madaniyatning bu kabi o`zaro bog`liqligi aynan lingvokulturologiya o`rganadi.

Forobiy: «Aqlli deb Shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o`tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo`r isteododga ega, yomon ishlardan o`zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydir. Yomon ishlarni o`ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo`lganlarni aqlli deb bo`lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim».

Forobiy o`rta asrlar Sharoitida birinchi bo`lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil tahlilot yaratdi. Bu tahlilotda madaniyatli

jamiyatning ko'p masalalari- davlatni boshqarish, tahlim-tarbiya, axloq, mahrifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalar qamrab olingan.

Jahon madaniyatining kelib chiqish tarixiga bir nazar solaylik. Antik davrdan boshlab, jamoatchilik madaniyatni nafaqat bilim va ko'nikma balki insoniyat amaliy harakatning natijasi sifatida qabul qila boshlagan. Masalan, er.avv. 45 yilda yashagan faylasuf Sitseron "ong, tafakkur madaniyati" xaqida to'xtaladi. Rim notiqining fikricha, onga, tafakkurga xuddi yerga bo'lgani kabi ishlov berish lozim. Ana shunday, tafakkuriga ishlov bera olgan, ma'naviy qobiliyatlarini rivojlantira olgan insongina – madaniyatning asosiy mohiyati bo'lib hioblanadi. Demokrit fikricha xam, madaniyat negizini aynan inson yaratgan. Inson, tabiatga taqlid qilish va uni o'ziga bo'suntirish jarayonida madaniy qadriyatlarni yaratib boradi. Grek falsafasining eng asosiy kulminatsion nuqtasi – bu insonga qolip sifatida qarash, yahni ular hamma narsani inson qiyofasida ko'rishadi, o'z dunyoqarashlarida xamma narsani inson Shakl-Shamoyili va xarakteriga o'xshatishadi. Ular falsafasida xattoki xudolar xam hatti-xarakatlari va tashqi-ko'rinishlari bilan inson sifatida, qiyofasida tasvirlanganlar.

O'rta asrlarga kelib madaniyat hodisasini idrok etishda ma'lum bir o'zgarishlar yuz berdi. Endi, xudo qadr-qiyamat negizi sifatida qabul qilinib Shu asosda madaniyat prinsiplari ishlab chiqildi. Xristianlik falsafasining asoschisi Avreliy Avgustin fikriga ko'ra, "Xudo yo'lida yashash – bu inson uchun yagona bo'lgan qadrli yo'l. Eng go'zal, yaxshi, toza va yorug' xislatlar yagona Xudoda mavjud, hayotda emas. Xudo sanoatkor kabi borliqni yaratdi. Inson xam sanoatkor u madaniyatni yaratdi...".

Madaniyat - lingvokulturologiya uchun asosiy, hal qiluvchi tushuncha. Shu tufayli uning mundarijasini, semiotik tabiatini batafsil ko'rib chiqishni lozim topdik. Madaniyat so'zi fan tilida kultura muqobiliga ega. Bu so'z lotincha Colere so'zidan olingan bo'lib, "vozdeltvanie, tarbiya, taraqqiyot, eslash, kulg't" ma'nolarini bildiradi. XVIII asrdan boshlab inson faoliyati, tafakkuri natijasida paydo bo'lgan barcha narsalarga nisbatan ishlatila boshlandi. Mazkur ma'nolar kultura so'zida keyingi vaqtlarda ham mavjud edi. Biroq dastlab so'z "insonning tabiatga maqsadli ta'siri, tabiatning inson manfaati uchun o'zgarishi" (mas. dehqonchilik madaniyati). Antropologiya – inson va uning madaniyati haqidagi ilk fanlardan biri bo'lib, inson xulq-atvorini, insonning sotsiokulturologik munosabatlar tizimiga kirishi bilan bog'liq me'yorlar, tahqiq, tabular o'rnatilishini, madaniyatning jinsiy farqlanishga ta'sirini, muhabbatning madaniy fenomen ekanligi, mifologiyani madaniy hodisa ekanligini tadqiq qiladi. Bu fan ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda XIX asrda vujudga keldi va bir qancha tarmoqlarga bo'linadi. Bizni qiziqtirgan muhim yo'nalishlardan biri esa kognitiv antropologiya hisoblanadi. Kognitiv antropologiyaning asosida madaniyatga timsollar tizimi sifatida qarash yotadi. Bu timsollar insonning anglash qobiliyati, olamning Shakliy va ruhiy tuzilishi bilan bog'liqdir. Kognitiv antropologiya tadqiqotchilari fikricha, tilda barcha kognitiv kategoriyalar jamlangan bo'lib, ular inson aqli va madaniyatning borlig'ini tashkil etishi bilan ajralib turadi. Bu kategoriyalar inson borlig'i uchun immanent emas, balki insonning madaniyatga munosabati jarayonida vujudga keladi. XX asrning 60-yillarida sobiq SSSRda Madaniyatshunoslik (kulturologiya) madaniyat haqidagi

alohida fan sifatida shakllandi. U falsafa, tarix, antropologiya, sotsiologiya, psixologiya, etnologiya, etnografiya, tilshunoslik, san`atshunoslik, semiotika, informatika kesishgan nuqtada paydo bo`lib, bu fanlarga tegishli bilimlarni bir nuqtai nazar ostiga jamladi. Madaniyat – ijtimoiy-gumanitar bilimlarning asos tushunchalaridan biridir. U ilmiy atama sifatida XVIII asrning 2-yarmida – “mahrifatchilik asri”da qo`llana boshlandi. Ilmiy adabiyotlarda bu atamaga ilk tahrif E. Taylor asarida uchraydi. U madaniyat deganda inson jamiyatning a`zosi sifatida o`zlashtirgan bilim, e`tiqod, san`at, qonun, axloq, urf-odatlar, qobiliyat va boshqalarning yig`indisini tushunadi. P.S.Gurevichning fikricha, atamaga berilgan tahriflar miqdori to`rt xonali son bilan ifodalanadi. Bu holat nafaqat hodisaga bo`lgan qiziqishni, shuningdek, zamonaviy Madaniyatshunoslik fanining metodologik muammolarini ham ko`rsatib beradi. Biroq hozirga qadar dunyo Madaniyatshunosligida madaniyatni tushinishda va uni o`rganishda yagona va mazkur metodologik tarqoqlikni hal qiladigan umumiy qarash mavjud emas.

pretsedent birliklar adabiyotda ham keng qo`llanadi. Ular talmeh san`atini vujudga keltiradi. O`quvchi u yoki bu nomga ishorani ko`rar ekan, uning ko`z oldida o`sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, ko`rashi, fojiali takdiri jonlanib, Shoir demoqchi bo`lgan g`oyani, fikrni, tuyg`uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab etadi.

Ayrim obrazlarga to`xtalib o`tamiz:

Mohi Kan`oniy – Yusuf (a.s.)

Quduq egasi - Yusuf (a.s.)

Yusufi Misriy - Yusuf (a.s.)

Layli-Majnun, Farhod-Shirin, Yozi-Zebo, Bahrom-Gulandom, Vomiq – Uzro – oShiq va ma`Shuqlar timsoli

Nuh (a.s.) – uzoq umr, to`fon vaqti

Ayyub (a.s.) – sabr ramzi

Ya`qub (a.s.) – g`am, alm, firoq ramzi

Baytul hazan - g`am uyi, Ya`qub (a.s.)ning kulbasi

Xizr, Ilyos – abadiylik ramzi, `ir, madadkorlik

Qobil va Hobil – ilk gunohi kabira ramzi

Horut va Morut – Shaytonga aldangan farishtalar timsoli

Chohi Bobil - Horut va Morut jazolanadigan choh

Ibrohim gulzori – Ibrohim (a.s.)ni jazolash uchun katta gulxan yoqilganda, gulxan o`rnida gulzor `aydo bo`lganiga ishora

Xo`tan – kiyigi bilan mashhur joy

## 13-MA`RUZA: ANTROPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (2 SOAT)

### REJA:

1. Antroponimlar tilning madaniy boyligi sifatida.
2. Antroponimlarda o`xshatish
3. Antroponimlar nominatsiya jarayoni.

Tayanch so`z va iboralar: Antroponimlar, madaniy bo`yoq, Antroponimlarda o`xshatish, nominatsiya

Zamonaviy lingvokulturologiyaing predmeti turli kodlar – til va madaniyatning hamkorligi natijasida shakllanadigan lisoniy belgilardir. Har bir til Shaxsi ayni holatda madaniy shaxs ham hisoblanadi. Shuning uchun til belgilari madaniyatning «tili» ham hisoblanadi vat il egasining milliy-madaniy o`zligini ham ko`rsatib beradi. Shu asosda o`rinda barcha grammatik qoidalarga bo`ysungan taqdirida ham ayrim «madaniy to`siqlar» bo`lishi mumkinligini aytib o`tish darkor. A.Vejbitskoy nemis orkestriga dirijyorlik qilish uchun chaqirilgan bir ingliz dirijyori haqida quyidagi voqeani keltiradi: Boshida ish yaxshi yurishmaydi. Dirijyor buning sababi ingliz tilida gapirganligi va nemislar uni «o`ziniki» sifatida qabul qilmayotganidan deb o`ylaydi va nemis tilini o`rganishga intiladi. Birinchi bo`lib ustozidan quyidagi gapni nemischaga tarjima qilib berishni so`raydi: «Eshitinglar, menimcha, mana bundoq qilib chalgan yaxshiroq». Tarjimon o`ylanib qoladi: «Aslida tarjima qilsa bo`ladi. Biroq «mana bunday chalish kerak» deb qo`ya qolish mahqulroq».

Bundan chiqadigan xulosa shuki, madaniy to`siq nutq madaniyati normalariga bilan ham bog`liq.

Biz doimo madaniyat haqida bir narsani bilish uchun til materiallarini jalb qilamiz. Xuddi shuningdek, til faktlarini tahlil qilish uchun madaniy realiyalarga murojaat qilamiz. Xorij tilshunosligida madaniy argumentatsiyaning o`rni va salmog`i o`zgardi, ayniqsa kognitiv semantikada. Til birligini madaniy kontekstda tahlil qilish tilshunoslik oldiga bir qator yangi muammolarni qo`ydi. Lingvokulturologiya alohida bilimlar tarmog`i sifatida o`ziga xos vazifalarni bajarishi kerak, ayniqsa, quyidagi masalalarga ehtibor berishi kerak:

- 1) til konseptlari tashkil topishida madaniyatning o`rni qanday?
- 2) til birligi mazmunining qaysi qismiga «madaniy ma`no» birikkan bo`ladi?
- 3) so`zlovchi yoki tinglovchi bu ma`nolarni anglagan holda qo`llaydilar mi va bular nutq strategiyasiga qanday ta`sir qiladi?

4) amalda til egasining madaniy-lisoniy kompetentsiyasi mavjud mi? Unda matnga singdirilgan va til egalari tomonidan anglangan bo`lishi kerak. Madaniy-lisoniy kompetentsiyaning vaqtinchalik ishchi tahrifini ishlab chiqamiz: u til Shaxsining nutq hosil qilish va nutq ijro qilishning tabiiy ko`nikmalariga ega bo`lishi bo`lib, ayniqsa, madaniyat qoidalarini bilish muhimdir. Buni isbotlash uchun til birliklarning tahlil qilishning yangi texnologiyalar kerak;

5) ularning konseptosferasi qanaqa, madaniyatning ifodalanish holatlari-chi? Bir madaniyat sohibi va ko`p madaniyat sohiblari tomonidan ifodalanishi-chi?

6) bu fanning asosiy tushunchalarini qanday tartiblash lozim? Bu tartib til va madaniyatning harakatdagi muammolarini tahlil qilish bilan birga, mazkur paradigma – antropotsentirik yoki antropologik paradigmadan tashqarida ham tushunarli bo`lishi lozim;

Bu ro`yxatni to`liq deb hisoblash mumkin emas. Ularning hal qilinish o`z-o`zidan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur yuqori darajali yoki umumepistemologik vazifalarni R.M. Frumkina barcha fanlar uchun tegishi deb hisoblaydi.

Bu muammolarni hal qilishda qo`shimcha qiyinchilik tug`diruvchi yana bir xususiyat nazardan chetda qolmasligi kerak: til birliklarining madaniy axboroti implitsit xarakterda bo`lib, til belgilari ortida yashiringan bo`ladi.

Bularni idiomalar, iboralar, matallar misolida ham kuzatsak bo`ladi.

V.N.Teliya til birliklarining milliy-madaniy belgilarini tabdil qilishning o`ziga xos usulini taklif qiladi. Yahni uni tilning «ichidan» ichki kuzatuvchi tariqasida tahlil etish kerak. Masalan, kollokatsiya (ajralmas birikmalar)ni lingvokulturologik aspektida tabdil qilish modallik, shuningdek, psixologik omillar bilan bog`liq bo`ladi.

V.N.Teliya taklif qilgan ushbu usuldan tashqari til faktlarini tashqaridan turib ham tahlil qilish talab qilinadi.

Hozirgi kunda lingvokulturologiyani chetlab o`tgan holda tilshunoslikda biror ishni amalga o`shirish qiyin. Uni rad qilish ilmiy jamiyat etosiga mos kelmaydi.

Lingvokulturologik tadqiqotning obyekti va predmetini tushuntirishga harakat qilamiz. Barcha ijtimoiy fanlarning umumiy obyekti inson hisoblanadi. Biroq har bir fanning alohida predmeti bor – inson va uning faoliyatiga tegishli biror jihatdir.

Lingvokulturologik tadqiqotning obyekti madaniy axborotning tarjimoni bo`lgan tilning o`zaro aloqalarini o`rganishdir. Bu obyekt bir qancha fundamental fan – tilshunoslik va Madaniyatshunoslik, etnografiya va psixolingvistikaning tutashgan nuqtasida paydo bo`lgan.

Tadqiqot predmeti esa til birliklaridir. Bu birliklar madaniyatda simvolik, etalonlik, ramziy-metaforik ahamiyatga ega bo`lib, inson tafakkuri faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, arxetipik va prototipik mazmunga ega bo`lib, mif, afsona, rasm-rusum, folklor va diniy matnlar, yana shehriy va nasriy badiiy matnlarda, iboralar, metaforalar, ramzlar va paremiyalarda uchraydi.

Shu tufayli ham aynan bir lingvokulturologik birlikning o`zi bir necha semiotik tizimga mansub bo`ladi. Rasm-rusum stereotipi matalga o`tib, keyinchalik iboraga aylanadi.

Ba`zan birgina lingvokulturologik birlik mif, matal va iboralar tarkibiga singib ketgan bo`ladi: bo`ri qadimgi xalqlar tasavvurida qaroqchi, qotil, kallakesar sifatida gavdalanadi. Turkiy xalqlarda esa uning bo`ysunmaslik, erkinlikka ishtiyoqi masalasi birinchi o`ringa ko`tarilgan. Masalan, Mahmud Ko`shg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asarida Afrosiyobning o`limidan qayg`urib yig`layotgan beklar «bo`ri bo`lib ulidilar» deyilsa, «Kul tigin» bitigtoshida “qo`shinim bo`ri kabi edi”, - deyiladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asari 31-bobida bekning mardligi bo`riga o`xshatiladi. Xalq tilida esa «mahallaning bo`risi» kabi metaforalar

ishlatiladi. Maqollarda «Bo`rining yesa ham og`zi qon, yemasa ham» kabi tarzda qarama-qarshi fikrlar ham uchraydi.

Tadqiqot obyekti tushunchasi ostida har biri alohida lingvokulturologik birlik bo`lgan bir necha predmet yotadi. Biz bulardan bir nechtasini ajratib ko`rsatamiz, biroq ularning miqdorini yanada ko`paytirish mumkin. Ular:

1) lingvo`lkashunoslikning predmeti muqobilsiz so`zlar va lakunalardir, shuningdek, ular lingvokulturologiyaning ham predmetidir;

2) miflashgan til birliklari: arxetiplar, mifologemlar, marosimlar va inonchlar, rasm-rusum hamda odatlar, ular til birliklari tarkibiga yaxlitlangan bo`ladi;

3) tilning paremiologik fondi;

4) tilning frazeologik fondi;

5) etalonlar, stereotiplar, ramzlar;

6) tildagi metaforalar va timsollar;

7) tilning uslubiy imkoniyatlari;

8) nutq madaniyati;

9) nutq odobi sohasi.

Ko`rsatilgan birliklar geterogen yig`indi bo`lsa-da, ular nisbatan «madaniyat tashuvchisi» ekanligi tufayli tadqiqot obyektiga aylanadi.

Lingvokulturologiyaning predmeti deganda miflashgan til birliklari: tildagi arxetiplar va mifologemlar, marosim va inonchlar, rasm-rusum va odatlarni ham tushunamiz.

Har bir frazeologizmga mifning to`liq o`zi emas, mifologemlar aks etgan bo`ladi. Mifologema mif uchun muhim bo`lgan personaj yoki situatsiya bo`lib, mifning «bosh qahramoni» sifatida mifdan miflarga ko`chib yuradi. Mifning asosida esa arxetip yotadi. Arxetip – individual ongda istalgan o`rinda yuzaga chiqadigan va madaniyatga keng yoyilgan barqaror obrazdir. (S.Senderovich) Arxetip tushunchasi dastlab 1919 yilda K.G.Yungning «Instinkt va mulohazasiz» maqolasida kiritilgan. K.Yungning fikricha, barcha odamlar muayyan umumiy ramzlar – arxetiplarni ong osti holatida hosil qilish qobiliyati bilan tug`ilgan. Bu ramzlar tuSh, mif, ertak, afsona kabilarda namoyon bo`ladi. K.Yung arxetiplarda «jamoaviy mulohazasiz holda ifodalanuvchi birlik» ifodalanishini tahkidlaydi. Bu birlik shaxsiy tajriba natijasida emas, insonga ajdodlar orqali meros bo`lib o`tgan bo`ladi. Arxetip – inson ruhida «gul kabi» o`svuvchi «psixik tana a`zosi».Zamonaviy fanning tasdiqlashicha, arxetip – bu mulohazasiz mavjudlikning juda ham chuqur darajasidir.

K.Yungning genetik nazariyasi doirasida arxetip va mifologiya o`rtasidagi mustahkam aloqa aniqlanadi: mifologiya – arxetiplar omboridir. Shu tariqa bir kuni arxetip bilan nomlangan timsol jamoaviylik kasb etadi va muayyan xalq va davr uchun umumiy hodisaga aylanadi. Odatda nisbatan muhim mifologik motivlar barcha davrlar va xalqlarga tegishli bo`ladi. Inson arxetiplar olamiga qay darajada asir ekanligini tasavvur ham qila olmaydi.

Masalan, non komponentli frazeologizmlarni olaylik – *non topmoq, birovning nonini yemoq, nonini tuya qilmoq, nonini yarimta qilmoq* kabilarda non arxetipi hayot, turmuSh tarzi, faoliyat turi, farovonlik predmeti va timsoli maqomiga ega. Nonning o`z peShona teri, o`z qo`l mehnati orqali topilishi muhimligi ko`rinib

turibdi. Aks holda bunday salbiy xususiyat jamiyatning tazyiqiga uchraydi. Bu hukmning ostida o`zbek xalqiga xos bo`lgan milliy, diniy, ma`naviy tamoyillar yotadi. Non Shakli yumaloqligi uning quyoSh timsoliga bog`liqligiga, shuningdek, mehmondo`stlik, dasturxon atrofidagi insonlar uchun bir xil ehtibor berilishiga ham ishora qiladi.

Qadimdan o`zbek xalqida «birovning noni teshib chiqishi», non yeb «nonko`rlik» qilish esa kechirilmas xiyonat ekanligi tahkidlanadi. Nonni uvol qilmaslik, uShog`ini ham terib olish, beshikka chaqaloq boshiga non qo`yish, kechasi yakka ketayotgan odamning hamroh sifatida non olishi, safarga ketayotgan odamga non tishlatish kabi odat va marosimlar ham yuqoridagi faktlarni mustahkamlaydi. «Avesto»da ham bug`doyning sepilishi, unib chiqishi, hosil berishi, non qilinishi devlar uchun halokat deb tahriflanadi. Bunda ochlik, dangasalik, kasallik kabi illatlar dev sifatida, bug`doy va non ularga qarshi vosita ma`nosida qo`llangan.

Rus xalqida ham yangi tug`ilgan chaqaloqni ko`z tegmasligi uchun non bo`lagi ustiga qo`yish, mehmonlarni non va tuz bilan kutib olish, nonni quyoShga qurbonlik sifatida, nonning yovuz kuchlardan himoya qilish kuchiga ishonish ko`zga ko`rinadi. «Non-tuz yomonlikka yo`l qo`ymaydi» maqolining mantiqiy davomida qabr boshiga ham qirq kun mobaynida non-tuz qo`yib ketadilar. «Nonimizni yegan odam bizga yomon ko`z bilan qaramaydi, bizga qarindoShga aylanadi» deyilganida ham nonning ilohiy kuchiga ishonch kuzatiladi.

Ukrainlar esa uy qurishdan oldin to`rt burchagiga bug`doy sepib qo`yishgan. Agar bug`doy buzilmay yaxshi saqlansa, uyni shu joyga qurishgan.

Marosim. A.N.Veselovskiy o`zining «Tarixiy poetika» asarida marosimlarning madaniyat rivojidadagi ehtirol etadi, rasm-rusum va miflar o`rtasida aloqadorlikka ehtibor bermaydi. Zamonaviy fanda mif hamda rasm-rusumlarning semantik jihatdan birligi, ularning bir hodisaning nazariy va amaliy tomonlari ekanligi haqidagi nuqtai nazar keng quloq yozgan. Istalgan harakat uzviylikni yo`qotsa marosimga aylanishi va semiotik belgiga aylanishi mumkin. Marosimlar miflar hamda rasm-rusumlar bilan aloqador K.Levi-Stros, Ye.M.Meletinskiy kabi olimlarning fikricha, miflar rasm-rusum va marosimlardan kelib chiqqan. Marosim rasm-rusumdan farqli ravishda murakab tuzilishga ega, vaqt nuqtai nazaridan bir qancha bosqichlardan iborat. U maxsus qo`shiqlar, harakatlar, follar bilan o`tkaziladi. Mif marosimlarning kelib chiqishini dalillab berishi mumkin.

Amalda har qanday marosim ijodni namoyish qiladi va ramziylashtiradi. Marosimlar muayyan an`ana asosida dunyo tartibi tamoyillarini namoyon qiladi. Marosim ko`p asrlik shartli-ramziy hamda muqaddas an`ana ham hisoblanadi. U odatlarga asoslanadi, insonlarning tabiatga va bir-biriga barqaror munosabatini ifodalaydi; qadim zamonlarda ham marosimlar insonlarga o`zaro munosabatda bo`lish, ijtimoiy tajribalarni ulashish va tarqatish imkonini bergan, yashash tarzini uyg`unlashtirib turgan, inson Shu jamoaning a`zosi ekanligini eslatib turadi. Marosimlar tug`ilish, nikoh, o`lim, shuningdek, beshikkerti, xudoyi kabilarni o`z ichiga oladi.

Rasm-rusum – maxsus tartib, anʼanaviy usullar asosida muayyan vaqtda amalga oʻshiriladigan harakatlar tizimi boʻlib, inson hayotini belgilab beruvchi jamoaviy xotira mexanizmidir.

K.Lorentsning tasdiqlashicha, rasm-rusumlar katta jamoaga birikkan hayvonlarda paydo boʻlib, insonlarda tabiiy yoʻl bilan yuzaga kelgan. Bu bilan olim hayvonlar va insonlarda rasm-rusumlarning kelib chiqish manbasi bitta ekanligini tahkidlaydi. K.Lorents rasm-rusumlarning uchta asosiy funksiyasini farqlaydi: 1) zoʻravonlikni yoʻqotish; 2) «oʻziniki» boʻlgan doirani belgilab olish; 3) «begonalar»dan uzoqlashish. Hatto tilning oʻzi rasm-rusumlardan kelib chiqqan degan gipoteza ham mavjud.

V.Ternerning fikricha, rasm-rusumlar – umumiy meʼyorlar va xalq qadriyatlarini qoʻllab-quvvatlashning muhim vositasidir. Zero, rasm-rusumlarning murakkab tizimi ramzlar, taʼsirlanish va tasavvur bilan bogʻliq. Ular esa inson psixikasining yetakchi tuygʻularidir. Shu tariqa istalgan harakat uzviyligini yoʻqotib, semiotik belgi boʻla olsa rasm-rusumga aylanadi.

V.Terner yozadi: «Rasm-rusumlar va ramzlar tizimi shunchaki epifenomenlar yoki chuqur ijtimoiy va ruhiy jarayonlar emas, ular insonning umumiy ahvoliga maʼlum darajada daxldor boʻlgan ontologik qadriyatlarni ifodalaydi. Rasm-rusumlar Shakllarini va ramziy harakatlar sirini kashf qilish, ehtimol, madaniy oʻsishimiz uchun foydalidir». Rasm-rusumlar insoniyat tarxi ibtidosida insonlar madaniyatining noverbal matni boʻlgan. Rasm-rusumlar haqidagi bilimlarning oʻzi esa shaxsning madaniy va ijtimoiy mavqeini aniqlab bergan. Oʻzlikni anglash bu davrlarda kuchsiz holda rivojlangan va deyarli toʻliq holda jamoaga manfaatiga singdirib yuborilgan.

Rasm-rusumlarni miflarni ifodalovchi teatrlashtirilgan harakat sifatida, inson hayot faoliyatining barcha formalariga kiritilgan mif sifatida baholamaslik kerak. Mifning ogʻzaki tarzda uzatilishi ham rasm-rusumlardagi harakatlar singari jamoa aʼzolari dunyoqarashlari muhtarakligini tahminlaydi, oʻziniki va begona narsalarni farqlaydi. Rasm-rusumlar asosida yuzaga kelgan inson tili belgilari semantikasi prototipik vaziyatlarni aks ettishi kerak.

Rasm-rusumlar insonlarni tabiat kuchlari, jonlantirilgan mifik buyumlar bilan, yaratuvchi bilan bogʻlab turadi; qadimiy rasm-rusumlar esa oʻziga xos yomon kuchlardan himoyalaniş marosimidir. Masalan, bunga koʻz tegishini olishimiz mumkin. Koʻz tegishidan asranish uchun koʻzga koʻrinavermaslik yoki koʻzga qaramaslik kabi choralar koʻriladi. Yomon koʻz dunyoning arxetipik modeli tarkibiga kiradi. U boshqa parallel olamga olib boruvchi eshik kabi baholanadi.

Kulgi ham ikki xil baholanadi: ertaklarda, miflarda qah-qah otib kulish devlar, yalmogʻizlar, yomon fehlli parilar («Gulqahqah»)ga xos sifat tarzida, sukut, ovozsiz tabassum esa paygʻambarlar, farishtalar, avliyolarning belgisi tarzida namoyon boʻladi. Rus ertaklaridagi Yalmogʻiz kulbasida kulish tabusi, yunon mif va afsonalaridagi xursandchilik orollari, suv parilari, Hans Kristian Andersenning «Qor malikasi» ertagidagi sehrgar ayol bogʻi kabilar kulgi salbiy harakat sifatida baholanishini bildiradi. Bundan quyidagi xulosani yasash mumkin: qaerda kulib boʻlmaydi? – javob: oʻliklar olamida. Gʻarb xalqlari mifologiyasida jonsiz yovuz ruhlar oʻzlarini jonli koʻrsatish, insonlarni halok qilish uchun oʻzlarini jonli koʻrsatib



kulishlari va adashtirishlari haqidagi inonchlar keng tarqalgan. Sardiniya orollaridagi qadimgi xalqlarda keksalarni o`ldirish marosimi bo`lib, bu marosim vaqtida kulish rasmi bo`lgan. Mazkur odat sardon kulgisi (ajal qahqahasi) degan qanotli so`zning kelib chiqishiga sabab bo`lgan. Gomer kulgisi iborasi ham salbiy bo`yoqqa ega bo`lib, Olimp tog`laridagi ilohlarning bazm vaqtidagi kulgisi – momaqaldiroq ma`nosini bildirgan. Islom dini manbalaridan bo`lgan hadisi shariflarda ham qattiq kulgi qalbni halok qilishi, ovoz chiqarib esnaganda esa shayton qah-qah otib kulishi haqida fikrlar keltiriladi. Doimiy tabassum orqali kishilarga yaxshi kayfiyat ulashish, yolg`on aralashtirmay chiroyli hazil qilish maqталadi. Turli mahrakalarda, ibodat vaqtida, duo o`qilayotganida kulish, besabab kulish qattiq qoralanishi ham Shu jumlagi kiritiladi. O`zbek xalq Shoiri G.G`ulomning «Sen yetim emassan» Shehrida ham «Bu yerda muzlagan ajdar halqumli... to`plarning qahqahasi yo`q» deganda qattiq kulgi salbiy bo`yoq bilan beriladi.

A.A.Potebnya kulgining ijobiy jihatlarini ham topadi. Ukrain alqi e`tiqodicha, qora qarg`a bolalarni narigi dunyoga o`g`irlab ketishga harakat qiladi va ona agar bolasini kuldira olsa, bola onasi bilan qoladi. Bunda ona va bola kulgisi masalsi yuzaga chiqadi. Ertakchi J.Rodarining «Qutbdagi gunafsha» ertagida bolalarning Sho`x-Shodon kulgisi hayotning davomiyligi, g`am-kulfatning aksi sifatida gavdalanadi. Farg`ona vodiysida ham kulgisiz uy mozorga o`xshatiladi. Jumladan, hajvchi Said Anvar askiyachi Oxunjon qiziq bilan bog`liq quyidagi voqeani keltiradi: *Bir kuni Oxunjon qiziqning choyxonadagi ulfatlari qiziqchining birorta gapiga kulmaslikka, uni mot qilishga kelishib olishadi. Shunday qilishadi ham. Shunda Oxunjon qiziq fotiha qilib, oShdan turib ketadi. – Yo`l bo`lsin – deyishsa, - Dunyoga kelib, hecham o`liklar davrasida suhbat qurmaganim – deydi qiziqchi.*

Qaytariqlar. T.V.TSivg`yan so`z orqali keltiriladigan zarar – duoibadni qaytarish uchun boshqa so`z – qaytariq keltirish kerakligini aytadi. Bunda yurak tubidan so`zning qudratiga inonch yotadi. Qaytariq va qarg`ishlar har bir xalqning mifologiyasi hamda yozma manbalarida uchraydi. Hind eposi «Mahabharata»da rojaning 3 ta xotini avliyodan duo olgani borishi voqeasi keltiriladi. Avliyo salobat nazari bilan qaraganida ulardan biri ko`zini yumib oladi, ikkinchisi qo`rqib oqarib ketadi, uchinchisi esa qo`rqmaydi. Shunda avliyo ularning tug`ilajak farzandlari biriniki ko`r, ikkinchisi kamqon, uchinchisi karomatli bo`lishini bashorat qilib duo qiladi. Shuningdek, asar davomida Pandu ov qilib yurib bir avliyoning qoplon suratida yurganini bilmay, uni xotini bilan qo`shib kamondan otib o`ldirib qiladi. O`limi oldidan esa avliyo uning ayollarga yaqinlashmasligini duoibad qiladi, yaqinlashsa o`lim topishini aytadi. Homerning «Iliada» dostonida ham Shunga o`xshash hodisa mavjud: yunonlar QuyoSh xudosi ibodatxonasi kohinining qizini olib ketishadi, kohin sovg`a-salom bilan borib yalinsa ham, Menelay qizni berishni xohlamaydi. Shunda kohin ularni qattiq qarg`aydi va Apollonning qahri kelib yunonlar ustiga o`lat yuboradi. Yunonlar keyinchalik ko`zi ochilib, kohindan tavba qilib uzr so`rashadi. Misrdagi firhavlilar maqbaralarida ham Shu kabi qarg`ish toShlari topilgani, unda podShohlar ruhini bezovta qilganlar tezda o`lim topishlari bashorat qilinadi. Olim Karnavon Shu tarzda vafot etadi. Bu kabi misollarni ko`plab keltirish mumkin. Jumladan, hadislarda ham uch kishining duosi Tangrining

dargohida to`g`ridan to`g`ri qabul bo`lishi aytiladi: ota-onaning, musofirning, mazlumning. Sharqning buyuk mutafakkiri Jaloliddin Rumi ham duoni mayga o`xshatadi. U dil tubida qancha vaqt saqlansa, shuncha quvvatli bo`ladi, deydi. Shu tufayli barcha xalqlarda qarg`ishlar va qaytariqlar inonchi keng o`ringa ega.

3. Lingvokulturologiyaning tadqiqot predmetlaridan biri – tilning paremiologik boyligi hamdir. Darhaqiqat, maqollarning aksar qismi milliy ongi stereotipi hisoblanadi. Odatda maqol va matallar folkloristikada janr sifatida o`rganiladi. Tilshunoslikda esa endigina o`rganilmoqda. Pragmatik nuqtai nazardan maqollarning maqsadi qorishiq xususiyatli. Birgina maqolning o`zida ogohlantirish, tahqiq, tasalli, maslahat, tanqid, tahdid kabilar jamlangan bo`lishi mumkin: Boy boyga boqar, suv soyga oqar.

Maqollarning barchasi ham lingvokulturologiyaning predmeti hisoblanavermaydi. Jumladan, biror xalqqa, madaniyatga tegishli bo`lmagan, barcha etnoslar uchun birdek tegishli bo`lgan maqollar Shu qatorga kiradi. Mazkur fan tadqiq doirasiga kirish uchun maqol biror xalqning tarixi, madaniyati, turmuShi, ma`naviyati bilan chambarchas bog`liq bo`lishi lozim.

4. Tilning frazeologik boyligi ham xalq mentaliteti, madaniyati haqidagi boy ma`lumotlar taqdim etadi. Ularda xalqning miflar, odatlar, marosim va rasm-rusumlar, ma`naviyati haqidagi qarashlari o`zgarmay saqlangan bo`ladi. B.A.Larin frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy qurilishi, o`z davri ideologiyasini aks ettirishini yozganida haq edi.

5. Etalonlar, stereotiplar, simvollar.

Etalonlarga quyidagicha misol keltirishimiz mumkin: *itday sodiq, buqaday baquvvat, qordek beg`ubor, cho`chqaday semiz, pardek yumShoq, onadek mehribon, tunday qora*. Bu etalonlar nafaqat milliy dunyoqarash va dunyoni milliy anglash hamdir. Chunki faqat ulargina olam hodisalarining milliy-tipik o`lchash samarasidir. Etalonlar vositasida olam obrazli o`lchanadi. Etalonlar ko`pincha barqaror o`xshatishlar tarzida kuzatiladi, biroq insonning dunyoni o`lchash borasidagi istalgan tasavvuridir: *qulog`igacha botmoq, tomog`iga kelmoq, jondan sevmok* kabi.

*Bir tangananing ustida o`mbaloq oShadi* iborasining semantik strukturasi tahlil qilar ekanmiz, V.N.Teliya aytganidek, tangananing tashqi belgisiga emas, balki uning eng kichik qiymatli pul birligi – etaloni ekanligiga guvoh bo`lamiz. Shu kabi etalon so`zlarni o`z tarkibiga olgan frazeologizmlar tilni madaniyatga yaqinlashtiradi. A.A.Potebnya tahriricha, bu yerda ramz obrazga (etalonga) aylanadi va tushunuvchining irodasini o`ziga bo`ysuntiradi.

Shunday qilib, etalon predmetlar, hodisa va obyektlar xususiyatlari hamda sifatini baholovchi moddiylikdir. U ijtimoiy-ruhiy bosqichda me`yoriy tasavvurni ifodalaydi. U yashirin ta`sirga ega, tanlov va baholashga ta`sir qiladi.

Stereotip, etalondan farqli ravishda, olamda mavjud bo`ladi va faoliyat, axloqni baholaydi.

Axloq stereotiplari rasm-rusumlarga o`tishi mumkin. Farqi shundaki, stereotipni amalga chiqarishda inson nima maqsadda bu ishni bajarayotganini anglamasligi mumkin. Rasm-rusumni bajarishda refleksga tayaniladi. U ijtimoiy muammolarni hal qilishning bir usulidir.

6. Metafora hamda obrazlar ham lingvokulturologiya predmetlari qatoriga kiradi.

Metaforalarga alohida to`xtalib o`tamiz. Obrazlar so`zning madaniyat bilan aloqasi haqidagi asosiy axborotni ifodalovchi til birligidir. Odatda obrazlilik deganda til birligining predmetlar va hodisalar haqida ko`rinishli va sezimli tasavvur berishini tushunamiz.

## 14-MA`RUZA: O`XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (2 SOAT)

### REJA:

1. O`xshatishlar tilning madaniy boyligi sifatida.
2. O`xshatish etalonlari.
3. O`xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli. O`xshatish turlari. Individual-muallif yoki erkin o`xshatishlar. Umumxalq yoki turg`un o`xshatishlar. O`xshatish etalonlari.
4. O`xshatishlarning til va nutqqa munosabati. Turli lingvomadaniyatlardagi o`xshatishlarning qiyosi. O`zbek tilining o`ziga xos o`xshatishlari.

Tayans so`zlar: *o`xshatish, obrazli tafakkur, milliy tafakkur, individual o`xshatish, erkin o`xshatishlar, umumxalq o`xshatishlar, turg`un o`xshatishlar, etalon.*

Bugun zamonaviy tadqiqotlarda o`xshatishlarning lingvokulturologik jihatlariga katta ehtibor berilmoqda. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova o`xshatishlarda muayyan xalqning milliy dunyoqarashi aks etishini tahkidlab, bu fikrini rus, belorus, va qirg`iz tilida qo`llanuvchi o`xshatish qurilmalari tahlili asosida dalillaydi. Uning fikriga ko`ra, *ko`ziIssiqko`ldekyarqiraydi, kiyikdektiqomat, manasdekkuchlikabi* qurilmalar qirg`iz xalqining milliy dunyoqarashini aks ettiradi.

V.A.Maslova, shuningdek, muayyan xalqning obrazli tafakkur tarsi xususan, o`sha xalq tilida qo`llanuvchi o`xshatishlarda ham yaqqol namoyon bo`lishini tahkidlaydi. Olimaning bu fikrini o`zbek tilidagi turg`un o`xshatishlar ham tasdiqlaydi. “O`zbek tili o`xshatishlarining izohli lug`ati” uchun yig`ilgan materiallar Shundan dalolat beradiki, xalqning muayyan predmet, belgi, harakat-holatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarsi o`xshatishlarda ham namoyon bo`ladi.

Jumladan, buni o`zbek tilidagi inson haqidagi turg`un o`xshatishlarda ham ko`rishimiz mumkin.

Tilshunosolima D. Xudoyberganovanning “Matnning antropotsentrik tadqiqi” nomli maqolasida o`zbek tilidagi inson haqidagi turg`un o`xshatishlarni quyidagi ma`noviy guruhlariga tasnif qiladi:

1. Insona`zolaribilanbog`liqbo`lgan o`xshatishlar.
2. Insonningtashqiko`rinishibilanbog`liqbo`lgano`xshaishlar.
3. Insonningjismaniyxususiyatibilanbog`liq o`xshatishlar.
4. Insonningovozibilanbog`liq o`xshatishlar.

5. Inson nutqi bilan bog`liq o`xshatishlar.
  6. Insonning xarakteri bilan bog`liq bo`lgan o`xshatishlar.
  7. Insonning holati bilan bog`liq bo`lgan o`xshatishlar.
  8. Insonning xatti-harakati bilan bog`liq bo`lgan o`xshatishlar.
- Bu o`xshatishlarning har biriga alohida to`xtalib o`tamiz.

*Inson a`zolari bilan bog`liq bo`lgan o`xshatishlar:* alifdek / sarvdek / sambitdek / ShamShoddektikqomat, angishovna dek kichkina og`iz, anorday qizilyuz, burgutnikiday o`tkirko`z, gilosday qizillab, guruchday oppoq, maydatish, zulukdek qoraqoSh, ipday ingichka qoSh, kulchadek yumaloqyuz, tunday qorasoch, cho`michday katta burun;

*Insonning tashqi ko`rinishi bilan bog`liq o`xshatishlar:* azroilday xunuk, bo`rdoqiday / meShday semiz, devday bahaybat, zangidekqop-qora, nihoday nozik, oyday go`zal, suqsurday chiroyli, terakday novcha, chigirtkaday / arvohday / kosovday / cho`pday ozg`in;

*Insonning jismoniy xususiyati bilan bog`liq o`xshatishlar:* ajdarhodday kuchli, ayiqday baquvvat, alpday pahlavon, gulday nafis;

*Insonning ovozi bilan bog`liq o`xshatishlar:* ayiqday / Sherday / arslonday / tuyaday bo`kirmoq, nahratortmoq, bo`riday uvillamoq, momaqaldiraqday gumburlamoq, qo`ng`iroqday jarangdor;

*Inson nutqi bilan bog`liq o`xshatishlar:* avtomatday gapirmoq, bedanaday / bulbulday sayramoq, itday qopmoq, itday irrillamoq, chumchuqdek chirqillamoq;

*Insonning xarakteri bilan bog`liq o`xshatishlar:* birqop yong`oqday shaldir-Shuldir, avliyoday begunoh, ammaning buzog`idek bo`Sh, ipakdek muloyim, itday sadoqatli, molday befahm, musichaday beozor, sutday oq, tayoqday to`g`ri, tulkiday ayyor, eShakday qaysar, qo`yday yuvoSh;

*Insonning holati bilan bog`liq o`xshatishlar:* baqaday / Shamday / haykalday / toShday qotmoq, bezgak tutganday qaltiramoq, yoShboladay quvonmoq, dokaday / devorday / bo`zday oqarmoq, tilla topganga doyday sevinmoq, to`rvasini yo`qotgangad oyday talmovsiramog, yetimchadek mung`aymoq, yog`day erimoq, igna ustida o`tirganday betoqat, ilonday to`lg`anmoq, kuydirgan kalladay tirjaymoq, lavlagiday / Sholg`omday qizarmoq, suvga tuShgan bo`lka nonday bo`shashmoq;

*Insonning xatti-harakati bilan bog`liq o`xshatishlar:* yelimday yopishmoq, yeb qo`ygunday qaramoq, yov quvganday yugurmoq, itday / devday / eShakday / molday / qulday ishlamoq, och kalxatday yopirilmoq, ko`z qorachig`iday asramoq, maymunday / echkiday sakramoq, molday / itday / cho`chqaday / ho`kizday ichmoq, toShbaqaday sudralmoq, o`qdek otilib chiqmoq.

O`zbek tilidagi inson bilan bog`liq o`xshatishlar Shuni ko`rsatadiki, ularda insonning holati va harakatini ifodalovchi o`xshatishlar miqdori boshqa ma`noviy guruhdagi o`xshatishlarga nisbatan ko`p. Keyingi o`rinda esa insona`zolariniifodalovchi o`xshatishlarturadi. Demak, bundanShunday xulosagakelishmumkinki, o`zbektilidaso`zlashuvchitilegalariko`proqinsonningharakat-holatiniobrazlitarzdaifodalaydi.

O`xshatishuchunetalonsifatidanlanganso`zlarhamo`zbektilininglingvokultur ologixxususiyatlariniko`rsatuvchitilbirligidir.

Insonning xarakter xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlarda o'zbek tilida so'zlashuvchitilegalarining etalon sifatidaturli hayvon va jonivor turlarini bildiruvchi so'zlardan ko'proq foydalanganligi ma'lum bo'ladi. Masalan, itday sadoqatli, molday befahm, musichaday beozor, eShakday qaysar (xarakter bilan bog'liq); itday ishlamoq, echkiday sakramoq, toShbaqaday sudralmoq, ilonday sudralmoq, bulbulday sayramoq (harakat bilan bog'liq o'xshatishlar). O'zbek tilida o'simlik va meva nomlarining o'shatish etaloni sifatida qo'llanishi ham ko'p uchraydi. Bunday o'xshatish etalonlariga *sambit, ShamShod, sarv, terak, lavlagi, Sholg'om, gilos, olma, yong'oq*, kabi so'zlarni misol sifatida keltirish mumkin. Hayvonni bildiruvchi so'zlarning o'xshatish etaloni sifatida qo'llanishi shaxsning subyektiv munosabatini bildirish harakati bilan bog'liq ekanligi yaqqol seziladi. Masalan, *it* so'zi etalon bo'lib kelgan o'xshatishlar soni o'ndan ortiq bo'lib, ularning barchasi insonga nisbatan qo'llangan. *Ilon* etaloni ham Shunday xususiyatga ega.

V. Maslova o'xshatishlarning antropotsentrik jihatlariga alohida ehtibor berib Shunday deb yozgan edi: "O'xshatilayotgan obyektlarning bir-biridan uzoq bo'lgan turli doiralarga mansub ekanligi o'zida bir-birini taqoo etuvchi qo'shimcha assotsiatsiyalarning butun boshli zanjirini namoyon etadi, ular axborotning to'laqonli bo'lishini tahminlashi bilan birga ta'sirchanlikni ham kuchaytiradi; o'zaro o'xshatilayotgan obyektlar voqelikda bir-biridan qancha uzoq bo'lsa, ulardagi ta'sirchanlik shuncha yorqinlasha boradi. O'xshatishlarning evristik vazifasi yana shunda ko'rinadiki, ular dunyo realiyalarini chuqurroq va kengroq bilib olishga, ularning turli va ko'pincha kutilmagan qirralarini anglab olishga imkon beradi".

Umuman, o'xshatishlar lingvokulturologiyaga oid adabiyotlarda metafora, metonimiya, maqol va iboralar kabi tilning lingvomadaniy boyligi sifatida ehtirol etiladi. Bu kabi madaniy birliklar ba'zida biror etnosga xos mentallikni, shuningdek, real voqelikni lison vositasida ifodalash darajasini ko'rsatuvchi dalil hamdir. Ular o'zida xalqning ijtimoiy-ma'naviy jihatdan rivojlanishini ham ko'rsatadi.

## **15-MAVZU: METAFORALARNING MATN YARATISHDAGI O'RNI (2 SOAT)**

### **REJA:**

1. Metafora tildagi universal hodisa. Bobo tilning metaforik xususiyati.
2. Metafora obrazli-motivlashgan so'z. Obrazli va konseptual metaforalar.
3. Metaforalarning madaniyatdagi roli.
4. Evfemizm hodisasi. Tabu. Etnografik tabu. Lingvistik tabu. Evfemik omonimiya. Disfemizm hodisasi.

Tayanch so'zlar: *metafora, obraz, etalon, obrazli metafora, konseptual metafora, madaniyat, evfemizm, tabu, evfemik omonimiya, disfemizm*.

Frazeologik birlik va metaforalar mazmun tarkibi va ulardagi madaniy konnotatsiyalarning o'zi ham kognitiv bilim manbasi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham frazeologizmlar va majoziy motivlangan so'zlar (metaforalar) madaniy belgilar tashqi ko'rinishlari hisoblanadi.

XX asr oxirlariga kelib metafora biz o`ylagandan ko`ra murakkabroq hodisa ekanligi ma`lum bo`la boshladi. U til, madaniyat, ilm-fan, hayot, butun olam tarkibiga singib ketgan. Shuningdek, metaforalar bilish universaliyasi hisoblanib, zamonaviy olimlar dunyoning metaforik manzarasini inson genezisi, umuman, inson madaniyati bilan bog`lashga moyillik ko`rsatmoqdalar. Boshqacharoq aytgandan, prototilning o`zi metaforik xarakterda bo`lgan, protomuloqot ham metaforik bosqichda yuz bergan.

Metafora – tildagi universal hodisalardan biridir, u barcha tillarga xos. U makon va zamonda ham, til tuzilishi va uning amalga o`shuvida ham mazkur xususiyatini namoyon qiladi. Ko`plab tilshunolar, til metaforalar xazinasini degan fikrga ham kelganlar.

Metafora fan uchun mahsuldor tushunchalardan biridir. M.M. Baxtin «xronotop» terminini fanga «deyarli metafora sifatida» kiritganini aytadi. Shuningdek, «ichki tuzilish», «madaniy bo`yoq»(konnotatsiya), «tirik suv» kabi ilmiy terminlar ham fanga metafora yo`li bilan kiritilgan.

Metafora tilning eng murakkab hodisalaridan biridir. U haqidagi barcha tahriflar Aristotelning tahrifiga borib taqalada: «Metafora odatiy nomni jinsdan turga yoki turdan jinsga yoki turdan turga yoki o`xshashlik asosida ko`chirilishidir».

Metafora keng tushuncha bo`lishiga qaramay, ko`pincha, uni uslubiy yoki badiiy usul sifatida tasavvur qilamiz. Faqat oxirgi yillardagina N.D.Arutyunova , V.N.Teliya, B.Blek, J.Lakoff, M.Jonson kabi olimlar metaforaning ontologik tabiatiga ehtibor bera boshladilar.

Zamonaviy tadqiqotlarning asosiy qismi metaforaning tafakkur jarayonidagi roliga qaratilgan. M.Minskiynig fikricha, nutqiy yoki fikriy jarayonda ikki tushunchaning bog`lanishi bir freym (stsenariy – tushunchalar doirasi)ning boshqa ma`nolarga bog`lanishi jarayonida yuz beradi, yoxud metafora nom berilmagan tushunchani ifodalashga xizmat qiladi. Boshqa nuqtai nazardan, «obrazli maydonlar», «ikki mazmuniy hududning o`zaro birikishining ruhiy o`xshatma jarayoni» sintezidir (V.N.Teliya).

Metaforalarning yuzaga kelishi til egasi tushunchalar tizimi bilan chambarchas bog`liq. Biz dunyo haqidagi tasavvur va baholash standartlarimizni metaforada namoyon qilamiz. U esa tilda so`zga aylanadi xolos. Demak, metafora – fikrlarni umumlashtirish modeli, farazlarni ilgari surish qolipidir.

Metaforalar hosil qilish tizimi quyidagi tartibda bo`ladi: turli mantiqiy guruhlardan ikkita turli predmetlarni olamiz, bunda ularning umumiy belgilari, xususiyatlariga tayanamiz (masalan, g`am tuni: hissyot – g`am va dunyoning holati – qorong`u, ular uchun umumiy jihat – ijobiy hissiyotlar – yorug`, salbiy hissiyotlar – qora va xira). Metafora kategorial, taksonimik (tasnifiy) chalkashliklardan vujudga keladi. Inson (ko`pincha shoir) metafora tuzar ekan, dunyoda sifatlar va xususiyatlar, mantiqiy guruhlar va ularning o`rindoshlari olamida yashaydi. N.D.Arutyunovanning fikricha, metafora mavhum belgi va sifatlarni parchalamaydi, aksincha, predmet borlig`ining fikriy timsoli darajasiga ko`tariladi. Masalan, O.mandelg`Shtam royni «uyning aqlli va yaxshi hayvoni» deb atar ekan, u Shunchaki ikki mantiqiy guruhlardagi predmetlarnigina tanlab qo`ya qolmaydi. Bunda ehtibor aniq predmetlarga emas, predmetlarning ong'dagi timsoliga qaratilishi lozim.

SH.Balli yozadi: «Biz moddiy dunyodagi predmetlarga mavhum tushunchalarni moslaymiz. Uni boshqalarga tushuntirishning yagona usulidir. Metaforalar Shunday tarzda yuzaga kelgan. Metafora qiyoslashdan boshqa hes narsa emas, Bunda tafakkur tamoyil asosida mavhum tushunchani aniq moddiy tushunchaga yaqinlashtiradi va bitta soʻzga bogʻlaydi».

J.Lakoff va M.Jonson oʻzlarining metafora nazariyasini ilgari surar ekanlar, «Metafora bizning kundalik turmuShimizga singib ketgan, nafaqat til, shuningdek, tafakkurimiz va harakatlarimizga qorishib ketgan. Bizning tushunchalar tizimimiz esa metaforik xarakterdadir» deb tahkidlaydilar. Ularning nazariyasiga koʻra, odamlar oʻz ongidagi «mavhum» konseptni aniqroq ifodalash, mavjud yoki mavjud emas deb bilish uchun metafora qidiradilar. Olimlar metaforani fundamental – asosiy sezgi deb biladilar. Ularning fikricha, metafora moddiyatni yuzaga keltirish vositasidir. Metafora – bilishning kuchli vositalardan biridir, unda bizga maʼlum boʻlgan eski tushuncha yangi tushuncha bilan qiyoslanadi. Oʻxshashlik mexanizmi toʻqima tabiatga ega boʻladi.

Metafora mazkur printsipdan boshlanadi, yashaydi, agar nomlashning ichki tuzilishi vazifasini bajarmay qoʻysa, oʻladi. (V.N.Teliya)

O.M.Freydenberg metaforaning yuzaga kelishi haqida quyidagilarni yozadi: «Koʻchirilgan gʻoyalar! Agar u gnoseologik bilimlar taʼsiri natijasida inson ongida yuzaga kelmaganida, bunday tafakkuriy toʻsiqni kim ham oʻylab topa olmagan boʻlardi».

M.Myuller boshqacha qarashni ilgari suradi: metafora qadimgi tilning lugʻaviy kambagʻalligi natijasida yuzaga kelgan: lugʻat boyligi oz boʻlgan, inson esa bitta soʻzning oʻzidan turlicha predmet hamda tushunchalarni belgilash uchun foydalangan.

A.N.Afanasyev va A.A.Potebnya fikriga koʻra metafora ikki predmetning u haqidagi tasavvuriy oʻxshashlik natijasida yaqinlashuvidan yuzaga kelgan. U biror ehtiyoj yoki tilning kambagʻalligi natijasida emas, boy manbadan erkin oʻsib chiqqan.

Demak, metafora borliq haqidagi tafakkur usulidir. U orqali yangi bilimlar olinadi: hali aniq Shakllanmagan tushunchani ifodalash uchun soʻzning birlamchi maʼnosidan, uning turli assotsiatsiyalaridan kelib chiqadigan maʼnolaridan foydalaniladi.

Metafora tushunchani inson prizmasidan oʻtkazar ekan, uning dunyoqarashi, bilim saviyasi, milliy-madaniy qadriyatlari haqida ham maʼlumot beradi. Shunday qilib, metafora antropometrik xarakterga ega: metafora inson tafakkurining qay darajaga yetganligi belgisi hamdir. Metafora mavhum narsalarni tushunarli va yengil his etiladigan qilib qoʻyadi.

Demak, metafora mohiyati jihatidan quyidagi xususiyatlarga ega: u tafakkur va borliqni anglash quroli, u fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi yoxud milliy-madaniy dunyoqarashga yoʻgʻrilgan.

1978 yilda CHikago Shtatida boʻlib oʻtgan simpozium faqat metafora muammosiga qaratilgan edi.

Metaforaning sirini ochishda bizga shehriy, badiiy metaforalarni kuzatish katta yordam beradi.

Keyingi o`n yilliklar davomida metaforaning paydo bo`lish tarixi va uning madaniyatni tilda namoyon etishdagi o`rnini yahni lingvokulturologik ahamiyatini tadqiq etish ko`pgina tilshunos olimlarning diqqat markazida bo`ldi. Garchi metafora muammosi ikki ming yildan buyon olimlarning diqqat markazida bo`lsa ham, bugungi kungacha yo stilistik vosita sifatida, yo badiiy uslub sifatida tadqiq etib kelinar edi. Faqatgina oxirgi o`n yilliklar davomida tilshunoslar va faylasuflar diqqati metaforaning ontologiyasini tadqiq etishga ko`chdi (N.D.Arutyunova, V.N.Teliya, B.Blek, J.Lakoff, M.Jonson va boshqalar).

Frazeologik birliklar va metafora mazmunining rejasi hamda ularga birlashtirilgan madaniy konnotatsiyalar tufayli madaniy belgilarning 32 eksponentlariga aylandi.

Metaforani ushbu nuqtai nazardan ko`rib chiqamiz.

XX asrning oxirlarida metafora oldingilardan ko`ra murakkabroq va muhimroq hodisa sifatida namoyon bo`la boshladi. Metaforaning kelib chiqish tarixi haqida tilshunoslar turli xil qarashlarni ilgari surishadi. Maslova metaforaning kelib chiqishini insonning genezisi bilan va tegishli ravishda inson madaniyati bilan bog`laydi. Va eng qadimiy til, qadimiy ibtidoiy aloqalar metaforik bo`lganligini tahkidlaydi. M.Myuller fikriga ko`ra esa metafora qadimiy til leksik qashshoqligi sababli vujudga kelgan. So`z zahirasi kam bo`lgan va inson har xil predmetlar va hodisalarga bir xil so`zlarni ishlatishga majbur bo`lgan.

Bizning fikrimizcha, metafora qadimiy tilning leksik qashshoqligi yoki so`z zahirasi kamligi tufayli vujudga kelmagan. Bu borada biz A.N.Afanasevning fikrlariga tayanamiz. Uning yozishicha, metafora o`xshash tasavvurlarni uyg`otadigan predmetlarni o`zaro yaqinlashishi natijasida paydo bo`lgan. Metafora mutlaqo ozod, boy manbadan olingan, zarurat, ehtiyoj yoki tilning qashshoqligidan paydo bo`lmagan.

Metafora tildagi universal hodisa bo`lib, u hamma tillarga xosdir. Uning universalligi makon va zamonda, tilning strukturasi va faoliyatida namoyon bo`ladi. Metafora fan uchun mahsuldor tushunchadir. M.M.Batxin “xronotop” degan atamani fanga deyarli metafora kabi kiritganini tahkidlaydi. Aksariyat eng qulay ilmiy atamalar metaforalardir: “ichki shakl”, “madaniy konnotatsiya”, “tirik suv” va boshqalar. Metafora bu tilning eng sirli voqealaridan biridir. Metafora tahrifining xilma-xilligiga qaramay deyarli hammalari Aristotelg` tahrifiga borib taqaladi: “Metafora bu g`ayrioddiy nomni bir turdan boshqa xilga, yoki xildan turga, yoki xildan xilga, yoki o`xshashdan o`xshashga ko`chirishdir”

M.Minskiyning fikricha nutqiy yo fikriy hodisada ikki tushunchani bog`lanishi bir tizim bo`lib, boshqa ma`nolar o`rniga o`tadi, chunki metafora nomi yo`q narsani ayon qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Metaforaning paydo bo`lishi til egalarining konseptual tizimi, ularning dunyo haqidagi standart tasavvurlari, baholash tizimi bilan boghliqdir. Metaforaning ijod qilish mexanizmi quyidagicha: har xil mantiqiy sinflardan ikki turli predmet olinadi hamda ular umumiy alomatlar va xususiyatlar asosida bir-biriga tenglashtiriladi.

Inson metaforani vujudga keltirayotganida go`yo sifatlar va xususiyatlar olamida, mantiqiy sinflarda va ularning substansiyalari (o`rinbosarlari) olamida yashaganday bo`ladi. Metafora abstrakt ma`nodagi belgi, alomat va sifatarni ajratib



chiqarmaydi, balki predmetning mazmun mohiyatining ma`no timsolini aniqlaydi. O.MandelShtam royalni “aqli va yoqimli uy hayvoni” deb aytganda, u predmetlarni soddagina qilib turli mantiqiy sinflardan olmaydi. Bu yerda gap real predmetlar haqida emas, balki ongda paydo bo`lgan predmetlarning timsollari haqida boradi. Shunday qilib bir butunning mohiyati vujudga keladi. SH.Balli yozadi: “Biz abstrakt tushunchalarni hissiyot olami predmetlariga qiyoslaymiz(o`xshatamiz), chunki bu biz uchun yagona ularni anglash usuli va boshqalarni ular bilan tanishtirish yo`lidir.Metaforaning kelib chiqishi shundaydir. Metafora bu qiyoslashdan boshqa narsa emas, unda idrok abstrakt tushunchani va muayyan predmetni yaqinlashtirish tamoyili ta`sirida bitta so`zda har ikkisini mujassamlashtiradi”.

Metafora o`zida asosiy madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, chunki metafora madaniy-milliy dunyoqarashga asoslangan.

## 17-MA`RUZA: MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (2 SOAT)

### REJA:

1. Maqollar tilning madaniy boyligi sifatida.
2. Maqollarning xususiyatlari.
3. Maqollarda madaniy konnotatsiya.

### TILNING BARQAROR BIRIKMALARI: MAQOL VA IBORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

O`zbek xalqi purma`no so`zga, o`git-u naqlarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimiz azaldan o`zining hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g`am-anduhi, rohat-farog`ati, muvaffaqiyat va mag`lubiyati, rasm-rusumlari – hamma-hammasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko`zgudagidek aks ettirib keladi. Xalqning til boyligi – uning bo`yoqdor, serjilo leksikasining frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o`lchanadi. O`zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma`nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan.

Maqollar xalqning ko`p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat`iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so`zning ma`no xilma-xilligi, iboralarning turg`unligi, Shaklliy barqarorlik ustunlik qiladi<sup>15</sup>. Maqollar ham xalqning milliyligi, urf-odatlarini, asriy tajribalar natijasida chiqargan xulosalarini o`zida kas ettiruvchi xalq og`zaki ijodi namunasi sanaladi. Maqollarda ma`lum ma`noda millatning madaniyati aks etadi. Shu sababli o`zbek xalq maqollarini ham lingvokulturologiyaning obyekt sifatida tahlilga tortishga harakat qilamiz.

Bu borada lingvokulturologik obyekt bo`la oladigan maqollarni quyidagicha tahlil qilamiz:

\* *Bir mayizni qirq kishi bo`lib yeydi.* O`zbek xalqiga xos bo`lgan eng oliy xususiyatlardan biri ahillik, inoqlikdir. Bu bizga ajdodlarimizdan singgan fazilatdir.

---

<sup>15</sup> Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O`zbek xalq maqollari. – Toshkent. 2013. – B. 5.

Bir mayizni qirgga bo`lib yeyishlik, o`zi yemay o`zgaga ilinishlik xalqimizga xos bo`lgan insoniy fazilatlarga ishora qiladi.

\* ***Bitta qaldirg`och kelgani bilan bahor bo`lmas.*** Qaldirg`och xalqimizda yaxshilik, qut-baraka elchisi sifatida e`zozlanadi. Shuningdek, u bahor darakchisi. Maqolning lug`aviy ma`nosiga e`tibor qiladigan bo`lsak, u mazmunan “ Qars ikki qo`ldan chiqadi” maqoliga sinonim hisoblanadi va avvalgi maqolga hamohang tarzda uni to`ldiradi. Aynan qaldirg`och obrazining olinganiga sabab xalqimizda bu qushga nisbatan o`zgacha qarash, mehr tufayli. Bu esa maqolda etalon sifatida o`z aksini topgan.

\* ***Bug`doy noning bo`lmasa ham bug`doy so`zing bo`lsin.*** O`zbek xalqi eng mehmondo`st, xushkalom xalqlardan sanaladi. “Mehmon otangdan ulug`” degan naqlni o`ziga bayroq qilib oladi-da, o`zi yemay mehmonga tutadi, borini unga ilingisi keladi. Agar mehmonning qornini to`qlashga qurbi yetmasa hech bo`lmaganda ikki og`iz Shirin so`zi bilan uni siylagisi keladi. Shu ma`noda bug`doy so`zi o`zbekona madanitaimizni o`zida aks ettirgan etalon sifatida kelgan.

\* ***Bosh omon bo`lsa do`ppi topilar.*** Insonning yaxshi, yorug` kunlarga, sog`lik, tinchlik-xotirjamlik bo`lsa, yaxshi, yorug` kunlarga umidi, o`zini taqdir ixtiyoriga topshirib tavakkal qilish ma`nolari ifodalangan. Bosh kiyim sifatida bu yerda qalpoq, Shapka, Shlyapa so`zlari emas, do`ppi so`zi keltirilgan. Ma`lumki, do`ppi o`zbek xalqining milliy bosh kiyimi sanaladi. Shu o`rinda limgvomadaniy birlik sifatida etalon vazifasini bajarib kelgan.

\* ***Do`ppining ichida odam bor.*** Bu maqol mazmunan “ Devorning ham qulog`i bor” maqoliga o`zaro sinonim hisoblanadi. Bu maqolning tahliliga to`xtalsak, har bir narsani har joyda aytmaslik kerakligini uqtiradi, kishini ogohlikka xuShyorlikka chorlaydi. Unda ham etalon sifatida do`ppi so`zi olingan.

\* ***Elakka chiqqan xotinning ellik og`iz gapi bor.*** Bu maqolni eshitgan har bir inson xayoliga g`iybatchi ayol haqida fikr yuritilgan degan o`y keladi. Lekin bu maqol bunday ayollar haqida emas. Aslida bu maqolda xalqimizga xos bo`lgan o`zga millatlarda takrorlanmas xususiyat aks ettirilgan. Negaki, bir insonni ko`rgan o`zbek ayollari o`sha insonning oilasi, farzandlarini, hattoki, qarindoShurug`larining ham hol-ahvolini ham so`raydi. Bu diniy manbalarimizda ham qayd etilgan. Chunki, musumlon kishining boshqa bir musulmon kishidan ahvol so`rashi uning islomdagi farzi sanaladi. O`zbek ayollarining bu xususiyatlaridan kelib chiqqan “Elakka chiqqan xotinning ellik og`iz gapi bor” maqolida ijobiy xislat ifodalangan.

\* ***Er-xotinning uruShi – doka ro`molning qurishi.*** Oila muqaddas dargoh sifatida e`zozlanadi. Lekin mana shu muqaddas dargohda ham ba`zan ahamiyatga molik bo`lmagan janjallar uchrab turishi hech birimizga sir emas. Ma`lumki, janjallarning aksariyat qismi uzoq muddatli gina bilan yakun topadi. Ammo oiladagi er-xotin uruShi kamdan-kam hollarda araz bilan yakunlanadi. Biroq bu arazning vaqti ma`lum bir muddat ya`ni doka ro`mol qurishiga ketgan vaqt kabi qisqadir. Shuning uchun xalqimizda “Er-xotinning uruShi – doka ro`mol qurishi” kabi maqollar yuzaga kelgan. Ushbu maqolda etalon sifatida olingan doka ro`mol ham milliy kiyimlarimizning tarkibiy qismi bo`lgan bosh kiyim hisoblanadi. O`zbek ayollari bu bosh kiyimdan turli xil marosimlarda foydalanishadi.

\* **Hashar qildim-uy qurdim, Bunda ko`p hikmat ko`rdim.** Hashar o`zbek xalqiga xos bo`lgan udum sanaldi. Ya`ni uy ko`tarmoqchi (qurmoqchi) bo`lgan yoki mamalakat obodonchiligi yo`lida qilinadigan umumxalq mehanatidir. Bizga ma`lumki, hasharga do`st-u birodarlar, yaqin qarindoshlar yordamga keladi. Hasharda birdamlik, ahillik kabi samimiy tuyg`ular o`z aksini topadi. Shuning uchun, hashar qilgan inson ko`p hikmatlarning guvohi bo`ladi. Ya`ni do`stlarining sadoqatini, mehribonligini ko`radi. Bu maqolda etalon sifatida olingan hashar so`zi lingvomadaniy birlik sanaladi.

\* **Holva degan bilan og`iz chuchimas.** Bu maqol mazmunan “Olma pish, og`zimga tuSh” maqoliga sinonim. Zamirida, dangasalik, tayyorga ayyorlik kabi xislatlarni qoralab, mehnatsevarlikka, o`zi ishlab, halol mehnat bilan pul topishga chorlaydi. Ya`ni inson biror nimani orzu qilganligi bilan u amalga oShib qolmaydi, uning amalga oShishi uchun ,albatta, harakat qilish kerakligi uqtirilmogda. Etalon bo`lib kelgan so`z “holva” o`zbek milliy Shirinligi hisoblanadi.

\* **Kelinni kelganda ko`r, sepini yoyganda ko`r.** O`zbek xalqining to`yi hech bir xalqda takrorlanmas urf-odatlariga boydir. Ayniqsa, nikoh to`ylari o`zgacha shukuh bilan o`tadi. Bu Shukhga kelin yanada o`zgacha zavq bag`ishlaydi. Xalqimiz hamisha azal-azaldan mukammallikka intilgan. Shuning uchun ham kelinni shunday mukammallik darajasida ko`rishga intilgan. Ya`ni epli ham sepli ham bo`lishini xohlaganlar. Kelinning sepi uning ziynati, fayzi sanaladi. O`zbek xalqida qizga, ya`ni bo`lajak kelinga sep, sarpo-surug` qilish odati katta ahamiyatga ega. Bu Shunchalik avj olganki, bu haqda dono xalqimiz “Qizingni beshikka sol” deydi.

\* Non ham non, uShog`i ham non. Dunyoda o`zbekchalik nonga yuksak hurmatda bo`lgan xalq bo`lmasa kerak. Ulug`larimiz ham “Nonday aziz bo`lgin” deb duo qilishadi. Farzandlarga yoShligidan “Nonni uShatmay ye”, “Nonni bosma”, “Nonni ko`zingga sur” deya tarbiya berishadi. Bularning barchasi xalqimizda nonga bo`lgan e`tibor, o`zbekona qarashdan darak beradi. Chunki, bu qarashga ko`ra, nonni qadrlamaslik, unga nisbatan isrofgarchilik yo`qchilikka olib keladi, hatto bu gunoh ish sanaladi.

\* **Nafsi yomon hayitda o`lar.** Islom dinida nafsini tiyolmaydigan, badnafs kimsalar hamisha qoralanib kelgan. Chunki, diniy manbalarda ko`p yeyish qalbni o`ldiruvchi illat deya keltiriladi. Shunday qarashlar ta`sirida xalqimiz orasida ushbu maqol kelib chiqqan. Negaki, nafsini tiya olmaydigan inson bayramda (Hayit musulmon davlatlari uchun bayram sanaladi) o`ladi. Bayram bo`lgandan keyin to`kin-sochinlik bo`lishi tabiiy. Ushbu maqolda xalqimizga xos bo`lgan islomiy qarash o`z aksini topgan.

\* **Ona yurtiing – oltin beshiging.** O`zbek tilida beshik so`zi muqaddas. Chunki, yangi tug`ilgan chaqaloqni turli odat-u irimlari bilan beshikka yotqizishadi. Tom ma`noda aytganda, beshik deganda o`zbeklar Vatanini tushunadi. Bu so`z milliy ruh bilan sug`orilgan bo`lib, lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

\* **Qiz ammaga tortar, o`g`il – tog`aga.** Ma`lumki, maqollar xalq tajribasi, kuzatishlariga asoslanadi. Bu maqolda aynan ana shunday kuzatishlar natijasida kelib chiqqan o`zbecha qarash aks etgan. Ya`ni farzandlarning tashqi ko`rinishi, xarakteri nuqtai nazaridan kimga o`xshashi haqida xulosasi berilgan. Haqiqatdan

ham qiz farzand ammaga, o`g`il esa tog`aga tortadi. Buni hayotimizda ham ko`plab uchratishimiz mumkin.

\* ***YaxShi gapga ham, yomon gapga ham farishta omin deydi.*** Davlatimizning rasmiy dini sanalgan Islomda kishi har biri daqiqada yaxShi niyatda bo`lishi kerakligi uqtiriladi. Sababi bizning har bir aytgan so`zimizga farishtalar omin deyishi mumkinligida. Agar beixtiyor sovuq nafas (niyat) qilib qo`ysag-u, unga farishta omin deb qo`ysa, holimizga voy. Shuning uchun o`tayotgan har bir daqiqamizda Ollohga shukr qilib, yaxShi narsalarni ko`zlab yashashimiz zarur. Bu qarash har birimizni qanoatli bo`lishga undaydi. Bu maqolda ana shu diniy qarash orqali xalqimizning milliy o`ziga xosligi ifodalangan.

\* ***YaxShi mehmon oSh ustida.*** Azal-azaldan mavjud bu maqol zamirida ham o`zbek xalqiga xos bo`lgan holat aks ettirilgan. Oila dasturxon atrofida to`planib o`tirgan paytda kimdir kelib qolsa, unga qarata “YaxShi mehmon oSh ustida”, “YaxShi kishi oSh ustida keladi”, “Qaynonangiz sizni juda sevar ekan” kabi maqollarni qo`llaymiz. Bunday holat o`sha insonning yaxShi fazilatli ekanligidan dalolat beradi. Bu ham, albatta, xalqimizga xos bo`lgan madaniyatning ifodasidir. Ya`ni o`zbek madaniyati o`zbek tilida o`z aksini topgan.

\* ***Yon qo`shnim – jon qo`shnim.*** O`zbeklarda qo`shniga azal-azaldan kattta e`tibor va hurmat qaralgan. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona kabi maqollarning ham kelib chiqishi mana shunday hurmat va e`tiborning natijasidir. Hatto, diniy manbalarda ham agar ovqat qilsang, hidi qo`shningnikiga yetib borsa, o`sha ovqatdan qo`shniga ham berish kerak deyilgan. Shundan kelib chiqqan holda, dono xalqimiz “Yon qo`shning-jon qo`shning” deb atashgan. Bu maqolda ana shu o`zbekona ruh va man`naviy qadriyat sezilib turadi.

\* ***YoSh kelsa – ishga, qari kelsa – oShga.*** O`zbek xalqida qariyalarni farishtaga qiyoslashadi. Shuning uchun qarisi bor uyning parisi bor deyishadi. Shu tufayli ham qariyalar qay vaqt kelmasin, ularni hurmatlab to`riga o`tirgizib, oShga tortishgan. Shuning uchun yoSh kelsa – ishga, qari kelsa – oShga deyishgan. Bu maqolda garchi etalon ishtirok etmagan bo`lsa-da, lekin o`zbeklarga xos milliylik ruhi sezilib turadi.

\* ***Zaifaning tuShi chap.*** Bu maqolda o`zbek xalqining diniy qarashlari aks ettirilgan. Chunki o`zbekona qarashga ko`ra ayol kishining tuShi doimo chapdan keladi. Bu maqolda etalon yo`q bo`lsa-da, xalqimizga xos qarash sezilib turadi.

\* ***O`zbek iskab bo`lsa ham elini topar.*** Bu maqolda o`zbekning xalqchilligi, millatparvar va xalqparvarligi ko`rsatilgan. Chunki o`zbeklar qayerda bo`lmasin, elim deb, yurtim yonib yashagan xalq hisoblanadi.

\* ***O`ziga ugra kesa olmagan birovga lag`mon cho`za olarmidi.*** Bu maqolda o`zi uchun biror foydali ish qila olmagan inson, o`zgalarga ham foydali ish qilib bera olmasligi yoki kengroq olib qaraydigan bo`lsak, o`zining tarbiyasi, bilimi bo`lmagan inson boshqalarga ham ta`lim-tarbiya bera olmaydi kabi ma`nolarda keladi. Ugra so`zi etalon sifatida kelgan bo`lib lingvomadaniy birlik vazifasini bajargan. Lingvokulturologiyaning obyektini sanalgan barqaror birikmalardan biri frazeologizm, ya`ni iboralaridir. Iboralar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi ma`naviy xazina bo`lib, ular ham lingvokulturologik obyekt sifatida millatning madaniyatini o`zida jamlovchi til birligi hisoblanadi. Quyida bunday iboralardan ayrimlariga to`xtalib o`tamiz:

\* **Bozor ko`rgan echki.** Bozor o`zbek xalqi hayotida katta ahamiyatga egaligi sir emas. Xalqimizda ko`pni ko`rgan, uddaburon, tajribali shaxslarga nisbatan Shunday ibora qo`llanadi. Echki bozor ko`rsa, xo`jayin, dallol, xaridor taniydi. Echki-qo`y, mol-holning ahvolidan ogoh bo`ladi. “Musofir” bo`ladi. Bu yerda bozor ko`rish turmuSh sabog`ini olish degan ma`noda qo`llanilgan. Nima uchun aynan bozor? Chunki, otang bozor, onang bozor deydi dono xalqimiz, bozor ko`rgan, narx-navoni, yaxshi yomonni, oq-u qorani ajrata bilishda bozorning o`rni katta. Bu ham xalqimizning bozorga yaqinligi yaqqol sezilib turadi.

\* **Jonini jabborga bermoq.** Bu ibora ilohiy ma`noda “Jonim tasadduq” iborasining muqobili sanaladi. Jonini timoq, jon koyitib, kuydirib, sidqidildan, vijdonan mehnat qilmoq, faoliyat ko`rsatmoq, e`tiqod, qatiyat bildirmoq, sig`inish. Jonini jabborga berish – xudo, haq yo`liga tikishi, bag`ishlashidir. Bu iborada o`zbek xalqining diniy e`tiqodi islom dini ruhi yaqqol sezilib turadi.

\* **Ko`zining paxtasi chiqdi.** Kishining jaholati qo`zib, g`azabi kelganda, baqirib-chaqiradi, so`kinadi, bilak kuchini ishga solish ham mumkin. Shunday paytda odamning ko`zi ola-kula bo`lib “paxtasi chiqadi”, ya,,ni katta ochilganidan oqi to`la ko`rinib, paxtani eslatadi. Bu yerda paxta lesemasining qo`llanilishiga sabab ham xalqimizning bu ne`matga yaqinligi unga bo`lgan e`tiboridir. Axir bejizga paxtani “oq oltin” deb atamaymiz-ku.

\* **Qulog`ini tishlab qo`ymoq.** Bu iboradi xalqimizga xos milliy urf-odat o`z aksini topgan, ya`ni beshikketdi odati. Hali beshikdagi qizchaga to`rt-beSh yashar bolani “yor” qilib, “holva”ning qulog`ini tishlatish . Bu odat turkey o`zbek xalqlarida qadimdan mavjud. “Qulog`i tishlab” , deganda biror ish, masalalar oldindan kelishib, hal qilib qo`yilgan ma`nosi anglashiladi. Ishni pishitib qo`ygan ma`noda.

\* **Quloqqa azon aytmoq.** Musulmonchilikda bola tug`ilib, kichik chillasi chiqqach, bir mulla chaqirib, uning qulog`iga azon aytiladi. Azon aytilganda bolaning qulog`i ochiladi. Bu iborada ham xalqimizga hos bo`lgan diniy aqida o`z ifodasini topgan.

\* **Bo`yingdan akang. Bo`yingga qoqindiq, bo`yingdan o`rgilay, aylanay, tasadduq** singari mehr-muhabbat, ishqibozlik, xuSh ko`rish, rag`bat iborasi ifodasidir. Bo`y – sarv qomat, go`zallik, sog`lom-baquvvatlik, kuch ramzi. Bo`y – oShiq mehr-oqibati timsoli. Xalq orasida bo`y insonning eng yaxshi fazilati – kamolot ramzi sifatida ulug`lib madh etiladi. “Bo`yingdan akang” oShiqning ma`Shuqaga, yigitning qizga ishqibozlik, mehr ifodasi. Bu o`rinda uchinchi “aylansin” so`zi tuShib qolgan bo`lsa-da, ma`nosi anglashilib turadi. “Baqabaqangdan akang” iborasi ham hayotsevarlik, gap tashlash, ishqibozlik ma`nolarida o`zaro sinonimlik hosil qiladi.

\* **Baqbaqa to`ram.** Xalq haromxo`r, tekintomoq odamlardan hamisha nafratlaib kelgan. Bu iborada tanqida, kinoya, istehzo ohanglari bo`lib, o`zgalar hisobidan kun ko`rib, huzur-halovatda yurgan odam masxara qilinadi. Odatda, odamning birdan ko`zga tashlanadigan tashqi alomatlari bo`ladi. Birovning o`zidan oldin xonaga qorni kiradi, boshqa kishi yuzidagi xoli, dog`i bilan ajralib turadi.

Tomoqdan tumShuqqacha bo`lgan “masofa”da joylashgan baqbaqa ham ba`zi kishilarning “bezagi”dir. Bu “davlat” egasining ancha yil loqayd, o`zga dardi bilan

ishi yo`q, o`zidan, hayotdan mamnun ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham xalq “baqbaqa” yoniga “to`ram”ni qo`shib, bir atama yaratarkan, ma`lum toifa kishilar timsolini yaqqol ko`z o`ngimizga keltiradi.

\* **Bel olishmoq.** Kurash o`zbek xalqining ota-bobolardan qolgan asriy merosi sanaladi. Qadimda ota-bobolarimiz or-nomus uchun kurash tuShganlar, bu oriyat masalasi sanalgan. Ana shu kurash jarayonidan “bel olishmoq” iborasi kelib chiqqan bo`lib, polvonlar davraga chiqsa, qo`l-bel olishib, kurashga kirishishadi. “Bel olishmoq”ning ko`chma ma`nosi ham bo`lib, ikki raqib tomonning bir-biri bilan ixtilofga, kurashga kirishishi, g`oyalar, mafkura, nazariyalar kurashi va hokazolar ko`zda tutiladi.

\* **Belida belbog`i bor.** O`zbek odamning ishonchli, puturli, tayinli, diyonatliligini bilmoqchi bo`lsa, belida belbog`i bormi, deydi. Belda belboqning bo`lishi – suyansa, ishonsa, qo`shilsa bo`ladigan odam mazmunini tashiydi. Bu ibora (belingda belbog`ing bormi?!) kishi hamiyatiga tegish, yigitmisan o`zi, qabilida raqibning jig`iga, g`ashiga tegish maqsadida ishlatiladi. O`zbek xalqida belida belbog`i borlik yigitlik, juvonmardlik, tayinli, subutli, diyonatlik garovi.

\* **Boshini ikkita qilmoq.** O`z ma`nosi yo`q, ko`chma ma`noda uylantirib boshini ikkita, oyog`ini to`rtta qilmoq tushuniladi. Ola xurjunni (ro`zg`or) yelkaga tShlamoq. Xalqimizda ikki yoShni nikohlab, bir yostiqqa bosh qo`ydirishni “Boshini ikkita qilish” iborasi bilan tariflanadi.

\* **Tomog`i tuShdi.** Bu iborada xalqimizning so`zning nozik ottenkalaridan foydalana olish mahoratini ko`rsatib bergan. Bu narsa biror narsaga, yegulik-ichgulikka ko`zi tuShib, og`zi suv ochib, havasi kelsa-yu topib yeya olmasa, unda yetish olmay qolganda aytiladi. Ona, bolamning uzumga tomog` tuShdi, deydi. Tomog`i tuShish, ma`lum ne`matga yetisha olmay, tomoqning sun`iy ravishda tuShib ketishi, so`lak oqishi kabilardir. Xotin-qizlarga nisbatan (homiladorlik) boshqorong`i bo`lish deb ham yuritiladi.

\* **Yelkamning chuquri ko`rsin.** Xalqimiz orasida keng tarqalgan bu iborada ham o`zbekona qarash, taomil o`z aksini topgan. O`ta norozilik, ozurda bo`lish, jonga tegib ketish, bezori bo`lish xulosasi. “Bu joylarni yelkamning chuquri ko`rsin”, - deyilganda qayta bu joylarga kelmasligi tushuniladi. Yelkaning chuqurida (o`mrov suyagi) suv turmaydi. Unda suv saqlash amri mahol. Mening bu yerga kelishim, qasamimni buzishim ham xuddi shunday gap, degan qiyos qilinadi.

\* **Yelka tutmoq.** Bu ibora juda ko`p ma`nolarda qo`llanilib, o`zbek xalqiga xos bo`lgan eng go`zal odatlardan biri bo`lgan, salomlashish, ko`rishish ma`nosini ham tashiydi. Bunda ko`rishmoqchi bo`lgan katta yoShli ayollarga (jumladan, qaynonaga) engashib (yelkaga qoqishi uchun) yelka tutiladi. Bu odat kattaga hurmat, kamtarinlik, odob yuzasidan amalga oShiriladi.

\* **Yelkasi chopon ko`rmagan.** Ko`chma ma`noda kambag`al, izzat-hurmat ko`rmagan, quda-andalik bo`lmagan, mehr-oqibat bilmagan mazmunini tashiydi. Iborada tagi-zoti past, ko`rmaganing ko`rgani qursin degan takabburona naql mazmuni ham bor. Cho`pon esa xalqimizning milliy kiyimi sanaladi.

\* **Yelkasiga shayton mindi.** Insonning o`ng yelkasida rahmon, chap yelkasida shayton o`rnashgan bo`lib, uni yaxShilik va yomonlik sari undab, otlantirib turadi, deyishadi. Shayton – yovuzlik, yo`ldan ozdirish, yomonlikka boshlash timsoli.

Yelkasiga shayton mindi, deganda o`zbeklar, binoyiday muomalada bo`lib turgandi, birdan fe`li aynidi, orqasi tutdi, Shaytoni qo`zidi, endi yaqin o`rtada uni insofga, murosas-yu madoraga keltirish qiyin mazmunidagi fikrni anglashadi.

\* **Qo`lini paxsa qildi.** G`azab, vajohat ichida qo`lni silkib (qilichga, xanjarga o`xshatib) gapirish. Paxsa so`zi qalin devor ma`nosida bo`lib, loy (paxsa) urilganda qavat-qavat qilib uriladi. Qo`lning g`azab bilan uzatilgan holda baland-past yurishi paxsa qavatlarga o`xshatiladi. Bu kabi o`xshatish va metaforalarda ham xalqchillik o`z ifodasini topadi. Biz bu haqda keying rejada kengroq to`xtatamiz.

\* **Ichagini boshiga salla qilmoq.** Bu ibora haqorat, dag`dag`a, so`kish, mensimaslik bo`lib, ayrim chapani yigitlar bir-biriga dahanaki daf qilishganlarida ishlatib qoladilar. Ichagini salla qilish birovni chavaqlab, ichak-chavog`iniboshida ilish, uning joniga qasd qilishdir. Bu yerda salla so`zi bir tomondan ichakning uzunligiga ishora qilsa, ikkinchi tomondan milliy bosh kiyimimiz sifatida madaniyatimizni o`zida aks ettiradi.

\* **Qornini yors, alif chiqmaydi // Alifni kaltak deydi.** Alifni kaltak deydi iborasining muqobili. Alif – arab alifbosining birinchi bosh harf-tovuShi, to`g`ri chiziq Shaklida. Qornini yorsa, alif chiqmaydi, deganda bilimlar dunyosidan bexabar, xudo bexabar, hatto alifbening alifi ham yo`q boshida mazmuni ko`zda tutiladi. Ibora o`ta salbiy, tanqidiy, kinoyaviy ohang kasb etadi. Aynan alif so`zining tanlanishi esa tilimizning islomga yaqinligi, arab alifbosidan boxabar ekanligidan dalolat beradi. Bu ham, albatta, tilimizning o`ziga xos xususiyati sanaladi.

\* **Qorni kajavaday.** Bu o`xshatish ibora sanaladi. Qorinni kajava – ikki to`lqinli to`qima savatga o`xshatilyapti. Bu savat milliy boyligimiz sanalgan pillaning kattalashtirilganini eslatadi. Bir tomoni ochiq, osti yopiq. EShak, ot, tuyaga yuk joylab ortishga qulay. Qorin aslida kajavaday bo`lishi mumkin emas. Xalqimiz ochofat, tekintomoq, beg`am kishilarni kajava qorin, qorni kajavaday, deb masxaralab tanqid qiladi. Bu ibora, ayniqsa, mamlakatimizning janubiy viloyatlarida faol qo`llaniladi.

\* **Oyoq bosish.** Bu ibora o`z va ko`chma ma`nolarda ishlatiladi. Oyoq bosmoq – sinib tuzalgan oyoqning ilk bor yerga bosish yoki go`dakning atak-chechak bilan birinchi qadamlarini qo`yishi kabilarda o`z ma`nosida qo`llangan. Shuningdek, “Oyoq bosish” o`zbek xalq odati ham bor. Kelin-kuyov ilk bor chimildiqqa kirganda oyoq bosish odati amalga oShiriladi. Taomilga ko`ra kim kimning oyog`ini birinchi bo`lib bossa, qurilayotgan oila, ro`zg`orga o`sha bosh bo`ladi, deyishadi. Mususlmonchilik – o`zbekchilikda yigit oilaga bosh bo`lishi tabiiy. Shuning uchun ham kelin nazokat bilan, kuyoviga oyoq bostirar ekan, so`ng irimiga o`zi ham beringing oyog`ini bosgan bo`ladi. Bu o`zbek xalqining noyob, milliy va qadimiy urf-odati sanaladi.

\* **Oyoq uzatmoq.** Iboraning bir nechta ma`nolari mavjud: oyoqni uzatmoq, cho`zmoq, chigilini yozmoq, dam olmoq kabi. Bu iboraning ko`chma ma`noda ifodalovchi insonning o`limi, hayotdan ko`z yumish ottenkalarida nozik so`z o`yini mavjud. Jumladan, Bobom oyog`ini uzatdi. Xalqimizga xos bunday iboralarni ko`plab uchratishimiz mumkin. Misol uchun, “Yo`qolib qoldi” iborasi ham mazmunan “Oyoq uzatmoq` bilan bir. “Buvim yo`qolib qoldi” yoki “Amakim yo`qoldi” kabi. Bu iboralar yurtimizning janubiy viloyatlarida faol qo`llaniladi.

\* *Bu ham yo`q edi, otam bozordan keltirdi.* Bu ibora ham janubiy viloyatlarda keng qo`llanilib, bolalar biror taom, kiyim-bosh, buyum, o`quv qurolidan norozi bo`lib, xarxasha qilganda shunday deyiladi. Boriga, topilganiga shukr qil, shu ham aslida yo`q edi, dadang bozordan keltirdi, deya mazkur buyumning narxi o`shiriladi. NoShukur bo`lma, nafsingni tiy, qabilida yo`shlikdan qanoat odobi tarbiyalab boriladi. Albatta, xalqimizda odob-axloqqa, yaxshilikka undovchi bu kabi iboralar ko`plab uchraydi. Xalq bu kabi til birliklarida ham farzandlarni tarbiyaga, kamolotga undaydi.

## **16-MA`RUZA: NUTQIY ODATLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (2 SOAT)**

### **REJA:**

1. Nutqiy odatlar tilning madaniy boyligi sifatida.
2. Nutqiy odatlarning xususiyatlari.
3. Nutqiy odatlarning mentalligi.
4. Nutqiy odatlar va ijtimoiy munosabatlar.

Lingvokulturologiyaning asosiy o`rganishobyekti sifatida “til va madaniyatning o`zaro aloqaga kirishgan vaqtdagi o`zaro bog`liqligi va bu munosabatning bir butun sistem holatda talqin qilish”, fanning predmeti esa, “jamiyat turmuShining til kommunikatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan va madaniy qadriyatlarga asoslangan milliy shakllari”, “olaning lisoniy manzarasi”ni hosil qiluvchi barcha narsadir deb baholaydi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o`ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o`rganishlingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o`zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olaning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo`lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo`lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi<sup>2</sup>.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya dunyo, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan sohalardan biri bo`lib, bu borada salmoqli tadqiqotlar, bir qancha o`quv qo`llanmalar yaratilgan. Mazkur sohaga omd ishlarda tadqiqotchilarning olaning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy konseptlar, pretsedent birliklar, intertekstuallik, lisoniy ong, barqaror birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari kabi masalalarga katta ehtibor qaratayotganliklarini kuzatish mumkin. Bunday tadqiqotlarda tilning barcha sathlari birliklari, xususan, so`z va matnning tamoman yangicha talqini va



tahlili ustuvorlik qiladi. Bunda lisoniy birliklarning nafaqat til qonuniyatlari, balki jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat, milliy mentalitet kabi omillar nuqtai nazaridan ham tadqiq etilishi til ilmida yangi g`oyalar, yangi ilmiy qarashlar va tamoyillarning yuzaga kelishiga sabab bo`ldi.

N.Yu.SHvedova rus tilidagi 20 ta umumiy mazmuniy kategoriyalarni ajratadi: tiriklik, harakat, vaziyat, predmet, o`lcham, makon, zamon va hkz. Bu kategoriyalar tilning mazmuniy ustunlarini tashkil qiladi hamda olamning lisoniy manzarasining mavhum bosqichi hisoblanadi. Biroq har bir xalqning o`ziga xos obrazli bog`langan mexanizmlari bo`ladi. Bu mexanizm ikkilamchi nominatsiyadagi ma`nolarini tushunishga imkon beradi. Masalan, it so`zi rus tilida salbiy jihatlar bilan birga sodiqlik ramzidir, beloruslarda salbiy belgilar yetakchi, turkiy tillarda it – so`kish so`zga yaqin turadi. Shu o`rinda Rossiyada ta`sil olayotgan mo`g`ulistonlik talabalar haqida bir misolni keltirish maqsadga muvofiq. Talabalarga “It – insonning do`sti” mavzusida matn tuzishni topShiriq berishadi. Shunda mo`g`ul yigit savol beradi: Nega it? Ot deb yozsam bo`lmaydimi? Qolganlar bundan hayratda qolishadi. Mo`g`ul yigit tushuntiradi: It odamga xizmatkor bo`lishi mumkin, ammo do`st bo`lolmaydi.

CHO`chqa so`zi barcha tillarda salbiy bo`yoqqa ega, ruslarda ifloslik, noShukurlik, tarbiyasizlik, vyetnamliklarda ahmoqlik ramzi bo`lsa, musulmon xalqlarda asosan diniy nuqtai nazardan salbiy baho berish kuzatiladi.

Shu tariqa it va cho`chqa so`zlari turi xalqlarda turli xil bo`yoqqa ega, bu esa mazkur xalqlar obrazli tafakkurining o`ziga xosligini ko`rsatadi.

Til va madaniyat o`rtasidagi aloqa vositasi vazifasini asosan tilda ideallashgan va moddiylashtirilgan ma`no kabi elementlar bajaradi.

«Konsept» termini zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda ko`p uchraydi. Konsept tushunchasiga turli yondashuvlar umumiy lingvo falsafiy asosga tayanadi. Uni asosida Sossyurning til va nutq dixotomiyasi yotadi, yahni «til – nutq» tushunchasi hozirda «tilni anglash – kommunikativ fehl-atvor» deb talqin qilinmoqda. Bunda tilni anglash til tushunchasiga nisbatan keng ma`noda qo`llanadi, chunki tadqiqotchilar ko`p hollarda fenomen bo`lgan va individual ongning verbal Shakldagi holatiga ehtiborlarini qaratadilar. Kommunikativ fehl-atvor bilan nutq orasidagi munosabatga kelsak, bu holatda tadqiqot predmeti kengayganligi kuzatiladi, yahni matndan va uni yozuvda qayd qilingan Shaklidan to biron bir madaniyatda qabul qilingan xulq-atvor namunalariga ko`ra muloqot jarayonida o`zgarib turadigan kommunikant maqsadlari to`plami, kommunikatsiyani noverbal Shakllari, intertekstual aloqalar va boshqalargacha. Lingvistik tadqiq predmeti mazmun doirasining bunday kengayishi immanent lingvistika bilan ziddiyatiga olib keldi.

Buning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Til haqidagi fanni bunday rivojlanishidagi ijobiy tomonlaridan biri bu bir-biriga yaqin bo`lgan gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalanish, lingvistikani yangi tushunchalar va metodlar bilan boyitish imkoni berilishidir.

Bu o`z navbatida psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika kabi sohalar taraqqiyotiga sabab bo`ldi. Salbiy jihatlariga terminologiyaning noaniqligi va bir fanning turli

sohalaridagi mantiqiy uzilishlarni misol qilib keltirish mumkin. Yuqorida aytilgan hamma soʻzlar «konsept» terminiga ham taaluqlidir.

Zamonaviy lingvistikada konsept tushunchasi nihoyatda turli-tuman. Konsept ong sohasiga mansub va u faqat tavsifiy-tasniflash emas, balki hissiy-iroda va obrazli-empirik xususiyatlarni ega. Konseptlar anglashdan tashqari, kechinmalar orqali hamidrok qilinadi (Stepanov, 1997, 41 b.).

Agar konseptni va tushunchani yaxlit tushuncha deb olgan baʼzi bir tadqiqotlarni inobatga olmasak, lingvistikada konsept tushunchasini anglashda lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvni tan olish kerak (Vorkachev, 2002).

Konsept lingvokognitiv hodisa sifatida – bu «bizni ongimizni mental yoki psixik vositasida, hamda inson tajribasi va bilimida aks etadigan maʼlumot birligidir; xotirani, mental soʻz boyligi, miya tili va konseptual tizimini (lingua mentalis), inson psixikasida aks etgan butun dunyoqarashni operativ mazmun birligidir» (Kubryakova, 1996, 90 b.). Konseptlarni bir qismi til bilan bogʻliqdir, boshqa konseptlar qismi esa inson psixikasidagi maxsus mental boʻlgan reprezentatsiyalar – obrazlar, rasmlar, sxemalar va b. namoyon boʻladi (Shu yerda)

Psixolingvistlar uchun konsept – bu «insonni psixik hayotini qonuniyatlariga boʻysingan tartibsiz bilish va kommunikativ faoliyat yurituvchi individni dinamik xarakterga ega boʻlgan pertseptiv-kognitiv-affektlil hosillalardir; va buni natijasida lingvistik nazariya nuqtai nazarida ilmiy tahrifiga maxsuli sifatida maxmun va mohiyatiga koʻra bir qator parametrlari bilan ajralib turadi» (Zalevskaya, 2001, 39 b.) (Kazakbaeva tarjimai). Bunda konseptni noverbal tabiati qathiy tahkidlanadi. Bir tomondan konseptni murakkabligi, ikkinchi tomondan – K.Xardi tahkidlaganidek, har bir konsept «mavjud boʻlgan hamma elementlar va jarayonlar turlarini konstellyatsiyasi hisoblanadi (Shuning uchun har qanday abstrakt tushuncha oʻziga tegishli boʻlgan hissiyot bilan bogʻlangan boʻladi) » (tsit. po: Zalevskaya, 2001, s.39) A.A.Zalevskaya bilim va tushuncha kabi individning yutugʻi boʻlgan konseptlarni va konseptlarning ilmiy tahrifi mahsuli sifatida mantiqiy ratsional anglangan konstruktlar orasidagi chegaralarini aniq belgilaydi.

Printsiplial jihatdan butunlay boshqa tahrif A.Solomonga tegishli. Uning fikricha, konsept – bu konkret hayotiy tushunchalar asosida hosil boʻlgan abstrakt boʻlgan ilmiy tushuncha (Solomonik, 1995, 246 b.). Bunday yondashuv S.D.Katsnelgʻson fikriga mos keladi, yahni izohli lugʻatlarda beriladigan kundalik hayotdagi bilimlarni shakliy va mazmuniy birlamchi tushunchalar bilan moslashni ikkinchi – ilmiy, yahni entsiklopedik dugʻatlarda beriladigan bilimlarga qarama-qarshi qoʻygan. A.A.Potebnyaga koʻra bunday bilimlarni tabaqalash soʻzni yangi va qadimgi maʼnosini bir biriga qarama qarshi qoʻyishga tayanadi. Kognitiv lingvistikada qabul qilingan modelgʻ «tasavvur – odatiy tushuncha» hozirgi «tasavvur – odatiy tushuncha – ilmiy tushuncha» Shakliga keltirilmoqda. Odatiy va ilmiy tushunchalar orasidagi farq odatiy tushuncha darajasida oʻz tajribasini tartibsiz ravishda umumlashtirishda va u oʻz navbatida ilmiy tushuncha darajasida deduktiv va induktiv ishlatilishida aks etadi. Albatta bu darajalar orasida oraliqdagi hodisalarni topish mumkin. Mental mohiyat ham bor, ular hali tassavur ham emas, tushuncha ham emas. Konseptni bunday talqin qilinishi oʻz navbatida mantiqiy – semantikdir.

Bizningcha asosli fikr quyidagicha, konsept tushunchaning o`rinbosari, u «hosil bo`lishi mumkin bo`lgan tushunchaga nishon» hamda «insonni avvalgi tajribasining aks sadosi» (Lixachev, 1997, 282 b.), Boshqacha qilib aytganda konsept lug`atlarda berilgan kollektiv emas, individual mazmunga ega. Konseptlar yig`indisi biron bir xalq, albatta shu tilning konseptosferasini hosil qiladi va o`z navbatida dunyoning lisoniy manzarasi deb hisoblanadi.

Lingvomadaniy yondashuv o`z navbatida komponentlari yaxlit bo`lgan madaniy konseptlarni konkretlashgan holda o`rganishdir. Bunda madaniya vakillari uchun qimmatli bo`lgan u yoki bu predmetlarga, hodisalarga, g`oyalarga munosabati inobatga olinadi. Odamlarni xulq-atvorini belgilaydigan qadriyatlar, eng qimmatli belgilar dunyoni lisoniy manzarasini eng muhim qismini tashkil qiladi. Bu qadriyatlar aniq bir butun matnda aks etmagan. Vaholanki etik kodekslar, yahni O`n Ahd kabilar mavjud, ammo ular qadriyatlar orasida juda kam sonlidir. Qadriyatlar madaniyatda uzilgan holda emas, balki bir biri bilan chambarchas bog`langan va ular dunyoviy manzarani qadriyatlarini tashkil qiladi ( lisoniy manzarani bir qismini). Lingvistikada ular madaniy konseptlar sifatida tavsif qilinadi, yahni u yoki bu til Shaklida predmetlashgan jamoa ongida paydo bo`lgan ko`p qirrali, madaniy-ahamiyatli ijtimoiy-psixologik yangiliklardir.

Konseptda eng muhim tomoni – bu « uzluksiz madaniy-tarixiy borliqda mavjud bo`lgan ko`p qirrali va diskretli yaxlit mazmunidir va shuning uchun bir predmet soxasidan ikkinchi soxaga o`tadigan madaniy translyatsiyada (va kulturogen) joylashganligidir» (Lyapin, 1997, 19 s.). Madaniy konseptlarda , bizni fikrimizcha, eng kamida uchta tomonlari bor – obraz (timsol), tushuncha va qadriyat. Shu ma`noda tahkidlash mumkinki, madaniy konseptlar dunyo manzarasini belgilovchi oppozitsiyaga asos bo`lib xizmat qiladi. Ularni farqi birliklarni sonida: oppozitsiyalarni bazasini soni chegaralanganligi, madaniy konseptlarning soni yetarli darajada ko`p bo`lishi mumkin. Bu yondashuvning qimmatli tomoni shundaki, u konseptni samarali tavsifida va o`rganishida psixologik nuqtai nazari asosida tushunishda. madaniy konseptning timsoliy tarkibi psixolingvistik fenomen tarzida konseptni pertsetiv va kognitiv tomonlari korrelyatsiyaga kirishida, ko`rib chiqilayotgan hodisalarda mantiqiy mazmuni tilda namoyon bo`ladi (bunda konseptning ma`no tomonini fatualli deb nomlasa bo`ladi) (Karasik, SlqShkin, 2001, 78 b.). Konseptni tushunish uchun taklif qilinayotgan integral yondashuv shu mental mazmunini turli talqin qilinishida tizimga keltirish imkonini beradi.

Shuni takidlash kerakki, madaniy konseptlar – mazmunan bir xil bo`ladigan hodisa emas. Birinchi navbatda ular jamiyatdagi u yoki bu ijtimoiy qatlamga tahluqligi bilan ajralib turadi. Boshqacha qilib aytganda, agar jamiyatda ijtimoiy guruhlar aniq ajralib chiqqan bo`lsa, shu guruhlarini konseptosferasi ham mavjud. Etnik xususiyat ajralgan holda mavjud bShlmaydi, ammo ijtimoiy jarayonda ifodalanadi. Jiddiy gapirsak, individuumni sotsioetnik o`zini anglash tushunchasi mavjud, va bu hodisada madaniy konseptlar ajralib turadi. Shubxasis, gap tilni vulg`gan ijtimoilashuvi xaqida gap ketmayapti, biz rus yoki ingliz erkak va ayollari, yoSh va qarilari, ishchi va bankirlari turli tillarda muloqot qilishadi deb hisoblamaymiz, ularni konseptosferalari sezilalrli holda tushunchalar, asosan lug`ataviy ma`nolarida, tuqtai nazarida kesishadi, ammo konseptlar mos

keldirilgan soʻzlar xam yoʻq emas. Individual, mikroguruh, sinflar (va boshqa makroguruhlar) va umummilliy konseptlarni oʻzgarishi – bu sotsiolingvistikani istiqbolli vazifasidir. Shunday qilib, sotsiolingvistikani tuqtai nazaridan madaniy konseptlarni eng kamida uch turga boʻlish mumkin: etnomadaniy, sotsiomadaniy i individual – madaniy. Boshqacha chilib aytganda, butun etnomadaniyat, lingvomadaniyat ichidaga u yoki bu guruhlar, va, albatta, individum uchun dolzarb boʻlgan yangi hosil boʻlgan mental tushunchalar bor. Konsept tushunchasini bunday talqin qilishda turli yondashuvlarni birlashtirish imkonini beradi.

Rus etnomadaniyat konseptiga misol qilib “saxiylik”ni olish mumkin – oʻzining vositalari, boyligi bilan boshqalar bilan boʻlishi qobiliyati (BTS); bu qobiliyat boshqa xalqlarda ham bor, ammo bu xususiyatni muhimlik darajasi va ongli ravishda tahqiqlash kerak boʻladigan vaziyatlardagi tahqiqlashlar yoʻqligi (mehmondoʻstlik sharoitiga mansub boʻlgan tahqiqlashlar) - bu konseptni rus madaniyatining oʻziga hos tanilgan belgisiga aylantiradi. O.A.Leontovich fikricha (Leontovich, 2002), amerikaliklarni lingvomadaniyatini mazmun-mohiyatini belgilovchi eng muhim konseptlar qatoriga mental boʻlgan yangiliklar «self», «rivacy», «challenge», «efficiency» kiradi. Masalan, *challenge* soʻziga «Jizng` i kultura SSHA» ( AQSH ni hayoti va madaniyati) lingvomamlakatShunoslik lugʻatida shunday tahrif berilgan: 1) vazifa; 2) muammo; 3) sinov; 4) chaqiruv. Bu soʻz – amerikaliklarni milliy xarakterini tushunishda eng muhim soʻz; u jasoratni, oʻzini sinash uchun oʻzini xavf-xatarga borishga tayyor turish, qaltis sarguzashtlar ruhi, raqobatga intilish va hokazolarni bildiradi (Leontovich, SHeygal, 1998).

Rus lingvomadaniyatida mavjud boʻlgan ijtimoiy konseptga “rahm - Shafqat” misol boʻladi – maʼno jihatidan keksa yoʻshdagilar ongida bogʻlangan; sevish- rahm qilmoq, bunda rahm qilmoq hamdardlik tuygʻusi deb anglanadi, keksa yoʻshdagilarga xos boʻlgan hamdardlik tuygʻusi bilan birov bilan bogʻlanganlikni birligini bildiradi, bu hayratomuz narsa emas, betashvish yoʻshlik xursandchilikga qaratilgan, odatda faqat xursandchilik bilan yashayotgan odam beShafqat boʻladi. Ingliz tilida gaplashadigan xalqlar madaniyatida keksalarga bogʻlanganlik uncha namoyon boʻlmaydi, keksalarga nisbatan hamdardlik tuygʻusini koʻrsatish ularga nisbatan kamsitish tuygʻusini bildiradi.

Sotsiomadaniy kontseplar turlidir. Yoʻshiga nisbatan katta odamlar guruhini birlashtiruvchi, genderli, kelib chiqishi, hamda u yoki bu submadaniyatning kichik guruhlariga mansubligini bildiruvchi – uyuShmalardan to oilalargacha hammasi konseptlar qatoriga kiradi.

Individual konseptlar juda ham turli tumandir, bu yerda u yoki bu yozuvchi va faylasufga mansub boʻlgan tayanch iboralarda ifodalangan individual mualliflarning konseptlarini misol keltirish mumkin. Masalan, Arseniya Tarkovskiyni lirik matnlarida uchraydigan «trava» (oʻt - oʻlan) soʻzi umumtilshunoslikdagi maʼnosi bilan bir qatorda maʼnosi kengayib, Shoirni ijodini sugʻoradigan kuch simvoli boʻldi, anglash manbai keyinchalik esa insonni hayot yoʻlini oxiridagi xotira belgisiga aylandi (CHerkasova, 1992). Shunga ehtibor berish kerakki, individual konseptlar har qanday shaxsni konseptosferasini boʻlinmas qismi hisoblanadi. Ammo agar konseptlarni individual tomoni dominant boʻlsa, u holda muloqot juda

ham qiyin o`tdi. Haqiqatdan ham, biz falsafiy va poetik matnlarda individual ma`noni fahmlab olishimiz kerak.

Individual konseptlarni boshqa ma`noda - u yoki bu Shaxsni psixotipini aniqlaydigan konsept sifatida ko`rib chiqish mumkin, masalan, boshqa bir odamlar uchun tinchlik, ko`ngilxotirjamlik, sarishtalik, boshqalar uchun esa – kurash, sarguzashtlar, tavakkalchilik aktuallik kasb etadi. Bunday individual konseptlar biron bir ijtimoiy guruhning xulq-atvorini dominant bo`ladi va sotsiomadaniyat konseptiga aylanadi. Muayyan tarixiy sharoitda ular etnomadaniyat konseptiga aylanadi. Bu holat teskari ham bo`lishi mumkin – kollektivni til ongida konseptni mohiyatini asta sekin so`nishi, misol uchun beozorlik konsepti *muloyimlik*, *kechirimlilik*, *itoatkorlik* deb tushuniladi.

Bundan tashqari konseptlar obyektini belgilash nuqtai nazaridan turdoSh emas. Bir tomondan, «duSha» (qalb), «zloradstvo» (ichiqoralik), «logos» , boshqa tomondan, - «matreshka» (matreshka o`yinchoq), «kolobok» (bo`g`irsoq), «podhezd» (kirish). S.G.Vorkachevni (2002) fikricha, biz konsept haqida gapirganimizda abstrakt majdudotlarga nisbatan ishlatamiz, predmetlar konsept belgisiga kirmaydi. Bu tahkidga qo`shilish mumkin, ammo «matreshka» - bu yog`ochdan yasalgan oddiy qo`g`irchoq emas, balki rus xalqining an`anaviy madaniyati bilan tanish bo`lgan odamlarni bir qator kechirmalardir. Bir qarashda «predmetli konsept» bir-birini inkor etadigan bo`lsa ham, biz til ongida ba`zi bir predmetlar madaniy ahamiyatga ega bo`lgan ma`no qatorida assotsiatsiya hosil qilsa konsept mavjud deya olamiz.

## **18-MA`RUZA: TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (2 SOAT)**

### **REJA:**

1. Topishmoqlar tilning madaniy boyligi sifatida.
2. Topishmoqlarning xususiyatlari.
3. Topishmoqlarning mentalligi.

Lingvokulturologiyaning asosiy o`rganishobyekti sifatida “til va madaniyatning o`zaro aloqaga kirishgan vaqtdagi o`zaro bog`liqligi va bu munosabatning bir butun sistem holatda talqin qilish”, fanning predmeti esa, “jamiyat turmuShining til kommunikatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan va madaniy qadriyatlarga asoslangan milliy shakllari”, “olaning lisoniy manzarasi”ni hosil qiluvchi barcha narsadir deb baholaydi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o`ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o`rganishlingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o`zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olaning lisoniy

manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo`lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo`lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi<sup>2</sup>.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya dunyo, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan sohalardan biri bo`lib, bu borada salmoqli tadqiqotlar, bir qancha o`quv qo`llanmalar yaratilgan. Mazkur sohaga omd ishlarda tadqiqotchilarning olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy konseptlar, pretsedent birliklar, intertekstuallik, lisoniy ong, barqaror birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari kabi masalalarga katta ehtibor qaratayotganliklarini kuzatish mumkin. Bunday tadqiqotlarda tilning barcha sathlari birliklari, xususan, so`z va matnning tamoman yangicha talqini va tahlili ustuvorlik qiladi. Bunda lisoniy birliklarning nafaqat til qonuniyatlari, balki jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat, milliy mentalitet kabi omillar nuqtai nazaridan ham tadqiq etilishi til ilmida yangi g`oyalar, yangi ilmiy qarashlar va tamoyillarning yuzaga kelishiga sabab bo`ldi.

N.Yu.SHvedova rus tilidagi 20 ta umumiy mazmuniy kategoriyalarni ajratadi: tiriklik, harakat, vaziyat, predmet, o`lcham, makon, zamon va hkz. Bu kategoriyalar tilning mazmuniy ustunlarini tashkil qiladi hamda olamning lisoniy manzarasining mavhum bosqichi hisoblanadi. Biroq har bir xalqning o`ziga xos obrazli bog`langan mexanizmlari bo`ladi. Bu mexanizm ikkilamchi nominatsiyadagi ma`nolarini tushunishga imkon beradi. Masalan, it so`zi rus tilida salbiy jihatlar bilan birga sodiqlik ramzidir, beloruslarda salbiy belgilar yetakchi, turkiy tillarda it – so`kish so`zga yaqin turadi. Shu o`rinda Rossiyada ta`sil olayotgan mo`g`ulistonlik talabalar haqida bir misolni keltirish maqsadga muvofiq. Talabalarga “It – insonning do`sti” mavzusida matn tuzishni topShiriq berishadi. Shunda mo`g`ul yigit savol beradi: Nega it? Ot deb yozsam bo`lmaydimi? Qolganlar bundan hayratda qolishadi. Mo`g`ul yigit tushuntiradi: It odamga xizmatkor bo`lishi mumkin, ammo do`st bo`lolmaydi.

CHochqa so`zi barcha tillarda salbiy bo`yoqqa ega, ruslarda ifloslik, noShukurlik, tarbiyasizlik, vyetnamliklarda ahmoqlik ramzi bo`lsa, musulmon xalqlarda asosan diniy nuqtayi nazardan salbiy baho berish kuzatiladi.

Shu tariqa it va chochqa so`zlari turi xalqlarda turli xil bo`yoqqa ega, bu esa mazkur xalqlar obrazli tafakkurining o`ziga xosligini ko`rsatadi.

Til va madaniyat ortasidagi aloqa vositasi vazifasini asosan tilda ideallashgan va moddiylashtirilgan ma`no kabi elementlar bajaradi.

«Konsept» termini zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda ko`p uchraydi. Konsept tushunchasiga turli yondashuvlar umumiy lingvo falsafiy asosga tayanadi. Uni asosida Sossyurning til va nutq dixotomiyasi yotadi, yahni «til – nutq» tushunchasi hozirda «tilni anglash – kommunikativ fehl-atvor» deb talqin qilinmoqda. Bunda tilni anglash til tushunchasiga nisbatan keng ma`noda qo`llanadii, chunki tadqiqotchilar ko`p hollarda fenomen bo`lgan va individual ongning verbal Shakldagi holatiga ehtiborlarini qaratadilar. Kommunikativ fehl-atvor bilan nutq orasidagi munosabatga kelsak, bu holatda tadqiqot predmeti kengayganligi kuzatiladi, yahni matndan va uni yozuvda qayd qilingan Shaklidan to biron bir

madaniyatda qabul qilingan xulq-atvor namunalariga ko`ra muloqot jarayonida o`zgarib turadigan kommunikant maqsadlari to`plami, kommunikatsiyani noverbal Shakllari, intertekstual aloqalar va boshqalargacha. Lingvistik tadqiq predmeti mazmun doirasining bunday kengayishi immanent lingvistika bilan ziddiyatiga olib keldi.

Buning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Til haqidagi fanni bunday rivojlanishidagi ijobiy tomonlaridan biri bu bir-biriga yaqin bo`lgan gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalanish, lingvistikani yangi tushunchalar va metodlar bilan boyitish imkoni berilishidir.

Bu o`z navbatida psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika kabi sohalari taraqqiyotiga sabab bo`ldi. Salbiy jihatlarga terminologiyaning noaniqligi va bir fanning turli sohasidagi mantiqiy uzilishlarni misol qilib keltirish mumkin. Yuqorida aytilgan hamma so`zlar «konsept» terminiga ham taaluqlidir.

Zamonaviy lingvistikada konsept tushunchasi nihoyatda turli-tuman. Konsept ong sohasiga mansub va u faqat tavsifiy-tasniflash emas, balki hissiy-iroda va obrazli-empirik xususiyatlarni ega. Konseptlar anglashdan tashqari, kechinmalar orqali hamidrok qilinadi (Stepanov, 1997, 41 b.).

Agar konseptni va tushunchani yaxlit tushuncha deb olgan ba`zi bir tadqiqotlarni inobatga olmasak, lingvistikada konsept tushunchasini anglashda lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvni tan olish kerak (Vorkachev, 2002).

Konsept lingvokognitiv hodisa sifatida – bu «bizni ongimizni mental yoki psixik vositasida, hamda inson tajribasi va bilimida aks etadigan ma`lumot birligidir; xotirani, mental so`z boyligi, miya tili va konseptual tizimini (lingua mentalis), inson psixikasida aks etgan butun dunyoqarashni operativ mazmun birligidir» (Kubryakova, 1996, 90 b.). Konseptlarni bir qismi til bilan bog`liqdir, boshqa konseptlar qismi esa inson psixikasidagi maxsus mental bo`lgan reprezentatsiyalar – obrazlar, rasmlar, sxemalar va b. namoyon bo`ladi (Shu yerda)

Psixolingvistlar uchun konsept – bu «insonni psixik hayotini qonuniyatlariga bo`ysingan tartibsiz bilish va kommunikativ faoliyat yurituvchi individni dinamik xarakterga ega bo`lgan pertseptiv-kognitiv-affektli hosillalardir; va buni natijasida lingvistik nazariya nuqtai nazarida ilmiy tahrifiga maxsuli sifatida maxmun va mohiyatiga ko`ra bir qator parametrlari bilan ajralib turadi» (Zalevskaya, 2001, 39 b.) (Kazakbaeva tarjimasi). Bunda konseptni noverbal tabiati qathiy tahkidlanadi. Bir tomondan konseptni murakkabliligi, ikkinchi tomondan – K.Xardi tahkidlaganidek, har bir konsept «mavjud bo`lgan hamma elementlar va jarayonlar turlarini konstellyatsiyasi hisoblanadi (Shuning uchun har qanday abstrakt tushuncha o`ziga tegishli bo`lgan hissiyot bilan bog`langan bo`ladi) » (tsit. po: Zalevskaya, 2001, s.39) A.A.Zalevskaya bilim va tushuncha kabi individning yutug`i bo`lgan konseptlarni va konseptlarning ilmiy tahrifi mahsuli sifatida mantiqiy ratsional anglangan konstruktlar orasidagi chegaralarini aniq belgilaydi.

Printsiplial jihatdan butunlay boshqa tahrif A.Solomonga tegishli. Uning fikricha, konsept – bu konkret hayotiy tushunchalar asosida hosil bo`lgan abstrakt bo`lgan ilmiy tushuncha (Solomonik, 1995, 246 b.). Bunday yondashuv S.D.Katsnelg`son fikriga mos keladi, yahni izohli lug`atlarda beriladigan kundalik

hayotdagi bilimlarni shakliy va mazmuniy birlamchi tushunchalar bilan moslashni ikkinchi – ilmiy, yahni entsiklopedik dug`atlarda beriladigan bilimlarga qarama-qarshi qo`ygan. A.A.Potebnyaga ko`ra bunday bilimlarni tabaqalash so`zni yangi va qadimgi ma`nosini bir biriga qarama qarshi qo`yishga tayanadi. Kognitiv lingvistikada qabul qilingan modelg` «tasavvur – odatiy tushuncha» hozirgi «tasavvur – odatiy tushuncha – ilmiy tushuncha» Shakliga keltirilmoqda. Odatiy va ilmiy tushunchalar orasidagi farq odatiy tushuncha darajasida o`z tajribasini tartibsiz ravishda umumlashtirishda va u o`z navbatida ilmiy tushuncha darajasida deduktiv va induktiv ishlatilishida aks etadi. Albatta bu darajalar orasida oraliqdagi hodisalarni topish mumkin. Mental mohiyat ham bor, ular hali tassavur ham emas, tushuncha ham emas. Konseptni bunday talqin qilinishi o`z navbatida mantiqiy – semantikdir.

Bizningcha asosli fikr quyidagicha, konsept tushunchaning o`rinbosari, u «hosil bo`lishi mumkin bo`lgan tushunchaga nishon» hamda «insonni avvalgi tajribasining aks sadosi» (Lixachev, 1997, 282 b.), Boshqacha qilib aytganda konsept lug`atlarda berilgan kollektiv emas, individual mazmunga ega. Konseptlar yig`indisi biron bir xalq, albatta shu tilning konseptosferasini hosil qiladi va o`z navbatida dunyoning lisoniy manzarasi deb hisoblanadi.

Lingvomadaniy yondashuv o`z navbatida komponentlari yaxlit bo`lgan madaniy konseptlarni konkretlashgan holda o`rganishdir. Bunda madaniya vakillari uchun qimmatli bo`lgan u yoki bu predmetlarga, hodisalarga, g`oyalarga munosabati inobatga olinadi. Odamlarni xulq-atvorini belgilaydigan qadriyatlar, eng qimmatli belgilar dunyoni lisoniy manzarasini eng muhim qismini tashkil qiladi. Bu qadriyatlar aniq bir butun matnda aks etmagan. Vaholanki etik kodekslar, yahni O`n Ahd kabilar mavjud, ammo ular qadriyatlar orasida juda kam sonlidir. Qadriyatlar madaniyatda uzilgan holda emas, balki bir biri bilan chambarchas bog`langan va ular dunyoviy manzarani qadriyatlarini tashkil qiladi ( lisoniy manzarani bir qismini). Lingvistikada ular madaniy konseptlar sifatida tavsif qilinadi, yahni u yoki bu til Shaklida predmetlashgan jamoa ongida paydo bo`lgan ko`p qirrali, madaniy-ahamiyatli ijtimoiy-psixologik yangiliklardir.

Konseptda eng muhim tomoni – bu «uzluksiz madaniy-tarixiy borliqda mavjud bo`lgan ko`p qirrali va diskretli yaxlit mazmunidir va shuning uchun bir predmet soxasidan ikkinchi soxaga o`tadigan madaniy translyatsiyada (va kulturogen) joylashganligidir» (Lyapin, 1997, 19 s.). Madaniy konseptlarda , bizni fikrimizcha, eng kamida uchta tomonlari bor – obraz (timsol), tushuncha va qadriyat. Shu ma`noda tahkidlash mumkinki, madaniy konseptlar dunyo manzarasini belgilovchi oppozitsiyaga asos bo`lib xizmat qiladi. Ularni farqi birliklarni sonida: oppozitsiyalarni bazasini soni chegaralanganligi, madaniy konseptlarning soni yetarli darajada ko`p bo`lishi mumkin. Bu yondashuvning qimmatli tomoni shundaki, u konseptni samarali tavsifida va o`rganishida psixologik nuqtai nazari asosida tushunishda. madaniy konseptning timsoliy tarkibi psixolingvistik fenomen tarzida konseptni pertsetiv va kognitiv tomonlari korrelyatsiyaga kirishida, ko`rib chiqilayotgan hodisalarda mantiqiy mazmuni tilda namoyon bo`ladi (bunda konseptning ma`no tomonini fatualli deb nomlasa bo`ladi) (Karasik, SlqShkin, 2001,



78 b.). Konseptni tushunish uchun taklif qilinayotgan integral yondashuv shu mental mazmunini turli talqin qilinishida tizimga keltirish imkonini beradi.

Shuni takidlash kerakki, madaniy konseptlar – mazmunan bir xil bo`ladigan hodisa emas. Birinchi navbatda ular jamiyatdagi u yoki bu ijtimoiy qatlamga tahlulqligi bilan ajralib turadi. Boshqacha qilib aytganda, agar jamiyatda ijtimoiy guruhlar aniq ajralib chiqqan bo`lsa, shu guruhlarini konseptosferasi ham mavjud. Etnik xususiyat ajralgan holda mavjud bo`lmaydi, ammo ijtimoiy jarayonda ifodalanadi. Jiddiy gapirsak, individuumni sotsioetnik o`zini anglash tushunchasi mavjud, va bu hodisada madaniy konseptlar ajralib turadi. Shubxasis, gap tilni vulg`gan ijtimoilashuvi xaqida gap ketmayapti, biz rus yoki ingliz erkak va ayollari, yoSh va qarilari, ishchi va bankirlari turli tillarda muloqot qilishadi deb hisoblamaymiz, ularni konseptosferalari sezilarli holda tushunchalar, asosan lug`ataviy ma`nolarida, tuqtai nazarida kesishadi, ammo konseptlar mos kelmaydigan soxalar xam yo`q emas. Individual, mikroguruh, sinflar (va boshqa makroguruhlar)va umummilliy konseptlarni o`zgarishi – bu sotsiolingvistikani istiqbolli vazifasidir. Shunday qilib, sotsiolingvistikani tuqtai nazaridan madaniy konseptlarni eng kamida uch turga bo`lish mumkin: etnomadaniy, sotsiomadaniy i individual – madaniy. Boshqacha chilib aytganda, butun etnomadaniyat, lingvomadaniyat ichidaga u yoki bu guruhlar, va , albatta, individum uchun dolzarb bo`lgan yangi hosil bo`lgan mental tushunchalar bor. Konsept tushunchasini bunday talqin qilishda turli yondashuvlarni birlashtirish imkonini beradi.

Rus etnomadaniyat konseptiga misol qilib “saxiylik”ni olish mumkin – o`zining vositalari, boyligi bilan boshqalar bilan bo`lishi qobiliyati (BTS); bu qobiliyat boshqa xalqlarda ham bor, ammo bu xususiyatni muhimlik darajasi va ongli ravishda tahqiqlash kerak bo`ladigan vaziyatlardagi tahqiqlashlar yo`qligi (mehmondo`stlik sharoitiga mansub bo`lgan tahqiqlashlar) - bu konseptni rus madaniyatining o`ziga hos tanilgan belgisiga aylantiradi. O.A.Leontovich fikricha (Leontovich, 2002), amerikaliklarni lingvomadaniyatini mazmun-mohiyatini belgilovchi eng muhim konseptlar qatoriga mental bo`lgan yangiliklar «self», «`rivacy», «challenge», «efficiency» kiradi. Masalan, *challenge* so`ziga «Jizng` i kultura SSHA» ( AQSH ni hayoti va madaniyati) lingvomamlakatShunoslik lug`atida shunday tahrif berilgan: 1) *vazifa*; 2) *muammo*; 3) *sinov*; 4) *chaqiruv* . Bu so`z – amerikaliklarni milliy xarakterini tushunishda eng muhim so`z; u jasoratni, o`zini sinash uchun o`zini xavf-xatarga borishga tayyor turish, qaltis sarguzashtlar ruhi, raqobatga intilish va hokazolarni bildiradi (Leontovich, SHeygal,1998 ).

Rus lingvomadaniyatida mavjud bo`lgan ijtimoiy konseptga “rahm - Shafqat” misol bo`ladi – ma`no jihatidan keksa yoShdagilar ongida bog`langan; sevish- rahm qilmoq, bunda rahm qilmoq hamdardlik tuyg`usi deb anglanadi, keksa yoShdagilarga xos bo`lgan hamdardlik tuyg`usi bilan birov bilan bog`langanlikni birligini bildiradi, bu hayratomuz narsa emas, betashvish yoShlik xursandchilikga qaratilgan, odatda faqat xursandchilik bilan yashayotgan odam beShafqat bo`ladi. Ingliz tilida gaplashadigan xalqlar madaniyatida keksalarga bog`langanlik uncha namoyon bo`lmaydi, keksalarga nisbatan hamdardlik tuyg`usini ko`rsatish ularga nisbatan kamsitish tuyg`usini bildiradi.

Sotsiomadaniy kontseptlar turlidir. YoShiga nisbatan katta odamlar guruhini birlashtiruvchi, genderli, kelib chiqishi, hamda u yoki bu submadaniyatning kichik guruhlariga mansubligini bildiruvchi – uyuShmalardan to oilalargacha hammasi kontseptlar qatoriga kiradi.

Individual kontseptlar juda ham turli tumandir, bu yerda u yoki bu yozuvchi va faylasufga mansub bo`lgan tayanch iboralarda ifodalangan individual mualliflarning kontseptlarini misol keltirish mumkin. Masalan, Arseniya Tarkovskiyni lirik matnlarida uchraydigan «trava» (o`t - o`lan) so`zi umumtilshunoslikdagi ma`nosi bilan bir qatorda ma`nosi kengayib, Shoirni ijodini sug`oradigan kuch simvoli bo`ldi, anglash manbai keyinchalik esa insonni hayot yo`lini oxiridagi xotira belgisiga aylandi (Cherkasova, 1992). Shunga ehtibor berish kerakki, individual kontseptlar har qanday shaxsni kontseptosferasini bo`linmas qismi hisoblanadi. Ammo agar kontseptlarni individual tomoni dominant bo`lsa, u holda muloqot juda ham qiyin o`tadi. Haqiqatdan ham, biz falsafiy va poetik matnlarda individual ma`noni fahmlab olishimiz kerak.

Individual kontseptlarni boshqa ma`noda - u yoki bu Shaxsni psixotipini aniqlaydigan kontsept sifatida ko`rib chiqish mumkin, masalan, boshqa bir odamlar uchun tinchlik, ko`ngilxotirjamlik, sarishtalik, boshqalar uchun esa – kurash, sarguzashtlar, tavakkalchilik aktuallik kasb etadi. Bunday individual kontseptlar biron bir ijtimoiy guruhning xulq-atvorini dominant bo`ladi va sotsiomadaniyat kontseptiga aylanadi. Muayyan tarixiy sharoitda ular etnomadaniyat kontseptiga aylanadi. Bu holat teskari ham bo`lishi mumkin – kollektivni til ongida kontseptni mohiyatini asta sekin so`nishi, misol uchun beozorlik kontsepti *muloyimlik*, *kechirimlilik*, *itoatkorlik* deb tushuniladi. Zamonaviy lingvomadaniyatda bu xususiyat diniy hayot tarzida taajjub bilan qabul qilinadi. O`tgan davrlarda beozorlik kontsepti kollektiv ongida “kekkaygan” tushunchasiga qarama-qarshi kontsept sifatida faol qo`llangan.

Bundan tashqari kontseptlar obyektini belgilash nuqtai nazaridan turdoSh emas. Bir tomondan, «duSha» (qalb), «zloradstvo» (ichiqoralik), «logos» , boshqa tomondan, - «matreshka» (matreshka o`yinchoq), «kolobok» (bo`g`irsoq), «podhezd» (kirish). S.G.Vorkachevni (2002) fikricha, biz kontsept haqida gapirganimizda abstrakt majdudotlarga nisbatan ishlatamiz, predmetlar kontsept belgisiga kirmaydi. Bu tahkidga qo`shilish mumkin, ammo «matreshka» - bu yog`ochdan yasalgan oddiy qo`g`irchoq emas, balki rus xalqining an`anaviy madaniyati bilan tanish bo`lgan odamlarni bir qator kechirmalardir. Bir qarashda «predmetli kontsept» bir-birini inkor etadigan bo`lsa ham, biz til ongida ba`zi bir predmetlar madaniy ahamiyatga ega bo`lgan ma`no qatorida assotsiatsiya hosil qilsa kontsept mavjud deya olamiz.

Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir, inson bolasi ibtidoiy sezgi organlari va intiho bilmas aqliy zakovati bilan bu murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urynish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi. Mazkur mashaqqat huzurining mag`zu mohiyati shundan iboratki, odamzod Shu tariqa bilish deyiladigan tunganmas jarayonlarning natijasi o`laroq kashf qila borgan unsurlarining yaxlit tizimi

shaklidagi olam manzarasini yaratadi. Odam ongida yaralgan olam manzarasi, tabiiyki, tamoman turg'un, o'zgaras tuzilma emas, u tafakkur taraqqiyoti, jamiyat rivoji, fan yutuqlari, bilish usullarining takomili bilan bog'liq ravishda o'zgarib, mukammallashib borishi mumkin.

Antropotsentriklikni asosiy g'oyasi sifatida ehtirol etgan bugungi tilshunoslikda "olam manzarasi" ayniqsa, "olamning lisoniy manzarasi" tushunchalari markaziy o'rinni egalladi. Hozirgi tilshunoslikda ayrim tadqiqotchilar tomonidan "olam manzarasi" terminiga "borliq haqida ijtimoiy (Shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami" tarzida tahrif beriladi va olamning ikki, yahni 1) bevosita hamda 2) bilvosita manzaralarini farqlash printsipial ahamiyatga molikligi tahkidlanadi.

Bunday qarashga ko'ra, "olamning bevosita manzarasi atrofda borliqning kishilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri bilinishi natijasida yuzaga keladigan manzarasidir. Bilish kishi ixtiyoridagi ham sezgi a'zolari yordamida, ham abstrakt tafakkur yordamida amalga o'shadi, ammo har qanday holatda ham mazkur olam manzarasining ongda "vositachilari" bo'lmaydi va olamni bevosita idrok etishi hamda anglashi natijasi sifatida shakllanadi". Bunday qarash tarafdorlari ayni paytda olamning bevosita manzarasi "milliy ongda yuzaga kelishi"ga urg'u beradilar va bu manzara yaratilish usuli, umumiy metodiga bog'liq ekanligini ham aytadilar. Ana shu usulga ko'ra muayyan bir borliqning, muayyan bir olamning manzarasi farqli bo'lishi mumkinligini tahkidlaydilar/ yahni aqliy va hissiy, dialektik va metafizik<sup>^</sup> materialistik va idealistik, nazariy va empirik, ilmiy va "sodda" tabiiy-ilmiy va diniy, fizikaviy va kimyoviy va hokazo. Olamning bunday manzarasi dunyoni bilish (kognitsiya) natijasi o'laroq ongda shakllanishidan kelib chiqib, mazkur tadqiqotchilar olamning bevosita manzarasini "olamning kognitiv manzarasi" deb nomlaydilar. "Ular ongda mavjud bo'lgan ayni shu olamning kognitiv manzarasini moddiylashtiradigan, "narsalashtiradigan" ikkilamchi belgilar sistemasi vositasida konseptlar va stereotiplarning qayd (ifoda) qilinishi natijasini olamning bilvosita manzarasi sifatida ko'rsatadilar, bunday manzaralar sirasiga olamning lisoniy va badiiy manzaralarini kiritadilar. Shuni ham tahkidlash kerakki, bu tadqiqotchilar noverbal tafakkur, yahni tafakkurning tilsiz voqelanishi haqidagi qarash tarafdorlaridir.

Bu o'rinda keltirilgan fikrga nisbatan jiddiy bir ehtirozni aytib o'tish joiz. Olam manzarasi bevosita (birlamchi) va bilvosita (ikkilamchi) kabi turlarga ajratilar ekan va olamning lisoniy manzarasi bilvosita yoki ikkilamchi manzara sifatida talqin qilinar ekan, o'z-o'zidan olamning kognitiv manzarasi shakllanishida tilning o'rni tamoman inkor qilingandek bo'ladi. Biz ehtiroz bildirayotgan fikr mualliflarining o'zlari olamning bevosita manzarasi "milliy ongda yuzaga kelishi"ni tahkidlaydilar, shubhasizki, milliy ong milliy tilsiz mavjud bo'la olmaydi, bu esa tilshunoslikda ehtirof etib bo'lingan haqiqat. Aksariyat tadqiqotchilar tilning bilish jarayonlaridagi rolini faqat mavjud mental tushunchalarni, tayyor konseptlarni kodlash, ifodalash bilan chegaralash ilmiy haqiqatga zidligini, inson aqliy va ruhiy faoliyatining biron-bir ko'rinishi tilsiz amalga o'sha olmasligini, faqat tilga ko'ragina ong tuzilishi haqida bilish mumkinligini tahkidlaydilar<sup>4</sup>. Tabiiyki, ong jarayonlarini, tafakkur faoliyatini tilga tamoman aloqasiz hodisalar sifatida talqin qilish har qanday ilmiy

mantiq muvozanatini ishdan chiqaradi. SH.Safarov juda o`rinli tahkidlaganiday, "aslida "noverbal tafakkur"ning qanday yuzaga kelishini tasavvur qilish qiyin, chunki borliq haqidagi fikrni faqat lisoniy shakllar vositasida o`qiy olamiz". Olam manzarasidagi markaziy tushunchalardan biri "konsept" ekanligi va mazkur manzara ana shu konseptlardan tarkib topgan yaxlit "konseptosfera"ligi bugungi fanda barqaror nazariyaga aylandi. Ammo konsept qanchalik mental, ongga oid tushuncha bo`lmasin, uni tildan, milliy-madaniy unsurlardan butunlay xoli bo`lgan tushuncha sifatida tahriflash to`g`ri bo`lmaydi. Chunki "konsept mundarijasida til sohiblarining dunyoqarashi va boshqa turli milliy-madaniy belgilarning aks topishi muqarrar. Milliylik va madaniylikning kuchi shundaki, hatto umuminsoniy ahamiyatga ega bo`lgan konseptlarning mundarijasi ham turlicha qo`shimcha konnotativ ma`no bo`laklariga ega bo`lishi mumkin".

Ammo taassuf bilan tahkidlash lozimki, so`nggi qisqa bir fursatda xorijiy tilshunosliklarda, shuningdek, o`zimizdagi xorijiy filologiya ilmida kognitiv yondashuv va undagi mental tushuncha va jarayonlar tadqiqi, xususan, konsept talqinlari "moda"ga kirdi, kognitologiyaning bevosita mohiyatiga ko`ra, kishi ongidagi mantiqiy va psixik jarayonlarning, ta`bir joiz bo`lsa, "g`ayrilisoniy" izohlari ustuvorlik qila boshladi. Buni yaxshi, ilg`agan tadqiqotchilar rus tilidagi tilshunoslik ilmida bugungi kunda kognitiv va konseptual "Shov-Shuv" yetakchilik qilayotganini, rus tilidagi eng yangi lingvistik tadqiqotlarning aksariyatida "konsept" so`zining qo`llanishi birinchi o`ringa chiqqanligini afsus bilan aytmoqdalar, hazilga moyil mutaxassislar kinoya bilan tilshunoslar orasida "konseptovit" degan kasallik tarqalgan deb mutoyiba qilayotganini ham qayd qilmoqdalar. Ularning quyidagi fikrlariga ham qo`shilmaslik mumkin emas: "Bugun Shu narsa aniq bo`ldiki, til, haqiqatan ham, antropotsentrik, etnotsentrik va egotsentrig`dir. Tilshunos esa mantiq va psixologiyaga, kognitiv va kommunikativ fanlarga qanchalik ehtiborli bo`lmasin, ularning ma`lumotlaridan foydalangan holda lingvotsentrik bo`lmog`i shart".

Hozirgi antropotsentrik tilshunoslikka, demakki, uning bag`rida shakllangan lingvoMadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik kabi yo`nalishlarning paydo bo`lishiga dastlabki asos sifatida xizmat qilgan V.Gumbolg`dt va uning izdoShlari (L.Veysgerber, E.Sepir, B.Uorf va boshqalar)ning qamrovli g`oyalarida tilning dunyoni bilishdagi o`xshashsiz roli ko`rsatib berilgan. Ular tillar orasidagi mavjud sezilarli semantik farqlarga asoslanib, til insonlarning tafakkuri va bilish jarayonini va shu tariqa ularning ongida paydo bo`ladigan dunyoqarash va yaxlit olam manzarasini belgilab berishi haqidagi xulosaga kelganlar. Bu xulosaning mohiyati shuki, turli tilda gapiradigan odamlar olamning bir-biridan farqli manzaralarini yaratadilar, dunyoni farqli tarzda idrok etadilar.

Albatta, har bir xalqning o`ziga xos milliy tafakkur tarzi mavjud. Mashhur amerika tilshunosi Benjamin Li Uorf «Agar Ng`yuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o`ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo`lardi» degan g`oyani ilgari surganida, ana shu ingliz tili asosidagi o`ziga xos ingliz tafakkur tarzini nazarda tutganligi tabiiy. "Til orqali reallashadigan tafakkur tarzining o`ziga xosligi borliqni ko`rishning, idrok etishning ham ma`lum ma`nodagi o`ziga xosligidir. Har bir xalq o`zicha ko`radi, eshitadi, zavqlanadi.

Misol uchun, chittak degan qush nomini olaylik. Bu qushni nomlashda o`zbek uning harakatini asos qilib olgan. Bu qush tez harakat qiladi («chit-chit»), o`zbek shu harakatni dastlab ko`rgan bo`lsa, rus kishisi bu qushning rangini dastlab ko`rgan. U ana shu rangni nomga asos qilib olib, ayni qushni sinitsa deb nomlagan. Yoki o`zbek tovuqning bolasi chiqaradigan tovuShni "jip-jip" tarzida eshitadi, shuning uchun uni jo`ja deb ataydi. Rus esa «tsip-tsip» deb eshitgani uchun uni tsiplyonok so`zi bilan ataydi. Bu juda oddiy misollar, aslida har bir xalqning dunyoni o`zicha ko`rishi va eshitishi, idrok etishi behad murakkab tarzda kechadi".

Ko`pincha tilni ko`zguga mengzaydilar, go`yoki til ko`zgu kabi mavjud narsalarni qanday bo`lsa, shundayligicha, hech bir o`zgarishsiz, aynan aks ettiradi. Aslida esa to`lig`icha shunday emas, til dunyoni aks ettirar ekan, mutlaqo tabiiy ravishda unga o`zidan ham nimalarnidir "qo`shadi" unga o`ziga xos Shamoyil va tartibot beradi. V.M.Shaklein aytganiday, "tilni "olamning ko`zgusi" deyishga asos bor, ammo bu ko`zgu ideal emas, chunki u dunyoni bevosita emas, balki odamlar jamoasining subyektiv bilishi, idroki kesimida aks ettiradi".

Yana bir bor tahkidlash joizki, olamning lisoniy manzarasini inson ongida mavjud olam manzarasining til vositalari orqali shunchaki aks etishi natijasi sifatida talqin qilish tilday bemisl qudratni benihoya jo`nlashtirishdan boshqa narsa emas. Olamning kognitiv manzarasining bunyod bo`lishida, umuman, bilish (kognitsiya) deyiladigan izchil amalning muayyan maqsad manziliga yetishida til quyushqonining qathiy qoidalaridan aslo ko`z yumib bo`lmaydi. Shuning uchun ham kognitiv tilshunoslikda til inson miyasida amalga o`shadigan barcha mental jarayonlarni, inson ongini anglashning vositasi sifatida qaraladi, lisoniy birliklar o`z-o`zicha emas, balki ular aloqalangan kognitiv tuzilmalar bilan birgalikda o`rganiladi; bilimlarning ortishi va taraqqiy qilishiga olib keluvchi barcha jarayonlarda tilning mutlaq roli ehtirol etiladi.

Falsafiy, badiiy, ilmiy kabi olamning turli manzaralarida tilning o`rnini va ayni paytda bu manzaralarning tildagi o`rnini aslo inkor etib bo`lmaydi. Tadqiqotchilar haqli ravishda tahkidlaganlaridek, til olam manzarasi bilan bog`liq ikki jarayonda bevosita ishtirok etadi, yahni, birinchidan, inson Shuuridagi olam manzarasining eng teran qatlami bo`lmish olamning lisoniy manzarasi aynan til bag`rida shakllanadi; ikkinchidan, tilning o`zi insondagi olam manzaralarining boshqa turlarini ifodalaydi va namoyon (eksplikatsiya) qiladi; Shu tariqa alohida individlar tomonidan qo`lga kiritilgan tajribaviy bilimlar faqat til yordamida jamoa (xalq) tajribasiga, jamoa mulkiga aylanadi. Shuning uchun ham olamning lisoniy manzarasining alohida maqomga ega ekanligini aytish maqsadga muvofiqdir. Ayrim tilshunoslarning bu boradagi quyidagi fikrlarida ayni haqiqat o`z aksini topgan: "Olamning lisoniy manzarasi maxsus olam manzaralari (kimyoviy, fizikaviy va boshqalar) bilan bir qatorda turmaydi, olamning lisoniy manzarasi ulardan oldin bo`lib, mazkur manzaralarni shakllantiradi, chunki inson til 'tufayligina olamni va o`zini anglash qobiliyatiga ega... Tilning o`ziga xosligiga ko`ra uning sohiblari ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi paydo bo`ladi, chunki inson til prizmasi orqali dunyoni ko`radi". Demakki, xalqning dunyoni milliy ko`rish tarzi va idrok intizomi, eng avvalo, shu xalqqa oid olamning lisoniy manzarasida qayd etiladi.

Olamning lisoniy manzarasi tegishli til jamoasi ongida tarixan Shakllangan va uning tilida barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlar, dunyoni anglash va bo`lamlash usullarining jami bo`lib, u mazkur til sohiblarining barchasi uchun odatiy, tabiiy va majburiydir. Ayni shu odatiylik, tabiiylik va majburiylik olam lisoniy manzarasining bardavomligini, tarixiy davrlararo til jamoasida (qavm, xalqda) tirikligi va vorisiyligini, avloddan avlodga o`tib kelaverishini tahminlaydi.

Shubhasizki, olamning lisoniy manzarasi yaralishi va tashakkulida til sathlarining barchasi ishtirok etadi. Shunga qaramasdan, olam lisoniy manzarasining yaralishi va aks etishida tilning, ayniqsa, lug`at boyligi, yahni leksik(-frazologik) sathning alohida o`rin tutishini tahkidlash joiz. O.A.Kornilov har bir konkret til o`z lug`ati bilan milliy o`ziga xoslikka ega bo`lgan o`z lisoniy manzarasini namoyon qilishini ishonarli tarzda asoslab bergan. Bugungi tilshunoslikda kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida barcha xususiy fanlar tomonidan ishlab chiqilgan olam haqidagi bilimlarning jami "olamning ilmiy manzarasi" nomi bilan umumlashtiriladi va barcha xalqlar uchun yagona invariant mazmunga ega bo`lgan bunday olam manzarasi har bir milliy tilda milliy terminologiyaning Shakllanishi vositasida milliy ifoda shakllariga ega bo`lishi tahkidlanadi. Muayyan fan tarmog`iga daxldor olam manzarasining lisoniy inhiko si "olamning kasbiy lisoniy manzarasi" tarzida nomlanadi va umuman olamning milliy ilmiy manzarasidagi kabi uning asosini mazkur fan tarmog`iga oid terminologiya tashkil etishi qayd etiladi. Umuman, olamning lisoniy manzarasining bunyod bo`lishida tilning lug`at boyligi, shu jumladan, terminlar, shuningdek, frazeologik iboralarning alohida o`rin tutishi hozirgi antropologik tilshunoslikda ehtirol etib bo`lingan qoidalardandir.

Shu narsa ham eski haqiqatki, yer yuzida tamoman sof, boshqa bir tildan so`z yoki termin o`zlashtirmagan birorta til yo`q. Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida turli, uzoq-yaqin xalqlar o`rtasidagi turli darajadagi aloqalarning tabiiy natijasi o`laroq bu xalqlar tillarining biri boshqasiga ta`sir ko`rsatgan, ularning biridan boshqasiga, ko`pdir-kamdir, muayyan miqdordagi so`z o`tgan^ albatta; bu jarayonlar tabiiy-ixtiyoriy ravishda yoki ba`zan majburiyat-tazyiq ostida voqelanganligi ma`lum. Bu jarayonlarga tilshunoslarning, filologlarning, umuman, ziyolilarning munosabatlari hech bir zamonda aynan bir xil bo`lgan emas, bu hodisani ayrimlar tilni boyitishga xizmat qiladigan ijobiy jarayon sifatida baholasalar ba`zilar tilning sofligiga putur yetkazadigan tamomila zararli hodisa sifatida talqin qiladilar. Bunda ko`pincha keragidan ortiq radikalizm ko`zga tashlanadiki, bu xorijiy so`zni o`zlashtirishda me`yor masalasini; obyektiv omillarni,tilning tabiiy taraqqiyot tamoyillarini ehtiborga olmaslik natijasidir.

Ona tilini har qanday ochiq yoki pinhoniyl sun`iy-siyosiy zug`umlardan, tilning milliy-tabiiy tabiatiga yot bo`lgan ta`sirlardan, uning o`z yurtida emin-erkin yashashday qonuniyl xuquqini poymol etuvchi har qanday g`irrom harakatlardan qo`rish, asrab-avaylash bu tilda alla eshitgan faqat olim emas, balki odam bo`lganlarning ham barchasi uchun farzdir. Shuning uchun ham Yurtboshimiz rahnamoligida o`zbek tilining davlat tili maqomini kafolatlagan, bu tilni har qanday qutqudan qo`riqlaydigan "Davlat tili haqida"gi qonunimiz bilan istiqlolga qadam qo`ydik.

Dunyoning ko`plab mamlakatlarida o`z tillarining sofligini saqlash borasida jiddiy ishlar olib borilmoqda. Bunda asosiy sahy-harakatlarning bosh yo`nalishi xorijiy so`zlarning o`zlashtirilishini qonun yo`li bilan cheklashga qaratilayotgani ham bejiz emas. Masalan, Isroilda xorijiy o`zlashmalarning ivrit adabiy tilida qo`llanishini taqiqlovchi qonun mavjud bo`lib, u hukumat huzuridagi Ivrit tili akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, Frantsiyadagi til haqidagi qonunchilik ingliz tilidan o`zlashgan leksikaning savdo-reklama mahsulotlarida qo`llanishiga yo`l qo`ymaydi. Bunday misollar juda ko`p.